

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

BOLALAR ADABIYOTI

MAJMUA

(Pedagogik yo'nalishdagi kollejlar uchun)

Tuzuvchi-muallif: MAMASOLI JUMABOYEV



„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2004

Har tomonlama barkamol yangi avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish davlatimizning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biridir. Masalaga shu nuqtayi nazardan qaraladigan bo‘lsa, yoshlar ta’lim-tarbiyasida bolalar adabiyoti yetakchi o‘rinda turadi. „Bolalar adabiyoti“ majmuasi hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, pedagogik yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejlari uchun chop etilgan „Bolalar adabiyoti“ darsligi asosida tuzilgan. Unda bolalar folklori, hozirgi zamon bolalar adabiyotining paydo bo‘lishi, rivojlanishi, bosib o‘tgan yo‘li atroficha tahlil qilinadi.

Majmuada bolalar folklori janrlaridan parchalar, o‘zbek bolalar adabiyotining atoqli vakillari hamda jahon bolalar adabiyoti namoyandalarining qisqacha tarjimayi hollari, ularning asarlaridan namunalar berilgan.

J **4803000031—174**
353(04)—2004 Buyurtma var.—2004

ISBN 5—645—04284—0

© „O‘qituvchi“ NMIU, 2004



O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi namunalari yozma adabiyotning maydonga kelishi va rivojlanishida boy manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, badiiy adabiyot taraqqiyoti jamiyatning umumiy rivoji bilan ham uzviy bog'liqidir. Bu jihatdan Mahmud Koshg'ariyning „Devoni lug'atit turk“ asarini eslash o'rinnlidir. XI asrning buyuk tilshunos olimi o'z kitobiga juda ko'p ma'lumotlarni jamlagan. Kitobda XI asr adabiyoti bilan birga, avvalgi zamonlarda paydo bo'lib, og'izdan og'izga, avloddan avlodga ko'chib yurgan maqollar, rivoyatlar, qo'shiq va lirik she'rlardan namunalar keltirilgan. Ayniqsa, mehnat, qahramonlik, marosim, mavsum qo'shiqlari haqida bat afsil ma'lumotlar beriladi.

Shuningdek, Urxun—Enasoy obidalarida, Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“ („Saodatga olib boruvchi bilim“), Ahmad Yugnakiyning „Hibat-ul haqoyiq“ („Haqiqatlar armug'oni“) dostonlarida hamda Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniylarning asarlarida til, ilm, fan, axloq-odob masalalari keng qamrab olinadi. Haydar Xorazmiy, Qutb, Durbek, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy singari shoirlarning xalq turmushini, orzu-armonlarini yorqin aks ettirgan asarlari adabiyotimiz tarixida muhim rol o'ynadi. Bu mumtoz shoirlar ijodi Alisher Navoiydekkuyuk san'atkorning voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni tayyorladi.

Alisher Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxtsaodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o'zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi. U adolatparvar, donishmand davlat arbobi, o'zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan buyuk so'z san'atkori sifatida, davrning madaniy hayotiga rahnamo bo'ldi, ilm-fan, san'at va adabiyot ahllariga homiylik qildi, ko'plab shogirdlar yetishtirdi.

XV—XVI asrlarda yashab, ijod etgan Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarida o'sha davr hayotiga doir tarixiy voqealar bilan birga, ilm-fanga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan, turli xalqlarning urf-odatlari, tili, san'ati va adabiyoti yoritilgan.

XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshlarida yashab, ijod etgan ikki buyuk shoir Muhammadniyoz Nishotiy va Muhammad Sharif

Gulxaniylar ijodi mumtoz adabiyotimiz tarixida alohida ajralib turadi. Nishotiyning xalq og'zaki ijodi asosida yaratgan „Husn-u dil“ dostoni ishq-muhabbat, aql-farosat, odob-axloqqa bag'ishlangandir. Shu narsa diqqatga loyiqliki, dostonda har biri mustaqil asar bo'la oladigan „Shohboz va bulbul“, „Gul va Daf“, „Nay va Shamshod“, „Binafsha va Chang“ kabi masallar ham berilgan. Bu masallarning barchasi el-yurtga foyda keltirish, maqtanchoq bo'lmaslik, ortiqcha kibr-havoning zarari kabi mavzularning yoritilishi jihatidan bolalar uchun ibratlidir.

Gulxaniy ham „Zarbulmasal“ asarida o'zining muhim ijtimoiy qarashlarini, el-ulus taqdiriga munosabatini hayotiy timsollar orqali ifodaladi.

Munis mehnatkash xalqning og'ir ahvoliga qattiq achindi, ilm-fan va adabiyot ahlining xor-zorligidan qayg'urdi. Sho'r kishilarni bilim olishga, kitob o'qishga, johil va yomonlardan uzoq bo'lishga chaqirdi. Munis „Savodi ta'lim“ risolasi orqali bolalarni o'qitish va tarbiyalash ishiga katta hissa qo'shdi. Uning ma'rifat-parvarlik g'oyalari Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Komil Xorazmiy, Zavqiy, Avaz O'tar kabi shoirlarga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Ma'rifatparvarlikni bayroq qilib ko'targan Abdulla Avloniy, Behbudiy, Hamza, Fitrat, Munavvarqorilar tomonidan yozilgan darslik va qo'llanmalarda bolalar hayoti, o'qishi, axloq-odobi haqida materiallar beriladi.

Abdulla Avloniy („Birinchi muallim“, „Ikkinci muallim“, „Maktab gulistoni“, „Turkiy guliston yoxud axloq“), Hamza Hakimzoda Niyoziy („Yengil adabiyot“, „Axloq hikoyalari“, „Qiroat kitobi“) asarlarida yangi davr nafasi ufura boshladi.

20- yillarda Fitrat, Cho'lpon, Elbek, Botu, G'afur G'ulom, G'ayratiy, Shokir Sulaymon, Oybek va boshqalarning kichkitoylar uchun yozgan asarlarida bolalarni yaxshi o'qishga, ilm-fan nurlaridan bahramand bo'lib, davrning haqiqiy o'g'il-qizlari sifatida kamol topishga targ'ib etdilar.

Bolalar adabiyoti yildan yilga rivojlanib bordi. 30- yillarga kelib, she'riyatda Zafar Diyor, Adham Rahmat, Ilyos Muslim, Shukur Sa'dulla, Sulton Jo'ra, Mahmuda Oqilova, Quddus Muhammadiy, nasrda Majid Fayziy, Dorjiya Oppoqova kabi bolalar ijodkorlari yetishib chiqdilar, Sadriddin Ayniy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Elbek, Shokir Sulaymon va G'ayratiylar ham o'zbek bolalar adabiyotini yuksaltirish ishiga munosib hissalarini qo'shdilar.

Bu davrda qardosh xalqlar adabiyotidan ko‘plab asarlar o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Natijada o‘zbek bolalar adabiyoti har tomonlama boyib bordi. Ayniqsa, „Yer yuzi“, „Bolalar yo‘ldoshi“, „Bolalar dunyosi“, „O‘zgarishchi yoshlari“, „Yosh kuch“ kabi oynomalar chiqishi bolalar adabiyotining har tomonlama rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Uning mavzu doirasi kengaya bordi. Yoshlik, maktab hayoti, ona yurt tabiatni, xalqlar do’stligi, ilm, hunar va texnikaga muhabbat mavzulari bolalar adabiyotidan keng o‘rin oldi.

Xalqimiz boshiga ko‘p musibatlar, jabr-u jafolar solgan ikkinchi jahon urushi yillarida urushni va yovuzlikni qoralovchi ko‘plab otashin she’rlar, dostonlar yaratildi.

So‘nggi davrda bolalar she’riyatida ona-Vatan, go‘zal diyor, hur o‘lkamiz to‘g‘risida yaratilgan asarlar diqqatga sazovordir. „Yashna, Vatan“ (I. Muslim), „Obod o‘lkam“, „Yurtimizning yuragi“ (P. Mo‘min), „Mening Vatanim“, „Baxtli bolalar“ (Q. Hikmat), „O‘lkamizning tonggi otmoqda“ (A. Rahmat), „Dehqon bobo va o‘n ikki bolakay qissasi“ (A. Oripov), „Ona degan so‘z“ (O. Matjon) va boshqalar.

Bu mavzuda yaratilgan asarlar ichida Abdulla Ori povning „Dehqon bobo va o‘n ikki bolakay qissasi“ she’ri ajralib turadi. O‘zbekiston haqida ko‘plab asarlar bor. A. Oripov ularni takrorlamasdan, o‘ziga xos yorqin asar yozgan. She’r qahramonlari o‘n ikki viloyatdan chiqqan a’lochi, jamoatchi o‘quvchilar. Ular o‘z joylarining tarixini yaxshi bilishadi. Poyezdda o‘zlariga hamroh bo‘lgan boboning savollariga lo‘nda-lo‘nda javob berishadi. O‘zbekistondagi har bir viloyatning o‘ziga xos boyligi, shaharlari, bag‘ri keng odamlari kitobxon ko‘z o‘ngida bir-bir gavdalananadi.

O‘zaro suhbat asosiga qurilgan bu she’rdagi boboning yakuniy so‘zi ham salmoqli. Unda tobora gullab-yashnab borayotgan, mustaqil, o‘z taqdirini yaratayotgan diyorimizning husn-jamoli, qudrati yaxlit ifoda etilgan:

*Siz atagan har bir joy
Bitta bo‘ston bo‘ladi.
Hammagini qo‘shsangiz,
O‘zbekiston bo‘ladi.*

O‘zbek xalqi azaldan mehnatkash xalq. Ishchanlik bizga otabobolarimizdan meros bo‘lib qolgan. Q. Muhammadiyning „Etik“, „Buvimning hikoyasi“; H. Yoqubovning „Sirdaryo oftobi“; Shukur Sa’dullaning „Hovlimizning bolalari“, „Dastyor qiz“,

„Bog‘bon qiz“; Ilyos Muslimning „Oyxon va rayhon“, „Ishchan asalarilar“, „Sening sovg‘ang“; Po‘lat Mo‘minning „Dalalarga qarasam“, „Oftob chiqdi olamga“; Qudrat Hikmatning „Bobo va nabira“, „Jo‘jam, yurma laqillab“; Tolib Yo‘Idoshning „Vaqt qadri“; Yusuf Shomansurning „Baraka“, „Tikuvchi“; Tursunboy Adashboyevning „Shanbalik“; Rauf Tolibning „Bobo xursand, Nodira xafa“; Qambar Otaning „Mehnatdan zavq olaman“ she’rlari bevosita mehnat mavzusiga bag‘ishlangan.

Tinchlik va do‘stlik. Bu ikki so‘z bir-biriga egizak. Bolalar adabiyotida tinchlik va do‘stlik mavzusi muhim o‘rin tutadi. G‘afur G‘ulom („Kaptar uchar, g‘oz uchar“, „Tinchlik arafasi“), Q. Muhammadiy („Urushga yo‘l bermaymiz“), Sh. Sa’dulla („Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she‘r“), I. Muslim („Do‘stlik“), Q. Hikmat („Tinchlik haqida qo‘shiq“), Shuhrat („Tinchlik allasi“, „Do‘stlik gul“), Mardonqul Muhammadqulov („Uch kaptarim, uch“), Yusuf Shomansur („Orzular bir“), Safar Barnoyev („Biz bolalar“), Tursunboy Adashboev („Do‘stlik“) kabi shoirlar kitobxonlarni tinchlik va do‘stlik ruhida tarbiyalashga barakali hissa qo‘shdilar.

Hozirgi zamон bolalar adabiyotida o‘nlab balladalar, ertaklar, dostonlar maydonga keldi. Oybekning „Zafar va Zahro“, „Bobom“; Q. Muhammadiyning „Dunyoda eng kuchli nima?“, „Solijon“; Shukur Sa’dullaning „Laqma it“, „Ikki donishmand“; Po‘lat Mo‘minning „O‘rinbosarlar“, „Eh, rosa shirin ekan“, „Xolning jiyyron velosi pedi“, „Oltin nay“, „Jalil eshitgan ertak“; Qudrat Hikmatning „Toshbaqalar hujumi“, „Bobo dehqon hangomasi“, „Chovkar“, „Chirchiq farzandi“; Ramz Bobojonning „Cho‘pon o‘g‘li“; Safar Barnoyevning „Biz dehqon bolasimiz“, „Oltin shahar haqida afsona“, „Oltin oshiqlar“; Miraziz A’zamning „Aqlli bolalar“, „Bedananing buvisi“; Tursunboy Adashboyevning „Dovonlar“, „Harflarning sarguzashti“; Tosho‘lat Hamidning „Asrорquning qo‘chqori“; Ergash Rayimovning „Bir dona yaproq“; Rauf Tolibning „Sehrgar do‘stim bor“, „Maqtanchoq“; Usmon Azimning „G‘aroyib ajdarho“; Kavsar Turdiyevaning „Toshkesarlar mamlakatida“ kabi poema va ertak-dostonlari yaratildi.

Shoir Po‘lat Mo‘min „Ko‘ngil istar yaxshilik“ asarida bolalar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik, o‘qituvchi va jonajon mакtabga muhabbat, birdamlik masalalarini ilgari suradi. Bolalar hayotida sodir bo‘ladigan yutuq va kamchiliklar badiiy bo‘yoqlarda, qiziqarli lavhalarda chizib beriladi. Bir so‘z bilan aytganda, maktab o‘quvchilarining jozibali hayoti zavq-shavq bilan tasvirlanadi.

Hozirgi zamон o'zbek bolalar nasridа ham salmoqli asarlar yuzaga keldi. Yozuvchilarning yangidan - yangi avlodi kamol topdi. Bolalarning yoshi, qiziqishi, dunyoqarashiga to'la javob bera oladigan ko'plab hukoyalar yaratildi. Hakim Nazir, Yoqubjon Shukurov, Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Turg'unboy G'oi pov, Rahmat Azizxo'jayev, Latif Mahmudov, Farhod Musajon, Sobir Yunusov, Oqiljon Husanov, Mahmud Murodov, Ergash Rayimov, Safar Barnoyev, Abdusaid Ko'chimov, Anvar Obidjon va boshqalarning maktab yoshidagi bolalarga mo'ljallangan qissa va hikoyalar to'plamlari bosilib chiqdi.

Juda ko'p hikoyalarda kichkintoylar hayotidagi turli sarguzashtlar va ziddiyatlar o'z ifodasini topmoqda. Shodmonbek Otaboyevning „Itolg'i“ hikoyasi qush, qurt-qumursqlarni sevish, ardoqlashga qaratilgan. Itolg'i chumchuq va chug'urchuqlarni tutib olib yeydigan qush. Shukurali aka itolg'ini jiyani Shavkatga sovg'a qiladi. Shavkat uzum qo'riqlashda undan foydalanmoqchi edi. Ammo qush ularnikida o'zini erkin sezmaydi. Buning sababini surish-tirganda Shavkatning otasi bu jonivor ozodlik va erkinlikni qo'm-sayotganligini tushuntiradi. Shavkat qushlarni yaxshi ko'radigan, rahmdil bola. U itolg'ini qafasda uch kun zo'rg'a ushlab turadi. Qafasda qush emas, o'zi o'tirgandek bo'ladi va itolg'ini qafasdan butunlay chiqarib yuboradi. Qush bolaga rahmat, degandek aylanib uchib ketadi.

Bolalar qissachiligidа Oybек, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim kabi ulug' adiblarning hissasi katta. Shuningdek, Hakim Nazir, Shukur Sa'dulla, Xudoyberdi To'xtaboyev, Latif Mahmudov, Nosir Fozilov, Farhod Musajon Mahkam Mahmud, Hojiakbar Shayxov, Anvar Obidjon, Habib Po'latov, Muqimjon Niyoziy, Rustam Rahmonov, Shukur Xolmirzayev, Oqiljon Husanov, Mamatqul Hazratqulov kabi yozuvchilarning asarları ham sevib o'qiladi.

Bu davr bolalar qissachiligidа sarguzasht, ilmiy-fantastika janrlari ham rivoj topdi. Xudoyberdi To'xtaboyev („Sariq devni minib“, „Qasoskorning oltin boshi“, „Shirin qovunlar mamlatida“), Hojiakbar Shayxov („Samo mehvaridagi namoyish“, „Shom kamari“, „Ajdodlar xotirasi“), Mahkam Mahmud („Teskari ko'zlar sayyorasi“), Anvar Obidjon („0099 nomerli yolg'onchi“, „Dahshatli Meshpolvon“), Oqiljon Husanov („Tog'da o'sgan bola“), Olloyor („Fazogir chumoli“) va boshqalar bu janrda samarali ijod qilmoqdalar.

Bolalar tarbiyasida dramaturgiya janrida yaratilgan asarlar ham katta rol o'ynaydi. Hakim Nazir, Adham Rahmat, Po'lat Mo'min, Mamarasul Boboyev, Turg'unboy G'oyipov, Narimon Orifjonov, Latif Mahmudov, Farhod Musajon, Ravshan Yoriyevlarning yesalari kichkintoylar quvonchiga quvonch qo'shib kelmoqda.

Mustaqil mamlakatimizda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo'lagi bo'lgan bolalar adabiyotining rivojlanishi, har tomonlama boyib borishida jahon bolalar va o'smirlar adabiyotidan qilingan badiiy tarjimalarning o'rni, ahamiyati katta. Negaki tarjima asarlarini o'qigan har bir yosh kitobxonning dunyoqarashi, fikri, tasavvuri boyib, o'sha xalqlarning yashash sharoitlari, urchodatlari, orzu-tilishlari bilan oshno bo'ladi.

Asrlar osha xuddi ertak kabi eldan elga, tildan tilga o'tib, dillarni yashnatib yurgan „Qizil shapkacha“ (Sh. Perro), „Robinzon Kruzo“ (D. Defo), „Guliverning sayohatlari“ (J. Swift), „Dyuymchaxon“ (X. Andersen), „Oltin baliq“ (A. S. Pushkin), „Tom Soyerning boshidan kechirganlari“, „Shahzoda va gado“ (M. Tven), „Kapitan Grant bolalari“, „Ostin-ustun“ (J. Vern), „Don Kixot“ (J. Servantes) kabi asarlar yosh qalblarda olamga nisbatan qiziqishlarini jo'sh urdirib yuboradi.

XX asrda ijod etilgan „Maugli“ (R. Kipling), „Kichkina Shahzoda“ (A. de Sent-Ekzyuperi), „Katta va kichik Karlson“ (A. Lindgren), „Toshkent—non shahri“ (A. Neverov), „Vinni Pux“ (A. Miln), „Ahmoq sichqoncha haqida ertak“ (S. Marshak), „Uch baqaloq“ (Yu. Olesha), „Quvnoq jalbaqlar“ (B. Kerboboyev), „Doktor Voyjonim“ (K. Chukovskiy), „Temur va uning komandasasi“ (A. Gaydar), „Chipollinoning sarguzashtlari“ (J. Rodari), „Styopa amaki“ (S. Mixalkov), „Kim bo'lsam ekan?“ (V. Mayakovskiy), „Bilmasvoy quyosh shahrida“ (N. Nosov) singari olam kezib yurgan asarlar o'zbek kitobxon bolalarida katta taassurot qoldirmoqda.

Yuqorida tilga olingan asarlar yosh kitobxonni nimalargadir o'rgatadi, nimalargadir da'vat etadi. Bu asarlarning ko'pchiligidagi ona-Vatanga muhabbat, uning ozodligi va baxti uchun jon fido qilish („Uch baqaloq“), noshukur bo'lmashlik, ota-ona pand-nasihatiga qulooq solish („Ahmoq sichqoncha haqida ertak“), inson va insonga mehr („Maugli“), tabiatni asrash, hayvonot olamini sevish („Doktor Voyjonim“), odamlar xizmatini qilish, beminnat yordam ko'rsatish („Temur va uning komandasasi“), o'ziga pishiq-puxta bo'lish, ichki sirlarni o'zgalarga oshkor qilmaslik („Qizil

Shapkacha“), namunali o‘qish, kasb-hunar egasi bo‘lish („Kim bo‘lsam ekan?“), sergak, zukko, quvnoq bo‘lish („Quvnoq jalbaqlar“) dek ololyanob g‘oyalarning yotishi bolalarning tarjima asarlariga nisbatan bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqlarini oshiradi.

Butun jahon bolalari taniyidigan italyan yozuvchisi Janni Rodari (1920—1980) qalamiga mansub „Chipollinoning sarguzashtlari“ asarini huzur qilib o‘qimagan o‘zbek kitobxoni bo‘lmasa kerak. Chipollino Chipolloning o‘g‘li. Uning yettita akasi ham bor edi. Chipolletto, Chipollootto, Chipollochcho, Chipolluchcho kabi mashhur piyoz xonadoni o‘g‘illari shular jumlasiga kiradi. Ayonki, qayerda piyoz bo‘lsa, o‘sha yerda ko‘zlarda nam bo‘ladi. Chipollinolar uncha keng bo‘limgan bir yashikdek joyda istiqomat qilar edilar. Mabodo uylarining oldidan olifta zodagonlar o‘tib qolgudek bo‘lsalar, darhol dastro‘mollari bilan burunlarini berkitib, ko‘zlaridan yosh oqizib o‘tib ketardilar. Negaki ular piyzning achchiq hidiga chiday olmas edilar-da!

Ana shunday quvnoq kuychining „Hunarning hidi qanaqa?“ degan she’ri bog‘chalarimiz dasturidan uzoq yillardan beri joy olib keladi. She’r quvnoq misralar asosiga qurilgan bo‘lib, o‘quvchini bir o‘qishda, tinglashda o‘ziga rom etib oladi. Boshda kitobxon: — iya, hunarning ham hidi bo‘ladimi? — deyishi tabiiy. Lekin she’rni o‘qigach, tinglagach, Rodariga ishonadi, qoyil qoladi, xulosa chiqaradi.

Yuqorida eslatib o‘tganimizdek, jahon bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlarini o‘qish O‘zbekiston bolalarining ruhiy, ma’naviy dunyosini boyitibgina qolmay, balki bolalar uchun ijod qilayotgan yosh adiblar, shoirlar uchun ham badiiy mahorat maktabi bo‘lib qolmoqda.





KICHIK FOLKLOR JANRLARI QO'SHIQLAR ALLA

Yot, bolam, uxla qo'zim,
Uylarda o'chdi chiroq.
Uxlar asalarilar,
Uxlar baliqlar tinchroq.
Ko'kda oy yarqiraydi,
Derazadan qaraydi.
Ko'zlarинг yumgin, qo'zim,
Yot, quvonchim, qunduzim!

Alla, alla.

Suv sepgandek uylar tinch,
Qorong'u hujralar tinch...
Hech darvoza tiq etmas,
Sichqon uxlар, miq etmas.
Kimdir oh tortsa, unda,
Ne ishimiz bor unda?
Ko'zlarинг yumgin, qo'zim.
Ovunchog'im, qunduzim!

Alla, alla.

Qushcham g'amsiz yashaydi,
Uning har dam vaqtı chog'
Shirinliklar mo'l-u ko'l,
Ko'pdır qiziq o'yinchoq
Bari sengadir, qo'zim!
Yig'lama hech, yulduzim!
Baxtiyor o'tsin umring!
Yot, quvonchim, qunduzim!

Alla, alla.

Alla, alla, allayo,
Uxla, qo'zim, allayo.
Yum ko'zingni, yulduzim,
Yum-yum ko'zing, qunduzim!

OQ TERAKMI, KO'K TERAK?

- Oq terakmi, ko'k terak?
- Bizdan sizga kim kerak?
- Gul terdik dasta - dasta,
Bir-biriga payvasta.
Bizga kerak odobli,
A'luchi qiz Shohista!
- Oq terakmi, ko'k terak?
- Bizdan sizga kim kerak?
- Oy kerag-u oy kerak,
To'lib oqqan soy kerak.
Bizga „Maqtov qog'oz“
Olgan Hasanboy kerak!
- Oq terakmi, ko'k terak?
- Bizdan sizga kim kerak?
- Maktab oldi bog' ko'cha,
Bir yoni gulbog' ko'cha.
Bizga kerak shaxmatda
Nom qozongan Xadicha!
- Oq terakmi, ko'k terak?
- Bizdan sizga kim kerak?
- To'p o'ynar Ra'no, Tolib
Biri biridan g'olib.
Bizga kerak chopishda
Hech tengi yo'q Mutallib.
- Oq terakmi, ko'k terak?
- Bizdan sizga kim kerak?
- Ustozingdan ta'llim ol,
Kasb, hunar o'r ganib qol.
Bizga kerak pazanda,
Chevar, notiq Suymaxol!
- Oq terakmi, ko'k terak?
- Bizdan sizga kim kerak?
- Ariq bo'yida andiz,
Daryo tubida qunduz.
Bizga kerak alpinist
Bo'laman, degan Yulduz!

XIRMON QO'SHIQLARI

Ayri tuyog‘ing olmosdir,
Mayda qilmay qo‘ymasdir.
Seni boqqan bu egang
Mehnatidan qolmasdir.
Mayda qilsang, shunday qil,
Qizilini qirday qil,
Somonini soyday qil.
Mayda-mayda moybosar,
Ot o‘rnini toy bosar.
Otadan o‘g‘il qolsa,
O‘lmas, o‘rnini bosar,
Tog‘larda bor navshatir,
Uni zargar ushatir.
Qo‘limdag‘i tol ximcha
Qovurg‘angni qaqshatir.
Mayda desam yarashar,
Xaloyiqlar qarashar.
Sag‘ringdagi teringga
Charmgarlar talashar.
Mayda-mayda, mayda deb,
Gavron urdim cho‘qingga.
O‘n ikki oy ishlading.
Somon qoldi haqingga.
Orqangdan qochgan qulon,
Qulonlar emas, bulon.
Bu maydani bo‘lgan so‘ng
Bo‘z qizdayin bir sulan.
Galagovda to‘rt ho‘kiz,
To‘rttovi ham yo‘rt ho‘kiz,
O‘z ishini tindirib,
Salmanglagan mard ho‘kiz.
Mayda-mayda parisin,
Don somondan arisin.
Chorisini olgan so‘ng
Qaytaraman barisin.
Maydajon ovozasi,
Po‘latdan darvozasi.
Bir bog‘ poxol bo‘ladi
Maydajonning g‘avzasi.
Mayda qilsang, tuzday qil,

Sochini yuvgan qizday qil.
Mayda, jonivor, mayda.
Somoni senga foyda.

QO'SH QO'SHIG'I

Ola ho'kiz, targ'il ho'kiz,
Shudgor tanobin tortib cho'z.
Qo'sh haydaymiz bahor va kuz,
Atrofimiz dala va tuz,
Yur, jonivor, xo'sh jonivor!

YANCHIQ QO'SHIG'I

Ho', mayda-mayda, ho',
Qo'shiq-ashulani qo'y.
Ma'rab turar echki-qo'y,
Yanchib turib kavsha, to'y,
Ho', mayda-mayda, ho'!
Bo'lmas g'allaning yomoni,
Arpa bug'doylar somoni.
Dehqonlarning choch xirmoni,
Hozir yanchiqning zamoni.
Ho', mayda-mayda, ho'!
Odatimiz, tonglar otmay,
Uyqu-g'aflatni yo'latmay,
Ish qilamiz bekor yotmay,
Qo'sh tortganmiz bekor yotmay
Ho', mayda-mayda, ho'!
Bosgan izing talqon bo'lsin,
Xirmon qizil donga to'lsin.
Uylar ko'mach, nonga to'lsin,
Tering karqi qalqon bo'lsin.
Ho', mayda-mayda, ho'!



MAQOLLAR

Jahl— dushman,
Aql — do'st.

Belgi bo'lsa, yo'ldan adashmas,
Aql bo'lsa, so'zdan adashmas.

* * *

* * *

Chinordek bo'ying bo'lguncha,
Tumordek aqling bo'lsin.

Oy tunda kerak,
Aql kunda kerak.

* * *

Elga qo'shilsang, el bo'lasan,
Eldan ajralsang, yer bo'lasan.

* * *

Yoshlikda o'rgangan hunar,
O'zingga o'ljaga qolar.

* * *

Hunar — zar, hunarsiz — xor.

* * *

O'zga yurda shoh bo'lguncha,
O'z yurtingda gado bo'1.

* * *

Birlashgan — o'zar,
Birlashmagan — to'zar.

* * *

To'g'ri bo'lsang, bexavotir
bo'lasan.

* * *

Odob — kishining zebi.

* * *

Yaxshi gap bilan ilon inidan
chiqadi.

* * *

Odobni beodobdan o'rgan.

* * *

Hunari yo'q kishining,
Mazasi yo'q ishining.

* * *

Bir yigitga yetmish hunar
kam.

* * *

Yurti boyning — o'zi boy.

* * *

To'pdan chiqsang ham,
ko'pdan chiqma.

* * *

Sevdirgan ham til,
Bezdirgan ham til.

* * *

Ko'p yurgan — ko'p ko'rар,
Ko'p o'qigan — ko'p uqar.

* * *

Tilni bilish — dilni bilish.

* * *

Ilmsiz bir yashar,
Ilqli ming yashar.

* * *

Haq so'z — achchiq so'z.

TOPISHMOQLAR

Lenta kabi cho'zilib,
Yurtni yurtga ulaydi.
Do'stni do'stga uchratib,
Qalba sevinch qalaydi.

(*Yo'i*)

Qo'shaloq tovoq,
Ichi to'la yog'.

(*Yong'oq*)

Bulut desang, bulutmas,
Yerdan ko'kka suzadi.
Ko'zga, burunga kirsа,
Asabingni buzadi.

(*Tutun*)

Keragida suvgа otasan,
Qimirlashin poylab yotasан.

(*Qarmoq*)

Koptokka o'xshar o'zi,
Yo'l-yo'l beqasam yuzi,
Ichi to'la qand-asal,
Yesang chanqoqni bosar.

(*Tarvuz*)

Tunda ko'rib cho'g' deysan,
Tongda ko'rib yo'q deysan.

(*Yulduz*)

Oyna emas, jimirlar,
Tek turolmas, qimirlar.

(*Suv*)

Ilon izli yorug' nur,
Bulutlarni quchadi,
Jarangdor ovozidan
Yer-u osmon ko'chadi.

(*Chaqmoq*)

Kasbi doim taqir-tuqur
Qayda ilon ko'rsa cho'qir.

(*Laylak*)

Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.

(*Shamol*)

TEZ AYTISHLAR

Shokir sholipoyada shovqin solib, shaqildoqni shaqillatdi.

Bir juft cho'p ko'pmi, qo'sh juft cho'p ko'pmi?

Jamila jiydani joyiga joyladi.

Shu mushuk, shum mushuk, shumshuk mushuk.

Tez aytishni tez-tez ayt.

Sovuqda tustovuq sovuq qotdi.

Boqi bog'ga, Soqi tog'ga boradi.

Saodat soatinini soatsozga sozlatdi.

Qo'sh qo'lqop, qo'shovi ham bo'sh qo'lqop.

Gulsara gul saralab, gul sanadi.

Tubsiz dengiz dedingizmi? Dengiz tubsiz dedingizmi?

Olti juft oq chinni choynakka to'rt juft ko'k qopqoq yopsa bo'ladimi?

O'ktam ko'm-ko'k, ko'r kam ko'klam rasmini ko'p ko'k qalamda chizmoqchi.

Zanjir, sarjin, anjir.

Bir tup tut, tutning tagida bir tup turup. Tut turupni turtib turiptimi, turup tutni turtib turiptimi?

Shotursunning shotutini shitirlatgan shamol Sharifning shaftolisini shitirlatdi.

Qurilishga terak kerak,
Demak, ekmoq kerak terak.
Oq choynakka ko'k qopqoq,
Ko'k choynakka ko'k qopqoq.
Erkin egatga ertaki ekinni ertalab ekdi.
Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uloqcham uzun
qulog.

ERTAKLAR

BIRLASHGAN O'ZAR

(O'zbek xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir bek bo'lgan ekan. Uning ziyrak, vafodor dumdaroz tozisi bo'lgan ekan. Tozi har kuni bekka ikki-uchta quyon, yovvoyi tovuq tutib berar, hovlisini qo'riqlarkan. Bek bilan xotini undan juda ham rozi ekanlar. Bir kuni dumdaroz tozi ov qilgani qamishzorga kirib ketibdi. U yerda ochligidan holdan toyib yotgan laychani ko'ribdi-yu:

— E, yalqov laycha, ag'anab yotaverasanmi? Yur men bilan. Xo'jayinim menga issiqqina in qurib bergan. Ovqat yeydigan yaloq qo'ygan. Qish kunlari borib, sandalning poygak tomonida isinaman, xo'jayinim indamaydi. Juda yaxshi odam, — debdi. Laycha rozi bo'lib, tozi bilan birga boribdi. Bek ham xizmatkorning ikkita bo'lganidan xursand bo'lib, ularga ovqat beribdi. Shunday qilib, tozi bilan laycha issiqqina uychada yashayveribdilar.

Kunlarning birida ikkalasi ov qilgani o'rmonga borsalar, cho'zilib yotgan shoqolni ko'rib qolibdilar. Shoqol qo'rqib ketibdi. Tozi bilan laycha: „Qo'rqma, yuraging yorilmasin, nimaga yotibsan?“, — deyishibdi.

— Yegulik narsa yo'q, ochman, madorim quriyapti, — debdi shoqol.

— Undoq bo'lsa bizlar bilan yur. Bek xo'jayinimiz bor, o'zi ko'p yaxshi odam. Ov qilib beramiz, xotini ovqat pishirib beradi, — debdi tozi.

Ana endi uchalasi har kuni beshta-oltitadan yovvoyi tovuq, quyon, kaklik, bulduruq tutib kelaverishibdi. Bekning xotini bo'lsa, yegulik pishiraveribdi.

Bir necha kundan keyin ular ovga borib, o‘rmonda sher bilan yo‘lbarsga duch kelibdilar.

— Bizlarga sherik bo‘linglar, birga ov qilamiz, birlashishning xosiyati ko‘p bo‘ladi, — deyishibdi sher bilan yo‘lbarsga it va shoqol. Sher bilan yo‘lbars ham o‘ylab ko‘rib, rozi bo‘libdilar. Xullas, beshovlari bekning xizmatini qilaveribdilar. Ov o‘ljasi ham ko‘payaveribdi, bekning xotini ham jonivorlarga yaxshi qarayveribdi.

Gapning qolganini bu yoqdan eshiting. Kuni bitib, bekning xotini qazo qilibdi. Xo‘jayin g‘am-anduhga giriftor bo‘libdi. Tozi dumdaroz, laycha, shoqol hamda yo‘lbars, sher maslahatni bir yerga qo‘yib, bekni uylantirmoqchi bo‘libdilar. Tozi maslahatboshi bo‘lib, shoqolga uqtiribdi:

— Shaharga borasan, hindi savdogarning do‘konini teshib kirasan, sher ham sen bilan borib, atrofni poylab tursin. Kelinga lozim bo‘lgan zarrin, kimxob, shoyilarni olib chiqib yuklaysan, sher olib keladi.

Bu maslahatni og‘aynilar ma’qullabdilar. Shoqol bilan sher shaharga boribdilar. Hindining do‘konini teshib kirib, qimmatbahо, asl narsalarni olib kelibdilar. Endi beshovi yana maslahat qilib, bekka podshoning qizini olib bermoqchi bo‘libdilar. Tozi dumdaroz yana bosh maslahatchi bo‘libdi.

— Shoqol bilan sher podshoning saroyiga borib poylab tursinda, qiz eshikdan chiqishi bilan g‘ippа ushlab, qopga solib, olib kelinglar.

Shoqol bilan sher podshoning saroyiga yetib boribdilar. Qizning yotoqxonasi orqa devorini tirnalabdilar, enaga kampir chiqib:

— Ey, kim u qasir-qusur qilayotgan? — debdi va pisib yotgan sher bilan shoqolni ko‘rmay, qaytib borib uxlabdi.

Sal o‘tgach, yana taqillatbdilar.

Kampir yana inqillab chiqibdi. Ammo hech nimani ko‘rmay, yana qaytib kirib ketibdi. Uchinchi martasida qiz kampiriga:

— Ey, bibijon, siz ovora bo‘lib chiqmang, ko‘zingiz ham o‘tmaydi. Men o‘zim qarayman, — deb eshikdan chiqqan ekan, poylab turgan sher bilan shoqol uni mahkam ushlab qopga solibdilar-u, yo‘lga ravona bo‘libdilar. Ertasi kuni beknikida katta to‘y bo‘libdi. Bek go‘zal malikaga uylangandan xursand bo‘libdi. Beshala og‘ayni xizmatni bajo keltiraversinlar-u, bu yoqdagi hangomaga quloq bering.

Qizning bedarak yo‘qolganini eshitib, darg‘azab bo‘lgan podsho amir-u amaldorlariga buyruq beribdi:

— Qizim ko‘k-u zaminda bo‘lsa ham toping. Kimki topib kelsa, xazinamdan bo‘yi barobar tillo beraman. Topolmasanglar, ham-mang boshlaringdan judo bo‘lasanlar.

Yasovullar to‘rt tarafga ot qo‘yib, malikani axtarib ketibdilar. Ammo hech biri qizni topolmabdi. Shaharda bir ayyor kampir bor ekan. U podsho huzuriga kirib:

— Qizingizni uzoq shaharga olib qochib ketganlar. Men topib kelaman, aylanay shohim. Lekin bir shartim bor. Asl ustalariningza ayting, menga uchadigan sandiq yasab bersinlar. Bu qulog‘ini burasam, mag‘ribga, u qulog‘ini burasam, mashriq tarafga ucha-digan bo‘lsin,— debdi. Podsho amri bilan kampir aytganday qilib ustalar sandiq yasashibdi. Yosuman kampir sandiqqa tushib olib, bir qulog‘ini buragan ekan, sandiq havoga ko‘tarilib, bekning hovlisiga yaqin yerga tushibdi. Kampir hech kim ko‘rmasin deb sandiqni shox-butoqlar bilan yashirib, sekin bekning darvozasi yoniga borib yig‘lab o‘tiraveribdi. Ovdan qaytib kelayotgan bek kampirdan:

— Ha, bibijon, nimaga yig‘lab o‘tiribsiz? — deb so‘rabdi.

— Ey, begim, nimasini aytay sizga. Uch o‘g‘lim bor, ularni voyaga yetkazib, uyli-joyli qildim. Endi kelinlarim meni sig‘dirmay, quvib yuborishdi. Yordam bering, deb sizga arzga keldim, — debdi. Bekning kampirga rahmi kelib:

— Undoq bo‘lsa, menikiga kiring, keliningiz bilan yurasiz! — debdi. Kampirni ko‘rgan zahotiyoyq bekning xotini:

— Bu kampirni nimaga olib keldingiz? — debdi.

— Indama, bir just non bilan bir kosa oshni kim ham yemay-di, seni duo qiladi, — debdi bek. Oradan ancha kun o‘tibdi. Bek yana tozi, shoqol, laycha, yo‘lbars-u sherlari bilan shikorga chiqib ketibdi.

— Qizim, ziq bo‘ldim(zerikdim), sen ham ziq bo‘lgandirsan, yurgin, aylanib kelaylik, — debdi kampir malikaga mehribonlik qilganday. Bekning xotini ham ko‘nibdi. Ikkovi aylanib yurib, sandiq turgan joyga boribdilar.

— Bibijon, bu qanaqa sandiq ekan, biram yaxshi-ya, — debdi malika sandiqni ko‘rib.

— Bu havoda uchadigan sandiqqa o‘xshaydi. Ichiga kirib ko‘rmaymizmi? — debdi kampir. Ikkovlari sandiqqa tushibdilar, kampir sandiq qopqog‘ini yopibdi-yu, qulog‘ini burabdi. Sandiq osmonga ko‘tarilib, to‘g‘ri podshoning saroyiga borib qo‘nibdi. Qizini ko‘rib xursand bo‘lgan podsho kampirga bo‘yi barobar tillo beribdi.

Ana endi podsho qizini topgani uchun xursand bo‘lib yuraversin-u, gapni yana bek tomonidan eshititing. Bek tozi, shoqol, laycha, yo‘lbars, sher bilan shikordan qaytib kelsa, uyda kampir bilan xotini yo‘q emish. Tozi dumdaroz bekasini kampir o‘g‘irlab ketganini sezibdi-yu, yo‘lbars bilan sherga:

— Yana saroya borasanlar va podshoning qizi uxlayotgan uyning eshigini qoqasanlar! — debdi. Og‘aynilar uzoq yo‘l yurib, yarim tunda saroya yetib boribdilar va malika yotgan uyning eshigini qoqibdilar. Qiz qanday qochishini bilmay, yig‘lab o‘tirgan ekan, hayvonlar oldiga yugurib chiqibdi. Ertalab podsho yana qizning g‘oyib bo‘lganini eshitib, kampirni chaqirtiribdi:

— Qizimni yana o‘g‘irlab ketibdilar. Borib olib kelsang, davlatimning yarmini beraman, — debdi.

— Shohim, agar qaytib borsam, sochimni bittadan yulib, go‘shtimni qiyma qilib, suyaklarimga o‘t qo‘yadilar. Endi qizingizni ularni qo‘lidan urushib, qon to‘kib olasiz, boshqa chorasi yo‘q! — debdi kampir. Podshoning amri bilan behisob lashkar to‘planibdi. Kampirni lashkarboshi qilib tayinlabdi.

Bek behisob lashkarni ko‘rib:

— Endi meni o‘ldirib, xotinimni olib ketadilar. Uyim kuyadi, xonavayron bo‘ldim, — deb qo‘rqib ketibdi.

Tozi dumdaroz bekka tasalli berib:

— G‘am yemang, begim, biz ham lashkar topamiz! Qani, laychavoy, bir vovilla, — deb laychaga buyuribdi.

Laycha vovillagan ekan, hovli itga to‘lib ketibdi. Shoqol uvillagan ekan, shoqollar yetib kelibdi. Sher bilan yo‘lbars na’ra tortgan ekan, juda ko‘p sher va yo‘lbarslar yopirilib kelibdi. Tozi lashkarboshi bo‘lib, buyuribdi:

— Sherlar bilan yo‘lbarslar dushman lashkarini yorib, ikki tarafga tashlay bersin, shoqollar bilan itlar ularning ust-boshini yechib, bir yerga to‘playversin-u, bir boshdan odamlarning go‘shtini yejaversin!

Ana endi lashkarlar to‘qnashibdi. Qonli urush bo‘libdi. Yo‘lbars, sherlar lashkarni tilka-pora qilaveribdilar. Itlar, shoqollar ularning ust-boshlarini yechib, go‘shtlarini yejaveribdilar. Lashkar qirilibdi-yu, podsho bilan kampir zo‘rg‘a qochib qutulibdilar. Bek esa vafodor hayvonlariga katta ziyofat qilib beribdi.

Birlashgan o‘zar, deb bekorga aytimas ekan-da.

EGRI VA TO‘G‘RI

(*O‘zbek xalq ertagi*)

Qadim zamonda bir qishloqda bir yigit bo‘lgan ekan. Unga To‘g‘riboy deb nom bergan ekanlar. Uning bittagina ozg‘in otidan bo‘lak narsasi yo‘q ekan.

Bora-bora qishloqda ish topilmaydigan bo‘lib, uning ahvoli og‘irlashibdi. Oti bilan mardikorlik qilish uchun ikkinchi bir tomonga jo‘nab ketibdi.

Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi.

Yo‘lda unga bir piyoda yigit hamroh bo‘libdi. Ikkisi suhbatlashib ketaveribdi.

— Xo‘s, yo‘l bo‘lsin? — debdi To‘g‘riboy.

— Mardikorlik qilish uchun uzoq shaharga ketayotirman, — deb javob beribdi piyoda yigit.

— Isming nima?

— Egriboy.

— Seniki-chi?

— To‘g‘riboy. Ikkimizning nömimiz bir-biriga mos ekan, kel endi, do‘s t bo‘laylik, birga ishlab, birga yuraylik, — debdi unga To‘g‘riboy. Ikkovlari shunday deb ahdlashibdi. Otliq yigit sheringining piyoda yurganiga rahm qilib, unga otini beribdi. Egriboy egarga o‘tirishi bilan otga bir qamchi berib, tezda ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. To‘g‘riboy hayron bo‘lib qolaveribdi. „Do‘sman deb, dushmanning ishini qilib ketdi“, — deb o‘ylabdi u. Rangi o‘chibdi, qoni qochibdi. Axiri, piyoda yo‘lga ravona bo‘libdi. Kech kiribdi. Tik yo‘ldan adashib, bir so‘qmoqqa qayrilibdi. So‘qmoq ham qalin bir o‘rmonga kirib yo‘qolgach, To‘g‘riboy qayoqqa borishini bilmay, sarosima bo‘lib qolibdi.

Kech kuz pallasi ekan. Daraxtlarning yaproqlari to‘kilgan: qip-yalang‘och, bargsiz qolgan qalin o‘rmon ekan. To‘g‘riboy hamon yo‘l axtarib yuraveribdi. Kech kirib, qorong‘i tushibdi. Osmonda yulduzlar ham ko‘rina boshlabdi. To‘g‘riboy yo‘lda bir eski tandirga duch kelibdi. U o‘ylabdi: „Qorong‘i kechada o‘rmonda yurish yaxshi emas, kechani tandirda yotib o‘tkazayin“, — deb uplash uchun tandir ichiga kirib yotibdi.

Shu katta o‘rmonda: arslon — podsho, yo‘lbars — vazir, bo‘ri — karnaychi, qashqir — surnaychi, tulki — dostonchi ekan. Haligi tandir turgan joy shularning bazmgohi (bazm qiladigan joy) ekan. Bir ozdan keyin bir qashqir kelib, tandir atrofini aylanib uvlabdi. Oradan sal o‘tmay butun o‘rmondagi hayvonlar

shu yerga yig'ilibdi. Arslon podsho o'z o'rniga o'tirib, o'rmon ahlining majlisini davom ettiribdi. Tulki doston boshlabdi:

— Yoronlar (do'stlar), shu o'rmon orqasidagi tog'da bir g'or bor, men o'n yildan buyon shu g'orda yashayman. Odamlarning uyida nimaiki bo'lsa, mening uyimda ham bor. O'n yildan beri yig'aman: gilam, palos, ko'rpa-to'shak — hammasi bor menda. Yaxshi-yaxshi ovqatlar ham bor.

Tandir ichida o'tirgan To'g'riboy o'zicha o'ylabdi: „Attang, tulkivoynikiga mehmonga borsam bo'lar ekan“. Navbatil bilan qashqir so'z boshladi:

— Sening joying qiziq emas, tulkivoy! Mana bu tepa ostida mening bir sichqonim bor, har kuni tush vaqtida shuni tomosha qilaman. Uning qirq bitta tillasi bor. Shularni inidan chiqarib o'ynaydi, keyin ularni o'rtaga qo'yib, o'zi tomosha qiladi, atrofida aylanadi, keyin yana iniga olib kirib ketadi.

Endi ayiqning afsonasini eshititing:

— Bu ham qiziq emas, — deb so'zga kirishibdi ayiq. — Bizning shu o'rmonda bir qayrag'och bor, uning pastrog'ida ikki shoxchasi bor. Shu shoxchalarning yaproqlari butun kasallarga davo. Mana shu shahardagi podshoning qizi yetti yildan buyon kasal. Podsho jar soladi: „Kimda kim shu qizimni sog'aytirsa, uni o'shangan beraman“, — deydi. Sog'aytirolmagan kishini o'ldiradi. Ko'p tabiblar qizni sog'aytirolmasdan, dorga osilib ketdilar. Agar kim o'sha qayrag'och yaprog'ini ezib, shu qizga ichirsa, u darrov sog'ayar va shu ishni qilgan kishi podshoga kuyov bo'lar edi.

So'ngra bo'ri afsona boshlabdi:

— Yoronlar, bizning ham bir qiziq hikoyamiz bor. Shu o'rmonning u chekkasida bir boyning qirq mingta qo'yib bor. Men har kuni ikki qo'yni yeyman. Meni ushslash uchun hamma hiylani ishlatdilar. Lekin hech iloj topolmadilar. Mana shu yaqin oradagi qir boshida turuvchi chol boboning bir iti bor. Agar shu itni sotib olsalar, u meni tilka-pora qilar edi.

Eng oxirida, yo'lbars gap boshlabdi:

— Bo'ri aytgan boyning o'n ming yilqisi shu o'rmonning bir chekkasida o'tlab yuradi. Men shundan har kun bir ot yeyman. Lekin shu otlarning ichida bir ola ot bor. Bir kishi ana shu ola otga minib, qo'liga qildan eshilgan kamand (sirtmoq) olsa, bir qo'liga uzun xoda ushlab, bo'ynimga kamand solib, meni o'lguncha ursa, shu yilqiga sira yaqinlashmas edim. Mening eng katta dushmanim shu ola ot ekanligini boy bilmaydi...

Yo'lbars afsonasini tugatishi bilan tong ham yorishibdi. Hamma hayvonlar joy-joyiga tarqalib ketibdilar.

To‘g‘riboy tandirdan chiqib, tulkining makoniga boribdi. Qarasa, hamma narsa joy-joyida: go‘sht ham bor, yog‘ ham bor, guruch ham bor. Darhol qozonga yog‘ solib, olovni yoqa boshlagan ekan, tog‘ boshidan oshib kelayotgan tulkini ko‘rib qolibdi va o‘zini panaga olibdi. Tulki uyga kelgach, qozonda yog‘ dog‘ bo‘layotganini ko‘rib, hayron bo‘lib turganda, To‘g‘riboy tulkini tappa bosib, bo‘g‘ib o‘ldiribdi. Osh qilib yeb, qornini to‘ydiribdi va yotib uxlabdi.

Ertasiga To‘g‘riboy qashqir aytgan tepalikni izlab ketibdi. Uni ham topib, sichqonni o‘ldiribdi va tillalarni beliga tugib olibdi. Keyin ayiq aytgan qayrag‘ochning yaprog‘ini ham olibdi.

So‘ngra cho‘pon tomonga qarab yo‘l solibdi. Cho‘ponni topib, undan hol-ahvol so‘rabdi. Shunda cho‘pon:

— Ahvol yomon, — debdi, — ancha vaqtadan beri bir bo‘ri har kuni ikkitadan qo‘ymni yeb ketadi. Hech ilojini qilolmayman. Xo‘jayin meni baloga qo‘yadi.

To‘g‘riboy so‘rabdi:

— Men shu bo‘ridan sizni qutqazsam, nima berasiz?

Cho‘pon xo‘jayinidan qirq qo‘y olib berishga va‘da qilibdi.

To‘g‘riboy haligi boboning itini sotib olib, cho‘ponga beribdi.

Cho‘pon bo‘ri ofatidan qutulibdi va To‘g‘riboyga xo‘jayinidan qirq qo‘y olib beribdi.

Shundan so‘ng To‘g‘riboy yilqichining oldiga boribdi. U bilan hol-ahvol so‘rashgandan keyin: „Shu kechasi ola otni egarlab, qildan eshilgan qirq kamandni, uch gaz xodani menga to‘g‘rilab bering!“

To‘g‘riboy otini minib, yo‘lbars keladigan so‘qmoqni poylab turibdi. Birdan yo‘lbars o‘rmondan yugura chiqib, o‘zini otlar orasiga uribdi. To‘g‘riboy kamandni rostlab turib yo‘lbarsning bo‘yniga solibdi. O‘rmonda yo‘lbarsni aylantirib yurib, o‘lguday uribdi. Yo‘lbars holdan ketib yiqilibdi. Yilqichi To‘g‘riboyning xizmati uchun ola otni beribdi. To‘g‘riboy ola otni minib, shaharga yo‘l solibdi. Shaharga borsa, bozorda jarchi jar solib yurgan ekan: „Podshoning qizi yetti yildan buyon kasal, kimki uni sog‘aytirsa, podsho o‘shanga qizini beradi... Sog‘aytirolmasa, o‘ldiradi“.

To‘g‘riboy jarchining orqasidan podsho huzuriga boribdi va qizini tuzatishga va‘da beribdi. Podsho To‘g‘riboyni qizining huzuriga boshlab kiribdi. To‘g‘riboy yonidagi yaproqni ezib, qizga ichiribdi. Qiz uch kun deganda sog‘ayib ketibdi. Podsho qizini To‘g‘riboyga beribdi.

Podsho To‘g‘riboydan so‘rabdi:

— Endi sizni qaysi shaharga hokim qilay?

To‘g‘riboy aytibdi:

— Menga hokimlik kerak emas. O'rmon etagidagi tog' ustiga bir uy solib bersangiz, bas. Men o'z mehnatim bilan kun kechiraman.

Podsho uning aytganini qilib beribdi. To'g'ribboy xotini bilan tog'da yashabdi.

Kunlardan bir kun tush vaqtida o'zining qadimgi otini minib kelayotgan Egriboyga ko'zi tushibdi. Uni chaqirtiribdi va yaxshilab ziyofat qilibdi.

Egriboy:

— Do'stim, — debdi, — bunday baland joyga qanday qilib imorat solding? Uyli-joyli bo'libsan: bularni qayerdan topding? Birovga xiyonat qilgan kishining qorni nonga sira to'ymas ekan. Sening otingni olib qochib, qayerga borsam, ishim teskarisiga ketadi. O'shandan beri bir marta ham qornim nonga to'yanini bilmayman.

To'g'ribboy:

— Mana shu o'rmon ichida bir tandir bor. Men o'sha tandir ichida bir kecha yotib, bu narsalarga erishdim, — degan ekan, Egriboy:

— Sadag'ang bo'lay, menga ham ko'rsatib qo'y, men ham o'sha tandirda bir kecha yotib chiqay, — debdi. To'g'ribboy uni boshlab borib, tandirni ko'rsatibdi. Egriboy tandirga kirib yotibdi.

O'rmon hayvonlari yana yig'ilishibdi. Arslon podsho:

— Mening afsonachi do'stim tulki qayerda? — deb so'rabdi.

Qashqir o'rnidan turib shunday debdi:

— Afsona qursin; u kungi afsonaning kasofati bilan siz tulki do'stingizdan, men tillali sichqonimdan ayrildik.

Buning ketidan ayiq o'rnidan turib:

— Qayrag'ochimizning yaproqlarini ham olib ketibdilar, — debdi.

Navbat bo'riga kelganda, podshoga qarab debdi:

— Men oziq-ovqatimdan ajradim, cho'pon aytgan itni sotib oldi, endi borsam, tilka-poramni chiqaradi. Kaltak zarbidan a'zoyi badanim shishib ketdi.

Arslon podsho qovog'ini solib turib buyuribdi:

— Kim chaqimchi bo'lqa, tutib o'ldiring!

Qashqir tustovuqdan ko'ribdi. Tustovuq: „Chaqimchi tandirda!“ deb uchib ketibdi. Hamma hayvonlar birdaniga tandirga yugurishibdi, uning ichida pisib yotgan Egriboyni tutib olishibdi va „Chaqimchining jazosi — shu!“ — deb, uni tilka-pora qilib tashlashibdi.

Shunday qilib, To'g'ribboy to'g'riliqidan maqsadiga yetibdi, Egriboy esa egriligidan jazosini tortibdi.

NON VA TILLA

(Arab xalq ertagi)

Qadim zamonlarda Abbas ismli bir kambag‘al kishi yashagan ekan. U bir parcha non topish uchun ertadan kechgacha qora terga botib, mehnat qilar ekan. Qo‘li biroz ishdan bo‘sagan paytlarida esa, „zora biror xazina topib olsam“, deb shirin xayollar surarkan.

Kunlardan bir kuni u dalada ishdan charchab, jazirama issiqdan toliqibdi-da, biroz hordiq chiqargani daraxt tagiga o‘tiribdi. Shunda u, „ollohimiz menga shunday bir sehrli kuch-qudrat ato etsaki, qo‘lim tekkan hamma narsa tillaga aylanib qolaversa. Shunda men rohat va farog‘atda yashab, qora mehnatdan qutulgan bo‘lardim“, deb orzu qilibdi.

Abbos shu gaplarni ko‘nglidan kechirishi bilanoq, g‘oyibdan bir tovush kelibdi:

—Ey, Abbas! Sen hozir nimani orzu qilgan bo‘lsang, niyattinga yetasan. Biror buyumga qo‘lingni tekkizishing bilan u shu ondayoq tillaga aylanadi!

Abbos o‘z quloqlariga ishonmabdi. Ammo shunday bo‘lsa ham, egilib, yerdan kichkina bir tosh olibdi. Uning qo‘li tegishi bilan toshcha tillaga aylanib qolibdi. Abbas boshqa toshchalarga ham tegsa, ular ham tillaga aylanib qolaveribdi. Abbas bu holdan juda sevinib ketibdi va shunday reja tuzibdi:

„Hozir shaharga boraman-u tosh-kesaklarni to‘plab, tillaga aylantirib olaman... Keyin juda ko‘p yer sotib olaman. Daryo bo‘yida shohona saroy qurib, atrofini jannatmakon bog‘ga aylantiraman... Eng chopqir tulporlarni sotib olaman, liboslarim ham faqat asl va shohona bo‘ladi“...

U shunday shirin orzular va rejalar bilan o‘rnidan turmoqchi bo‘lgan ekan, ammo ochlikdan majolsizlanib, o‘rnidan turolmay qolibdi. Shunda Abbas, „uyimdan keltirgan tushligimni yeya qolay“, deb daraxt yonida turgan tugunga qo‘lini cho‘zibdi. U bir bo‘lak nonni og‘ziga solishi bilan tishlari qattiq narsaga botibdi. Og‘zidan olib qarasa, non ham tillaga aylanib qolgan emish. Tuguncha ichida piyoz ham bor ekan, Abbas uniyam shosha-pisha qo‘liga olibdi. Ammo piyozga ham qo‘li tegishi bilan tillaga aylanib qolibdi.

Abbos juda qo‘rqib ketibdi. Axir, hamma yeydigan narsalar ham tillaga aylanib qolaversa, u ochlikdan o‘lib ketadi-ku! Ham-mayog‘i tillaga ko‘milib ketsa-yu, yeishiga hech vaqosi bo‘lmasa? Bu qanday gap bo‘ldi?

Bir mahal Abbos ko'zini ochsa, daraxt tagida xayol surib, mudrab qolgan ekan. U yengil nafas olib, o'midan turibdi. Yelkasidan tog' ag'darilganday bo'lib, yengil tortibdi.

— Xayriyat-ey, bularning hammasi tushim ekan-ku! — deb sevinib ketibdi.

KAPTAR SOVG'ASI

(*Tamil ertagi*)

Qadim zamonda, kichkina qishloqning bir chekkasida Kijavan ismli bir dehqon yashagan ekan. Uning na bir yaqin qarindoshurug'i, na bir uzoq tanishi bor ekan. Kijavan bo'lsa, bundan sira o'kinmas, odamlarning o'rniga o'rmon qushlari, hayvonlari bilan do'stlashib yurar ekan. Kimning do'sti ko'p bo'lsa, u zerikarmidi? Kijavan ham qush-u hayvonlar tilini juda yaxshi bilar, o'rmonda yashovchilarning birortasi bilan uchrashib qolsa, suhbatlashib, ancha yengil tortar ekan. Qushlar Kijavanni ko'rishlari bilanoq, shod-u xurramlik bilan chug'ur-chug'ur qilishar ekan.

Bir kuni Kijavan juda qattiq och qo'libdi. Biroz narsa tamaddi qilay desa, hech vaqosi yo'q. U o'ylab-o'ylab, oxiri tayoq olib, o'rmonga jo'nabdi. O'rmonni aylanib-aylanib, u yerda ham yeydigan hech narsa topolmay, uyiga qaytibdi. Yo'lida ketayotib:

— Menga yordam ber, — degan zaif bir tovushni eshitib qolibdi. Kijavan bunday qarasa, u yerda bir kaptar yiqilib yotgan emish.

— Men ucholmayman, qutqargin, — deb yalinibdi u Kijavanga.

Kijavanning bechora kaptarga rahmi kelibdi. Uni yerdan avaylab ko'tarib olib, bag'riga bosganicha, yo'lida davom etibdi. Kapasiga kelib, qushni ehtiyyotlik bilan yumshoq o'ringa yotqizibdi.

— Tuzalib ketguningcha menikida yashaysan. Hech narsadan qo'rqmagin, seni xafa qilishlariga yo'l qo'ymayman. Qo'limdan kelganicha senga yordam beraman. Lekin hozircha senga ovqat beray desam, uyda yeydigan hech vaqo yo'q, — debdi xafa bo'lib Kijavan.

— Qayg'urma, — debdi kaptar uni tinchlantirib, — o'rmonda mango daraxti bor. Daraxt kavagining ichida guruch bor, borib ana shu guruchni olib kelgin.

Kijavan fursatni boy bermay, mango daraxtini izlab, o'rmonga jo'nabdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, ammo negadir daraxtni uchratmabdi. U oxiri horib-charchab, bir teshik ustida

o'tirib, bunday qarasa, ro'parasida mango daraxti o'sib yotgan emish. Kijavan engashib daraxt kavagiga qarasa, bir siqim guruch turibdi. Uning atrofida esa oltin-u kumush, olmos-u dur va boshqa har xil qimmatbaho toshlar yog'du sochib yotibdi. Ammo Kijavan bu narsalarga parvo qilmabdi. „Bu toshlarni nimayam qillardim, axir o'zimni bezatish niyatim yo'q-ku?“, — deb o'yabdi.

U faqatgina guruchni olib, orqasiga qaytibdi. Uyning shundoq ostonasida yana bir kaptarni ko'ribdi. U eshikni ochishi bilan kaptar pir etib ichkariga uchib kiribdi-da, yarador kaptarning yoniga borib qo'nibdi. Ikkala qush ham shod-u xurram bo'lib, sayrab yuborishibdi. Kijavan ularga guruch beribdi. Qushlar chaq-chaqlashib guruchni cho'qilashga tushishibdi. Dehqon bo'lsa, ularning yoniga o'tirib olib, qushlarni rosa tomosha qilibdi.

— Nega sen o'zingga guruch qoldirmading? — deb so'rabdi ikkinchi kaptar.

— O'zi bir siqimgina guruch bo'lsa, sizlarga zo'rg'a yetadi, xolos. Hechqisi yo'q, men chidayman, o'lmayman, — deb xotirjam javob qilibdi Kijavan.

Ikkinci kaptar kulbadan uchib chiqib ketibdi-da, tumshug'ida nimanidir ko'targanicha qaytib kelibdi. Keltirgan narsasi tilla uzuk ekan.

— Bu uzukni o'zingga ol. Sen uni qo'lingdan yechmaguningcha, nimaniki istasang, u sening buyruqlaringni bajo keltiradi, — debdi kaptar.

— Agar bu gaplaring to'g'ri bo'lsa, senga rahmat! — deb minnatdorchilik bildiribdi Kijavan. — Menga ozgina non bilan sut bo'lsa bas, boshqa hech nimaning hojati yo'q.

U bu so'zlarni aytib ulgurmasdanoq, dasturxonda issiq kulcha non bilan bir piyola sut paydo bo'libdi. Dehqon Kijavan sutni ichib, nonning bir burdasini yebdi va qolganlarini kaptarlarga ushatib beribdi.

Shundan keyin dehqon Kijavan baxthi yashay boshlabdi. Unga nimaiki zarur bo'lsa do'sti kaptar sovg'a qilgan uzuk hammasini birpasda muhayyo qilar ekan.

BOLTA BO'TQA

(Rus xalq ertagi)

Keksa askarga bir necha kun uyga borib kelishga javob berishibdi. U yo'l yurib rosa charchabdi, qorni ham ochibdi. Bir qishloqqa kelib, chetdag'i uyning eshigini taqillatibdi:

— Yo'lovchiga joy bormi?

Eshikni qari kampir ochibdi.

— Kiraver, askar.

— Mabodo yegani biron narsangiz yo'qmi? — deb so'rabdi yo'lovchi.

Kampir hamma narsa yetarli bo'lsa ham, askarga ovqat bergisi kelmay, o'zini nochorlikka solibdi:

— Ey, askar bolam, u yog'ini so'rasang, o'zim ham ertalabdan beri tuz totganim yo'q. Bo'lsa yeyman-da.

— Yo'q bo'lsa yo'q-da, — debdi askar.

Shu payt u bir chetda turgan boltani ko'rib qolibdi.

— Agar hech narsa topilmasa, boltadan bo'tqa pishira qolamiz, — debdi u.

Kampir uning bu gapiga anqayib qolibdi:

— Nima? Boltadan ham bo'tqa pishirib bo'larkanmi?

— Hozir ko'rasiz-da, — debdi askar. — Qani, qozonni keltiring-chi.

Kampir qozonni o'choqqa osgach, askar boltani yuvib, uni qozonga tashlabdi, keyin ustidan suv quyibdi. Kampir hanuz anqaygancha askarni kuzatib turarkan. Askar qaynay boshlagan suvni qoshiq bilan bir-ikki shopirib, so'ng tuzini tatib ko'ribdi.

— Xo'sh, qalay? — deb so'rabdi kampir.

— Hademay pishadi, — debdi askar. — Lekin tuzi pastroqqa o'xshaydi. Tuz topilmaydimi sizda?

— Tuz bor. Mana olaver.

Askar suvgaga tuzni tashlab, yana bir qoshiq tatib ko'ribdi.

— Juda zo'r, — debdi u. — Agar ozgina un ham solinsa, rohatijon bo'lardi.

Kampir shoshilganicha borib, bir xalta un olib kelibdi.

— Mana, un. Solaver, bo'tqa bo'tqadek bo'lsin-da.

Askar unni solib, yana rosa qaynatibdi. Keyin ozgina tatib ko'rib, hamon undan ko'zini uzmay turgan kampirga qarabdi.

— Oh, oh, qiyom bo'p ketibdi-ku, — deb labini yalab qo'yibdi. — Agar jindakkina yog' ham solinsa, yeb to'ymaydigan bo'tqa bo'ladi.

Kampirning uyidan yog' ham topilibdi. Shunday qilib, bo'tqani pishirishibdi.

— Qani qoshiqni olib keling, — debdi askar.

Bo'tqani ikkovlon maqtab-maqtab yeyishibdi.

— Oddiy boltadan shunday zo'r bo'tqa tayyorlasa bo'larkan-u, men bilmay yurgan ekanman, — ajablaniibdi kampir.

Askar esa asta jilmayib qo'yibdi.

ARILAR G'AZABI

(Ozarbayjon xalq ertagi)

Bor ekan-da, yo'q ekan, dunyoda bir fil bo'lgan ekan. Utinib-tinchimagan va juda sho'x ekan. Har safar bo'lar-bo'lmasga janjal chiqaraverar ekan. Kunlarning birida o'rmonda u xartumi bilan bir daraxtni o'rab olib, uni silkitaveribdi. Sal bo'lmasa daraxtni ildiz-pildizi bilan yerdan sug'urib olay debdi. Daraxt tagida o'rmon arilarining ini bor ekan. Filning silkitishidan arilar ini buzilib ketishi mumkin ekan.

— Fil aka, — iltimos qilishibdi arilar, — bizning uyimizni buzma.

— Uylaringning menga nima keragi bor? — javob beribdi fil.

— Sho'xlik qilgim kelgan edi-da.

— Voy, fil akajon-ey, — deyishibdi arilar, — biz senga o'ynama deyayotganimiz yo'q. Boshqa daraxtning tagida o'ynay qolgin.

— Shu yerdan boshqa yoqqa ketmayman, — tixirlik qilibdi fil.

— Bu vijdonsizlarni qara-ya, o'zлari zig'ircha-yu, yana birovga aql o'rgatishlarini-chi.

— Fil akajon, — uni ogohlantirishibdi arilar, — agar uyimizni buzadigan bo'lsang, seni o'ldiramiz.

— Qo'llaringdan kelganini qilinglar, — deb kulibdi fil. — Sizlardan qo'rqedigan ahmoq yo'q.

Arilar inlariga kirib, kattalar bilan maslahatlashishibdi-da, fildan yana bir marta iltimos qilib, bordi-yu, shunda ham ko'n-masa, uni to o'lguncha chaqishga qaror qilishibdi. Arilar ancha vaqtgacha filni bu ishdan qaytarishga urinishibdi. Lekin fil ularga e'tibor ham bermabdi.

Shunda arilar filga baravariga yopishib, boshi, ko'zi, qulog'i, xartumi va butun badaniga ignalarini sanchishaveribdi. Birpasda fil shishib, tog'day bo'lib ketibdi. Filning hayqirig'i butun o'rmonni tutib ketibdi. Fil qocha boshlabdi. Ammo arilar uni quvishaveribdi. Nihoyat, fil holdan toyib, gumburlab yerga yiqilibdi. Arilar uni o'rab olishib:

— Xo'sh, endi holing qalay, fil akajon? — deyishibdi.

Fil uyalganidan hatto boshini ham ko'tara olmabdi.

— Fil akajon, — deyishibdi arilar, — sen haybatingga ishonib, bizni qiynading. Lekin shuni bilginki, kuchsizlarni qiynaganning holiga voy bo'ladi.

YOLG‘ONCHI

(Arman xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir podsho bo‘lgan ekan. Kun-larning birida u har tomonga jarchilar yuboribdi. Ular xalqqa shunday xabar qilibdilar:

— Odamlar-u odamlar, kimda-kim yolg‘onchilikda g‘olib chiqsa, podshoyimiz unga oltin olma beradilar!

Podshoning huzuriga har yoqdan odamlar kela boshlabdi. Shahzodalar, vazir-u nozirlarning bolalari va boshqalar kelibdi. Ammo kelganlarning hech biri podsho ko‘nglini ovlay olmabdi.

Bir kuni podsho huzuriga bir kambag‘al katta xum ko‘tarib kelibdi.

— Senga nima kerak? — deb so‘rabdi podsho.

— Assalom, podshohi olam, — deb javob beribdi kambag‘al.

— Men o‘z haqimni olgani keldim: siz mendan bir xum oltin qarzdorsiz-ku.

— Yolg‘on, — debdi podsho. — Men sendan hech narsa qarzdor emasman.

— Yolg‘onmi? Unday bo‘lsa, o‘sha oltin olmani, marhamat qilib menga bersinlar.

Podsho uning ayyorligini sezib, o‘zini go‘llikka sola boshlabdi.

— Yo‘q, aldayotganing yo‘q.

— Aldamayotgan bo‘lsam, unda qarzingizni bering.

Podsho yolg‘onching yutganini tan olib, bir og‘iz ham gapirmay, oltin olmasini kambag‘alga bergen ekan.

ROSTGO‘Y BOLA

(Turkman xalq ertagi)

Bir kishining o‘g‘li bo‘lgan ekan. Ularning qirqta oltin tangasi bor ekan. Otasi shu qirq oltin tangani o‘g‘lining eski choponi yoqasiga tikib, uni savdogarlarga qo‘shib yuboribdi.— O‘g‘lim, hecham yolg‘on gapirma, halol bo‘lgin, — deb o‘g‘liga buyuribdi.

Savdogarlar yo‘l yurishsa ham mo‘l yurishibdi, bir joyga yetib borishganda ularga qaroqchilar hujum qilishibdi. Qaroqchilar o‘zaro maslahatlashib, „mana bu yalangoyoqqa u-bu narsa bersakmikin“ deyishibdi.

Qaroqchilardan biri bolani masxara qilib so‘rabdi:

— Ey, yalangoyoq, sendan nimani ham olish mumkin?

— Menda qirqta oltin tanga bor, — deb javob beribdi bola.

— Senda qirqa oltin tanga nima qilsin? — deyishibdi qaroqchilar kulib.

Shunda bola chophonining yoqasini yirtib, oltin tangalarni ko'rsatibdi.

— Nega bularni bizga ko'rsatding? — deb so'rashibdi qaroqchilar. — Biz senga pul bermoqchi edik, endi bo'lsa buni ham olib qo'yamiz.

— Hechqisi yo'q, otam halol bo'l, yolg'on gapirma, deb o'rgatgan, — deb javob beribdi bola.

Hayron bo'lган qaroqchilar savdogarlarga mol-mulkini, pullarini qaytarib berib, halol mehnat qilish uchun qaroqchilikdan voz kechishibdi.

HAQQUSH

(Tojik xalq ertagi)

Bir baliqchi bo'lган ekan. U ertalabdan kechgacha daryo bo'yida o'tirib baliq tutar ekan. Tutgan baliqlarini bozorda sotarkan. Bu pul xotini ikkisining tirikchiligiga zo'rg'a yetar ekan.

Kunlardan bir kuni baliqchi ov qilayotgan daryo bo'yiga Haqqush uchib kelibdi-da, daraxtga qo'nib, baliqchi nima qilayotganini kuzata boshlabdi.

Baliqchi oqshomga yaqin bitta kichkina baliqchani tutibdi, xolos. Buni ko'rgan qush undan:

— Bu baliqchani nima qilmoqchisan? — deb so'rabi.

— Nima qillardim, baliqchani bozorga oborib sotib, non olaman. Uyda kampirim ikkimiz tamaddi qiladigan hech vaqo yo'q, — debdi baliqchi.

— Sizlarga achinaman! — debdi Haqqush. — Mayli, shunday bo'la qolsin, har kuni hovlilaringga kattakon baliq olib kelaman. Qarigan chog'laringda qiynalmay yashanglar. Ammo faqat Haqqush haqida hech kimga og'iz ocha ko'rmanglar.

Shu kundan boshlab, Haqqush har kuni baliqchining hovlisiga kattakon baliq olib keladigan bo'libdi. Kampir baliqni bo'lib-bo'lib qovurar, baliqchi esa ularni bozorga olib borib sotar ekan. Chol bilan kampir tezda boyib ketishibdi, hatto bog'i bor uy ham sotib olishibdi. Bir kuni baliqchi har galgidek bozorda qovurilgan baliq sotayotgan ekan. Birdan uning yonidan podshoning jarchisi o'tib qolibdi. U:

— Kim Haqqushni qayerdan topishni aytsa, shoh unga yarim podsholigi va qizini beradi! — deb qichqiribdi.

Bu so‘zlarni eshitgan baliqchi chol o‘rnidan sakrab turmoqchi bo‘libdi-yu, ammo Haqqushga jim yuraman deb va’da bergenini eslab, yana o‘rindig‘iga cho‘kibdi.

Ammo jarchi o‘rnidan sakrab turmoqchi bo‘lgan cholni sezib qolibdi. U Haqqush haqida biror narsa bilsa kerak deb o‘ylab, cholni podsho huzuriga sudrab olib boribdi.

— Qariyapman, — debdi podsho, — o‘nlab tabiblar turli xil dori-darmonlar berib meni yoshartirishholmadi. Bir tabibning gapicha, Haqqush qoniga yuvinsam, qayta yoshararmishman. Agar sen o‘sha qushni tutib bersang, yarim podsholigim bilan qizimni senga bergenim bo‘lsin. Agar qushni tutib berishga ko‘nmasang, o‘limga buyuraman.

— Ammo Haqqush shunday kattaki, — debdi baliqchi, — uni yuzta odam ham tutishi qiyin.

— Men senga to‘rt yuzta odam beraman, faqat qushning qayerga uchib kelishini ko‘rsatsang bas. Odamlarim, albatta, uni tutishadi, — debdi podsho.

Baliqchi chol shoh xizmatkorlarini uyiga olib borib Haqqush har kuni hovlisiga uchib kelishini va baliq tashlab ketishini aytib beribdi.

— Qushni havoda tutib bo‘lmaydi, — deyishibdi xizmatkorlar.

— Unga ovqat tayyorlab, yerga tushib yeb ketishga ko‘ndir. Shunda uni tutib olamiz.

To‘rt yuzta odam baliqchining hovlisida qushni poyley boshlashibdi. Baliqchi kosaga yemish solib, hovli o‘rtasiga qo‘yibdi-da, qushning kelishini kuta boshlabdi. Qush uchib kelishi bilan baliqchi:

— Ey Haqqush, kel, hovlimga qo‘n! Mehmonim bo‘l! — deb qichqiribdi.

Qush yerga qo‘nib kosadagi ovqatdan cho‘qilay boshlabdi. Shunda to‘rt yuz odamning hammasi unga tashlanibdi. Qush qanotlarini qoqib ko‘kka talpinibdi.

Baliqchi qushning oyog‘idan ushlab qolishga ulguribdi va u ham qush bilan birga havoga ko‘tarilibdi. Podsho xizmatkorlari esa baliqchining oyog‘idan mahkam ushlab olishibdi. Shunday qilib, hammasi bir-birining oyog‘idan ushlagancha qush bilan birga ko‘kka ko‘tarilishibdi. To‘rt yuz odam zanjirga o‘xshab havoda muallaq qolibdi.

Haqqush esa borgan sari yuqorilayveribdi. Baliqchining qo‘llari tolib, panjalari ezilib ketibdi. Shunda qushning oyog‘ini qo‘yib yuboribdi. Odamlarning hammasi yerga qulab majaqlanibdi. Insofsiz baliqchi ana shunday jazo topgan ekan.

QIZG‘ANCHIQ PAK

(Koreys xalq ertagi)

Qadim zamonda Olmos tog‘larida Pak degan qizg‘anchiq bir odam yashar ekan. Ko‘ziga nima ko‘rinsa, hammasini olgisi kelar, ko‘zi hech to‘ymas ekan.

Bir vaqt uning qopqoniga burunduq tushib qolibdi, u oddiy emas, kumush yungli ekan.

Pak suyunib ketib, burunduqni ushlab, o‘ldirmoqchi bo‘libdi. To‘satdan burunduq tilga kirib:

— Meni o‘ldirma, qo‘yib yubor. Istaganingni beraman, — debdi.

— Istaganimni berasanmi? Shunday qilki, nimaga qo‘limni tekkizzsam, u narsa kumushga aylansin, uni mendan boshqa odam olmasin, shu shart bilan seni qo‘yib yuboraman, — debdi qizg‘anchiq Pak.

— Istaganing bajo keltiriladi, — deb javob beribdi burunduq.

Qizg‘anchiq Pak qopqonni ushlasa, qopqon kumush bo‘lib qolibdi. Pak burunduqni qo‘yib yuborib, uyga yuguribdi. Suyunganidan esini yo‘qotib chopibdi.

Uyning eshigini ushlagan ekan, oldida kumush eshik paydo bo‘libdi. Uyga kirib yog‘log‘ini ushlasa, u ham kumush bo‘lib qolibdi. Boshmog‘ini yechib, uni ostonaga qo‘yan ekan, boshmoq kumush bo‘lib qolibdi. Yerdagi bo‘yra ham Pakning qo‘li tegishi bilanoq kumushga aylanibdi. Bunday boylikni ko‘rgan qizg‘anchiq Pak esini yo‘qotib, uyda va hovlida chopib, hamma narsani ushlayveribdi. Axir charchab qorni ochib, ovqat yegisi kelibdi. Buni ko‘ringki, ovqatlar ham kumushga aylanaveribdi.


Tovoqchada guruch olsa, tovoqcha ham, guruch ham, ovqat yeydigan cho‘plar ham darrov kumush bo‘lib qolibdi. Pakning ovqat yegisi kelibdi-yu hech yeyolmabdi. „Bir iloj qilib chidarman, — deb o‘ylabdi qizg‘anchiq Pak. — Lekin mening boyligimga hammaning havasi keladi!“

To‘g‘ri, Pakka havasi kelgan odamlar ham topilibdi.

Lekin ko‘p o‘tmay yo‘g‘on Pak ingichka Pakka aylanib qolibdi: kun sayin ozib, tez kunda cho‘pdek bo‘lib qolibdi. Qizg‘anchiq Pak o‘zining sovuq, qattiq kumush o‘rniga yotib, ochlikdan va sovuqdan o‘lib ketibdi.

Alisher Navoiy

(1441—1501)



Alisher Navoiy o‘zbek adabiyoti va adabiy tilining asoschisidir. Shoirning besh yirik dostonidan iborat „Xamsa“, to‘rt devonni o‘z ichiga olgan „Xazoyinul-maoniy“ asari unga jahonshumul shuhrat keltirdi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida inson va insoniylikni ulug‘ladi. Odamlar bir-birlariga g‘amxo‘r, mehribon va jonkuyar bo‘lib yashashlarini orzu qildi. Buyuk shoirning ko‘pgina asarlarida bu masala qayta-qayta ta’kidlandi.

Alisher Navoiy o‘zining mashhur dostonlaridan biri — „Hayratul-abror“ da odob va kamtarinlikni ulug‘laydi, ta’lim va tarbiya haqida qimmatli fikrlar aytadi. Ayniqsa, ota-onani hurmat qilish, e’zozlash, ularning pand-nasihatlarini qulogqa olish foydadan xoli bo‘lmasligini yozadi:

*Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun-kuningga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin — quyosh!

So ‘zlaridan chekma qalam tashqari,
Xatlaridin qo‘yma qadam tashqari!*

Alisher Navoiy yoshlarning kasb-kor egasi bo‘lib kamol topishlarini juda orzu qiladi. „Farhod va Shirin“ dostonining bosh qahramonlaridan biri Farhod ko‘pgina kasb-hunar egasi. Tosh yo‘nish hunari esa bularning ichida eng a’losi hisoblanadi.

Arman mamlakatida Farhod:

*Hunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tuproqqamu ketgumdur oxir!—*

deya tosh yo‘nuvchilarga yordam berib, minglab kishilarning ishini yengillashtiradi.

Alisher Navoiy halollik, rostgo‘ylikni sevadi. Kimki nopol bo‘lsa, birovlarни aldasa, yaxshilikka olib kelmasligiga, xalqni bir aldagani kishi uning qahr-g‘azabiga uchrashiga alohida urg‘u berib yozadi:

*Bor emish avval zamonda bir kishi,
Doimo yolg‘onchilik qilgan ishi.

Bir kuni uyini o‘t olgan emish,
Qutqaring, deb dod-voy solgan emish.*

Ammo hech kim unga yordamga kelmaydi. Chunki u yolg‘on gapirib, xalqni aldagani.

Alisher Navoiy o‘zining o‘lmas asarları bilan xalqımız tilida va dilida yashayveradi.

HAYRATUL — ABROR

(Dostondan parcha)

Oltinchi maqolat

Yoshlarga baxtiyorlik boisi, kattalarga shukuh sababchisi bo‘lgan odob va tavoze‘ maqtovida...

Ey, talab uyida nishast aylagan,
Qaddini xizmat yuki past aylagan.
El yo‘lida gard o‘lubon dard ila,
Kibr ko‘zin ko‘r etib ul gard ila.
Ashki riyozatki sochib har sari,
Andin o‘chub nafs-u havo o‘tlari...
Lek bu yo‘l qat’ida sharti talab,
Bilki tavozu‘ bilan kelmish adab.
Chunki tavozu‘g‘a o‘ldi hilol.
Bo‘ldi fuzunroq anga har kun kamol...
Charx tavozu‘ uza to-ham dudur,
Tobei amri bori olam dudur...
Elga sharaf bo‘lmadi joh-u nasab,
Lek sharaf keldi hayov-u adab,
Chunki yog‘in manbayi o‘ldi hayo,
Qatrasi tuprog‘ni qilur kimyo.
Bo‘lmas adabsiz kishilar arjmand,

Past etar ul xaylni charxi baland.
Tarki adabdin biri kulgu durur,
Kelgu adab tarkiga belgu durur,
Kelgu adab tarkiga belgu durur.
Qahqahadin kabk navo kelturub,
Boshig'a ul kulgu balo kelturub.
G'uncha kulub bo'ldi ochilmoq anga,
Yetti ochilmoqda sochilmoq anga...
Kulguki o'z haddidin o'ldi yiroq,
Yig'lamoq andin ko'p erur yaxshiroq...

* * *

...Biri erur makrumati validayn,
Balki munung qilag'idur farzi ayn.
Bu ikkining xizmatini bir bil,
Har necha ifrot esa, taqsir bil.
Boshni fido ayla, ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a...
Tun-kuningga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin—quyosh.
So'zlaridin chekma qalam tashqari,
Xatlaridan qo'yma qadam tashqari...
Kimki ulug'roq anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq anga shafqat kerak...
Yana budurkim, toni xizmat chog'in,
Ayla, vale aylamagandek sog'in.
Yana bukim, yaxshi-yomon dema so'z,
El yomon-u yaxshisiga solma ko'z...

Nasriy bayoni:

Ey, talab uyida qaddini xizmat yuki eggan kishi. El xizmati yo'lida gard bo'lib, ana shu gard bilan kibr ko'zini ko'r qilding. Qiyinchiliklar tufayli to'kkani ko'z yoshlaring bilan nafs-u havo olovlarini o'chirding

Bu yo'lning talab sharti shu: odob tavoze bilan birga yashaydi. Oyning o'rog'i tavozega egilgani uchun kundan-kun uning kamoloti osha boradi. Falak tavoze bilan egilgani uchun jahon eli uning amriga tobedirlar.

Nasab va amal kishiga sharaf emas. Hayo va odob tufayli kishi sharaf qozonadi. Hayo yog'in manbayi bo'lgani uchun uning har tomchisi tuproqni qiyomga aylantiradi.

Odobsiz kishilar mo'tabar bo'lmaydilar, yuksak falak ularni tubanlashtiradi

Odob buzilishining bir belgisi qattiq kulgidir. Qattiq kulgi odobsizlik belgisidir. Kaklik qah-qah otib sayragani uchun boshiga u kulgi balo. Olib keladi (ya'ni ovchi qo'liga tushadi).

G'uncha kulib ochilgani uchun, darhol yaproqlari sochila boshlaydi. O'z haddidan ortiq kulgidan ko'ra yig'lamoq afzaldir...

* * *

Biri buki: ota-onani aziz tutmoq kerak. Bu ishni shart va farz deb bil. Ularning har ikkisiga birday xizmat qil. Har qancha ko'p xizmat qilsang, oz deb bilgin.

Ota qoshiga boshni fido qil. Ona boshiga taningni sadqa et. Ularni tun-kuningga nur sochuvchi oy va quyosh deb bilgin. So'zlaridan tashqari chiqma, chizgan chiziqlaridan tashqariga qadam qo'yma...

Yoshi ulug'roq kishilarga xizmat qilish kerak. Kichik yoshlilarga nisbatan shafqatli bo'lmoq lozim.

Yana biri buki, xizmat paytini bilmoq kerak. Xizmat qilish kerag-u, o'zni xizmat qilmagandek olib yurish ma'qul.

Yana biri: bo'lar-bo'lmas so'zlarni vaysayverma. Elning yaxshi-yomon tomonlariga tahqirli nazar solma...

Uchinchi maqolat

To'g'rilik ta'rifa

Har kishikim tuzluk erur peshasi,

Kajrav esa charx ne andeshasi?!

... Yo'l necha tuz, yo'lchig'a maqsad qarib,

Hamligidin tushsa yiroq yo'q ajib.

Nay tuz uchun istar ani ahli hol,

Chun tuz emas egri — ko'rар go'shmol...

Sarvkim, ul to'g'ri chekib qomatin,

Ko'rmayin osibi xazon ofatin.

Chirmashibon sunbuli tar bog' aro,

Egrilik oning yuzin aylab qaro.

Tuz durur egri qili to soz erur,

Egri bo'lur emdiki, nosoz erur...

Rostur ul kim, nazari to'g'ridur,

Kim iligi egridur, ul o'g'ridur...

Ko'zki erur egri aning xilqati,

Birini iki ko'rmak erur san'ati...

Xatdin o'lub anda dog'i bu sharaf,
Xatti bo'lib gavhar-u xotam sadaf.
Turfa bukim, xattin aning ro'zgor
„Rosti-yu rasti” etib oshkor...
Bir buki, tuz bo'lsa kishining so'zi,
Yo'q so'zikim, ham so'zi-yu ham o'zi!
Bir buki, yolg'onga taassuf bila,
To'g'ri degay so'zni takalluf bila...
Egri-yu tuz vasfi muhaqqaq durur,
Boutil erur egri-yu tuz haq durur...
Sham'ki, tuzluk bila masrur o'lur,
Garchi kuyar boshtin-ayoq nur o'lur.
Barqqi, egrilik o'lubtur ho'yi,
Garchi yorur, lek borur yer quyi.
To raja chekmas yeriga bog'bon,
Bog' hamon zebda, jangal hamon.
Molasiz ul tuxmki, dehqon sochar,
Suvni teng ichmas nega yak son sochar...
Kimsaga yolg'onchi debon qolsa ot,
Bu ot ila chorlasalar o'z-u yot.
Sidq xitobi yana yonmas anga,
Chin desa ham, xalq inonmas anga...
Necha zarurat aro qolg'on chog'i,
Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i.

Nasriy bayoni:

Hunari to'g'rilik bo'lgan kishining falakning teskarichiligidan ne parvosi bor? Yo'l qancha to'g'ri bo'lsa, yo'lovchining manzili shuncha yaqin bo'ladi. Agar yo'l aylanma bo'lsa, manzil uzoqlashadi.

Nay to'gri bo'lgani uchun idrok ahli uni tinglashni istaydi. Ayrim musiqiy asboblar egri bo'lgani uchun qulog'ini buraydilar.

Sarv — qomati tippa-tik bo'lgani uchun hamisha yam-yashil gurkirab turadi. Yaproqlari xazon bo'lmaydi.

Bog'da chirmashiq sunbulning yuzini o'z egriligi qoraytirgan. Musiqiy asbobning tori to'g'ri bo'lsa, chalinadi, egri bo'lib bukil-dimi — buzilgan bo'ladi.

To'g'ri nazarli kishi rostgo'ydir. Qo'li egri kishi o'g'ridir. Ko'z agar olus (egri) bo'lsa, bir narsani hamisha ikkita ko'radi.

Sulaymonning qo'lidagi uzukning yozuvi gavhar, o'zi sadaf edi. Qizig'i shundaki, gavhardagi yozuv „to'g'ri bo'lsang — o'sasan” degan hikmat edi...

Kishining ham so'zi, ham o'zi to'g'ri bo'lishi kerak. Unday kishi yolg'on so'zga afsuslanib, lutfan to'g'ri so'zni gapirishi lozim.

Egri va to'g'rining maqtovi aniq: egri — tuban, to'g'ri — haqdir. To'g'rilik bilan xursand sham yonar ekan, boshdan-oyoq nurga aylanadi. Fe'li egrilik bo'lgani uchun yashin yorug'lilik taratsa-da, yer ostiga kirib ketadi.

Bog'bon daraxtlarni reja bilan tikmasa, uning bog'i chakalak-dan qanday farq etsin!

Dehqon urug'ni qanchalik bir tekisda sochmasin, agar mola bosib to'g'rila masma, yer hech qachon teng sug'orilmaydi.

Agar biror kimsa yolg'onchilikda nom chiqarsa, uni o'z yaqinlari va begonalar „yolg'onchi!” deb chaqirsalar, ortiq rostgo'ylik bilan nom chiqarmaydi. Rost gapirsa ham xalq unga ishonmaydi.

Har qanday qiyin ahvolda qolganingda ham, chin gapirmasang, hech bo'lmasa, yolg'on so'zlama.

FARHOD VA SHIRIN

(*Dostondan parcha*)

Farhodning bolalik va yoshlik yillari

...Anga farzona Farhod ism qo'ydi,
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi:
Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.
Borin ustodi ishq etgach murakkab,
Tarakkubdin bu ism o'ldi murattab...
Keturdilar hakimi nuktadone.
Bilik birla jahon ichra jahonne.
Falak mushkillari hal yikratidin,
Falakka mushkil oning diqqatidin...
Qayu ilmiki yo'q andin ayonroq...
Yorutqoch bazmni donoyi olam,
Tilab shahzodani doroyi olam.
Qilib ta'limig'a yuz nav ta'kid,
Falak olinda manzil tutti xurshid...
Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.
Ne so'znikim o'qub ko'ngliga yozib,
Dema ko'nglikni, jon davhida qozib.
O'qib o'tmak, uqub o'tmak shiori,

Qolib yodida safha-safha bori...
Ishi bu yanglig' erdi el aro fosh,
Ki to umridin oning o'tti o'n yosh.
Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm...
Ulum avroqi chun bir-bir yopildi,
Dilovarliq silohi mayl qildi.
Chu oz fursat anga mayl etdi zohir,
Qayu bir mayli qilg'och bo'ldi mohir...
Hamul ilmi baland ovoza birla,
Bu yanglig' zo'ri beandoza birla.
O'zin abjad o'qur eldin tutib kam,
Dema donishki, zo'ri dast ila ham.
Bo'lib shahlar eshigining gadoyi
Va lekin ul gadolar xoki poyi...
Demonkim ko'ngli pok-u ham ko'zi pok,
Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok...

Nasriy bayoni:

Unga dono Farhod deb nom qo'ydilar. Bu ismning manbayi besh qismdan iborat bo'lib, bu so'z firoq, rashk, hajr, oh va dard so'zlarining bosh harflaridan yig'ilgandir. Ishq ustodi ana shu harflarni qator tuzgach, Farhod ismi tarkib topdi.

Uning tarbiyasiga zukko bir ustozni jalb etdilar. O'qituvchining bilim darajasi shunchalik yuksak ediki, go'yo uning o'zi bir dunyo edi. Uning fikri falak mushkullarini hal qilar, falak uning o'tkir diqqatiga tob berolmasdi.

Dunyodagi qaysi ilm eng qiyin va murakkab hisoblansa, uning uchun undan jo'nroq narsa bo'lmasdi. Yig'inni olam donosi bilan bezab, olam hukmdori shahzodani chaqirib, uning ta'limiga uqtirishlar qilib qo'ydi. Go'yo falak qarhisiga quyosh kelganday bo'ldi...

Agar har bir saboqni bir marta ko'rsa, ortiq o'sha varaqni qaytarishga ehtiyoj qolmasdi. Qaysi so'zni o'qisa, go'yo ko'ngliga yozib borardi. Bugina emas, go'yo jon lavhasiga qazib yozardi. Uning odati o'qib o'tish — uqib o'tishdan iborat edi. Sahifa-sahifa yozuvlarning hammasi yodida qolardi...

El orasida ana shu sifatlar bilan tanilib yurib, yoshi o'nga yetdi. Jahonda u yetmagan ilm, u haqiqatini bilib ulgurmagan fan qolmadi.

Ilm-fan varaqlari birma-bir yopilib, bahodirlik quollariga mayl bildirdi. Jang-jadal hunarining qay biriga qiziqqan bo'lsa, o'sha sohada mohir bo'lib yetishdi...

Shunchalik dong'i ketgan bilimdonlik va cheksiz kuch-qudratiga qaramay, Farhod o'zini alifbexon boladan ham kamtarroq tutardi. Shohlar uning eshigida gado, u esa gadolar oyog'i ostidagi tuproqdek tavozeli edi. Uning ko'ngli va ko'zagina pok demayman, uning tili ham, so'zi ham, o'zi ham pok edi...

Farhodning Armaniyyaga yetib, ariq qazuvchilari mushkulini osonlashtirgani

... Guruhe erdi dard-u dog' ichinda,
Arig' qozmoqqa shog'il tog' ichinda...
Iki yuz xorabur ilgida tesha,
Urub ul tesha tosh uzra hamesha...
Ikki yuz ustod uch yil qilib kin,
Zamone tinmayin urmoqta metin.
Qozilib ikki-uch yuz qori xora,
Qolib oning ko'pi ham nimkora.
Alar qon yig'labon mundog' anodin,
Vale sarkorlar timoy jafodin.
Nazar qildi chu ul holatga Farhod,
G'amin o'ldi ko'rub ul nav' bedod...
Chu kayfiyatni ma'lum etti Farhod,
Alar holig'a ko'ngli bo'ldi noshod.
Dedi: „Bu necha mazlumi sitamkash,
Falak bedodidin bo'lg'on alamkash.
Ki vayronlig'larida yuz xalaldur,
Agar qilsam madad voqe' mahaldur.
Hunarni asrabon netkumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketkumdur oxir?!”
Temurchidin tilab dam birla ko'ra,
Beliga bog'labon charmin tanura.
Dam uchin ko'rag'a chun mahkam etti,
Ravon to'kti ko'mur, dog'i dam etti.
Ko'murni qildi chun axgar nekim bor,
Tilab metin-u tesha harnekim bor.
Solib axgar aro borin qizitti;
Necha afzor qildi chun eritti.
Har o'n-o'n beshni bir metin qilib rust,

Yana ham onchani bir teshayi chust.
Necha gurza, necha sunboda aylab,
Kamar qozmoq ishin omoda aylab.
Nihoniy borchag'a andog' suv berdi,
Ki Qorandin nihon o'rganmish erdi.
Taraddudug'a solib oni bu ahvol,
Ulusni girdida hayrat qilib lol.
Savole aylay olmoy kimsa bir so'z,
Shukuhidin tikib bori anga ko'z.
Chu xoli ayladi afzordin el,
Ravon xoro kesarga bog'ladi bel.
Kirib oriqli qozmoq ayladi mayl,
Qoza boshladi qumni o'yakim sayl.
Kesib har teshasi qilg'och xaroshi,
Falak pili yukidek pora toshi.
Chu metin zarbidin aylab siteza,
Qatiq xoroni aylab reza-reza.
Aningdek teshadin sekrib ushoq tosh,
Ki nozir bir yig'ochdin qochurub bosh.
Uchub yetganda zarbi dasti oning,
Ki borib o'n yigoch farrasti oning.
Hamul kun-o'q daleri xorabur gov,
Muhayyo qildi xoro ichra bir nov.
Ki uch yil ikki yuz xorobur ustod,
Ola olmoy ham oncha xoradin dod.
Hunar mundog' chu zohir qildiki ko'p,
Tushub ul tog' aro el ichra oshub.
Bo'lib ham korgar, ham korfarmoy,
Mehinbonu qoshig'a dashtpaymoy.
Ki qilg'aylar bu ishkim ko'rdilar naql,
Inonmas garchi oni ko'rmayin aql.

Nasriy bayoni:

Bir guruh kuyib o'rtangan kishilar tog' orasida ariq qazishga mashg'ul edilar. Ikki yuz toshkesar qo'lida tesha bilan ishda, teshani hadeb toshga urish bilan ovora edilar. Metin urishni biror lahza to'xtamay ikki yuz mahoratli ishchining uch yilda bajargan ishlari bor-yo'g'i ikki-uch yuz qari (Qadimgi uzunlik o'Ichovi. Taxminan 1 m ga teng keladi.) masofa bo'lib, uning ham ko'pi chala-chulpa edi. Ular bu azobli ishdan qon yig'lashar, ishboshilar esa nazorat qilib zulm o'tkazganlari o'tkazgan edi.

Farhod bu holatga nazar solib, ko'ngli buzildi. Ish kayfiyatini bilgach, ularning ahvoliga achindi. Dedi: „Bu bir necha sitamkash mazlumlar falak zulmidan alam tortganlar. Bu nochorliklarida talay nuqson bor. Bularga madad qilsam – ayni paytidir. Hunarni asrab nima qilardim? O'zim bilan tuproqqa olib ketamanmi?!”

Temirchidan dam bilan ko'rani tilab, beliga charmlik etakni bog'ladi. Dam uchini ko'raga mahkamlab, darhol ko'mir to'kib dam bera boshladi. Hamma ko'mirni laxchadek, qilib, o'sha yerdagi barcha metin va teshalarni yig'ishtirib, olovga solib qizdirdi. Ularni eritib, o'n-o'n beshtasidan bittadan metin va teshalar yasadi. Gurzi va qayroq ham tayyorladi. Tosh yo'nish ishiga tayyorlanib, asbob-larga yashirinchal suv berdi. Maxsus suv berish san'atini u Quran-dan o'rgangan edi.

Farhod ishga kirishishga taraddudlanar, xalq uning atrofida hayratlanib lol turardi. Hatto biror savol so'rashga ham botinolmas, uning shukuhiga mahliyo bo'lib, ko'zlarini uzolmas edilar.

Nihoyat, hamma tarqalgach, Farhod darhol tog' kesishga bēl bog'ladi. Ariqqa tushib qaza boshladi: toshlar qumga aylanib, seldek nari surilardi. Uning har tesha urib ko'chirgan toshi falak filiga bir ortiladigan yukdek kelardi. U metinni zarb bilan urar, toshlarni mayda-mayda qilardi. Uning teshasi zarbidan uchgan toshdan uch yog'och (24 km) masofadagi kuzatuvchi o'z boshini olib qochardi. Uning qo'l kuchi zarbidan uchgan tosh o'n yog'och (80 km) ga borib tushardi.

Bahodir toshkesar Farhod o'sha kuniyoq qoyatosh orasidan bir nov ochdi. Ikki yuz toshkesar usta uch yil davomida ham bunchalik ish qilolmagan edilar. Bunday hunarmandlikni ko'p ko'rsatganidan so'ng, tog' orasidagi elda shov-shuv ko'tarildi. Toshkesar ishchilar ham, ish buyuruvchi sarkorlar ham Mehin-bonus huzuriga ravona bo'ldilar. Ular to ko'z ko'rmasa, aql ishon-maydigan bu ishni malikaga naql qilish uchun shoshar edilar.

SADDI ISKANDARIY

(*Dostondan parcha*)

KABUTAR HIKOYASI

Eshittimki bir toyiri nomabor,
Bitik zimnida sharhi hangomabor...
Topib erdi bir shoh qaydida band:
Yetib erdi bol-u parig'a gazand.
Falak gardishi aylabon zulm-u zo'r,

Necha yil ani aylabon xonago'r.
Chu zindonidin qochti ul benavo,
Nishot-u farah birla tutti havo.
Singib ko'kka har sori chun boqti ul,
O'zining diyori sori tutti yo'l.
Qilib sa'y uyla tayri faxundashay,
Necha kunchilik yo'lni bir damda tay.
Vale zulmi davron solib inqilob,
Qilib erdi ul bo'lg'on uyni xarob.
Kabutar yetishgach uyin topmadi,
Valekin uchardan qanot yopmadi.
Base el bo'lib tom uza donarez,
Uchurib kabutar berur erdi xez.
Bular sori hech aylamay iltifot,
Ular erdi o'z tomin istab qanot.
Base davr urub ehtiyot aylabon,
Buzug' uzra qo'ndi nishot aylabon.
Ki ma'nus erur garchi vayronadur,
Netay shoh qasrinki begonadur.
Erur qushqa xushroq chu boqsang ayon,
Murassa' qafasdin tikan oshyon.

Nasriy bayoni:

Eshitishimcha, maktub tashuvchi bir qush, ko'ngullar rozini
bir-biriga yetkazadigan kabutar bir shohning bandiga tushib, pat
va qanolari zararlangan edi. Falakning gardishi zulm va zo'rlik qilib
uni bir necha yil qafasga soldi. Bir kuni u qafasdan qochib chiqib,
shod-xurramlik bilan ozodlik ko'kiga qanot qoqib parvoz qildi. U
juda ham balandga — osmon-u falakka ko'tarilib olgach, o'z yurti
tomon yo'l oldi. G'ayratli, tez uchar qush bir necha kunlik
yo'lni oz muddatda bosib o'tdi. Biroq, hayhotki, zamon zulmi
buzg'unchilik ko'rsatib, uning uyasini xarob qilgan edi. Kabutar
izlay-izlay o'z uyasini topolmasdi. Lekin izlab qanot qoqishdan
to'xtamasdi. Juda ko'p kishilar tomlariga chiqib don sepishar, o'z
kabutarlarini bunga qarata uchirishardi. Biroq bu kabutar ularning
na don-u, na kabutarlariga qaramay, o'z uyasini izlagani - izlagan
edi. Nihoyat rosa aylana-aylana o'z uyasi vayronasiga avaylab kelib
qo'ndi va kayfi chog' bo'lidi.

— Vayrona bo'lsa-da, shu menga yoqimlidir. Shohning yot
qasrini nima qilay?! — derdi u o'z-o'ziga.

Bunday qarasang, hatto qushga ham serziynat oltin qafasdan
o'z tikanli uyasi yaxshiroqdir.



Muhammad Sharif Gulxaniy

Gulxaniy XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biridir. Shoирning asli ism-sharifi Muhammad Sharif bo'lib, Gulxaniy uning taxallusidir. Gulxaniy Jur'at taxallusi bilan ham asarlar bitgan.

Asli Qorategindan bo'lgan Gulxaniy yashash, tirikchilik o'tkazish uchun Farg'ona va Namanganda odamlarning yumushini bajarib yashashga majbur bo'ladi. Qo'qonga kelib, go'laxlik qiladi, saroyda navkar bo'lib xizmat qiladi. Hayoti musibatli bo'lgan, qashshoqlik bilan kun kechirgan Gulxaniy zamonasidagiadolatsizliklardan, ayrim amaldorlarning insofsizligidan shikoyat qiluvchi she'rlar yozdi. Undan bir necha g'azal hamda „Zarbulmasal“ asari bizgacha yetib kelgan.

O'z davrining mutafakkiri bo'lgan shoир „Zarbulmasal“da axloq-dodob va tarbiya masalasiga katta ahamiyat bergen. Zarbulmasal — maqol demak. Shoир bu asariga to'rt yuzga yaqin maqol va matallarni singdirgan. „Zarbulmasal“dagi maqol va matallar o'quvchilarni hushyorlikka, aqli, mulohazali bo'lishga, o'z kasbini sevishga, andishalikka chorlab, farosatsizlikka qarshi kurashga o'rnatadi.

„Zarbulmasal“da o'nga yaqin masal namunalari ham bor. Shoир bu masallarda yo'qsil oilalarning ayanchli ahvolini („Tuya bilan bo'taloq“) uqtirib, qo'lidan kelmagan ishlarga qo'l urib sharmanda bo'ladigan, betayin kimsalarni („Maymun bilan Najjor“) hajv qamchisi bilan savalaydi.

MAYMUN BILAN NAJJOR

Bor edi Kashmir navohisida tog',
Bog'i Eram rashkidin ko'ksida dog'.
Anda imoratg'a yarog'lig' yag'och,
Yetti quloch — bo'yi, en — ikki quloch.
Bor edi ko'p ne'mat-u alvonlari,

Xurram-u ma'mur edi hayvonlari.
Zulf kabi sunbuli xushbo'ylari,
Rohati jon erdi oqar suvlari.
Uydan ulug'roq edi bir gulbune,
Anda vatan tutmishe edi maymune.
Jon sotib o'zin o'yin etardi tan,
O'qur edi qissayi „Hubbul vatan“.
Yer edi ko'ngli tilagan mevasin,
Boshlar edi odamiylik shevasin.
Bir kuni najjori xiradmandi fard,
Ko'ngli yog'och yo'qlig'idin qildi dard.
Bordi o'shal tog'gaki — mavquf edi,
Ezgu yag'ochlar ancha ma'ruf edi.
Shaharning zindonidin ozod o'lub,
Tog'ning Shirinig'a Farhod o'lub.
Sonur edi o'zini tog' Xisravi,
Tog'ni o'qub Dehlaviyi ma'naviyi.
Elina navkissalarin qistari,
Rasm edi najjor yag'och istari.
Egdi u dil go'shasining pardasin,
Belga suqib tesha bila arrasin.
Borib anga kesti yog'och reshasin,
Qo'ydi o'shal yerda unutib teshasin.
O'zga tog'ga borib yana kesti yag'och,
Yormoqni magar yana qildi iloj.
Bolta birla bir uchini yordi ul,
Pona qo'yub tesha sari bordi ul.
Tushti banogoh anga maymun ko'zi,
Oqil-u dono sonub ul dam o'zi.
Aydi: „Ulus ichra bu bir kasbdur.
Kasbni boshina kiysang nasbdur.
Kisai purzar emish elga hunar,
Behunar elni dedilar: „Go'shi xar“.
Men daxi najjorlikni o'rganay,
Bolalarim barchasig'a o'rgatay“.
Jahd qilib turdi raxon borg'ali,
Ya'ni yag'och qolmishini yorg'ali.

* * * * *

Mindi yag'och ustig'a najjordek,
Kosibi purgurdayi purgordek.
Ketti hunar shavqi bila g'ussasi,
Tushti yag'och ayrisig'a dumchasi.

Bil, keyinidin bo‘ldi tutulmoqlig‘i,
Mumkin emas o‘ldi qutulmoqlig‘i,
Odami jinsida yo‘q qissasi,
Qoldi oning dumchasining hissasi.

Nasriy bayoni:

Kashmir atrofida bir tog‘ bor edi. Uning go‘zalligiga Eram bog‘i rashk qilardi. U tog‘da bo‘yi o‘n ikki va eni bir qulochlik imoratbop yog‘ochlar va xilma-xil noz-ne‘matlar bor edi. U yerning hayvonlari ham dorilamon yashardilar. U yerning xushbo‘y sunbullari go‘zallar zulfidek, oqar suvlari ham jonning rohati edi.

Tog‘da uydan kattaroq g‘ovlab ketgan bir gul tupi bo‘lib, u yerda bir maymun yashardi. Jon kuydirib, o‘z uy-joyi payidan bo‘lar va tinmay „Sevikli vatan“ qo‘shig‘ini aytardi. U ko‘ngli tilagan mevalarni yer va odamlar qiladigan ishlar payidan bo‘lardi.

Bir kuni fahm-farosatda yagona duradgor yog‘och yo‘qligidan ko‘ngli g‘ash tortib, qo‘liga naqsh chizadigan yangi chizg‘ichini oldi. Yog‘och izlab topish — uning odati edi. Duradgor o‘ziga ilgaridan tanish bo‘lgan, ammo kesish keyinroqqa mo‘ljallangan yaxshi daraxtlari bo‘lgan o‘sha tog‘ga bordi. U shahar zindonidan qutulib, tog‘ Shiriniga Farhod bo‘lib, o‘zini tog‘ shohi, tog‘ni esa ustoz Dehlaviy hisoblab jo‘nadi. Yetib borib, yog‘och ildizini kesdi va o‘sha yerda o‘z teshasini unutib qoldirdi. Boshqa tog‘ga borib, yana yog‘och kesdi va uni yorish gali kelganida, bolta bilan bir uchini yorib, pona qo‘ydi-da, teshani olib kelgani ketdi.

To‘satdan bunga maymunning ko‘zi tushib qoldi. U o‘zini aqlli va donoga yo‘yib, o‘ziga: „Xalq orasida bu ham bir kasb. Kasbdan voz kechsang, haqorat eshitasan. Hunar — elning tilla to‘la cho‘ntagi emish. Hunarsiz kishilarni „Eshakning qulog‘i“ deyдilar. Men ham duradgorlikni o‘rganay va barcha bolalarimga ham o‘rgatayin“ dedi.

U g‘ayrat bilan o‘rnidan turdi va yog‘ochning qolganini yorish uchun yoriq yog‘och boshiga yetdi. U duradgordek yog‘ochning ustiga mindi. Uning vajohati ko‘p ish ko‘rgan ustaga o‘xshardi. Hunar ishtiyoqi bilan ko‘ngli yozilib, yog‘och yorig‘iga dumi tushib qoldi. Ponani tortgani bilan, o‘z keyinidan tutilgani uchun qutulish mumkin bo‘lmay qoldi. U odamzod orasida bunaqa hodisa bo‘limgan edi; maymunning bir parcha dumi yog‘och ayrisida uzilib qoldi.

TUYA BILAN BO'TALOQ

Bor edi Farg'onada bir sorbon,
Tevasi bor erdi — tug'di nogahon.
Ahli ayoli aning bas erdi cho'k,
Ozuqidin kulbasida narsa yo'q.
Hosili dunyo edi bir tevasi,
Emadurg'on orqasida bo'tasi.
Bir kuni ul tevasini qo'mladi,
Ortadurg'an yuklarini jo'bladi.
Yuk og'ir edi-yu ham yo'l yiroq,
O'rtadi tayloqni nori firoq.
Fasli tamuz erdi havo ko'p isig'.
Yo'lida temurdek edi qumlar qizig'.
Och o'tina kuydi anodin judo,
Modarining mehrida erdi ado.
Jahl ila yetmay anosin keynidin,
Qumda kuyardi g'ami ul siynadin.
Og'di yuki yo'lida, o'shal sorbon,
Yerga cho'kundi tuzatay der ravon.
Bo'tasi borib edi orqosidin,
Yondi haroratlari yag'mosidin.
Yuzlonib aydi: „Ayo berahm onam,
Kuydi-yu yondi, tutashdi tanam.
Asta-sekin yursang na bo'lg'ay, nam g'am?
Siyna sutingdin emayin dam-badam“.
Aydi anosi bolasig'a boqib,
Ko'zlarini yoshlari seldek oqib:
„Ko'rki, burunduq kishini qo'lida,
Bu kishini ko'zları o'z yo'lida,
Manda agar zarra kabi ixtiyor —
Bo'lsa erdi: bo'lmas erdim zeri bor“.

Nasriy bayoni:

Farg'onada bir tuyakash bor edi. To'satdan tuyasi tug'di. Sorbon juda ayolmand bo'lib, qo'li qisqa edi. Oila a'zolari juda ko'p, ammo kulbasida hech ozuqa qolmagan edi. Uning dunyodagi yagona boyligi: bir tuyasi va uning orqasidagi bo'talog'i edi.

Bir kuni u tuyasini abzallab, ortadigan yuklarini ykladi va yo'lga tushdi. Yuk juda og'ir, ammo safar manzili juda yiroq edi. Bo'talog'i onasidan orqada qolib ketib rosa qiynalardi. Chunki saraton

fasli bo'lib, havo juda issiq: yo'ldagi qumlar temirdek qizigan edi. Bo'taloq onasiga yetolmay — och qolib, onasining mehridan yiroqda adoyi tamom bo'layozdi. Qanchalik chopmasin, onasiga yetib yurolmas, ochlik va tashnalik azobidan qutulish uchun onasini emgisi kelardi.

Yo'lda tuyaning yuki sal og'di-yu, tuyakash yukni tuzatgani tuyani cho'ktirdi. Kuchli harorat dastidan kuyib-yongan bolasi ham yetib bordi va onasiga yuzlanib dedi: „Ey, rahmsiz ona! Kuyib yondim. Olov tanamga tutashdi. Astaroq yursang netadi? Men ham sutingdan goh-goh emayin“. Onasi ko'z yoshlarini seldek oqizib, bolasiga boqib dedi: „Ko'rgin, burundiq manavi kishining qo'lida-ku. Uning ko'zi yetar manzili yo'lidadir. Oh, agarda zarracha ixtiyor bo'lsa edi, yuk ostida ezilib yurarmidim?“

TOSHBAQA BILAN CHAYON

Sangpushti „Toshbaqa“ Iroqdan Hijozga borur edi. Yo'l yuzasida nochor bir Chayonga yo'ldosh bo'ldi. Ikkisi ketib borur erdi. Ammo Sangpusht bag'oyat sohib va farosatli erdi. Toinki cho'x safarlarda yaxshi-yamonlar birla yurib ko'p tajribalar hosil qilg'on erdi. Ammo Chayonga inon-ixtiyorin berib, bodyalar qat' edub va marohil tay qilib borur erdi. Shu orada banogoh bir nahri azimg'a duchor bo'ldilar. Ikkisi o'tmoqqa qasd qildilar. Andin o'tar ilojini topmadilar. Tafakkur yag'ochi anga ko'pruk bo'lurg'a ojiz va tadbir qamichi anga sol bo'lurga nochiz. Oxirulam Sangpusht mustajabol da'vadek murod hadafiq'a muqorun o'lub, shinovarlik bilan muddao istid'osining sohilih'a o'zini oldi. Nori yoqig'a o'tub, g'oz-u o'rdakdek silkinib turdi. Banogoh orqasig'a boqtি. Ko'rdiki, yo'ldoshini oti horug'on, poyluchchak tag'olardek nayzasini kiftiga tashlab yuqori va quyi yurur erdi. Anda Sangpusht aydiki: „Mo'jib nadur — buyon o'tmaysiz?!“

Kajdum aydi: „Ko'z yoshicha suv bo'lsa, bizga ma'zur tuting“. Sangpusht ko'nglida aydikim: „Yo'ldosh bo'lmoq sharti bul ermaksi, oz hodisa birla hamrohlik rasmini bartaraf qilsam, uncha xo'b emas. Avloroq uldurkim, o'tkarib qo'ysam. Qadimgi yaxshilar masalidurkim: „Yaxshilik qil — suvga sol, suv bilmasa, boliq bilur, boliq bilmasa — xoliq bilur“.

Alqissa, Sangpusht xud chova yag'ochini qo'liga olib, oz harakat birla o'zini najot sohilih'a oldi. Aydi: „Ey burodar, sani daryodin o'tkarg'ali o'g'radim. Mani ustumga mingil va bejo harakat qilmog'ilki, o'z joningga jabr qilursan“.

Anda Chayon: „Har kim o‘z maslahatini o‘zi bilur“ deb, Sangpushtning orqasiga mindi. Daryoga tushub oqdilar. Zamondin so‘ng Chayoni mazkur tebranaberdi. Sangpusht aydi: „Bul bejo harakatdin muddao nimadur“? Chayon aydi: „Bu kun maydoningni vase’ topdim. Burung‘i yaxshilar: „Eshak o‘yini qirq yilda va yana it o‘yini bor anda“ debturlar. Bul kun po‘lod nayzamni yakjirma qalqoningga azoyish qiloyin derman“.

Anda Sangpusht aydi: „G‘olibo uldurki:

*O‘z do‘siti dilyn resh aylayur jahldin,
Har kimki o‘z mushtin urar devorga!*

Sani bu xor sifat nayzayi bemajoling‘ mani bu yakjirma qalqonimga nima kor qilsin?“

Anda Chayon aydi: „Bilganing yo‘qmukim, aqrabning muddaosi nish urmoqdir xoh do‘sit ko‘ksinadur, xoh dushman orqasina!“

Qit‘a:

*Har kimni odati zamima bo‘lur,
Beirodat zuhur etar andin.
Toshdin nesh ayori yo‘q aqrab,
Garchi mundoq demak ajab sandin.*

Sangpusht aydi: „Yaxshilardin bir masal qolibdurkim: „Ishonmagin do‘sungga, somon tiqar po‘sungga“. „Oshnangdan top“ deb turlar. Ey do‘srum, suv uzra jasadimiz xasdek yurmagi tokay? Bu bahri amiq javohirlarni tamoshlo qilmoq kerak“ deb g‘avvoslardek bir g‘o‘ta urdikim, ul javohir termoqda va bul jon bermoqda goldi.

Masal tabdili:

Toshbaqa Iroqdan Hijoz sari borar edi. Yo‘lda nochor Chayonga yo‘ldosh bo‘ldi. Ikkisi ketib borardi. Toshbaqa — fahm-farosatl edi. Chunki u ko‘p safarlarda yaxshi-yomonlar bilan yurib, tajriba hosil qilgan edi. U Chayonga inon-ixtiyorini berib, birgalikda cho‘l va vodiyarlarni bosib o‘tib borishardi. Shu orada qo‘qqisidan bir katta daryoga duch keldilar va ikkovlari ham o‘tish fikriga tushdilar. Ammo undan birga o‘tish ilojini topolmadilar. Fikr yog‘ochi daryoga ko‘priq bo‘lomaganidek, tadbir qamishi suzib o‘tishga sollikka ham yaramasdi. Nihoyat, Toshbaqa duosi mustajob bo‘lgan kishidek, umid nishoniga yaqinlashib, suzmoq bilan istalgan muddao sohiliga yetib oldi. U yog‘iga o‘tib, g‘oz va

o'rdakdek silkinib turdi. To'satdan orqasiga boqdi. Ko'rdiki, yo'ldoshini oti horgan, oyoq yalang, nayzasini kiftiga tashlab yuqori-quyi sarson yuripti. U choq Toshbaqa dedi:

— Sabab nima, nega bu tomonga o'tmaysiz?

Chayon dedi:

— Ko'z yoshidek suv bo'lsa, bizni ma'zur tutasiz!

Toshbaqa ko'nglidan kechdi: „Ozgina ko'rgilik tufayli yo'ldoshlik rasmini bartaraf qilish — hamrohlik rasmiga to'g'ri kelmaydi. Bu — yaxshi emas. O'tkazib qo'yganim — a'lo. Qadimgi yaxshi kishilarning maqoli bor: „Yaxshilik qil — suvga sol, suv bilmasa, baliq bilar, baliq bilmasa, xudo bilar“.

Xullas, Toshbaqa chov yog'ochini qo'lga olib, biroz harakat bilan o'zini najot sohiliga oldi. Dedi: „Ey birodar, seni daryodan o'tkazib qo'ygani qaytib keldim. Mening ustimga min. Biroq o'rinsiz harakat qilma, o'z joningga jabr qilasan“.

U choq Chayon dedi: „Har kim o'z maslahatini o'zi biladi“. U toshbaqaning ustiga mindi. Ular daryoga tushib oqdilar. Bir ozdan so'ng Chayon tebrana boshladi. Toshbaqa dedi: „Bu bejo harakatdan muddaoing nima?“

Chayon dedi: „Bugun maydoningni keng ko'rdim. Burungi yaxshilar: „Eshak o'yini qirq yilda. Yana unda it o'yini bor“ deyishgan. Bugun po'lat nayzamni butun kosaday qalqoningda sinab ko'ray deyman“.

U choq Toshbaqa dedi: „Darvoqe, shunisi ham borki:

*Jahldan o'z do'sti ko'ksini yaralaydigan kishi
Faqt devorni mushtagan bo'ladi, xolos.*

Sening bu tikandek kuchsiz nayzang mening bu bus-butun qalqoningma nima kor qiladi?“


Chayon dedi: „Bilmaysanmi hali: chayonning qilig'i xoh do'st ko'ksi, xoh dushman orqasi bo'lsin, faqat nish urmoqdir“.

*Har kimning odati yomon bo'lsa,
Ixtiyorsiz zuhur etar undan.
Toshdan nish ayamas chayon,
Garchi bu savolning ajab sendan.*

Toshbaqa dedi: „Yaxshilardan bir maqol qolgan: „Ishonmagin do'stingga — somon tiqar po'stingga“. „Oshnangdan top“ deyishgan. Ey do'stim, qachongacha jasadimiz suvda xasdek yuradi? Bu teran oqim javohirlarini tomosha qilmoq kerak“ deb g'avvoslardek bir sho'ng'idiki, Toshbaqa javohir termoqda va Chayon jon bermoqda qoldi.

Abdulla Avloniy

(1878—1939)



Abdulla Avloniy o‘zbek adabiyoti tarixida ma’rifatparvar kuychi sifatida e’zozlanadi. Uning she’rlari, doston va dramatik asarlari o‘zining badiiy pishiqligi, hozirjavobligi bilan ajralib turadi.

Abdulla Avloniy bolalarning ta’lim-tarbiyasiga oid ko‘plab asarlar ijod etgan. Ayniqsa, uning „Vatan“, „Gulistondan bir manzara“, „Bola ila gul“, „Maktab bolasi“, „Yolg‘onchi cho‘pon“, „Yalqov“ kabi she’rlarida bu masala yanada yorqinroq jaranglab turadi.

Abdulla Avloniy „Birinchi muallim“, „Ikkinchchi muallim“, „Maktab gulistoni“, „Turkiy guliston yoxud axloq“ kitoblarining muallifi sifatida ham e’zozlanadi.

YAMONOTLIQ JAZOSI

Bir kishining Qosim ismli bir o‘g‘li bor edi. Ota va onasining so‘zig‘a kirmasdan har xil yamon ishlarni qilur erdi. Bolalar birla urushub, yaqolashub, kiyimlarini yirtib kelur erdi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo‘yan taomlarini yegon vaqtda, onasi:

— „Qosim, o‘g‘lim! Taomni sen yedingmu?“ — desa, „Men egonomi yo‘q, mushuk yegondur“, — der edi. Bora-bora otasini pulini ham o‘g‘urlab oladurg‘on bo‘ldi. Otasi bilib, „O‘g‘lim, pulni kim oldi?“ — desa, — „Onam olgandur“, — deb onasini o‘g‘ri qilur edi. Bir kuni otasi ustol ustig‘a bir tanga pul qo‘yub, o‘zi uxlagan kishi bo‘lub yo‘tdi. Qosim kelub, sekin tangani olib, og‘ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab olmoqchi bo‘lgonda, tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning halqumig‘a tiqilib, jon berdi.

Ey bolalar! Ko‘rdingizmi, yamonning yamonligi o‘z boshig‘a yetdi.

QANOAT

Bir kishining Ali va Vali ismli ikki o'g'li bor edi. Ali qanoatli, Vali qanoatsiz edi. Bir kun otasi bozordan olma olub kelub, bolalarini sinamoq uchun chaqirub, mana, sizga olma beraman, — dedi. Vali tezlik birla kelub: „Otajon, menga hammasini bering“, — dedi.

Ali sekingina kelub, menga birgina olma bersangiz bo'ladur, dedi. Otasi Alining qanoatiga ofarin qilub, quchog'iga olub, peshonasidan o'pub, ikki olma berdi. Ammo Valiga olma bermak qayda, balki qanoatsiz bo'lma, deb adab berdi.

*Qanoat birla qorin to'ydirursiz,
Qanoat bo'lmasa, ko'p och bo'lursiz.
Qanoatsiz kishi bag'rini dog'lar,
Qanoatli kishi og'zini yog'lar.*

YAXSHILIK YERDA QOLMAS

Bir Ari suv ustinda uchib borur edi. Birdan suvgaga yiqilub ketdi. Qanotlari ho'l bo'lub, ucharga kuchi yetmadidi. O'lar holatga yetdi. Buni bir kabutar ko'rub, Ariga rahmi kelub, darhol bir cho'bni tishlab, suvgaga tashladi. Bechora Ari bu cho'bni kema qilub, suv balosidan qutuldi. Arodan ko'p o'tmadidi. Bir bola tuzoq qo'yub, kabutarni tutmoqchi bo'ldi. Ari buni ko'rgan zamon kelub, bolani qulog'ini chaqdi. Bola qulog'ining alamidan tuzoqni tashlab, qulog'ini ushladi. Kabutar vaqtini g'animat bilub, uchub ketub, o'lumdan qutuldi.

*Yaxshilik qilsang, bo'lur joning omon,
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.
Yaxshi so'z birlan ilon indan chiqar,
So'z yomon bo'lsa, pichoq qindan chiqar.*

TO'G'RILIK

Bir kampirning uyinda bir tup balx tuti bor erdi. Nihoyatda to'g'ri o'sgan edi. Bechora kampirning shul tutdan boshqa hech narsasi yo'q edi. Pishgan vaqtida qurutub olub, bordonga solub, boylargacha tortuq qilub, pul olub, butun avqotining tut sotub o'tkarur edi. Bir kuni ul shaharning podshohi bir ayvon solmoqchi bo'lub, ustun ox targanda kampirning tuti to'g'ri keldi.

Podshoh tutni ming oltunga sotub oldi. Bechora kampir boy xotin bo'lub qoldi. Bir kun tutni ko'rgali bordi. Ko'rdiki, tuti jannat kabi bir ayvon o'rtasinda turubdur. Kampir tutiga qarab dediki:

*Ey, tutim, to 'g'riliq'ing qildi bizi davlatg'a yor,
Egri bo'lsang, san o'tun bo'lg'ay eding, man xor-zor.
To 'g'rilar jannatning ayvonidadur,
O'g'rilar ranj-u alam konindadur.*

ITTIFOQ

Jonivorlar ichinda eng kichiklari chumolidir. Lekin o'zлari kichik bo'lsalar ham, nihoyatda g'ayratli, ittifoq hayvonlardur. O'zlaricha podshohlari, kattalari, askarlari bo'ladur. Ulug'lari nimani buyursa, shuni qilur. Ittifoq va g'ayratlari soyasinda o'zlaridan katta-katta dushmanlardan qo'rmaslar. Agar Ari kabi dushman kelub, birlariga tegsa, hamma-hammalari birdan yopushub, biri qo'lini, biri ayog'ini, biri qanotini qattiq tishlab, o'zlarindan necha barobar katta bo'lsa ham tezgina qochururlar.

*Ko 'rdingizmu, buning o'zi xo'b maydadur,
Birlashub arqon bo'lsa, fil boylanur,
Ittifoqa kuch-quvvat kor aylamas,
Ittifoqa jin ham ozor aylamas.*

BOLARIILA PASHSHA

Bir Pashsha qir tarafdan uchub kelmoqda o'lan Arini ko'rub: „Do'stim, qaydan kelursan?“ — dedi. Ari: „Qirdan kelurman. Biroz bol yig'dim. Uy yasamoq uchun mum ham hozirlab keldim“, dedi. Pashsha: „Oh, birodar! Bir boshing uchun muncha harakat qilursan? Nima bo'lurki, san ham man kabi rohatda yashasang. Chunki mening yashamog'imda hech bir mashaqqat yo'q. Insonlar tarafindan hozirlangan dasturxonlardan har xil taomlarni yeb-ichub umr o'tkarurman. Ba'zi vaqtarda sani yasagan bolingdan ham to'yganimcha yerman. Mana! Yashamoq mana! Umr kechurmoq uchun olamda mundan yaxshi turmush bo'lurmu? Na manda bol hozirlamak mashaqqati va na uya solmoq kulfati bor“ dedi. Ari bu so'zlarga javoban dediki:

„Oh, do'stim! Bu sani turmushing o'z boshingdan beri kelmasun. Mashaqqatsiz taomda lazzat bo'lurmu?“

Insonlar sani sufradan quvarlar, urarlar, o'ldirurlar. San olamda o'g'rilar kabi umr o'tkarursan. Oxirda bir o'rgumchak luqmasi bo'lmakdan boshqa bir narsaga yaramassan. Ammo maning tayyorlagan mumim hamma ibodatxonalarini yorutar. Bolim dunyoning hama yerinda maqbuldir. Insonlarning og'izlarini totli qilur. Shu sababli insonlar mani o'zlari tarbiya qilurlar va har yerda mani maqtarlar, dedi-da, qo'y birodar, mani ishim ko'b, san ila behuda so'zlarni so'zlashib tururga vaqtim yo'q“, deb uchub ketdi.

Hissa: Mehnat — oxiri rohat, yalqovlik oxiri xorlikdur.

ITILA GADO

Bir it egasining eshigini poylab yotmishe edi. Yelkasida xurjin, qo'lida tayoq ko'targan bir Gado kirib keldi. It buni ko'rgan zamon vovullay boshladи. Bechora Tilanchi Itga boqub, yolvorub: „He, jonivor, manga boq, marhamat qil. Ikki kundan beri taom yeganim yo'q. Ochlikdan o'lar holatga yetdim“, dedi. It tilanchig'a boqub: „Bu mani sanga qilgan marhamatim emasmi? Uydagi kishilar mani tovushimni eshitub, chiqub saning qorningni to'yg'azurlar“, dedi.

Hissa: Bahosi arzonning so'zi qimmatli bo'lur.

KALAMUSH ILA SICHQON

Bir kun Sichqon Kalamushning uyiga borub: „Qo'shni, man sizga bir yaxshi xabar kelturdim. Mushuk Yo'lbarsning qo'liga tushgan emish. Yo'lbars bo'lsa nihoyatda kuchlik hayvondur, albatta Mushukni salomat qo'ymas. Bizlarga Mushuk kabi zolim dushmanidan qutulmoq zo'r shodlig'dur“, dedi. Kalamush Sichqong'a boqub: „Ey qo'zim, san xolo yoshsan, hech narsadan xabaring yo'q. Yo'lbars Mushukni o'ldirur, deb o'ylaysanmi? Yo'q, jonio, aldanursan. Butun olamda Mushukdan zo'r hayvon yo'qdur. Man bir-ikki marta sinaganman. Olloh hech kimni oning changaliga giriftor qilmasun“ dedi.

Hissa: Har kishi o'z kushandasidan qo'rqrar.

*Kesak qanoti siniq qush ko'ziga tosh ko'rinur,
Elakda tursa kefak, och ko'ziga osh ko'rinur.*

ILM

Ilm deb o‘qumoq, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati... Ilm inson uchun g‘oyat oliv va muqaddas bir fazilatdur. Zeroiki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas‘ul bo‘lishimizga sabab bo‘lur.

Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabitidur... Ilmnинг foydasi shu qadar ko‘pdirki, ta‘rif qilg‘on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni ilm jaholat qorong‘ulig‘idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yamon fe’llardan, buzug‘ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur...

Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishhatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog‘lidur...

*Ilm bir daryo, ichi to‘mush dur-u gavhar bilan,
Qiymat-u qadrin qachon bilg‘ay ani johil ilan.*

AHMAD ILA OTASI

Bir kishining Ahmad ismlik o‘g‘li bor edi. Ahmad bir kun maktabdan kelurida bir bola birla urushub, bir musht urub, boshini yorub qo‘ydi. Ul bola kelub Ahmadning otasiga arz qildi. Otasi Ahmadni choqirub, mahkam ikki qulog‘ini burab: „Ey o‘g‘lim, man ham yosh vaqtimda sanga o‘xhashh mushtzo‘r edim, changolimga tushgon kishini amon qo‘ymas edim. Ittifoqo, bir kun o‘zim ham bir mushtzo‘rning qo‘liga tushub qoldim, chunon adabimni berdiki, ikkinchi o‘zimdan kuchsizlarga aslo mushtzo‘rlik qilmaydurgon bo‘ldim“, dedi.

*Ulug‘ larni adab saqlab, qil izzat,
Kichiklarga muruvvat qil, muruvvat.
O‘quvni yoqasini qo‘yma zinhor,
Kuching yetsa, qalamning boshini yor.*

SOQI ILA ONASI

Soqi bir kun maktabdan kelub, onosidan taom so‘radi. Onosi oldiga bir kosa sho‘rbo kelturub qo‘ydi. Soqi sho‘rbodan bir qoshuq og‘ziga olub: „Ona, man bu mazasiz sho‘rbongni ichmasman“,

dedi. Onosi: „Ichmasang qo'y, o'g'lim, boshqa pishirub berurman“, deb oldidan olub qo'ysi.

Soqini kechg'acha xazon toshitub, ishlatdi. Soqi horub, charchab, qorni ochub o'lturgon edi. Onosi yana shul sho'rboni isitub, olib kelub, oldiga qo'ysi. Soqi sho'rbandan biroz ichub ko'rub: „Mana, onajon! Bu qanday totli sho'rbo bo'l mish. Umrinda aslo mundog' shirin sho'rboni ichkonim yo'q“, dedi. Onosi kulub: „Ey, o'g'lim, bu boyagi o'zing ichmagon sho'rbandur. Hozir san harakat qilding, ishlading, qorning ochdi, ishtahang ochildi. Sho'rbo ham shirin bo'ldi“, dedi.

H i s s a :


*Ishlamak ishtaha ochar,
Dangasa ishdan qochar.
Ayog' yugurugi oshga eltar,
Til yugurugi boshga yetar.*



Hamza Hakimzoda

Niyoziy

(1889—1929)



Hozirgi zamon o‘zbek adabiyotining asoschilaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889- yilda Qo‘qon shahrida tug‘ildi. U 1911- yilda Qo‘qon shahrida kambag‘al, beva-bechoralarning bolalari uchun maktab ochdi, „Yordam jamiyati“ tuzdi, kutubxona tashkil etdi. Yangi maktab, yangicha darslar uchun o‘zi darslik va qo‘llanmalar yaratdi.

Hamza Hakimzoda o‘quvchilarning tezroq savodini chiqarish uchun „Yengil adabiyot“, „Boshlang‘ich maktablar uchun o‘qish kitobi“ kabi maxsus darslik va qo‘llanmalar yaratdi. Uning bolalar hayotiga oid muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlari ana shu darslik va majmualarga kiritilgan. Hamza Hakimzoda, ayniqsa, „O‘qi“, „Kitob“, „Maktab“, „Ilm ista“, „Qalam“, „To‘g‘riso‘z bola“, „Hikoya“, „Toshbaqa bilan Chayon“ kabi asarlari bilan o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotiga salmoqli ulush qo‘shti.

O‘QI!

Ko‘zimizga ko‘runub turgan hama asboblar.
Hech biri bo‘lmas edi, gar bo‘lmasa, zinhor o‘quv.
Yer ichida ko‘mulub yotgan hama oltin, kumush
Yuzaga chiqdi bori, bois anga axbor¹, o‘quv...
Gar dilingda o‘ylagan orzuga yetmoq istasang,
Qimmat umring qilmog‘il behudaga bekor, o‘qi!
Qo‘y o‘yin sayr-u tamoshoni, g‘animat yoshliging,
Shum fe’llardan o‘zingni aylagil bezor, o‘qi!

¹Axbor — ma’lumot, bilim.

Ey o'g'il, dunyoda bo'lmoq istasang oliyjanob,
O'qig'il maktab kelib, zinhor o'qi, ming bor o'qi!

ILM ISTA

Kim bilurdi odam-u olam nadur, hayvon nechik?
Bo'lmasa erdi agar insonda bu osori ilm.

Qaysi bir mavjuda boqsang bilmoqqa kayfiyatini,
Lozim o'lgay topmoqa avval o'qib axbor ilm...

Olamning xurshidi¹ kundir, odamning xurshidi ilm,
Olamning zulmoti tundir, odamning nodori ilm².

Har murod-u maqsadingga yetmoq istarsan murod,
Ko'z ochib bedor bo'l, darkor ilm, darkor ilm!

Ul haqiqat oyiniga sayqal istarsan Nihon,
Ilm ista, ilm ista, istag'il zinhor ilm!

KITOB

Har ko'ngilning orzusi shul erur obi hayot,
Qadrini bilgan kishiga, shubhasiz, jondir kitob...

Har murodning boshidur, har muddaoning gavhari,
Har marazlarning shifosi, ya'ni luqmondir³ kitob...

Ko'zning nuri, dil huzuri, dillarning darmonidur.
Har qorong'u dilga go'yo mohitobondir⁴ kitob.

Har balodan asrag'uvchi eng muhim qimmat yarog',
Tiri vahshat,⁵ xanjari zillatga⁶ qalqondir kitob.

Har kishi yoshlikda qilsa ozgina g'ayrat agar,
Tez zamonda oshno bo'lmosh'i osondir kitob.

TO'G'RI SO'Z BOLA

Kelmog'ida maktabidan bir o'g'il,
To'xta debon ikki kishi to'sdi yo'l.

Dedi biri: „Tanga berurman sanga,
So'zla bir og'izgina yolg'on manga“.

¹**Xurshid** — oftob. ²**Nodori ilm** — ilmsiz. ³**Luqmon** — har qanday kasalni davolovchi. ⁴**Mohitobon** — yorqin oy. ⁵**Tirivahshat** — vahshiylik o'qi. ⁶**Zillat** — xo'rlik.

Berdi o‘g‘il fikr ila shirin javob,
„So‘zlang aka, qomatingizga qarab.
Bu so‘zingiz aslida yolg‘on erur,
Tangaga yolg‘onni kim olgan erur.
Sizda ko‘p erkan o‘zi yolg‘on, aks,
Siz oni avval sotib aylang ado.
Qolsa kamib, yetmay agar sizdanam,
O‘rtog‘ingizda ko‘p erur bizdanam“.
Ofarin aytdilar oning so‘ziga,
Tangani xolis berubon o‘ziga.
H i s s a : kimi to‘g‘ri so‘zi har qachon,
Tekuzadur doimiy bo‘yla hison!..

TOSHBAQA BILAN CHAYON

Toshbaqa birla bo‘lib o‘rtoq Chayon,
Ahd etishib, do‘s^t bo‘lishib jonajon.
Bir kuni qilmoqchi bo‘lishdi safar,
Bog‘lashubon chiqdi ikkovi kamar.
Yo‘lda Chayon Toshbaqaga lof urib,
Dediki: „Boqsam agar o‘ylab turib.
Mencha senga suyguli yo‘q mehribon,
Sen tan-u go‘yo, anga men misli jon“.
Bu orada yo‘l tushib anhorga,
Qoldi Chayon hayrat-u dushvorga,²
Toshbaqa bosib dedi: „Ey oshno,
Nega ko‘rundi yuzingda bu jafo?“
Dedi Chayon: „Suzmoqqa yo‘q odatim,
Qolmoqqa ajab yana yo‘q toqatim“.
Toshbaqa dedi: „Yema g‘am, min meni!
To ko‘tarib suvdin o‘tarman seni“.
Toshbaqani mindi Chayon yotqizib,
Toshbaqa ketdi suv ichiga suzib.

¹ **Hison** — ehson, foyda. ² **Dushvor** — qiyinlik.

Yo'lda Chayon Toshbaqadek do'stiga,
Urdi bir-ikki nishini po'stiga.

Toshbaqa bildi, dedi: „Fe'ling yomon,
Ne harakatlar qilasan bu zamon?“

Dedi Chayon: „Zahar soluv odatim,
Odatimning tarkiga yo'q toqatim,

Garchi turubsan menga xizmat etib,
Men solaman zahrimni fursat topib“.

Toshbaqa dedi: „Bu na fosid xayol!
Qayt bu ishingdan, bale nishingni ol,

Do'st debon dushmanning qilma ishin!
O'yla sen ham oqibating kelmishin!“.

Dedi Chayon: „Bo'lmasa o'z xohishim,
Boshqa nasihatga mening yo'q ishim“.

Toshbaqa ham bildiki, bo'lmasa boqib,
Sho'ng'idi bir, ketdi Chayon ham oqib.

H i s s a : kimi g'ayrni² ulfat etar,
O'z-o'zicha boshiga kulfat yetar.



¹ Fosid xayol — yomon, buzuq fikr. ² G'ayr — dushman.

G‘afur G‘ulom

(1903—1966)



Hozirgi zamон o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri G‘afur G‘ulom 1903- yilda Toshkent shahrida tug‘ildi. U kichkintoylar hayotiga oid o‘ndan ziyodroq kitoblar yozdi. 30- yillardayoq „Yasha, deyman, o‘g‘lim“, „Ikki yoshlik“, „O‘rdak va Turg‘un“, „Qo‘msash“, „Azizning dadasi nega chekishni tashladi?“, „Nortojining kurak tishi“, „Xoldoroyning nakazi“ kabi ajoyib she’rlar yozib, kichkintoylar she’riyatining rivojlanishi va taraqqiyotiga ham barakali hissa qo‘shti.

G‘.G‘ulomning she’rlarida ona-Vatan, tinchlik, osoyishtalik, ijodiy mehnat, namunali xulq, a’lo o‘qish kabi masalalarga keng o‘rin berildi. Ayniqsa, „Avlodlar“, „Bari seniki“, „Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi“ va boshqa shu kabi she’rlarida bu g‘oya bo‘rtib turganligini ko‘ramiz.

Shoir hali olam nima ekanligini bilmaydigan va uni bilishga juda havasmand maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bag‘ishlab „Bayram maktubi“, „Buni topping qizlarim“, „Ola buzoq“, „Chitti gul“, „Kekkaymachoq“, „O‘yinchi qiz“, „Oq terakmi, ko‘k terak“, „Bizning bog‘cha“, „Mening kuylarim“, „Dadam va men“ kabi kichkintoylarga mos she’r va qo‘shiqlar yaratgan.

SHUM BOLA

(Qissadan parcha)

... Shunday qilib, bu falokatli ishni Yo‘ldosh boshladi. Mahallaning bir to‘da o‘spirin bolalari Laylakmachitning jilovxonasisiga yig‘ilib, oshiq o‘ynamoqchi edik. Men bugun juda ko‘p yutgan edim. Olacha yaktagimning cho‘ntagi, yengim, lippam oshiqqa to‘lib ketgan edi.

— Bolalar qanda, oshiqlar manda, — deb sevinch bilan qichqirmoqda edim. Xuddi shu oraga Yo'ldosh shilqim suqildi-yu, ishning pachavasini chiqardi. U bari mog'orlab ketgan surp yaktagini etagi bilan burnini arta-arta gapira boshladi:

- Bolalar, xalfana qilamizmi?
- Bo'pti, qilamiz.
- Qayerda?
- Rizqi xalfaning ko'chib ketgan hovlisida.
- Bo'pti.

Xalfanaga palov qilmuoqchi bo'ldik. Masavur otaliqning nabirasi Omonboyning o'g'li Husnibiy oshpaz bo'ladigan bo'ldi. Qozon, cho'mich, tuz, qalampir, suv — undan, qolgan masalliqlarni shu yo'sinda taqsim qildik: guruch bilan sabzi — Yo'ldoshdan, go'sht — Abdulla do'lordan, yog' — mendan. Qolgan-qutgan narsalar — Po'latxo'ja mug'ombirdan. Hamma har tarafga qarab ketdi. Men ham yog' keltirgani uyga ketdim. Onam oshxonada yertandirga o't qalab, qovoq somsa taraddudida edi. Bizning ro'z-g'or mayda-chuydalari zax uyning orqasidagi uzun hujrada bo'lar edi. Ayvonda o'rtancha singlim kichik ukamni ovutib o'tirgan ekan. Uning yonidan hujraga kirishning evini topolmadim, birorta hiyla ishlatalish kerak edi.

- Shapag', — dedim unga, — katta to'ping qayerda?
- Qo'g'irchoqlarimning oldida, nima qildi?
- U yerda yo'q-ku!
- Ha... o'Ig'ur, sen olgandirsan, hozir berasan, ber.

Men iljayib turaverdim. U ovutib turgan ukamni qo'ydi-da, qo'g'irchoqlarining oldiga yugurib ketdi. Men ham „lip“ etib hujraga kirib, ho'qachadan yog' o'yib oldim. Yog'ni bir qog'ozga turmug'lab¹, lippamga qistirdim. U yerdan chiqib o'tinxonaga kirdim. Kulrang tovug'im piyozdan qilingan moyak ustida tug'ib o'tirar edi. Sekin borib, qanotini ko'tarib qarasam, allaqachon tug'ib bo'lgan ekan, lekin onalik mehri bilan tuxum ustida bosib yotar ekan. Tuxumni oldim. Tovuq qaqlab qochdi.

O'rtoqlarimga yaxshi ko'rinish uchun rasamaddan ko'r-satilmagan bo'lsa ham, yog' yoniga tuxumni ham qo'shib olib borishni o'zimga ma'qul qilgan edim. Zing'illab ko'chaga chiqib keta boshladim. Oshxonamiz yo'l ustida bo'lganidan, onam ko'rib qoldi.

¹ Turmug'lab — o'rab.

— Hoy, juvonmarg, zumrasha, tag'in ko'chagami? Bu yoqqa kel, olovni jo'nashtirib ket, tutay berib ko'zimni ko'r qilayozdi.

Noiloj qoldim, tuxumni qalpoqchamga solib, kiyib oldimda, oshxonaga kirdim. Onam meni tergay boshladи. Men jimgina quloq solib, o'choqning yoniga cho'qqayib, o't qalashtirmoqqa boshladim.

Men bilmagan ekanman. O'tning taftiga lippamdagи yog' erib, pochamdan oqmoqda ekan. Oyim qo'lidagi xamir yoyib o'tirgan o'qlov bilan boshimga astagina urdi.

— Juvonmarg, kap-katta bola, uylansang, bolang bo'ladi. Shu yerda, shunday Fotimayi Zuhroning dastgohlari¹ bo'lgan qutlug' yerda siyib o'tirbsanmi?

Oyim boshimga o'qlov bilan urganda, qalpoq tagida bo'lgan tuxum pachaqlangan edi. Uning sarig'i oqqa aralashib, chakkamdan sirqib, yuzimga oqmoqda edi. Oyim: „Bola bechoraning boshini yorib, qatig'ini chiqarib yubordimmi?“ — deb esi chiqib ketgan ekan. Men bo'lsam, xalfana qilamiz deb o'margan o'g'irligim ochilib qolganidan, bir chekkasi qo'rqish va bir chekkasi uy ichidagilardan uyalganimdan, oshxonadan chiqib, ko'chaga qochgan edim. Yog' erib oqqan, tuxum singan bo'lganidan, xalfanachi o'rtoqlarimning oldiga borishdan ma'no chiqmas edi. Kechqurun uyg'a qaytib kelish ham mushkul, nima qilish kerak, qayerga borish kerak?!

O'yab - o'yab topdim. Sa'vonda bitta ammam bor. Shunikiga boraman. O'zi befarzand. O'zi ham, eri ham meni juda yaxshi ko'rishadi, bularning uyida kishi zerikmaydi ham. Ammamning eri mo'ynado'z — kosib. Bola-chaqalari bo'limganidan, uylari biznikiga o'xshab bozor emas — yig'inchoq. Innaykeyin, bularning uyi salkam ajoyibxona. Unda dunyodagi hamma narsa bor.

Ovg'a kirishadigan sohibchangal qushlardan — qarchig'ay, miqqiy, qirg'iy; urishadigan qushlardan — dakangxo'roz, oddiy xo'roz, amirkon xo'roz, kaklik, bedana (bu so'nggi ikkisi sayrashi uchun ham boqilib, cho'p qafasda, to'rqovoqda saqlanadi).

Sayraydiganlardan: qumri, sa'va, bulbul, mayna va boshqalar. Bulardan tashqari, faqat uyning ziynati uchun boqiladigan bitta ov tozisi, bitta ko'ppak, bitta laycha kuchuk, besh-oltita bolalari bilan ko'ppak, bitta Buxoro baroq mushugi bor edi.

¹ **Fotimayi Zuhroning dastgohi** — o'choq o'zbeklar orasida qadimdan muqaddas joy hisoblangan.

Ularning uyidagi gullarning-ku son-sanog'i yo'q: gulbeor, gulra'no, gulsafsar, gulhamishabahor, qo'qongul, qalampirgul, namozshomgul, sambitgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul — ishqilis, sanab tugatib bo'lmaydi.

Pochcham bilan ammam bu gul, bu hayvonotlarning har bittasini nuridiydariday parvarish qiladilar. Har holda, menga o'xshagan o'yinqaroq bolalar uchun bu yerda ermak topiladi. Zerikib qolmayman.

Ammam bilan pochcham meni erkabal qarshi oldilar:

— Kel-a, bo'yingdan gирgitton bo'lib ketay, seni qaysi shamol uchirdi, akam tirilib keldimi, haligina qovog'im uchib turgan edi,
— dedi ammam.

— Ha, balli, azamat, necha kundan beri ko'zim uchib, yo'lpashsha aylanib yurgan edi, haytovur, yaxshilikka ko'rindi. Sen kelar ekansan, balli-ballı, — dedi pochcham.

Men bu erkalatishlardan juda taltayib ketdim.

Pochcham har kuni to'qqiz pul choychaqa beradi. Men pulni olib, ko'chaga shataloq otaman. Bu mahallada ham yangi og'aynilar orttirganman. Kamalak otamiz, oshiq o'ynaymiz, it urishtiramiz.

Bir kun pochchamning ko'ppagini yashirib olib chiqib, urishtirdim. Oldingi bir oyog'i sinib ketdi va bir umr cho'loqlanib goldi.

Yoz payti pochchamni o'rtoqlari qovun sayliga chaqirgan. Bir tarafi hayitlashib ham kelaman-ku, degan niyat bilan yoniga tozisini ham qarchig'ayini olib, matrab ko'tarib, uch-to'rt kunga dalaga chiqib ketdi, ketar oldida menga uchta buxor tanga¹ berib:

— Qushlarning ovqatidan xabar olib tur, ochiqib qolmasin,
— deb tayinladi. Men juda quvondim — mana endi o'sib ham qoldim, yoshim o'n to'rtga kirdi, odamlar menga ishonadigan bo'lib qoldi, — deb ich-ichimdan sevindim: kimsan miqqiy, kimsan qirg'iy deganday sohibchangal qushlarning ixtiyorli mening qo'limda.

Qushxonaga kirdim, uyning bir burchagida miqqiy, bir burchagida qirg'iy — boshlarini yerga tiqib, qo'ndoqda o'tirar edilar.

Ov qushlarining tezagi oppoq bo'lar ekan. „Qatiq icharmikana? Albatta, qatiq ichadi: bo'lmasa tezagi oq bo'lmasa kerak“, — deb o'yladim.

¹ Buxoro amirlari zamonidagi kumush tanga.

Ammamdan yashirib, oshxonaga kirdim-da, katta xurmachani ko'tarib bozorga ketdim. Bir tangani maydalab, bir paqirga (ikki tiyin) bir xurmacha qatiq olib, uyga keldim. Ikki kosani qatiq bilan to'ldirib, har ikki qushning oldiga qo'ydim. Har ikki qush ham ovqatga qo'ndoqdan turib sipohgarchilik bilan bir ko'zlab qaradi-da, yuzini chirtta teskari o'girib oldi.

„Nima qilsa ham zottor, tagi ko'rgan qushlar-da, kishi oldida och bo'lsa ham ovqatga qaramaydi. Tovuq bo'lganda edi, pastlik bilan uyalmasdan o'zini ovqatga urar edi“, — deb o'yladim. Qushxonadan chiqib ketdim.

Oradan ikki-uch soat o'tkazib, yana qaytib qushxonaga kirdim. Sipoh qushlar hali ham o'tirgan qo'ndog'idan tushmay, ovqatga ters qarab o'tirar edi. „Chumchuqday joni bilan bularga sipohgarchilikni kim qo'ygan ekan, izzat-obro' bo'lsa qildim, birov ovqat yeyayotganda qarab turish yaxshi emas“, — deb chiqib ham ketdim. Tag'in nimasi qoldi! Jahlim chiqdi. Qushxonaning qirma gilqog'ozida pochchamning qush qo'ndiradigan ov qo'lqopi ilig'liq turgan ekan. Qo'limga kiyib oldim-da, miqqiyni ko'tardim. Butimga qisib, og'zini yirib, kumush qoshiq bilan qatiq ichira boshladim. Obdan to'ysi, boshqa qushlarni ham shunday qildim: „Ana endi to'ydilaring. Kishi bir yerga qadalib o'tira bersa ham charchaydi, qorni to'q bo'lgandan keyin kishi tolmaydi. Mana endi o'tira beringlar, qornilaring to'q — qayg'ularing yo'q“.

Shu xilda ikki-uch kun ammamdan yashirib, o'z bilgimcha qushlarni qatiq bilan siylab yurdim. Qushlarning ichida o'zim yaxshi ko'radigan bittasi bor edi, unga boshqalardan yashirib, qatiqning yuzini berar edim.

Uchinchi kunga borganda erta bilan qushxonaga kirib qarasam, hamma qushlar qo'ndoqdan pastda — hammasi hurpaygan, boshini ichiga olgan, ayniqsa, miqqiy qo'ndoq tagida bir qanotini ostiga solib, oyog'ini baralla uzatib, yonboshlab yotgan edi.

— Ha, mana bu kiroyi ish bo'pti, — deb o'yladim. — Yarim qorong'i uyda hadeb qo'nib o'tira berish ham kishini zeriktiradi. Shunaqa o'tirish-turishni ham qilib turgan yaxshi, yonbosh qil, yot, kerish.

Nahorlikka qushlar yana qatiq ichishdi, tushlik nonushtasi uchun suzma bermoqchi edim, chunki bechora qushlar juda ham yovg'onsirab ketdi.

Qushxonaga kirib, ne ko'z bilan ko'ray? Miqqiyning qulog'i ostida qolgan, ya'ni o'lgan edi. Qarchig'ay ham jon beray deb

turibdi. Masala menga ravshan bo‘la boshladi. Endi pochchamga nima deyman! Bu qushlarning har bittasini u ko‘zining qora-chig‘iday ko‘rar edi-ku! Bu yerdan ham nasibam uzilganday ko‘rinib ketdi. Pochcham qushlarga ovqat olish uchun bergen puldan ikki tanga-yu, bir mirisi hali yonimda. Katta darvozaning ro‘parasidagi yo‘lakning tepasiga qafasda osib qo‘yilgan bir juft qumrini juda ham yaxshi ko‘rar edim. Asta borib, qafasni ilgagidan chiqardim. Boshimga qo‘yib, katta safar uchun yo‘lga tushdim, ammam mushuklarga shovla pishirish bilan ovora bo‘lgani uchun, mening chiqib ketganimni payqamay qoldi. Belimda pul, boshimda savag‘ichdan to‘qilgan katta qafasda kukulab turgan bir juft qumri. Etakni turmaklab, sag‘rimga bir mushtlab, „hayyo, hu“ deb, shahardan tashqariga qarab, yo‘lga ravona bo‘ldim.

*Men ketarman yo ‘lda yig‘lab, sen qolursan zor-zor,
Qumri qushning bolasidek ikkalamiz intizor.
Intizorlik torta-torta tanda toqat qolmadi,
Yo ‘l chivindek sarg‘ayib, yurarga holat qolmadi.
Yo ‘l chivinning holini yo ‘lda yo ‘lovchidan so‘rang,
Biz g‘aribning holini aqli rasolardan so‘rang.*

Bir talay manzil-marohil yo‘l bosib, ko‘p yurib, ko‘p yursam ham mo‘l yurib, Achchabod degan „shahri azim“ga borganimda, bir to‘da katta-kichik qora-qura o‘spirinlar atrofimni o‘rab olishdi. Oralarida jussasi menga bir yarimta keladiganlari bo‘lgani kabi, to‘rttasi bir musht bilan qulatadiganlari ham bor edi. Avvaliga yaxshilikcha qumrini sotishni so‘rashdi. Ko‘nmasam, zo‘rlik bilan olib qolishlari menga ma’lum bo‘lgan edi, chor-nochor sotishga ko‘ndim. Olg‘irlar qumrini molga almashtirishni zo‘rlab iltimos qildilar. Qumrini molga mavoza¹ qildim, molning turlari quyidagilardan iborat:

Uch dona g‘alvir, bitta yog‘och shaqildoq, ikki dona bolalar o‘ynaydigan yog‘och beshikcha, bitta terisi va gardishi qizilga bo‘yalgan chirmandacha, bitta tutash dastalik kurak, ikki chaynam saqich va boshqalar...

Menden ketdimi, ulardan ketdimi — xudoga ayon. Tavakkal, yo ostidan, yo ustidan.

¹ Mavoza — almashish, ayirboshlash.

Bu yuklar qumriga qaraganda ikki baravar ko‘proq og‘ir edi. Hammasini yelkaga qo‘yib, bu shahardan ham chiqib ketdim. Oldimda katta bir cho‘li azim paydo bo‘lgan edi. „Qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadigan“ bu cho‘lda yelkamda boyagi yuklar bilan ketib borar edim. Uzoqdan bir kishining qorasi ko‘rina boshladи. Men unga, u menga qarab kelar edik. Nihoyat, to‘qnashdik, bu to‘qnashish mening behad va bepoyon xursandchiligidagi sabab bo‘ldi. Chunki bu kishi o‘z shahrimdan, bir mahallalik, menden bir-ikki yosh kattaroq Omonboy — Tursun pichoqning o‘g‘li, o‘z o‘rtog‘im edi. Yelkasida yetti yarim qadoqlik ketmon — mardikor ishlab yurgan ekan. U mening ustimidagi yuklarni ko‘rib hayron qoldi. Ayniqsa, gardishni ko‘rib, meni chalma¹ quyish uchun qishloqqa chiqib ketyapti, deb o‘ylagan ekan. Yo‘lning chekkasiga chiqib, bu cho‘l-biyobonda bo‘lgan yakkagina jiydaning salqinida o‘tirib hasratlasha ketdik.

Yakka jiydada meva ko‘rinmas edi. Men Omonga juda biladiganlarday ma’nodor qarab:

— Jiyda solkash² ko‘rinadi, bu yil qilmapti, — dedim.

Omon menga qarab kului.

— Voy ahmoq! Hozir saraton. Saratonda jiyda mevalari danagiga alif yozdirish uchun Makkaga ketadi. Bir oydan keyin mevalar qaytib keladi, — dedi.

Men esimdan chiqargan ekanman.

Har ikkovimizning ham dunyo qidirb, baxt izlab yurgan o‘spirinligimiz ma’lum bo‘ldi. Mol-u jonne bir qilib, ahd-u paymon qilishdik-da, katta ulug‘ safarni mo‘ljal oldik. U ham kelgan izi bilan orqaga qaytdi, birgalashib, „cho‘li malik“ bilan ketar edik. Kechga yaqin juda ham katta bir „shahar“ ga kirib bordik. Bu shaharning oti Ko‘kterak ekan. O‘rtog‘imning yonida mardikorlik bilan topgan puli — mirkam ikki tanga, menda bo‘lsa qatiqdan qolgan ikki tanga bir miri pul bor. Samovarga tushdik. Bozorni kutib ikki-uch kun shu pullar bilan samovarda tunadik. Juma kuni bozor edi. Erta bilan bozorga chiqdik.

Ikkovimiz ikki tomonga ketdik. Omonning ketmoni bilan mening qumriga mavoza qilgan mollarimni bozorga soldik. Xaridor juda ko‘p bo‘ldi. Mollarimizning bozori chaqqon. Xaridorlardan

¹ **Chalma** — tezakdan tayyorlanadigan yoqilg‘i. ² **Solkash** — yil oralab hosil beradigan meva daraxti.

ham ko'ra so'rab o'tuvchilar ko'p edi. Bu kishilar, ayniqsa, mening mollarimning bahosidan ko'ra, bu mollar turmushda nimaga kerak bo'lishini so'rар edilar.

Biror soat sanqiganimizdan keyin, Omonning ketmoni bilan mening yog'och kuragimni sotishga ulgurdik. Shunda ham o'rtaga dallollar tushdi.

— Qani, ha, uka, baraka de, — deb yarim soatcha qo'l siltab savdolashgandan keyin ketmonni yarim so'mga, kurakni bir yarim tangaga „bor, baraka top“ qildik. (Yoz bo'lgani uchun kurakning bozori kasod edi, attang, arzon ketdi.)

Pulning hammasini Omon belbog'iga tugdi. Endi qolgan mollarni pul qilish kerak edi. Bola beshik bilan shaqildoqni Omonga berdim. Gardishlar bilan chidirma menga edi. Men chidirmani, Omon shaqildoqni bozorga solib chala ketdik. Bu tekin sayyor konsertning nogahon ovozini eshitgan, tevarak-atrofda salanglab yurgan o'zimiz singari bir talay uvin-to'da bolalar¹ bizni qurshab olgan edilar. Ayniqsa, bir do'lvorgina bolaga shaqildoq yoqib qoldi. Dehqon bola ekan. Qo'yarda-qo'y may bir qovun, ikki taruzga alishib oldi. Men Omonga: „Qoyilman, qo'ling yengil ekan“, degandek ko'zimni qisib qo'ydim.

Childirmani naqd pulga, bittangayi ashrafga, saman ot mingan xushmo'ylov yigitga pulladik. Tez orada gardishlar bilan bola beshikning ham „ko'r xaridori“ topildi. Bozorga tovuq, tuxum, so'k, qurut olib tushgan qozoq kampir:

— Voy-bo'y, qaraqlarim, o'si beshikti mag'an bera g'o'y. Boldarimg'a bozorliq olib borib quvontirayin, — dedi.

— Beshik gardishdan ajratib sotilmaydi, — dedi Omon Xo'-tan savdogarlariga mos sipoyigarchilik bilan.

— Voy-bo'y, qarag'im, turi jo'q, g'albirin ni ne qilayin. Keytayin, olsam olayin. Boldar o'ynab jurar. Ne berayin, ne so'ray-sinlar?

Uzoq savdolashdik. Keyin yigirmata tuxum, bir do'ppi so'k, o'nta tuyu qurtga biz ham rozi bo'ldik, kampir ham ko'ndi. Mollarni tamoman sotib, qushday yengil tortdik.

— Charchadik, ozgina ovqatlanaylik, — dedi Omon.

— Yur bo'lmasa, nima yeymiz?

¹ **Uvin-to'da bolalar** — eski-tuski kiygan bolalar.

- O‘zi arzon-u, to‘q tutadigan ovqat bo‘lsin, — dedi Omon.
- Bo‘lmasa tariq go‘ja ichamiz.
- Bo‘pti.

Bir paqirga ikkita qovoq solingan zog‘orani olib, ovqat bozorga ketdik. Bu yerdagi ne’matlarni ko‘ring. Hay, hay, hay! Biroz hidi bo‘lsa jigarkabob deysizmi, kartoshka somsa, oqshoq bo‘tqa, umoch¹, bug‘doy go‘ja deysizmi — hammasi ham chelak-chelak, xo‘randaga muntazir. Xo‘randalar sotuvchining atrofini o‘rab, yerga cho‘qqayib o‘tirbdilar. Oshpazlar cho‘michlab suzib berib turibdi. Bir tovoq uvra oshdan bir nima chiqdi shekilli, xo‘randa:

- Buning nimasi? Pashshami? — deb so‘rab qolgan edi, oshpaz:

— Oshda pashsha nima qiladi?! Piyozning kuygani, — deb kosaga qo‘l tiqib „kuygan piyoz“ni og‘ziga solib yubordi.

Arzonginasi, halolginasi shu deb biz ham bir tovoqdan quydirdik. Bir tovog‘i to‘qqiz pul — uch tiyin ekan. Biz savdolashib, ikki tovog‘ini bir miri — besh tiyinga ko‘ndirdik. Bay-bay, maza bo‘pti-da. Qirsillab turgan zog‘ora bilan sal achinqiragan uvra osh og‘zimizga qaymoqday tatib ketdi. Tovoqni boshiga ko‘tarib, huzur qilib xo‘rillatib ichayotgan Omon peshonasidagi marjon-marjon terlarini chap qo‘lining barmog‘i bilan dam-badam sidirar edi.

Ovqatdan so‘ng, maza qilib kerishib oldik. Tuxum, so‘k, qurtlarni mening belbog‘imga tugib oldik. Omon:

- Oziqlik ot horimas, qolgan zog‘orani ham ro‘molga tugib qo‘y, — dedi.

Qovun bilan tugunchani men, tarvuzni Omon ko‘tarib oldi. „Semizlikni qo‘y ko‘tarar“ deganlaridek, Omonga badavlatlik yoqmas edi. O‘rtadagi hamma pulimiz allaqachon uch so‘mdan oshib ketgani uchun Omon yangi qiliq — boyvachcha qiliq chiqara boshladi.

- Yur, — dedi u menga, — qo‘y bozorga boramiz.
- Nima qilamiz?
- Men o‘zimga tegishli aqchaga birorta to‘qli olib, shaharga haydab ketaman.
- Nima-nima? — dedim men. — Darrov pul quturtirdimi? O‘zing so‘qqa boshingni boqolmaysan-u, to‘qlini qanday qilib boqasan? Yoki dadang Tursunboy akaning to‘qliga ko‘zi uchib turibdimi?

¹ Umoch — uvalangan xamir solinib pishirilgan suyuq osh.

Baribir gap kor qilmadi. Meni sudrab mol bozorga olib kirdi. Tugunni-ku, ishonmas edik. Bozor darvozasi oldida turgan pattachining oldiga qovun bilan tarvuzni omonat qo'yib ichkariga kirdik.

Mahshar¹ deganning xuddi o'zginasi shu yerda ekan. Bir tomonda bir arqonga bog'langan qo'shoq-qo'shoq qo'ylar, bir tomonda echki-yu uloqlar tinmay ma'rashib turibdi. Bir chekkada qoramol bozori: sigirlar, buzoqlar, g'unajinlar, buqalar, ho'kizlar. Narigi tomonda ot bozori. Jalloblar qirchang'ilarni Zolariq suviga solib, qamchilab, arg'imchoqday dingillatib xaridorlarga ko'z-ko'z qilib yuribdi. Sotuvchi ko'p, undan oluvchi ko'p, hammasidan ham dallol ko'p.

Kun — tig'ida, jazirama, chang. Hamma yoqni tezak, ter, jun hidi bosib ketgan. Bir meshkob² orqasida bir mesh suv, qo'lida ikkita sopol tovoq.

— Obi xudoyi, obi xudoyi, — deb chanqaganlarga suv ulashib yuribdi.

Bergan biror chaqani sopol tovoqqa tashlaydi, bermagan bilan ishi yo'q.

Bir chekkada yalang oyoq ikkita bola „muzdek ayron“, deb qichqiradi. Chelakning ichida bir burda kir muz. Muzni qayerdan oldi ekan?

Bozorning bir chekkasida — beshyog'ochlik qo'ychi boylardan Soyibnazар qo'ychi bilan Ilyos bo'rdoqi. Kiyiz chakmonli, namat qalpog'ini bostirib kiygan qozoq qo'ychilar qo'l siltashib savdolash-yapti. Dallollar: „Oling, oling“, „Soting, soting, boy ota“, — deb javrab turibdi. Bularning savdosи oz deganda yuzlab qo'yning tepasida.

Biz hali biror tuyaning tishini ko'rmasdan, biror otning yo'rig'ini bilmasdan, biror buqaga „bor, baraka top“ demasdan, qo'ybozorning kunchiqar tomonidan g'ala-g'ovur janjal ko'tarilib goldi.

- Ur, peshangdi!..
- Kisabir, kisabir!

¹ **Mahshar** — diniy e'tiqodga ko'ra, dunyo tamom bo'lgandan keyin butun o'lgan kishilar tirilib, so'roqqa to'planish kuni: qiyomat. ² **Meshkob** — suv sotuvchi.

— Bozorg'a uri¹ aralabdi!

„Chur-chur“ hushtakbozlik. Bir qo'li bilan qilichini ko'tarib, ko'k movut shimini eplay olmay, alpang-talpang bir qozoq va bir o'zbek mirshabi o'sha tomonga qarab yugurdi. Hamma o'sha yoqqa qarab chopdi. Biz ham ularning ketidan yugurdik.

Ne ko'zim bilan ko'ray, mana ishonmasangiz, Omon ham guvoq. O'rdada bizga qo'shni bo'lgan Qo'g'urmoch mahallalik mashhur Sulton o'g'ri turar edi. Bu gal kisavur sifatida emas, balki pul o'g'irlatgan jabrdiyda bechora sifatida kosibsimon yuvoshgina bir yigitning yoqasidan ushlagan holda ko'ziga yosh olib turar edi.

— Musulmonlar! — der edi u. — Pulimni oldirib qo'ydim. Yonimda mana shu yigit ilashib yurgan edi, gumonim shundan.

Yigit bechoraning rangi quv o'chib ketgan, lablari pir-pir uchadi.

— Ey xudo, quruq tuhmatingdan asra, qanday baloga yo'liqdim, o'zing saqla! — deb javob berar edi u.

— Qancha aqchang bor edi? — deb so'radi qozoq mirshab Sulton kisavurdan.

— Sakkiz so'm-u miri kam to'rt tanga. Ola tik hamyonda edi. Ichida „Yo Ali“ degan tamg'alik kumush uzugim ham bor. O'zim kambag'al kosib odamman, birorta oriq-tiriq qo'y olib kuzgacha semirtirib yuraman, deb kelgan edim.

Shu tobda Sultonning ko'zi men bilan Omonga tushib qoldi.

— Mana bu bolalar ham guvoh!

Hang-mang bo'lib qolgan Omon: „Iye, iye!“ — deganicha dasasiga to'qli olib borishni ham esidan chiqarib orqasiga qarab ochdi. Men bezrayib turaverdim.

— Seni qancha aqchang bor edi? — deb so'radi mirshab sho'rlik yigitdan.

— Meniki ham olacha tik hamyon. Men ham qo'y olgani kelgan edim. Pulim sakkiz so'm-u miri kam ikki tanga (miri kam ikki tanga — o'ttiz besh tiyin).

— Guvoh-puvohning hojati yo'q. Qani ikkoving oqsoqolning oldiga yur-chi, o'sha yerda yechamiz. Olomon tarqalsin, — dedi o'zbek mirshab.

¹ Uri — o'g'ri.

Ikkisini yetaklab bir tomonga olib ketdilar. Biz orqalaridan bormadik.

Sulton o‘g‘ri guvohlikka tortgandan keyin qo‘rqib qochgan Omonni kechgacha qidirib, bozor tarqalganda tuya saroyidan topib oldim. Hali ham qo‘rqqanidan o‘ziga kelmagan edi.

— Oxiri nima bo‘ldi? — deb so‘radi Omon mendan.

— Kisavurga sen sherik ekansan, mirshablar qidirib yuribdi,
— dedim men.

— Rostingmi? Endi nima qilamiz?

— Nima qilar edik. Seni jat¹ingga qovun bilan tarvuz pattachining qo‘lida qolib ketdi.

— Endi qayerda yotamiz?

Bir-ikkita samovarga borib ko‘rdik. Hammasini savdogarlar, lattafurush chayqovchilar egallab olibdi, yotar joy yo‘q.

— Endi qayoqqa boramiz? — dedi Omon.

— Qo‘rqma, bultur tog‘am bilan shu yaqin orada bir bo‘zagar kampirning uyida yotib qolganmiz. Yaxshiqiz degan kampir meni taniydi. O‘shaning o‘tovida tunab qolamiz.

It quvgan tulkiday olazarak Omon menga ergashdi Tugunni ko‘tartirdim. Yaxshiqiz degan bo‘zagar kampirning o‘toviga qarab ketdik.

Kampirning o‘tovi Zolariqning chap qirg‘og‘ida edi. Atrofi ozodagina qilib supurilgan. Tuproqdan kattagina supacha ko‘tarilib, ustiga bir kir sholcha tashlab qo‘yilgan. O‘tovning yonboshida loy o‘choqqa o‘rtacha kattalikdagi bir qozon o‘rnatilgan. O‘choqdan nariroqda ikkita ayriga ip arqon tortib, unga chambaraklarda uch-to‘rtta sopol tovoq osib qo‘yilgan. Sut-qaymoq bo‘lsa kerak. Ikkita qovoq idish osig‘liq turibdi. Ularda qatiq bo‘lsa kerak. Qozon tuvoqsiz, uning yonida bir o‘g‘ir, bitta kuv turibdi. Bitta yechiq buzoq shataloq otib o‘ynoqlab yuribdi. Chala qurigan bir tolga bog‘lab qo‘yilgan qari ola ko‘ppak juda hafsalasizlik bilan ko‘ksovlarning yo‘taliga o‘xshagan ovoz bilan hurib bizlarni kutib oldi. Itning ovoziga o‘tov ichidan kampir — Yaxshiqiz chiqib keldi. Oltmishlardan oshgan bir xotin, oq oralagan sochlari taralmagan boshida dakana², belida shol belbog‘. Ayolning orqa sochiga besholtita bir so‘mlik, yarim so‘mlik so‘lkovoylardan saqina³ osilgan.

¹ **Jat** — kasr. ² **Dakana** — o‘rta yashar va keksa ayollarning sallaga o‘xshatib o‘raydigani ro‘moli. ³ **Saqina** — sochpopuk o‘rniga taqiladigan taqinchoq.

— Salom, sheshe.

Kampir alik olishdan avval itga „shicht adrag‘ovur“ deganga o‘xshagan ovoz chiqardi. It hurishdan tindi.

— Kelingdar, jigitlar, o‘sí jerga o‘tirib turingdar, — supada o‘rin ko‘rsatdi u.

Men imlab qo‘ydim. Omon qo‘lidagi tugunni kampirga tutqizdi.

— Ozg‘intoy bozorliq, — dedim men.

— Kerege jo‘qg‘o‘y. Ne qilib alek¹ bo‘lib juribsendar, — degan bo‘lsa ham, tugunni olib o‘tovga kirib ketdi.

Bir nafasdan keyin chiqib:

— Qani, jigittar, bo‘za ichasindarmi? Et osaymi? — dedi.

— Jo‘q, sheshe, bo‘za ham ichmaymiz, et ham osmang, o‘ntacha tuxum pishirib bersangiz bo‘ladi. Joy bersangiz, tunab ketamiz.

— Jaqsi, — dedi kampir, — xudoyning osmoni ham, jeri ham keng. Joz kuni, qalag‘an² jerlaringda jota berasindir. Ikkoving bir tanga berasan.

— Jo‘q, sheshe, — dedim, — ikkovimiz yarim tanga beramiz.

— Sartting bolasi quv bo‘ladi, jota qollaring. Bu kecha bozor kech, qo‘noqlar keledi, boyvashshalar keledi, angeme³ zo‘r bo‘ladi.

Kampir bizga tuxum qovurib bergani qozonning tagiga o‘t qo‘yib, tappi tutata ketdi. Omon bilan ikkovimiz endigi safarimizning rejasini tuzib, maslahatlashib o‘tirdik. Yarim soatlardan keyin bitta sopol laganda tuxum qovurdoq bilan qozonga yopgan ikkita chap-chap non keltirdi. Bir kosada sovuq suvni oldimizga qo‘yib, mohazar⁴ni tushira ketdik.

Omon laganning tagini non surkab yalab turganda, ko‘cha-ko‘yni to‘ldirib, ayqirib-chayqirib besh kishi kirib keldi. Novcha bir yigitning yelkasida bir nimta go‘sht, qo‘lda tugun, unda non, kartoshka, piyoz bo‘lsa kerak. Yana bir yigit mullavachchalarga o‘xshash qulf soqol qo‘yan, boshida girdak⁵ kir sallasi bor, xushtavoze. Ich yaktagining ustidan belbog‘ bog‘lab, uning ustidan yana bitta yaktak kiyib olgan. Oldinda kimsan, Sulton kisavur. Shimining pochasi shimarilgan, belbog‘i burab-burab, arqon qilib

¹Alek — halak; qiynalib ma’nosida. ²Qalag‘an — xohlagan. ³Angeme — hangoma. ⁴Mohazar — bu o‘rinda: tayyor taom ma’nosida. ⁵Girdak — yumaloq chambar.

bog'langan. Egnida yoqasi ochiq tik yaktak, isqirt do'ppisining bir chekkasi qaytarilgan. Boshi sal orqaga moyil, basharasi behayo. Qo'lida to'rtta xirpa¹ oshiqni o'ynab kelar edi. Qolgan ikki yigitni ham Sultonning nusxasi desa bo'ladi. Faqat bittasining bir ko'zida g'o'lakdek² oqi bor. Bittasining o'ng yelkasi chap yelkasidan baland. Shuning uchun ham chap qo'li o'ng qo'lidan uzun ko'rindi.

Bularni ko'rish bilanoq Omonning chaynagani og'zida, yutgani bo'g'zida qolib, menga baqrayib qaradi. Men unga „supani bo'shatamiz“ degandek imo qildim. O'rnimizdan turdik. Zolariq yoqasida it bog'langan tolning tagidagi maysaga borib o'tirdik. Sulton kisavur:

— Shishe, omonmisan? — dedi. — Bu kecha bizni qo'noq³ qilasan. Yaxshi chiqqan bo'zalardan bormi?

Keyin bizga ko'zi tushib qolib:

— Hoy sen haromilar, bu yerda nima qilib yuribsanlar? Qani bu yoqqa kel! — dedi.

O'zi va ulfatlari supaga chiqib o'tirib, bizni ham yonlariga chaqirdilar. Noiloj kelib o'tirdik. Kampir kir dasturxonga bir dasta non o'rab olib kelib o'rtaga tashladi. Keyin katta quruq yog'och chora⁴ ham olib chiqib o'rtaga qo'ydi. Sultonga qarab so'radi:

— Oqshoq bo'za ichasindermi, tari bo'za ichasindermi?

— Zo'r chiqqanidan olib kelaver, — dedi Sulton.

Kampir o'tovga kirib ketdi. Sulton bizlarga qarab:

— Hali mol bozorda nima qilib yuruvdilaring? — dedi.

— O'ynab yuruvdik.

— Ha-ha. U yerda nima o'yin bor ekan? Yo o'zimga shogird qilib olaymi? — Omonni ko'rsatib: — Mana bundan tomteshar chiqadi. Kissavur bo'lolmaydi, qo'pol, — dedi.

Shu hazil-mazax paytdan foydalaniib, undan so'radim:

— Sulton aka, haligi janjalning oxiri nima bo'lidi?

— Voqeа asli bunday bo'lgan edi, uka, — deb Sulton kissavur gapirib ketdi. — Ko'kterakning samovarida bir necha kissavur o'zining epchilligi, qo'rmasligi, ayyorligi bilan maqtanishar edik. Shunda men o'g'irlagan pulimni halol qilib, egasini rozi qilib olaman, deb yuborgan edim. Ulfatni bo'zaga to'ydirishdan bahs

¹ **Xirpa** — toshga ishqab silliqlangan. ² **G'o'lak** — kichkina soqqa. ³ **Qo'-noq** — mehmon. ⁴ **Chora** — tog'ora.

boylashgan edik. Qo'y bozorga kirdim. Ko'zimga o'sha ko'rganing bayov yigit uchrab qoldi. „Shilt“ etib hamyonini oldim, pulni sanab ko'rsam, sakkiz so'm-u ikki tanga ekan. Yonimdan unga ikki tanga qo'shdim. Uzugimni ham hamyonga solib, hamyonni qaytadan yigitning cho'ntagiga joylab qo'ydim. Keyin o'sha ko'rganing maynabozlik, yolg'onidakam ayyuhannosni soldim. Mirshablar oqsoqolga olib borishdi. Oqsoqol mening da'vomni, uning raddini eshitib, pulni tekshirishga tushishdi. Kosibning cho'ntagidan hamyonni olib, ichidagilarni xontaxta ustiga qo'ydi. Mening da'vom to'g'riliq uchun yigit „kissavur“ bo'lib chiqdi.

Hamyonni, pulni, uzukni menga olib berdilar. Lekin bir yarim tanga cho'tal olib qoldilar. Shunday qilib, o'rtoqlarim bilan qilingan garovni yutdim.

— Iye, sho'rlik begunoh kosib yigit qulog'ini ushlab keta-veradimi? — dedim.

— Yo'q, birpas qamalib yotdi, keyin bechoraga rahmim kelib, mirshabga bir so'm pora berib, yigitni qutqazib yubordim. „Da'vom yo'q“, — dedim. Yigit bechora xursand bo'lganidan quchoqlab o'pib:

— Rahmat, aka, bu yaxshilicingizni o'lgunimcha unutmayman, qiyomatli aka-uka tutindik, uyim To'qli Jallob mahal-lasida, otim Abdurayim, — deb minnatdor bo'lib ketdi.

— Balli, yigitlik shunday bo'pti-da, aka! — dedim. Sulton kissavur miyig'ida kulib, „shunday“ deganday qilib qo'ydi.

Hammamiz qah-qah urib kulishdik. Sulton kissavur yon-boshlab, tirsagiga tayangan, novcha kishi supaning yonida tikka turibdi. Mullanamo kishi tiz cho'kib, ikki qo'lini qovushtirib Sul-tonning gaplariga miyig'ida odob bilan tabassum qilib o'tirar edi. Qolgan ikki yigit bir-biriga ro'para chordona qurib, gugurt otishib, „ermak qimor“ o'ynab o'tirishgandi.

Kampir et osib yubordi. O'choqdan chiqqan zangori tutun osmonga o'rlab, tevarak-atrofga ko'rpadek yoyilar edi.

Shom cho'kib, quyosh botib borar edi... O'choqda o't tutashib ketgandan keyin, kampir o'tovga kirib ikkita qovoq manak (bo'za quyiladigan idish)da bo'za keltirib qo'ydi. Bir necha zarang¹ kosa olib keldi. Novcha yigit darrov belbog'ini yechdi, uni qoqqan bo'lib,

¹ Zarang — qattiq yog'och.

choraning ustiga tarang qilib yoydi, bo‘zani suza boshladi. (Bo‘za, odatda, ilitib ichiladi. Kampir olib chiqqan bo‘za kuni bo‘yi oftobda turgani uchun ilitishga hojat yo‘q edi.) Bo‘za suzishning o‘z qoidasi bor. U siqib suzilmaydi, balki ro‘molni sidirib suziladi.

Novcha yigit suzgan bo‘zadan ozgina tatib ko‘rib, birinchi oyoq¹ni Sultonga uzatdi.

— Hammaga quy! — dedi Sulton.

Novcha yigit ikkinchi-uchinchi oyoqni haligi ikkita yigitga uzatib, so‘raganday Sultonning o‘ziga qaradi.

— Bolalarni qo‘yatur, domлага uzat, — dedi Sulton...

Domla juda qimtinib, o‘ng‘aysizlanib, zarang kosani qo‘liga oldi.

— Durvazang qizigandan keyin alyor ham aytib berasan hali. Ich-ey..!

Ortiqcha gap o‘tmasligini sezgan domla ko‘zini chirt yumib, bo‘zani shimirib yubordi...

O‘tirish sekin-sekin be’mani tomonga qarab qizib borar edi. Sekin o‘rnimdan turib, Omonni imladim. Yalinib-yolvorib Yaxshiqiz kampirdan bitta kichik sholcha bilan bitta xushvaqtan tikilgan kir lo‘la bolish so‘rab oldik. O‘tovning orqasiga o‘tib, joy qilib yotdik. Mastlar payqagani ham yo‘q. Tun yarim kechadan og‘gan bo‘lishiga qaramasdan, mastbozlik, shovqin-suron, to‘palon tobora avjiga chiqar edi. Yana kimlardir kelib qo‘sildi, tanish bo‘limgan ovoz ko‘payib ketdi. Kimdir kular edi. Kimnidir tutib olib urdilar shekilli, dodlab xudoni o‘rtaga solib yig‘lar edi.

— Azbaroyi xudo, borim shu, boshqa pulim bo‘lsa, imom A‘zam ursin.

— Lippasini axtar, dayusni!

Domlani tunamoqda edilar. Bunday to‘polonlarni ko‘raverib ko‘nikib ketgan Yaxshiqiz kampir bemalol o‘choq boshi bilan o‘tov o‘rtasida xizmat qilib yurar edi.

Keyin uxlab qolibmiz. Qancha uxlaganimizni bilmayman. G‘ira-shirada kimdir biqinimga turtganidan uyg‘onib ko‘zimni ochdim. Tepamda kechagi domla turar edi. Boshida shoshib-pishib o‘ralgan kir salsa, bir chakkasi ko‘kargan, qovog‘i shishgan, bir ko‘zi qontalashgan.

¹ Oyoq — idish.

— Tur, uka, turinglar, hammasi dang uchib yotibdi. Qochmasak bo‘lmaydi. Mening bo‘ladiganim bo‘ldi, rasvo qilishdi. Non puli ham qoldirmay, bor-yo‘g‘imni shilib olishdi. Yana bir baloga yo‘liqmaylik, boshim yorilguday charsillab turibdi.

Omonni uyg‘otdim. Dik etib turib, Zolariqning muzdek suviga apir-shapir yuz-qo‘limizni yuvgan bo‘ldik. O‘z etagimizga artindik.

— Xo‘s, qayoqqa qochamiz, taqsir?

— Xudoy taoloning dargohi keng, to‘rt tomonimiz qibla. Yuqoriga, Qing‘iroqtepa tomonga qochamiz.

Uchovlon „shilt“ etib chiqib ketayotganimizda Yaxshiqiz kampir yo‘limizni to‘sdi:

— Qayoqqa qochyapsanlar, aqchamni berib ketlaring!

Omon cho‘ntak kovlab o‘n besh tiyinlik Buxor tanga berdi.

— Mana, sheshe, yarim tanga haqingizga, bir miri non bilan tuxum qovurgan yog‘ning puli.

— Xo‘s, — dedi kampir, — kelib-kelib turinglar.

Shunday qilib, kallayi saharlab yo‘lga ravona bo‘ldik...





Oybek

(1905 – 1968)



Hozirgi zamon o'zbek adabiyotining atoqli vakillaridan biri Oybekdir. Uning „Qutlug‘ qon“, „Navoiy“, „Oltin vodiydan shabadalar“, „Nur qidirib“, „Quyosh qoraymas“, „Ulug‘ yo'l“, „Bolalik“ kabi roman va qissalari adabiyotimiz oltin fondidan munosib o'rin olgan. Oybek „Temirchi Jo'ra“, „Dilbar — davr qizi“, „O'ch“, „Navoiy“ dostonlari bilan she'riyat muxlislarining mehr-muhabbatlarini qozongan.

Oybek bolalar uchun ham she'r, doston, hikoya va qissalar yozgan. U o'tgan asrnинг 20- yillardayoq „Yosh kuch“, „Yosh Yo'lchi“, „Kapalak“, „Qish ko'rinishlari“, „Sharshara“, „Ukam bilan qo'zichoq“, „Oyi-oyi“ singari bolalar qalbini larzaga soladigan she'rlar bitgan.

Oybekning „Zafar va Zahro“, „Haqgo'ylar“, „Bodom“ kabi dostonlari yosh kitobxonlarga ham katta estetik zavq bag'ishlab kelmoqda.

BOLALIK

(*Qissadan parcha*)

Bir kun ertalab, buvim meni oldiga solib oladi. Kalta Sara, Uzun Sara, G'affor akaning yangasi — kampir va ko'p ayollar biz bilan birga yo'lga tushadi. Mening boshimda katta tugunda kulcha, oldinda ketmoqdamman. Ko'nka yuradigan ko'chaga chiqamiz. Juma kuni bo'lganidan guzar obod. Keyin jar bo'yiga tushamiz. Bir vaqt qarasam, jardan bir ot chopib kelyapti. U egasini yiqitib qo'chgan. Go'yo boshimdan uchib o'tdi deyman. Xotinlar sarosimada shoshilib o'zlarini chetga oladilar. Juda zo'r, ko'rkam ot. Qalt etib to'xtaganimcha, orqasidan uzoq qarab qolaman. Lahza o'tgach,

jardan egasi oqsoqlanib chiqib keladi. Hamma yog'i ho'l, harsillagan holda otining orqasidan yuguradi. Olmazor ko'chasi bo'ylab uzoq boramiz. Badjahl mirshablar mahkamasidan o'tamiz.

Beshyog'ochga yaqin qolganda, o'ng tomonga, ingichka bir ko'chaga qayrilamiz. Ikki tarafi gullarga, quyuq daraxtlarga to'la bog' hovlilardan iborat, sersuv, salqin, tinch ko'cha. Har ikki tomonda devorlardan baland ko'tarilgan so'rilar, novdalari ko'chaga to'kilib tushgan daraxtlar. Tomlarda ko'k maysalar, qizg'aldoqlar gilam.

Kattakon bir darvozadan ichkari kiramiz. Ayollar, kampirlar juda ko'p. Urishib, talashib yurgan bolalar ham serob. Hovlining ikki tomonida qamish bo'g'otli, lekin pishiq-puxta solingen qator yangi uylar. Hovlida gul ko'p. Sariq, qizil, oq — xilma-xil gullar. Kiyingan sersavlat tabarruk eshon oyim hovlining o'rtasida, kursida gumbazday bo'lib o'tiribdi. Buvim va birga kelgan xotinlar yugurganlaricha borib eshon oyim oyog'iga yiqladilar. Etaklaridan, qo'llaridan o'pib, ba'zi keksalar ko'z yoshlarini artadilar.

Yasangan-tusangan olifta boyvuchchalar ko'p. Ularda pul serob, jarang-jarang oltin tangalarni, besh so'mlik, o'n so'mlik qog'ozlarni eshon oyim oyog'iga ketma-ket tashlab turadilar. Eski-tuski kiyingan, amal-taqaq qilib, bir so'mmi, yarim so'mmi ko'tarib kelgan kampirlarni boyvuchchalar qosh-ko'zlarining imolari bilan masxara qiladilar.

Kursida qaqqayib o'tirgan eshon oyim semiz, qoshlari kerilgan, ko'zlariga surma tortilgan, qip-qizil xo'rozday xotin. Oq shohi ko'ylak ustidan uzun qora duxoba peshmat, boshida mayin misqoli doka ro'mol ustidan tovar durracha tang'igan, olifta. U qovog'i soliq, indamas, goho atrofida parvona bo'lib yurganlarga bilinarbilinmas tabassum bilan nimanidir shivirlab qo'yadi. Hovlida ayollar ko'p. Eshon oyim sekin kursidan qo'zg'aladi. Darrov xotinlar keng davra quradi. Eshon oyim vazmin qadamlar bilan zikr boshlab yuboradi. Kampirlar „huv-huv“lab qo'llarini, bo'yinlarini u yoqqa-bu yoqqa tashlab, gir-gir aylanadilar. Birpasda ko'plarining jazavalari tutib, yanada qattiqroq qichqirib, bo'g'iladilar. Hovlida otin oyilardan beshtasi g'azal o'qib turibdi. Ayniqsa, ikitiasi chiroyli, kelishgan yosh juvonlar. Ustlarida si poyi, lekin asl ko'ylak, uzun kamzullar, boshlarida oppoq chaqnagan ro'mollar. Ovozlari yoqimli, Mashrabdan, Yassaviydan so'fiyona g'azallarni his bilan, samimi tuyg'ular bilan o'qiyladilar. Og'zim ochilib tinglayman. Uzoq tinglayman... Ajoyib bir musiqa qalbimga to'lganday, ruhimda eriganday his etaman...

Kalta Sara, Uzun Sara ikkovi ham zikr davrasida. Ularga qarasam, kulgi ichimdan tıqilib keladi. Ayniqsa, Kalta Sara avjda. Uning bo‘g‘ilgan ovozi xasta, tupuklari sachraydi. Uzun Saraning ovozi baland, gurullab chiqadi. Bu zikrning boshi. Buvim boyaqish past ovoz bilan „huv-huv“ deb chetda turibdi. Eshikdan yangi-yangi xotinlar duv-duv kirib kelmoqdalar.

Zerikkancha, ko‘ngilga tekkancha tomosha qilaman. Keyin o‘riklar, yong‘oqlar, giloslar, tarvaqaylab o‘sgan katta-katta olma daraxtlari orasiga o‘ynab ketaman. Menga o‘xhash bolalar juda ko‘p.

Gilosga endi suv yugurgan, endi qizara boshlagan. Kattakon bir daraxtga sekin o‘rmalayman. Bir vaqt qarasam, o‘zim bilmabman, tik tepasida turibman. Hovuchlab-hovuchlab gilos terib cho‘ntaklarimga tiqa boshlayman. Qo‘qqisdan xizmatkor ko‘knori chol qandaydir paydo bo‘lib qoladi. Jahldan bo‘g‘ilgan, xunob bo‘lgan chol so‘ka boshlaydi.

— Ey, tush, haromi!...

Balandda, chayqalib turgan novda ustidaman.

— Ota, xotinlar ko‘p. So‘kmang, uyat bo‘ladi-ya! — deyman qichqirib.

— Pastga tush hozir, haromi! — o‘dag‘aylaydi chol.

Bir zum o‘ylayman. Bu cholning qo‘liga tushish hazil gap emas. Mundoq qarasam — gilos yonida pastakkina oshxona turibdi. Bir amallab gilosdan oshxona tomiga bazo‘r sakrayman-da, ura quocharman. Ko‘knori chol „tavba-tavba, shum-e“ deb yoqasini ushlaganicha hayron bo‘lib qoladi. Men tomdan tomga o‘tib, bemalol aylanib yuraman. Tomga tikilib, egilgan novdalardan dovuchcha, olcha, giloslarni to‘ya-to‘ya yeymen. Keyin pastgina devor topib, hovliga irg‘iyman.

Zerikib, ko‘chaga chiqaman. Bolalar juda ko‘p. Kurash boshlanadi. Maydon katta, keng. Bolalar to‘polon bilan, chuvvos bilan kurashga tushadi. Bular 12—13—14 yoshlilar. Kattalar tushsa, kurash zo‘r bo‘ladi. Men tomosha qilaman. O‘zim ham tushar edim-ku, lekin yurak betlamaydi.

Kurashga kattalar belbog‘ bilan tushadi. Onaboshi bo‘yni g‘ildirak, xumkalla, ko‘krakdor. „San tush, san dam ol!“, „E, mazang yo‘q, nuqul qoqilasan!“ deb o‘rtada yuradi u. Bolalarga belbog‘ katta gap. Onaboshi kurashga tushadiganlarning belbog‘ini bog‘lab qo‘yadi. Ba’zi bolalar: „Ho, belbog‘ingiz bo‘sh-ku, onaboshimiz, ko‘ring bu kishimni!“ deb janjal ko‘taradilar, qiyqlik

qiladilar. Umuman, janjal ko‘p. Ba’zi yiqilganlar izza bo‘lganidan yig‘lab yuboradi. „Halol bo‘lmadi, g‘irromlik qildi, boshqatdan boshlaymiz“, deb chatoqlik qiladilar. Bir juft bola kurashga tushadi. Oho, nuql pay, go‘shti pishiq, yuragi baquvvat, miqtı yigitchalar. Bularning oldida avvalgilari bir pul! Kurashning cho‘qqisi bular. Ko‘tarib, chir-chir aylantirib, bir-birini gum-gum yerga uradi, lekin birontasining kuragi yerga tegmaydi. Onaboshi jiddiy tusda, berilib ta’qib etadi. Chorak kam bir soatmi, xotirimda yo‘q, bular ikkovi zo‘r kurash tushadi. Ikkovi ham jiqla ter bo‘ladi. Onaboshi:

— Bas, bo‘ldi, balli, otalaringga rahmat! Ikkovlaring ham polvon chiqasizlar, — deydi.

Kurashchilar harsillab ajralishadi.

— Oting nima? Qaysi mahalladan bo‘lasan? — so‘raydi biri ikkinchisidan, terlarini artib, mag‘rur holda.

— Ko‘kchadanman, otim Bo‘taboy. O‘zing-chi? — so‘raydi ikkinchisi.

Yerga o‘tirib olgan birinchi kurashchi:

— Shayxantovurdan bo‘laman. Hech kimim yo‘q. Yolg‘iz bir kampir-u men. G‘isht quyaman. Ishim shu. Ko‘rdingmi, bilagim pay? — deydi qo‘llariga ishora qilib.

Men so‘zga aralashaman:

— Ko‘kchada qarindoshlarim ko‘p. Tanidim. Otang sag‘ri-furush, — deyman birinchi kurashchiga. — Lekin zo‘r polvon bo‘lasan. Go‘shting nuql pay!

Hazil-mazax bilan o‘tgan-ketganlardan gaplashib o‘tiramiz.

Dumbul olcha va giloslar ichimni ko‘p sidirgan shekilli, qornim juda ochadi. Bizlarga ovqat berishni hech kimsa o‘ylamaydi. Asta eshikdan kelib, buvimga yalinaman.

— Qorin och axir! Jilla bo‘lmasa, bir burda non topping! Tinka quridi-ku! — deb shivirlayman.

Eshon oyim o‘lgur ko‘chadan kelgan tugun-tugun kulchalar, patirlar, oshlarning barchasini qulf-kalit qilgan. Zahargina, mujmaygan, mushtumday bir kampir qorovul.

— Jinday sabr qil, uyat bo‘ladi-ya, — deydi labini tishlab buvim.

G‘oyat ochman. Kechga yaqin bemaza moshxo‘rda tortiladi. Kosaning tagida, suyuqqina, aynagan moshxo‘rdani topib keladi buvim.

— Ichaqol! Tabarruk osh! — deydi meni o‘tqazib.

Eshon oyimni so‘ka-so‘ka, ochligimdan kosani boshimga ko‘taraman-da, buvimga engashib shivirlayman:

— Eshon oyingizning joni pul. Siz ham ancha pul ber-gandirsiz, ha?

Buvim dovdirab qoladi:

— Voy o'laqolay, og'zingni yum-a, shumtaka! Gunoh bo'ladi-ya! Eshon oyim erta-yu kech toat-ibodatda, pok, asl ayol. Payg'ambarning avlodi, hmm... — Jahl bilan chimchilab uzib oladi biqinimni.

— E, tavba! — deyman ko'zlarimni ola-kula qilib kampirga.

— Pok ayloga pul nimaga kerak ekan?!

— Jim o'tir! — turtadi meni buvim ranjigan ohang bilan.

Kosani bo'shatib, taq etib yerga qo'yaman:

— Buvi, buvi, — deyman past ovoz bilan, — eshon oyimin-gizning to'rtta satang qizlari bor ekan. Narigi hovlida ko'rib oldim. Bir olifta, bir dimog'dorki, bay-bay-bay, ularning pardozz-andozlari! Yurishlari!... Nega erga tegmaydi ular?

Yuzlarini burishtirib, ko'zlarini olaytirib yuboradi kampir:

— Be'mani, bas endi! Sharmanda qilasan meni... — Yana chimchilab uzib oladi.

Men qotib-qotib kulaman.

Namozgar bo'lganda butun qo'shnilar bilan birga uyga qay-tamiz.

— Oyi, ovqat! — baqiraman eshikdan kirishim bilan.

— Och qoldingmi? Nahotki och qolsang, shunday katta dargohda? — deydi taajjub bilan onam.

— Eshon oyim biram qattiq, ochko'z ekan, uning oldida bizning domla holva-ku! — deyman tokchadagi qutidan darrov non izlab.

Buvim menga bir xo'mrayib qaraydi, ammo indamaydi, ters burilib omborxonaga kirib ketadi. Onam oldimga bir kosa ugra oshi qo'yadi. Kosaga qarab burnimni jiyiraman-da, shoshilib icha boshlayman. Onam qarshimda o'tirib, yuzida tabassum bilan menga quloq soladi. Men oshni icha-icha, eshon oyimnikida ko'rgan-larimni oqizmay-tomizmay gapiraman...

Mahallada hech kim yo'q, suv quyganday jimjit. Endi-endi xashaki olma pishgan. Biz bolalar egasi bog'ga ko'chib ketgan bir hovlining devoridan oshib tushamiz. Olma baland o'sgan, ko'p shoxlari qurigan, qari. Uchta bola olmaning ustiga chiqib o'lguday qoqamiz... To'yguncha yeymiz, qo'ynilarimizni to'ldiramiz. Olma paxtaday, bemaza, qurtlagan. Hali biz olmadan tushganimizcha yo'q, to'satdan eshikning zanjiri shaqirlaydi. Eshik ochiladi-da,

qarshimizda uy egasi paydo bo‘ladi. Uzun bir xipchin bilan — bilmadim darrov qaydan topgan — bolalarni shartta-shartta ura ketadi. A’zam, men, Hoji olmada bo‘zrayib o‘tiramiz.

— Tush, zumrashalar! — baqiradi bizga boshini ko‘tarib.

Biz oqarib, qaltirab ketamiz. Olmadan tushmaslikning sira iloji yo‘q. Qochishga yo‘l yo‘q. Oyoq-ko‘llarimiz qaltirab, sekin daraxtdan tushamiz. Uyning egasi naq boshimizda, havoda xipchinini bir-ikki aylantiradi-yu, lekin negadir urmaydi, po‘pisa qiladi.

— Agar yana ikkinchi devordan tushsalaring, olmaga tegsalaring, oyoqlaringni sindiraman! — qichqiradi ko‘zlariga g‘azab to‘lib.

— Jon aka! Tavba qildik, bundan buyon sira tegmaymiz! — yalinamiz uchovimiz ham bir og‘izdan.

Uy egasi indamaydi, uyga kirib ketadi. Darrov g‘ir etib qo‘chamiz.

Quyosh olovday yonadi. Tuproq cho‘g‘day oyoqqa jaz-jaz yopishadi. Havoda doira chizib, bir kalxat asta aylanadi. Chumchuqlar uni xo‘p laqillatadilar. Yaqin boradilar-da, birdan pastga sho‘ng‘ib ketadilar. Kalxat aldanadi. Biz tomosha qilamiz.

Keyin baland ikki qavat tom ustiga chiqib, jiblajibon bolasini qidira ketamiz.

— Topdik, topdik!... — deyman shivirlab.

Tuxum bosib yotgan jiblajibon qo‘rqanidan par etadi-da, uchib ketadi. Bolalar havas bilan tuxumni avaylab ushlab ko‘radilar.

— Tuxumiga tegmaylik, o‘rtoqlar, — deyman. — Tuxumlarini ochsin, bolalari sal katta bo‘lsin, keyin kelamiz.

Tomma-tom o‘tib, hatto Oqmachit, Balandmachitga qadar yetamiz. Tom issiq, havo olovday. Lekin biz oyinqaroqlar issiqni pisand qilmaymiz.

Puldorlar, boyvachchalar pastdan turib so‘kadi bizni:

— Ey, yo‘qollaring tomdan, nima qilib yuribsanlar, gadoy-vachchalar.

— Ziqna boy! Xasis boy! Ahmoq boy! --- deb qichqiramiz, kesak otib qo‘chamiz.

Kunlar shunday o‘tadi. Har kun mактабга qatnaymiz. O‘qish juda og‘ir. Ko‘p bolalar olti yil, besh yil, to‘rt yil o‘qib-o‘qib, haftiyakda qochib ketadilar. O‘qishda muntazam bir tartib, qoida, ayrim sinflar yo‘q. Hammamiz bir uyda, shovqin solib, doimo baland ovoz bilan o‘qiymiz. Bog‘dorlar butun bahor, butun yoz

bog'da bo'ladi. Shaharda qolganlar, shu jumladan, men, issiqdan garang bo'lsak ham, o'qishdan bezsak ham, mактабга qatnaymiz. Bog'dorlarga havasimiz keladi, koshki edi bir parcha bog'imiz bo'lsa, deymiz.

— Ha, dadamlar aytdilarki, pulni yig'ib-yig'ib biz ham bog' olamiz, — deydi xo'rsinib bir bola.

— Bog' qimmat, pulni qisib-qimtib yig'sa bo'ladi. Tog'amilar hayitda kelganda miri-miri pul beradi, darrov qutiga qulflab qo'yaman. Axir bir kun olamiz-da, bog'ni, — deydi yana bir bola. — O'ttiz, qirq yildan keyin olsak ham mayli... Dadamlar aytadilar, toma-toma ko'l bo'larmish.

Hammamiz xaxolab kulamiz.

— Bog' yaxshi narsa, lekin pul yo'q-da.

— Pul bo'lsa, changalda sho'rva. Bizdaqa kambag'allarning ahvoli shu! Dadam sartarosh. Pul yig'ib bo'ladimi! Qozon bazo'r qaynaydi, bir kun atala, bir kun qora sho'rva... — ma'yus gapiradi bir bola.

Men xomush holda indamasdan o'tiraman.

Maktabda, hovuz bo'yida soyasi quyuq ikki ko'r kam shotut bor. Domlam shogirdlarga shu tutlar tagiga ko'chishni buyuradi. To'polon ko'tarilib, bo'yralarni, domlamning eski ko'rpachasi va taqir po'stagini olib, tutlar tagiga ko'chamiz.

Tut pisha boshlagan, bitta-yarimta tushib turadi.

— Bolalar! Ko'ringlar, bo'yra juda titilib ketibdi. Bir so'lkavoy boylarga, yarim so'lkavoydan kambag'allarga! — deydi domlam qat'iy buyruq bilan.

Aksariyat bolalar, dadamlarga pul tushganda olib kelaman, deb har kun va'da qiladilar. Ayniqsa, kambag'allar bo'yra puli deganda juda xafa bo'lib, tashvishga tushadilar.

Issiq baland. Daraxtlarning yaproqlari qimir etmaydi. Goho bizlarni issiqdan, o'qishdan toliqib, uyqu bosib, jinday tinib qolamiz. Shunda domla to'satdan qarsillatib savab ketadi hammamizni.

— Taqsir, uch kundan buyon Ali kelmaydi, daragi yo'q. Ijozat bersangiz, uyiga borsam, — so'raydi ta'zim qilib A'zam.

Domlam A'zamga bir yomon xo'mrayadi va jerkib deydi:

— O'tir! O'qi sabog'ingni. — Keyin menga va o'n besh yoshlardagi ikki baquvvat shogirdga buyuradi: — Topib kelinglar, badbaxtni!

Sevinib yugurgancha ketamiz uchovimiz ham.

Alining uyi Jarko'chada.

— Assalomu alaykum! — deymiz Alining onasiga. — Ali qani? Izlab keldik.

— Keldinglarmi? — deydi sevinib onasi. — U dilozor narigi hovlida arg‘imchoq uchib o‘tiri pti. Sekin boringlar-da, tappa ushlanglar!

Oyoq uchida, bitta-bitta yurib boramiz. Haqiqatan Ali arg‘imchoq uchmoqda. Bir chetda gulzor oralab, ikkita chiroyli qiz gul terib yuribdi.

Arg‘imchoq qayrag‘ochga solingan. Ali vaqtı xush, juda berilib arg‘imchoqda uchmoqda.

To‘satdan bosamiz Alini. Alining rangi quv o‘chadi, o‘zini arg‘imchoqdan yerga tashlaydi. Sherigimizning biri Alining qo‘llarini orqasiga qayiradi.

— Tez yur! G‘iring desang — chalpak qilamiz, — deydi do‘q qilib.

Qizlar hayron bo‘lib, dam Aliga, dam bizga qarab qotib qolishadi.

Bola bir siltab Alining qo‘llarini qo‘yib yuboradi.

— Qani yur, jildingni ol! — deyman men.

Ali bir daqqaq qaltirab, jim turadi. Keyin, qovog‘i soliq, yerdan ko‘zini uzmay deydi:

— Domlam badjahl, uradi... Buguncha tegmanglar menga, ertaga o‘zim boraman, — yalinadi bizlarga.

— Yur, o‘rtoq o‘qish oson emas, quduqni igna bilan qazish degan gap, — deydi bolalarning biri yumshoq tovush bilan, — lekin o‘qishni tashlama, keyin achinasan.

Olfita qo‘suni qizlar qovoqlari soliq, xomush holda uyga kirib ketishadi. Ali bo‘sashib, jildini bo‘yniga osadi-da, oldimizga tushadi. Ammo ko‘chada bir yiqilgan devor oldiga yetganda, Ali qochib ketadi. Duv etib, uchovimiz ham quva ketamiz. Ali pastakkina devordan oshib ikkinchi bir hovliga o‘zini uradi, undan narvon bilan tomga chiqib ketadi.

— Tomga qochsang oyog‘ingdan, yerga kirsang qulog‘ingdan tortamiz!

— Qochib qutula olmaysan! — deydi kattaroq shogird.

Uchovimiz ham narvonga o‘rmalaymiz. Ali tomning u chetidan bu chetiga qochadi, lekin iloji yo‘q. Biz quvlaymiz. Axir tutib, narvonga surgaymiz. Alining nafasi ichiga tiqilgan, entikkan.

— Qo‘yvoringlar, o‘zim tushman. Xo‘p, mакtabга boraman, — deydi Ali.

Men va shogirdlar xo'mrayib, Alining qo'lini qo'yib yuboramiz. Birdan Ali orqa tomonga irg'iydi. Tomning narigi tomoni pastak ekan. Ali o'zini yerga tashlaydi.

— Qochdi, qochdi! — qichqiraman ko'zlarimni Alidan uzmasdan.

Bolalar tomdan irg'ib, quva ketishadi. Narvondan yumalaganday tushib, men ham yuguraman. Ali o'qday chopadi. Lekin bolalar ham „hap sanimi“ deb quvlashadi. Ali to'ppa-to'g'ri Shayxantovurga qarab ketadi. Biz orqasidan yuguramiz. Har bir duch kelgan odam hayron bo'lib, orqamizdan qarab qoladi. Hammamizning nafasimiz o'pkamizga tiqilgan, charchagan, chanqaganmiz.

Axir Alini tutamiz. Qo'llarini orqasiga qayirib, o'zini belbog'i bilan mahkam bog'laymiz-da, so'kib, urib matabga surgaymiz.

— Yo'q, bormayman! — deydi Ali oyoqlarini tirab. U qalt-qalt titraydi. Do'q qilamiz, yalinamiz — bo'lmaydi. Keyin ikki bola ikki qo'ltig'ida, orqasida men, itarmalab, surgab jo'naymiz.

Ali baqirib, yig'lab, depsinib, qo'llarimizni tishlaydi. Baqqollar, qassoblar kulishadi.

— Matabdan qochdimi? Jazosi, surganglar!

Oqmachitga yetganda Ali yig'lab, yalinadi. Indamaymiz, surgab matabga olib kiramiz. Uchovimiz bir-birimizning so'zlarimizni bo'lib, ba'zan uchovimiz ham birdan hammasini domlaga so'zlab beramiz. Alining ko'zları yerga qadalgan, qovog'i soliq, qaltirab turibdi. Qo'llarini bo'shatib yuboramiz. Domlam lablarini qattiq qimtib, qamchini ko'taradi. Uchovimiz birga yalinamiz.

— Tavba qildi, taqsir, endi qochmaydi. Bizlarga ko'p va'da qildi, sira qochmaydi. Jon taqsir!..

Domlam asta qamchisini ko'r pachasi tagiga qo'yadi.

— O'tir, o'tir! — qichqiradi xo'mrayib.

Ali holsiz bir oqarib, bir qizarib, tappa yerga o'tiradi-da, kitobini ochadi.

To'p otar chog'i. Men A'zamning yoniga o'tirib, kitobimni ochaman. Alining tutib kelish voqeasini A'zamga bataysil astasekin shivirlab hikoya qilmoqchi bo'lsam, domlam yalt etib o'q-rayadi:

— O'qi!



***Quddus
Muhammadiy***
(1907–1997)



Bolalarning otaxon shoiri Quddus Muhammadiyning birinchi she'rlar to'plami „O'quvchiga esdalik“ nomi bilan 1946- yilda chiqqan. Shundan so'ng „Sinov“, „She'r va ertaklar“, „Orzu“, „Bahor keldi“, „Dunyoda eng kuchli nima?“, „Qirq o'g'il, qirq qiz“, „Bizning do'stlarimiz“, „Yangi uy“, „Mehribon do'stlar“, „Tanlangan asarlar“, „Bog'larda bolalar“, „Ochil dasturxon“, „Tabiat alifbosi“ kabi ellikka yaqin turli nom va tillardagi kitoblari chop etilgan.

OCHIL DASTURXON

She'rim — ochil dasturxon,
She'rim — sochil dasturxon.
El o'g'lin qilay mehmon,
Yer o'g'lin qilay mehmon.
Shoiringman mehribon,
Vatanimga mehrim kon,
Bo'layin ulkan mezbon.
She'rim — ochil dasturxon,
She'rim — sochil dasturxon.
Ochilmasang, sochilmasang
She'rimmassan, she'rimjon.

PISTAGULNING ISTAGI

Pistagul nima uchun
Doimo kunga boqar?

Doim kunga boqishi
Muncha ham unga yoqar?
Quyosh yerning onasi
Sevgan jon-u tanasi,
Yer yuzini yashnatar
Bobo quyosh shu'lasi.
Pistagul ham Quyoshning
Jajjigul nabirasi.
Pistagulning pahlavon
Eng kattakon buvasi
Bobo Quyosh bo'ladi.

TEMIRLAR O'YINI

Temirlar jarang-jurung,
O'ynashib diring-diring!
Deyishar: „Yuring, yuring!“
Tushadilar qiziq tansa
Sakrashib assa-assa.
Siniq pero dikillab
Buzuq ruchka likillab
Uzuq zanjir, kalta sim:
„Biz qachon bo'lamiz „Zil“.
Chir aylanar g'ildirak,
Ortidan eski chelak.
Cho'loq ketmon oqsoqlar,
Oshpichoqni quchoqlar.
Dumalar pachaq banka,
Irg'ir puchuq voronka.
Zang bosgan mix uyg'onar,
Darz tog'ora to'lg'onar.
Yo'rg'alar eski qulf,
Maydon bo'ylab yugurib,
Kalit ham chikka-pukka:
„Men ham turmayman yakka,
Traktorga vint bo'lay,
Paxta maydonin ko'ray.
Ayb-ku, bekor turmoq.
Maydonni xira qilmoq!

Tegsin bizning foydamiz,
Temir, po'lat jonlarmiz.
Qurilishga boramiz,
O'z o'rnimiz olamiz".
Dik-dik o'yin tushdilar,
Samolyotdek uchdilar.
Shu on keldi Alisher:
— „Temirlarim qayda? — der.
Temir ishin bilaman,
Qayda ko'rsam ilaman,
Maktabga topshiraman,
Zavodga oshiraman.
To'plansa temir parcha,
Tonnalab qancha-qancha
Ho'playdi domna pechka,
Yutadi marten pechka.
Minut qolmasdan kechga,
Simob kabi eritar —
Zavodlarga tez eltar...

O'roq, bolg'a ham bolta,
Dazmol, konserva banka,
Hattoki qisqich, chelak,
Tegirmonda sim elak.
Palovimiz kapgiri,
Chovli, kastrul — bari.
Qonimiz ham temirdan,
Chehramiz qizil sizdan.
Temir, mehnatkash do'stim,
Egalla tezroq posting!
Qani ketdik zavodga,
Minib stanok — otga.
Qurilishga boramiz,
O'z o'rnimiz olamiz!"
Temirlar jarang-jurung,
O'ynashar diring-dirung,
Deyishar: „Yuring, yuring!"

DUM

Bir maktabda gap mish-mish,
Turg'unning dumi bormish.
Xo'sh, bu ajab, qanday dum,
Hech kimda yo'q bu udum?!

Bilsam voqeа o'zga,
Ilinmas qo'lga, ko'zga.
„Ikki“ degan oti bor,
Na o'zi, na zoti bor.

Turg'unning bilim qarzi,
Sudralishi dum tarzi.
Ro'dapo achchiq ichak,
Ong uyida o'rgimchak.

Dum deya ko'rmang zinhor,
Dum sha'niga nomus-or.
Hayvon, qushlar sezmasin,
Turg'unjondan bezmasin,

Ular dumi foydalik,
Ish berar qoidalik.
Har birin o'ziga xos,
Qaddiga kelishgan mos.

Qushcha uchmoq-qo'nmoqqa,
Molga chivin qo'rmoqqa.
Hasharotga tig'-yarog',
Yilqiga cho'tka-taroq.

Dum borki qaysi jonda,
Ishi bor har maqomda.
Ammo Turg'un dumi-chi,
Na boshi bor, na uchi.

Ey, Turg'unjon, ko'zing och,
Dum — „ikki“ngga qil iloj!

NAFISA OY BILAN KISHMISH JON

Bir kun mayiz yeb turib,
O'ylab qoldi Nafisa:
— Kishmishjon muncha shirin,
Asalday o'tkir yesang.

Xuddi novvot mazasi,
Kishmishjonim, kishmishjon, —

So‘rar silab-siypalab,
— Shirinliging aytib ber,
Qaydan olding, ne sabab? —
So‘zlar uzum bolasi,
Gaplari biyron-biyron,
Tovushi ingichka mayin:
— Shirinligim sababi
Hammaga aniq tayin,
Qiziq-ku, sen bilmasang.
Men bir mitti ko‘rimsiz,
Nuqtaday uzumchaman.
Tusim qizil-u qora
Yetti xil nur ichganman.
Men — Quyosh nevarasi.
Qishloq katta bog‘ining
Sevikli kishmishiman.
Rizamat ota degan
Ulug‘ bog‘bon ishiman.
Men uzumlar zarrasi!
Biz ko‘pchilik — anchamiz,
Sovg‘a bo‘lib qanchamiz
Mehmonlarga ketishdi.
Allaqachon yetishdi,
Do‘konlarda hammasi.
Men esa senga keldim,
Mashina „ZIL“ da keldim.
O‘qishing qalay, nechuk?
Og‘zing qilaman chuchuk,
Men uzum durdonasi.
Toklarning qatorida
Bog‘bon otam ko‘rmay kam,
Bir qarich qalamchadan
Voyaga yetdim ulkan.
Shirinligim asosi:
Tuproq, havo, quyosh, suv.
Mehribon onam, otam,
Menga lazzat bergenlar
Bog‘bon bilan Vatanim
Men ham mehnat mevasi. —
Nafisaoy zavqlanib,

Kishmishjonne erkalab
O'paman deb bilmasdan,
Yeb qo'yibdi kappalab,
So'ng achindi opasi.

RA'NO KO'RGAN MARVARID

Ra'no chiqdi gulbog'ga
Ertalab gul uzmoqqa.
Muallim opasiga
Gulni hadya qilmoqqa.
Gullar bargida ko'rди
Marvarid — dur shodasi,
Kamalakdek egilgan
Gulning shoxi, novdasi.
„Mana asl marvarid,
Bog'da ekan, bilmaymiz.
Nega har kun ertalab
Etak-etak termaymiz?“
Sevingandan Ra'noning
Gulni hadya qilmoqqa.
Endi teray deganda
Marvarid qo'lda turmas.
Undan keyin Ra'nooy
Guldan uzdi bir dasta.
Quyosh chiqdi, marvarid
Uchib ketdi birpasda.

* * *

Onasi ishpechidan¹
Olib unga ko'rsatar,
— Sendan u dodlab keldi
(Ochildi katta daftar)
Qochmasga qo'yasanmi?
Tortqilab uzib, yulqib.
Jonidan to'yg'izgansan,
Sho'rlik qochgandir qo'rqiб,
Agar shunday fe'lingni
Sen tezda tashlamasang,

¹ Ishpech — chevarlarning ish xaltasi.

Kiyimlaring ham qochar,
O'zingni ushlamasang.
Ishpechdan tugmachani
Ona olar siypalab,
Paltoga o'tqazadi,
Tikib, chatib, puxtalab.
Ona yuzin o'tolmay,
Tugma yana postida.
Paltoni o'rab, chirmab
G'ayratjonning ustida
Kamardek ushlab qaddin,
Sovuq kelsa yo'latmas,
Tugmaching qadrini
G'ayrat endi unutmas.
Chunki G'ayrat ikki kun
Tumovdan yotib oldi.
Tugma tugul ilgakni
Chiqarmaydi yodidan.

ETIK

Yigitcha bo'lib qoldi
Solijon bu kun yetuk.
Oyog'ida kavkazcha,
O'rdak burunli etik.
Etigining milkiga
Gard-u g'ubor yuqtirmas.
Olifta, fason demang,
O'qish — mehnatda tinmas,
Narsalarning qadrini
Besh barmoqdek biladi.
Tariqday mehnat, ishin
U nazarga iladi.
Deydi: „Xrom etigim,
Ko'p chiranza husningga!
Rahmat deb qo'y, bir marta
Seni tikkan ustangga!
Ko'rkingning tub sababin
Ochib tashlaymi bir-bir,
Bosh onang emasmidi
Fermada qari sigir?

Go'sht kombinat orqali
Kelganda ko'n zavodga,
Mashina bir bahyangni
Ketkazmadi nobudga.
Kulrang ko'nchini ham
Chiqarmagin esingdan.
Tarixingni unutma,
Xabardor bo'l o'zingdan.
Silab-siypalab boqqan,
Podaching ham bor hali.
Ko'pchilik mehnatiga,
Arziydi desang: „Balli!“
Terisan, quruq teri,
Baliq moy kerak senga.
Bepardoz bo'larmikin,
Qani, aytging-chi, menga?
Teri tayyor, kim bichar?
Ustalar kerak talay.
G'arch-u g'urching sababi,
Mehnat ekanmi, qalay?
Bilib qo'y, shuning uchun
Mehnatlarni hurmatlab,
Qovurg'ang sinmasin deb,
Bosyapman puf-puflab.



Mirkarim Osim

(1907—1984)



Tarixiy mavzudagi qator asarlari ijodkori Mirkarim Osimning „O’tror“, „To’maris“, „Temur Malik“, „Aleksandr va Spitamen“, „Karvon qo’ng’irog‘i“, „Zulmat ichra nur“, „Ibn Sino qissasi“, „Singan setor“ asarlari yosh kitobxonlar qo’llidan hamon tushmay kelayotir.

SHIROQ

*Ololmasam o’z elimning erkini
Odam bo’lib nega keldim dunyoga...
„Qirq qiz“ dostonidan*

Yoz boshlanib, Yaksart bo'yidagi cho'llarda o'tlar qovjiray boshladi. Bu yerlarda yashovchi sak qabilalari sero't yaylovlarga ko'chish taraddudiga tushishdi. Yangi yerlarga ko'chish bu ko'chmanchilar uchun bir bayramdek edi. Ular bahor mavsumida yashab o'rganib qolgan yerlarni tashlab ketish oldidan bir-birlarini kiga qo'nog' bo'lib borar, dorivor o'tlarni yeb semirgan biyalarning sutidan tayyorlangan o'tkir qimizlarni ichib, mast bo'lgan yigitlar qizlar bilan lapar aytishar, vaqtichog'lik qilishardi.

Biroq bu safar odamlarning ko'ngliga qil sig'mas, o'tovlardan na qo'shiq tovushi, na qizlarning xushchaqchaq kulgisi eshitiladi.

Baland bir yerga qurilgan katta oq o'tovni egnilariga yarg'oq teridan kamzul, boshlariga uchi ingichka, uzun qalpoq kiygan qurolli soqchilar qo'riqlab turadilar.

O'tov ichida esa sak qabilalarining oqsoqollari kengash qurib o'tiradilar. To'rga solingan ayiq terisi ustida chordana qurgan Rustak oqsoqollarga vaziyatni tushuntiradi:

— Eron shohi Darayavush O'kuzdan kechib, Sug'diyani bosib oldi. Eroniylar barcha xalqni talab, erkaklarni qul, xotinlarni asir qilib ketayotirlar. Endi navbat bizga keldi. Darakchilarimiz shohning biz tomonga Ronosbat boshchiligidagi katta bir qo'shin yubormoqchi bo'lganligidan darak berayotirlar...

Rustak — soch-soqoli oqargan, biroz munkayib, cho'kib qolgan suyakdor chol. U bir vaqtlar keng yag'rinli, baland bo'yli pahlavon edi. Yakkama-yakka janglarda sak urug'inining dushmanlaridan ko'p bahodirlarni yer tishlatgan edi. Rustakning nomi Sug'diyada ham, Eronda ham mashhur edi.

Hozir u saklar va so'g'dlarning ashaddiy dushmani bo'lgan Eron shohi va uning qora niyatlari to'g'risida gapirar ekan, g'azabdan nafasi tiqilar, ko'zları o't chaqin sochar edi. U gapini tugatib, dushmanni daf etish uchun qanday choralar ko'rish kerakligi to'g'risida o'z fikrlarini aytishni urug' oqsoqollaridan so'radi.

— Qo'lidan ish kelmaydigan chollar, kampirlar, bolali xotinlarni qo'y va yilqilar bilan uzoq cho'llarga yuborib, qolgan er va ayollarning barini qurollantirsak va dushman bilan bir tomchi qonimiz qolguncha urushsak, — deb gap boshladi urug' oqsoqollaridan Saksfar. U oltmishta borib qolgan bo'lsa-da, yoshlardek ikki beti qi p-qizil, serg'ayrat va tavakkalchi odam edi.— Zolim Eron shohiga qul bo'lgandan ko'ra jang maydonida o'lgan yaxshi...

Rustak uning uzundan-uzoq gapini sabr bilan tinglab, boshini quyi solganicha o'yylanib qoldi.

— Jangda mardlarcha o'lmoq oson gap, lekin dushmanni yanchib tashlab, undan qasos olmoq qiyin. Biz mardlik ko'rsatib, nomimizni qoldirish to'g'risida emas, balki el-yurtimizning erkini qanday qilib saqlab qolish to'g'risida o'yashimiz kerak, — dedi u qiziqqon Saksfarga qarab.

Oqsoqollar mum tishlagandek miq etmay o'tirar edilar. Ko'p mamlakatlarni bosib olib, jang maydonlarida ko'p tajriba orttirgan, yaxshi qurollangan Eron qo'shini bilan urushmoq juda mahol ekanligini ular yaxshi tushunar edilar.

Boshliqlar bu mushkul muammoni yechish uchun bosh qotirib o'tirganlarida, o'tov eshigi oldida turgan qurolli yigit Shiroq degan bir cho'ponning kirishga ijozat so'rayotganini bildirdi.

- Shiroq? — deb qoshini chimirdi Rustak. — Kim u?
- Shiroq bizning urug'dan. O'zi ertakchi, dostonchi dono chol. Butun umri cho'ponlik bilan o'tgan, — dedi Saksfar.
- Undog' bo'lsa, chaqir bu yoqqa, o'sha dono cholni.

Eshikdan yoshi oltmishdan oshgan tetikkina barvasta bir chol kirib ta'zim qildi.

— Ijozat bersanglar, men ham qatoringizda o'tirib, o'z fikrimni aytsam. Nima to'g'risida gaplashayotganingizni bilaman.

— O'tir, o'tir, gapingga qulq solamiz, — dedi Rustak.

— Eron shohining askarlari Sirdaryo ostidagi qum donalaridan ham ko'p, ularni jangga chorlab, yengish mahol. Ammo ularni qirib tashlash uchun bir yo'l bor. Qulq soling...

Oqsoqlar Shiroqning og'ziga tikildilar. Borgan sari ularning yuzlari yorishib, ko'zлari chaqnayverdi...

Oq o'tovdan nariroqda cho'qqayib o'tirgan kishilar Shiroqni yaxshi tanir, uning qo'biz chalib aytgan dostonlarini ko'p martaba tinglagen, o'zi ham o'sha dostonlarda madh etilgan sheryurak odamlardan biri ekanligini bilar edilar.

Oradan ancha vaqt o'tgandan keyin Shiroq o'tovdan chiqdi. Uni ko'rgach, qabiladoshlar dahshatga tushib, o'rinalidan sakrab turib ketdilar. Keksa cho'pon kesilgan ikki qulog'i va burniga kuydirilgan namat bosib, sizib oqayotgan qonni to'xtatishga harakat qilar edi. Kutilmagan bu fojiadan hayajonga kelgan odamlar uning atrofini o'rab oldilar va ustma-ust savol yog'dira boshladilar:

— Qulq-burningni kim kesdi?

— Sen sho'rlik nima gunoh qilib eding?

— Aytsang-chi, nega bunday qilishdi?

Rangi oqarib ketgan Shiroq tishini tishiga qo'yib, o'zini bardam tutishga urinar, urug'doshlarining savollariga javob bermasdi. Uni bir joyga o'tirg'izib, kuydirilgan namat bilan qonini to'xtatdilar. Cholning sahro shamoli va cho'l quyoshidan qoraygan yuzida g'azab alomati yo'q edi. U o'ziga kelgach, o'rnidan turdi-da, kun botish tomonga qarab ketdi. Hang-mang bo'lgan kishilar uning orqasidan qaraganlaricha qotib qoldilar.

Dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi sug'd xalqini itoatga keltirgan Eron shohi Yaksartning o'ng qirg'og'idagi ko'chmanchilar ustiga yurish oldidan dam olmoqda edi. U baland paxsa devor bilan o'ralgan bog' o'rtasidagi baland shiyponda o'z a'yonlari bilan may ichib, suhbatlashib o'tirardi.

Mulozimlardan biri shiypon yoniga kelib ta'zim qildi-da, qulq-burni kesilgan bir kishi shoh huzuriga kirishga izn so'rayotganini bildirdi. Doro surishtirib kelgan odamning sak qabilasidan ekanligini bilgach:

— Mayli, kirsin, — dedi.

Ikki qurolli mulozim boshlab kelgan Shiroq shohdan o'n besh qadamcha berida to'xtadi-da, ikki qo'lini tirab yer o'pdi va o'rnidan turib, ta'zim qilganicha qotib qoldi. Eronlar nazdida muqaddas shaxs bo'lgan shahanshohga uning bir necha yaqin odamlaridan boshqa hech kim nafasini yaqinlashtira olmas edi.

Doro I baland bo'yli, qush burun, chiroyli odam edi. Uning ponaga o'xshagan soqoli ko'kragiga tushgan va mayin taralgan edi. Ustidagi to'q qizil zarrin to'ni yiltirar, qo'lidagi uzun aso dastasiga qadalgan qimmatbaho toshlar qorong'i kechadagi yulduzlar-dek porlar edi. Tosh qo'g'irchoqqa o'xshagan ikki mulozim uni sekin-sekin yelpib turardi.

Doro kamon qoshlarini chimirib, baland ovoz bilan:

- Hoy odam, o'zing kimsan, oting nima va qaysi urug'dansan?
- deb so'radi.
- Otim Shiroq, o'zim sak urug'idanman, — deb javob qildi chol.
- Kelib mening istirohatimni buzmoqdan maqsading nima?
- Maqsadim shahanshoh a'lo hazratga xizmat qilmoqdir.

Janoblariga xayrixoh bo'lganim uchun qabiladoshlarimdan qattiq sitam ko'rdim. Ularga men: „Shohi Eron bilan urushaman deb ovora bo'limgan, sizlarni bir hamlada tor-mor qiladi, yaxshisi itoat kamarini bog'lab borib, ul zot-bobarakatning etaklaridan o'ping“, dedim. Hukmdorimiz Rustak bu gapimni eshitib g'azabga keldi va mening quloiq-burnimni kesdirdi. Men endi sizning yordamingiz bilan undan o'chimni olmoqchiman. Agar ijozati oliy bo'lsa, yengilmas qo'shiningizni yolg'iz podachilar biladigan so'qmoqlar bilan sak lashkarlarining orqasidan olib chiqar edim, keyin ularni tor-mor qilish qiyin bo'lmasdi...

Shiroqning gapini eshitib Doro o'nga toldi. Agar jangovar sak qabilalari shu yo'sinda yakson qilinsa, O'kuz bilan Yaksart o'rtasidagi serunum yerlarni bosib olgan Eron lashkarlarining bexatarligi ta'min etilgan bo'lur edi. Ammo bu keksa cho'ponni bir sinab ko'rish kerak.

Shiroq shohning ishonchszilik ko'zi bilan qarayotganini fahmlab, o'z so'zining to'g'riliqini isbot qilishga kirishdi.

— Axir quloiq-burnimni yaqindagina kesilgani ko'rinish turibdi-ku! Biznikilar bekorga o'z urug'lariga bunday sitam yetkazmaydilar, faqat shoh taraf dorlarinigina quloiq-burnini kesadilar.

U o'ylab qo'ygan dalillarini keltirib, uzundan-uzoq gapirdi va o'zining Eron shohiga sodiqligini, saklarga dushman bo'lib

qolganini isbot qilishga tirishdi, so‘zining oxirida Quyosh tangrisini shafe keltirib ont ichdi.

Doro sarkardalari bilan maslahatlashib, saklar ustiga qo‘sishin yuborishga, Shiroqni esa yo‘l boshlovchi qilib olishga qaror berdi.

Eron askarlari yo‘l boshlovchining maslahati bilan yetti kunlik suv, oziq-ovqat va yem-xashak olib yo‘lga chiqdilar va ko‘chman-chilarni chalg‘itish uchun daryoning chap qirg‘og‘idagi qum sahrolaridan borib Yaksartdan kechib o‘tmоqchi va ularga orqa tomondan hujum qilmoqchi bo‘ldilar.

Dastlabki kunlarda yo‘l uncha mashaqqatli bo‘lmadi. Cho‘l o‘tlari endi qovjirab kelayotgan bo‘lsa ham onda-sonda buloqlar atrofida ko‘m-ko‘k o‘tloqlar uchrab turardi. Bora-bora cho‘l sahroga aylandi, odamlar va otlarning suvgaga ehtiyoji osha bordi. Afsonaviy otlarning taqalariga o‘xshab uyulib qolgan qum tepalardan oshib yoki chetlab o‘tish oson emas edi. Qora terga tushib hansiragan otlar oyoqlarini qumdan arang tortib olib, boshlarini quyi solganlaricha bitta-bitta qadam tashlab borardilar. Sahroning berahm quyoshi yomon niyatda kelayotgan bu qurolli odamlarning boshidan olov selini quyar, ichlarini kuydirib, tashnalikdan lablarini qovjiratar, qumlar ustida jimirlab turgan qaynoq havo o‘pkalarini yondirardi

Lashkarboshilarning toqatlari toq bo‘lib, saklar lashkargohiga qancha masofa qolganini Shiroqdan surishtira boshladilar. U esa yaqinlashib qolganliklarini va yana ikki kun yurish kerakligini aytib, boshliqlarni yupatgan bo‘ldi. Biroq sermashaqqat safarning yettinchi kuni ham saklardan darak topmadilar. Hamma yoq dasht-biyobon, odam yursa oyog‘i, qush uchsa qanoti kuyadi. Suv, oziq-ovqat, yem-xashak tamom bo‘lgan, oriqlab ketgan otlar yer iskab, suv qidiradilar, qovjiragan lablari shishib ketgan odamlar bir qultum suv uchun yillik umrlaridan kechishga tayyor!

Shiroqni o‘rtaga olib; „Bizni qayerga boshlab kelding, ablah!“ deb, qistibastiga oldilar. Askarboshilardan biri uning yoqasidan ushlab siltadi va haqorat qila boshladi. Shiroq yoqasini uning qo‘lidan qutqarib, namat qalpog‘ini boshidan oldi-da, serajin va keng peshonasining terini artdi. Uning qovjiragan lablari istehzoli tabassumdan yorishib, qiyiq ko‘zlarida o‘t chaqnab ketdi. Atrofini qurshab olgan g‘azabli chehralarga mag‘rurlik bilan qarab turib, qalpog‘ini yerga bir urdi-da, qah-qahlab kulib yubordi:

— Men yengdim, Doro qo‘shinini bir o‘zim yengdim! — dedi u qichqirib. — Sizlarni aldab, sahroning qoq o‘rtasiga olib

keldim, — qo‘li bilan kun chiqish va kun botish tomonini ko‘rsatdi.
— Bu yog‘i ham yetti kunlik yo‘l, bu yog‘i ham. Istagan yeringizga
boravering! Mening go‘rim shu yerda, — deb oyog‘i ostini
ko‘rsatdi.

U o‘z murodiga yetgani uchun muqaddas tangriga shukur
qilib, allaqanday bir duoni o‘qidi. Darhaqiqat, u o‘z elini qullikdan
qutqarish uchun ming turli azob-uqubatni bo‘yniga olgan edi.
Mana endi u niyatiga yetdi, dushman askarini halokat jari yoqasiga
boshlab keldi. Endi dushman nima qilsa qilaversin!

Bu voqeadan bir oycha ilgari u sak urug‘ oqsoqollari huzuriga
kirganda shunday degan edi:

— Agar mening bola-chaqam va nevaralarimni unutmasangiz,
o‘z shirin jonimdan kechib, yurt boshiga kelgan baloni daf etardim,
bir hiyla ishlatib, shoh lashkarlarini qirib tashlardim...

Oqsoqollar uning gapini oxirigacha tinglab, fikrini ma‘qullagan
edilar. Shunda u yonidan o‘tkir pichog‘ini olib, o‘z quloq-burnini
kesgan va go‘yo o‘z eliga xiyonat qilgan bo‘lib, dushman orasiga
kirgan edi...

G‘azabdan ko‘zları o‘grayib, aft-basharalari tirjayib xunuk
bo‘lib ketgan Eron sarkardalari Shiroqni o‘rab olib, uni ura
boshladilar. Sarkarda Ronosbat hamma yog‘i dabdala bo‘lib ketgan
Shiroqni ular qo‘lidan qutqarib, bir chetga olib chiqdi-da, suv
ichirdi, so‘ngra chodirga olib kirib, uni yaxshilikcha yo‘lga solmoqchi
bo‘ldi. Endi eron sarkardasi saklar ustiga yurish qilib, ularni tor-
mor etishni xayolidan chiqarib tashlagan, u faqat qo‘shtinini
halokatdan qutqarib qolishni o‘ylardi.

— Agar sen sahro quduqlari va yo chashmalarini bizga
ko‘rsatsang, gunohingdan kechib, Sug‘diyada istagan qishloqlardan
o‘ntasini senga in’om qillardik, — dedi u.

— O‘z elimning dushmanlariga yordam berishni istamayman,
— dedi u gapni qisqa qilib. Halokat jari yoqasida qolgan eroniylar
achchiqlariga chiday olmay fidokor cho‘ponni qiyma-qiyima qilib
tashladilar.



Hamid Olimjon

(1909—1944)



Shodlik, bahor, baxt, vatan kuychisi Hamid Olimjon bolalarga bag'ishlab „Vatan“, „Samolyot“, „Lola“, „Hulkarning she'ri“, „O'zbekiston“, „Baxtlar vodiysi“ kabi o'nlab asarlar yaratgan.

Shoirning „Zaynab va Omon“ dostoni, „Muqanna“, „Jinoyat“ pyesalari hamon kitobxonlarda katta ta'surot qoldirmoqda.

„Semurg“, „Oygul bilan Baxtiyor“ ertak-dostonlari barcha yoshdagi bolalarning sevimli asarlariga aylanib qoldi.

BUNYODNING JANGI

(„Semurg“ poemasidan parcha)

„Kun botarda bir yovuz
Dev bor emish yalmog'iz.
Odamga dushman emish,
Qon emish unga yemish.
Har musibat, har ofat,
Har bir mudhish kasofat,
Barcha jabr-u jafolar,
Hamma dard-u balolar
O'shandan kelar emish.
Odamlarni yemirish
Bilan bo'lar emish shod,
Ko'ngli g'amlardan ozod.
O'zi balo tog'ining
Va ofat bulog'ining
Boshida o'ltirarmish,
Kun-u tun-u yoz ham qish.

Uni ko'rgan har chaman,
Qo'yarkan tuproqqa tan.
U taqilgan har bir gul
To'kilar ekan butkul.
Uni ko'rgan har bir jon,
Tez bo'lar ekan xazon.
Daryolar qurir ekan,
Baliqlar chirir ekan.
Undan har kun tabiat
Olar ekan qora xat.
Ikki o-yu ikki yil,
Yursang mahkam bog'lab bel
Makoniga borarsan,
Andomiga qararsan.
O'rtangizda jang bo'lur,
Ikki olam teng bo'lur.
Shuni jangda o'ldursang,
Hayotini so'ldirsang,
Qo'ling bilan odamzod
Balodan bo'lsa ozod,
Devni o'ldirib agar,
Qaytib kelsang bezasar,
Shu kuni to'y boshlarmiz,
G'am-g'ussani tashlarmiz".

Bunyod uzoqqa boqdi,
Charvog'ga, tog'ga boqdi.
Nazari cho'lga tushdi,
Huv, deya yo'lga tushdi.
Ko'zdan yo'qoldi shu on,
Tarqaldi hamma hayron.
Baland tog'lardan oshdi,
Daralarda adashdi,
Vodiylarg'a ko'z yoshi
To'kib aylandi boshi.
Daryolardan o'tdi ul,
Yana uzoq ketadi ul.
Yurti qoldi uzoqda,
Tushunchasi tuzoqda.
Zo'r bir ishga qo'shib bosh,
O'ziga -o'zi yo'ldosh,
Uzoq cho'llarga yetdi,

Qaynoq ko'llarga yetdi.
Poyoni yo'q keng sahro
O't purkab soldi sado.
Oyog'i ostida qum
Yotadi uyum-uyum.
Biror ko'kat ko'rinas,
Biror jonvor urinmas.
Yoniga tushib quyosh,
Kuyar edi ich-u tosh.
Boshdan ter quyar edi,
Oyog'i kuyar edi.
Halqumlari bo'lib qoq,
Toqatlari bo'lib toq,
Qimirlar edi sekin,
Zo'rg'a olar edi tin.

Bir yildan so'ng banogoh¹
Bir sirdan bo'ldi ogoh:
Poyoni yo'q keng cho'lida,
Qaynagan qumli ko'lida
Bir zo'r daraxt ko'rindi,
O'shangga ko'zi to'ndi.
Ko'p toliqqan bu odam
Shu tomon qo'ydi qadam.
Daraxt qurigan edi,
Qurib chirigan edi,
Edi minglar yoshida,
Uning baland boshida
Qush uyasi bor edi,
Ham zo'r hamda tor edi.
Daraxtga bir zo'r ilon,
Chirmashib, u oshyon²
Sari zahar sochardi,
Ham og'zini ochardi.
Chaqlar chirqirashib,
Faryod qilib tutashib
Onani kutar edi,
Qon, zardob yutar edi.
Bag'rini o'rtab bu dod
Yaqinroq bordi Bunyod.

¹ Banogoh — (to'satdan, birdan). ² Oshyon — (in, uya)

Yordamga fahmi keldi,
Qushlarga rahmi keldi.
Qilichini chiqarib,
Daraxt yoniga borib,
O'sha yovuz ilonni,
To'g'rab tashladi shu on,
Qumlar bo'ldi qizil qon,
Chaqalar omon qoldi,
Ancha omon jon qoldi.
Chaqalarni qutqarib,
Ilonni qonga qorib,
Daraxtning soyasida
Uya himoyasida,
Uzoq uyquga ketdi,
Joniga orom yetdi.
Kun choshgohdan og'ganda,
Quyosh tikka boqqanda,
Qo'zg'algan kabi bo'ron,
Guvillab qoldi osmon;
Yashin uchganday bo'ldi,
Poda ko'chganday bo'ldi.
Ko'kni tutib qanoti,
Butun olamning oti —
Semurg¹ qush kelib qoldi,
Bunyodni bilib qoldi,
Changalida zo'r arslon,
Tumshug'ida botmon don,
Ko'zi ichidagi o't
Olamni qilib nobud.
Uyasiga qo'nmasdan,
Biroz bo'lsin tinmasdan
Bunyodning boshi uzra
Chiza berdi doira.
Jahon buzib o'kirdi,
Qah-qah urib bo'kirdi.
Yemak uchun odamni,
Torta berdi u damni
Chaqalari chirqirab,

¹ Semurg‘ — afsonaviy qush

Ko‘z yoshlari tirqirab,
Yalindilar, qizg‘an deb,
U bir gunohsiz jon deb:
„Qizg‘an ona, o‘ksizni,
O‘sha qutqazdi bizni.
Bo‘lmasa o‘lar edik,
Ochilmay so‘lar edik.
Bizni yer edi ilon,
Ayrilarding, onajon“.
Semurg‘ o‘ylanib qoldi,
Qalbini shafqat oldi.
Qumning bag‘riga botgan,
Quyoshda kuyib yotgan,
Bunyodga soya soldi,
Qanot ostiga oldi.
Qush nomli bu buyuk zot,
Undagi kumush qanot
Butun borliqni tutdi,
Bor osmonni berkitdi.
Bunyod salqin soyada
Bunday zo‘r himoyada,
Yetti tunni uxladi,
Yetti kunni uxladi.
Uyg‘ona bermagach u,
Bosib tobora uyqu,
Semurg‘ daryoga ketdi,
Hayal o‘tmasdan yetdi.
Suvni shimirdi cho‘llab,
Qanotlarini ho‘llab.
Shu zamon uchib keldi,
Jaladay ko‘chib keldi.
To‘xtab Bunyod qoshida,
Bir silkindi boshida.
Bunyod uyg‘ondi darhol,
Uni lol etdi bu hol.
Birdan turib seskandi,
Qushni ko‘rib seskandi.
Odamlarga o‘xshabroq,
Semurg‘ boshladi so‘roq:
„Ikki ming yildan beri,
Shu keng sahroning yeri

Bo‘lmishdir menga makon.
Mendan boshqa biror jon
Kelolmadi bunga hech.
Qumlar ko‘chib erta-kech,
Vatanidan ajraldi,
Sahro giyhsiz qoldi.
Qurtlar sarson bo‘ldilar,
Uchgan qushlar o‘ldilar.
Bunda faqat topdi jon,
Sen halok qilgan ilon.
Hech yog‘madi yomg‘ir ham,
Yer ko‘rmadi zarra nam,
Qadam bosmadi inson,
Dorimadi hech hayvon.
Shuncha yil yolg‘iz turdim,
Yer va osmonni ko‘rdim.
So‘yla menga, ey odam,
Boshingga tushdi ne g‘am?
Zo‘r bir mardlik qilibsan,
Lekin bekor kelibsang.
Tilagingni ayt menga,
Ne ko‘mak beray senga?“
Dunyoni g‘amga ko‘mgan,
Jafo-alamga ko‘mgan
Devni bir ko‘rmoqchiman,
Ko‘rib o‘ldirmoqchiman.
Odamlarga baxt bermoq,
Baxtlilarga gul termoq
Eldan shiorim bo‘ldi,
Nomus va orim bo‘ldi.
Qushda mehr uyg‘ondi,
Qizg‘anish bilan yondi.
„Kel, esa ustimga chiq,
Mening qanotimga chiq.
Bir nafas o‘ltirgin jim,
Bir nafas ko‘zingni yum.
Men kuningga yarayin,
Seni olib borayin.
Dengizlardan o‘tganda,
Dunyoni suv tutganda

Ko‘zlar ing ochilmasin,
Xayoling sochilmasin;
O‘zingni yo‘qotmagil,
Yana suvga otmagil.
Seni olib borarman,
Kurashingga qararman.
O‘lsang gunoh o‘zingda,
Qo‘rquv bilmas so‘zingda.
Agar devni o‘ldirsang,
Yerni nurga to‘ldirsang,
Yana olib qaytarman,
Ofarinlar aytarman“.
Qanotga chiqdi Bunyod,
Ko‘zini chirt yumdi bot.
Va Semurg‘ qildi parvoz,
Dunyoni tutdi ovoz,
Kunbotar tomon ketdi,
Tun yotar tomon ketdi.

Ucha-ucha oxiri
O‘rmonlikka yetishdi,
Shovullab pastga tushdi:
Yalmog‘izning qoshidan,
Daraxtlarning boshidan
Vabo o‘tganday bo‘ldi,
Balo yetganday bo‘ldi.
Semurg‘ bir silkindi bot,
Ko‘zini ochdi Bunyod.
Kunbotarda bir o‘rmon,
Unga bo‘ldi namoyon.
Daraxtlarga ko‘z soldi,
Og‘ir hayratda qoldi.
Tikildi suq kirgudek,
Bunda o‘sgan har terak.
Boshi osmonga yetgan,
Ko‘kka chirmashib ketgan.
Atrofga jilva qildi,
Nafaslari tiqildi.
Semurg‘ dedi: „Ey botir,
Kel endi o‘rningdan tur!
Borib dushmaningni top,
Qilich sol, bo‘ynidan chop.

Jo'na, baxting bor bo'lsin,
O'tkir qilich yor bo'lsin.
Seni shunda kutarman,
Kelmasang qon yutarman“, —
Deya ko'zdan yo'qoldi,
Bir kesak bo'lib qoldi.
Bunyod o'rmonga kirdi,
Suv kechib qonga kirdi.
O'tkir qilich qo'lida,
Borar ekan yo'lida
Daraxtlar qular edi,
Yirtqichlar o'lar edi.
O'rmonda harneki bor,
Qurt-u, qush-u jonivor,
Qarshi olar edilar,
Nazar solar edilar.
Bu ham bo'lar deb qurbon
Edilar ko'p pushaymon.
Chumchuqlar chirqirardi,
Bulbul yig'lab turardi.
Bunyod esa mardona,
Mard-u bahodirona,
O'rmonda borar edi,
Devni axtarar edi.
Oshiqardi ko'ray deb,
Qarshisida turay deb,
Qilar edi ko'p armon,
Topay deb dardga darmon.
Bunyod yetti kun kezdi,
Yetti qora tun kezdi.
Eng oxiri tun chog'i,
Bir hid sezdi dimog'i.
Tani jimirlab ketdi,
Qalbi qimirlab ketdi.
Bora berdi u hamon,
Guvullab qoldi har yon.
O'rmon shatirlab qoldi,
Barglar patirlab qoldi.
U yana yurdi biroz,
Oxir dev chiqdi peshvoz.

Sekin-sekin yurardi,
Qah-qah urib turardi.
Dumidan boshigacha,
Boshdan oyog‘igacha
Xursandlik olgan edi,
Shodlikda qolgan edi.
Zahar tomar tishidan,
O‘lim yog‘ar ishidan.
Shoxi osmonda edi,
Tirnog‘i qonda edi.
Bunyodga kulib boqib,
Nafsiga yigit yoqib:
„Salom, o‘g‘lim, kel, — dedi,
Dushman emas, el, — dedi, —
Tilagingni ayt menga,
Ne murod kerak senga?“
Yigit so‘zga boshladi,
Gapni tizib tashladi:
„Bunyod senga el emas,
El bo‘lganni dev yemas.
Sen bir ofat emishsan,
Zo‘r qabohat emishsan.
Odamzodning yovi,
O‘g‘lonlarning go‘rkovi,
O‘zing emishsan yolg‘iz.
Boshingga yetajakman,
O‘ldirib ketajakman“.
Bunyod qilich chiqardi,
O‘rmon yaltirab qoldi.
Bunyodning qahri keldi,
Devning ham zahri keldi.
Ko‘zlaridan o‘t sochdi,
O‘rmonlikdan tun qochdi.
U har og‘iz ochganda,
U har bir o‘t sochganda,
Zo‘r bir yong‘in ketardi,
Qancha o‘rmon bitardi,
Nafasidan zo‘r bo‘ron
Qo‘zg‘alar edi har yon:
Tomirlar ko‘char edi,

Daraxtlar uchar edi.
Osmonni qushlar tutib,
Hammasi ham qon yutib,
Chirqirashib turardi,
Zo'r kurashni ko'rardi.
To'kilar edi qonlar...
Barcha yirtqich hayvonlar
Kezardi besaranjom,
Saqlab qolmoq uchun jon.
Bunyodni yutmoq uchun,
Bo'g'zidan tutmoq uchun,
Dev hamla qilar edi,
Ba'zida kular edi.
Otashda edi ichi,
Bahodirning qilichi
Yaltirardi boshida,
Kular edi qoshida.
Bunyod qilich solganda,
Har bir sirmab olganda
Devni uzib o'tardi,
Uzib, buzib, o'tardi.
To'xtamadi qonli jang,
Bo'ldi devning holi tang.
Ikki kun-u, ikki tun
Solishdi ular butun.
Tinimni bilmadilar,
Yarashga kelmadilar.
Bunyod qilichi bilan,
Zaharli uchi bilan
Devni burdalay berdi,
Qilich qon yalay berdi.
Dev makon qurgan o'rmon
Boshdan oyoq bo'ldi qon.
Qilichni har solganda,
Har bir sirmab olganda
Bir joyni olib o'tdi,
Bir raxna solib o'tdi.
Oxiri jon qolmadi,
Jon-u darmon qolmadi.
Qilich bo'g'zidan tutgach,
Tog' kabi yorib o'tgach,

Dev harsillab quladi,
Bir qarsillab quladi.
Dev qulab yiqliganda,
Birdan yakson bo'lganda
Yerlar qimirlab ketdi,
Zilzila gurlab ketdi.
Cho'zila tushgan chog'i,
Devning bosh-u oyog'i
O'rmonni tutib ketdi,
Sig'may chetga ham o'tdi.
U ti pirlab berdi jon,
Va jimjit qoldi o'rmon.
Shundan so'ng botir Bunyod
Bo'lib o'zida yo'q shod,
Qilichni yuvib oldi,
Bir o'pib, qinga soldi.
Parrandalar barchasi,
Go'zali, oy parchasi,
Botirni uzatdilar,
Olqishlab kuzatdilar.
Yigit Bunyod mardona,
Mard-u bahodirona,
Yurib o'rmongan chiqdi,
G'avg'o va qondan chiqdi.
Botir g'oyat beqaror,
Semurg'iga intizor
Turar edi ko'z tutib,
Har ko'zini yuz tutib.
Kesak bo'lib yotgan qush,
Go'yo ko'rgan kabi tush
Qonlar to'kilganini,
Bunyodning yengganini;
Botirning g'ussadan pok,
Dev bo'lganini halok —
Bilar edi hammisin.
Kesak bo'lib ko'lkasin
Yerga solib yotardi,
Orom olib yotardi.
Bunyod kelgan zamon ul,
Shodlikka to'ldi butkul,
Bir aylanib qush bo'ldi,

Bunyod ko'ngli xush bo'ldi.
Botir izidan o'pdi,
Ikki ko'zidan o'pdi.
Dedi: „Kel, ustimga chiq,
Mening qanotimga chiq!
Endi ketga qaytaylik,
Elga doston aytaylik.
Botir yigit ketdik, bo'l!
Kelgan joyga yetdik, bo'l!“
Botir qanotga chiqdi,
Zo'r „duldul otga“ chiqdi.
Ko'zini yumgan zamon,
Semurg' ko'kda yo'l oldi,
O'rmonlar ketda qoldi.
Bir yurt ko'chib borganday,
Ko'chib uchib borganday
Shovqin-suron zo'r edi
Va beimkon zo'r edi.

.....

„Ey, Bunyod, ko'zingni och,
Jahonni ko'r, nazar soch!
Endi yo'lni toparsan,
Kerak bo'lsa choparsan.
Bor, yaxshilar yor bo'lsin,
Botir, baxting bor bo'lsin“.
Qaytadan qo'l ushlashib,
Semurg' bilan xo'shlashib,
Bir-birini quchoqlab,
Mehr-u muhabbat bog'lab,
Ajraldilar ikkovlon,
Bunyod jahonni javlon
Urib yana yo'l ketdi,
Sahro bilan cho'l ketdi.

Tog'lar oshdi, qir oshdi,
Oylar bo'yi adashdi.
So'nggi qirdan o'tganda,
O'z yurtiga yetganda,
Kunlarini sanadi,
Tunlarini sanadi,
Angladi rosa uch yil
Kezganini muttasil.

Ilyos Muslim

(1909—1993)



Iste'dodli bolalar shoiri Ilyos Muslimning 1932- yilda bиринчи she'rlar to'plами „O'suv“ nomi bilan kitobxonlar hukmiga havola etildi. Xuddi shu yili „Zaharxandalar“ degan ikkinchi to'plами, 1934- yilda „Miqtı keldi“ dostoni, 1938- yilda esa „She'rлar“ to'plами bosilib chiqdi.

„Turnalar“, „Bizning maktab“, „Sening sovg'ang“, „Tillaqо'ng'iz“, „Ishchan asalarilar“, „Oylar aytishuvi“, „Oyxon va rayhon“, „Ko'rik“, „Birinchi sovg'a“ kabi kitoblari hozirgi zamon bolalar adabiyotining rivojlanishiga barakali hissa bo'lib qo'shildi.

Bolalar shoiri Ilyos Muslimning qaysi asariga nazar tashlamang, unda davrimizning bolalar adabiyoti oldiga qo'ygan vazifalari, kichkintoylar oldida turgan muhim ishlar barq urib turadi. Masalan, „Maktabim“ asarini olib ko'raylik. Unda dunyoda maktabdan aziz, mo'tabar joy yo'q, u go'yoki „ona kabi mehribon“ bir makon, kishining savodini chiqaradigan, o'zini o'ziga tanitadigan, ongi va aqliga aql qo'shadigan ulkan maskan degan g'oya ilgari suriladi. Shuningdek, asarda bolaning maktabdan behad minnatdorligi, o'zining oldida turgan bir qator vazifalar, el-yurtga sodiq xizmatkor bo'lish uchun avvalo maktabda yaxshi va namunali o'qish kerakligi sodda va ravon misralarda ifodalab berilgan:

*A'lo o'qishdir burchim,
Sarf etaman bor kuchim.
Ishlayman xalqim uchun,
Qadrdonim maktabim!*

DO'STLIK

Yer yuzidagi amakijonlar,
Shunday iltimos bordur sizlarga:
— Chiqarmang quroq, oqmasin qonlar,
Kitob, o'ynichoq bering bizlarga!

Bizlar urishib yirtmaymiz yoqa,
O'ynaymiz doim biz musobaqa.
Tur mushimiz shod o'tadi shunda,
Yog'liq patirlar yopilar kunda.

Juda mo'l bo'lar shokoladlar ham
Stolga to'lar marmeladlar ham.
Ko'payar yana shirin kulcha-non,
Holva-yu konfet, obakidandon.

Bog'larimizda yayraymiz har dam,
Bilim olamiz, kuylaymiz bardam.
Dunyoda xalqlar kun kechirsa tinch,
Ota-onalar tashvish tortmas hech.

OYXON VA RAYHON

Har xil ko'chatni Oyxon
Jo'yakka ekib qo'ydi.
Jambil, sada, oshrayhon
Barg yozsin, deb suv quydi.

Yangi po'lat ketmoncha
Tushmadi hech qo'lidan.
Ko'chat taglarin ancha
Yumshatdi o'ng-so'lidan.

Yashnab tez kun ichida
Novdalari yozdi qad.
Oyxon o'z gulzorini
Parvarish etdi har vaqt.

Oyxonning sochi kabi
Quyuq o'sdi rayhonlar.
Qulf urgan ariq kabi,
Ko'r kam supa, ayvonlar.

Tushlik qildik biz rosa,
Keltirildi moshxo'rda.
Oyxon ichsa bir kosa,
Ta'mi juda xushxo'r-da!

Shunda bizning Oyxonning
Quvonchdan kului yuzi.
Chunki xushbo'y rayhonni
Ekkan edi-da o'zi!

Bobolar nasihatini
Eslab sevinchga botdi.
Halol mehnat rohatin
Oyxon ham shu kun totdi.

ERKALATMANG BOLANI!

Ahmadjonga gap yuqmas,
Hech kimning so'zin uqmas.
Dars tayyorlash o'rniga
To'pni tepib yursa bas...

Tabelda ko'p „ikki“lar,
U ko'chaga likillar.
G'ozdek cho'zib bo'ynini
Har chorbog'ga tikilar.

Sherigi sho'x o'g'il-qiz,
Ko'rib uydan chiqar tez.
To's-to'polon ko'chada,
Qo'shnilar xunob shu kez.

— Hoy, Ahmadjon, Farida,
Futbol o'ynang narida!
Derazam bo'lar chil-chil,
Ta'zir yedim o'tgan yil.

To'rt-besh bola bo'lgan jam,
„To'p o'yin“ qizg'in shu dam.
Darichaning ko'zini
Kul-kul qildi to'p birdan.

Ana ko'ring tomosha,
To'p ham ketdi tom osha.

Hojar xola arz etib,
Boshlar janjal, mashmasha.

Tag'in to'pning dastidan
Devor usti-pastidan —
Nurab tushar tuproqlar,
Changlar burqsib ostidan.

Ertasi posbon aka
Topib Qodir, Ahmadni,
Tushuntirdi tor joyda
To'p keltirgan „zahmat“ni.

Qo'chqor aka jo'rtaga
O'g'lin imlab o'rtaga,
Hadeb oqlashga tushdi —
Birni qo'shib to'rttaga.

Posbon aka miq etmay,
Bo'lgan ishni berkitmay —
Qog'oz tutdi otaga:
— Buni oling, men ketay!..

Shaharga jo'nab o'zi,
Tezda suhbatni uzdi.
O'g'li uchun o'n so'mni
Qo'chqor ota naqd cho'zdi...



Zafar Diyor

(1912 — 1946)



O‘zbek bolalar adabiyotining atoqli vakili Z. Diyor maktab va bog‘cha yoshidagi bolalar uchun „Cho‘pon qizi“, „Bizning oila“, „Mashinist“, „Tantana“, „Muborak“, „Kazbek“, „Kichkina bog‘bon“, „Sovg‘a“, „G‘unchalar“, „Baxtli yoshlik“, „Kim bo‘lasan?“, „Omonat“, „Oq oltin“, „Chaman“, „Binafsha“, „Asalari“ kabi 15 dan ziyyodroq kitoblar yozdi.

Zafar Diyorning she’rlari o‘zining mazmundorligi, o‘ynoqi ohangi, jarangdor vazni, raxon va juda sodda uslubi, poetik til vositalariga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ayniqsa, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga yozgan „Archa“, „Archa qo‘shibi“, „Laylak“, „Toy“, „Oq ayiqqa soz qayiq“, „Olma“, „Gunafsha“ kabi she’r, qo’shiqlarida yanada ochiq-oydin ko‘rinadi.

Shoir, dramaturg, hikoyanavis, pedagog, jurnalist, tarjimon Zafar Diyor bolalar adabiyotining taraqqiyotiga katta hissa qo‘sghan ijodkordir.

BINAFSHA

Binafshaxon, binafsha,
Kulishlaring chiroysi;
Bog‘imizda ochilib
Turishlaring chiroysi.

Hamma chiqar dalaga
Binafshalar tergali;
Men ham yig‘dim bir dasta,
Opamizga bergali.

— Mana, opa, binafsha,
Qarang, qanday chiroylı.
— Yuring, dedi, opamız,
Binafshalar teraylik.

Binafshalar ochildi,
Chakkanga taq, chakkanga;
Atir hidi sochildi,
Chakkanga taq, chakkanga.

Lazzat olib hididan,
Bolarilar uchadi;
Ipak qanot kapalak,
Barglaringni quchadi.

Seni maqtab kuylaydi
Bog' aylanib qushchalar;
Darak berib bahordan
Quvontirding shunchalar.

Binafshaxon, binafsha,
Kulishlaring chiroylı
Ko'ksimizga hid sochib,
Turishlaring chiroylı!

KAPALAK

Hoy, kapalak, kapalak,
Qanotlaring ipakdek;
Muncha shoshib uchasan,
To'xta so'zlayin andak.

Uchrataman har kuni
Seni go'zal bog'chamda;
So'rib gullar sharbatin
O'Itirasan olchamda.

Uch, uchaber, uchaber,
Go'zal bog'cham — gulshanda.
Sira ozor bermayman,
Sevgim, fikrim ham sanda.

Borib ushlay deganda,
Shoshib darhol uchasan;
Sira tutqich bermaysan,
Guldan-gulga ko'chasan.

Mendan aslo qochmagin,
Do'st bilaman o'zimga;
Pildir-pildir uchishing,
Oh, yoqadi ko'zimga.

Kapalakjon, kapalak,
Qanolaring ipakdek,
Do'st bo'laylik ikkimiz,
To'xta, so'zlayin andak!

TO‘P

To‘pim, to‘p-to‘p etasan.

Ursam uchib ketasan.

Havolanib, nariga
Do'stlarimga yetasan.

O'ynatasan ko'zimni,
Hovliqtirib o'zimni,
Biroz ko'proq o'ynasam,
Terlatasan yuzimni.

Senga sira to'ymayman,
Bo'sh ekanman qo'ymayman:
Ovunchog'im, — deb seni
Do'stlarim-la o'ynayman.

To‘pim, to‘p-to‘p etasan,
Ursam, uchib ketasan,
Handalakdek yumalab
Bizni xursand etasan.

YUKSAK TOG‘, KENG O'TLOQ VA MARD O'RTOQ HAQIDA QISSA

I

Sahrolarning eng kuchli,
Eng g'azabli, eng o'chli,
Qashqir kabi uvlovchi,
Boyqush kabi huvlovchi
Shamollari bo'lishin,
Ko'zlar qumga to'lishin
Men bilaman azaldan,
Ham ertakdan, g'azaldan.
Ana shunday zo'r shamol,

Xuddi bir kun tong mahal,
Daryo yoqdan qo'zg'alib,
Keng o'tloqqa yo'l olib,
G'avg'o solmish borliqqa,
Sahro, adir, tog'liqqa.
Karaxt yotgan keng o'tloq
Yel zarbidan ushbu chog'
Cho'chib ochdi ko'zini,
Dahshat bosdi yuzini,
Ko'rsa — butun yer, osmon,
Ko'z ochirmas chang-to'zon,
Qurib yotgan cho'p, xashak,
Yelda girdi-kapalak.
Qaqrab yotgan o't, xarsang,
Qizib yotgan qum shu on
Qo'zg'alibdi o'rnidan,
Keng sahroning qo'yndan.
Har narsaning labida,
Imosida, gapida
Og'ir g'amdan ishora,
Ko'rindi tobora.
Har narsada bir istak
„Bitta to'yib suv ichsak!“

II

— Dilbar yozda, bahorda,
Kunduz, hatto nahorda,
Bir qush yayrab o'tmasa,
Bir qultum suv yutmasa,
Karvonlar ham o'tar kam,
Mehmon bo'imaslar bir dam.
O'zgartirdilar yo'lni,
Tashlab bu quruq cho'lni,
Deb kuyib-kuyib o'tloq.
O'ksib yig'lab ushbu chog',
Dardli boqdi zo'r tog'ga,
Qiyomatli o'rtoqqa.
Bu paytda, u yuksak tog'
Usti to'la qor — oppoq.
Turardi go'yo posbon,
Osmon unga soyabon.

III

— Hoy, yuksak tog‘, yuksak tog‘ —
Deya yolbordi o‘tloq,
Ne bo‘larmish bizning ham
Ko‘ksimizdan ketsa g‘am.
Bu g‘am suvsiz ketmaydi,
Suv siz yara bitmaydi.
Do‘stim, senda suv mo‘ldir,
Ustingda qor mo‘l-ko‘ldir.
Bir yoningda zo‘r daryo,
Ne istasang muhayyo.
Suv bor — shunday obodsan,
Obodlikdan xo‘b shodsan.
Sen ham yashnab kul desang,
Sevinchlarg‘a to‘l desang,
Ber suvingdan menga ham,
Qo‘yay hayotga qadam.
Men suvingdan kuch olsam
Tentak yeldan o‘ch olsam.
Uzoq yillar xo‘rlangan.
Qaqrab toshga aylangan
Ko‘ksim bo‘lardi obod,
Boshlanardi gul hayot.
O‘sar edi o‘rmonlar,
Qurilardi qo‘rg‘onlar,
Ber qishloqdek yashnardim,
Shodlik kuyin boshlardim.
Talabimga yetkur, tog‘,
Ber suvingdan, jon o‘rtoq!

IV

So‘z navbat kelib tog‘ga,
Deydi sahro o‘rtoqqa:
— Oh, azizim, azizim,
Jondan ortiq lazizim.
Har so‘zing dona-dona,
Gul hayotdan nishona,
To‘g‘ri so‘zing, hayot — shu,

Ammo senday do'stimga,
Qiyomatlik qo'shninga,
Obihayot berishdan,
Ko'ksingga suv quyishdan,
Ming afsuski, ming afsus,
Ojizdirman, bilsang, do'st,
Shunday yuksak bo'lsam ham,
Bulutga bosh qo'ysam ham,
Qoqib qo'ygan qoziqman,
Ammo ko'pga oziqman.
Bilsang, oyoq-qo'lim yo'q,
Senga aytar yo'lim yo'q.
Qanday qilib o'rtoqjon,
Suv yo'llayman sen tomon.
Buning uchun kuch kerak,
Kuchga to'la zo'r bilak.

Bu mardlik va mahorat,
Bu kuch-quvvat, jasorat,
Insonlarga yo'ldoshdir,
Ularga xos, qo'ldoshdir,
Butun borliq-tabiat
(Bu so'zlarim haqiqat)
Bo'ysunajak insonga,
Gul tutajak ul jonga,
Sening orzu-o'yingni,
Hasrat to'la kuyingni
Bildiraylik u mardga,
Jo'shib turgan u qalbga,
Ko'rsatsa kuch, mahorat,
Mardlarga xos jasorat,
To'lar gulga quchog'ing,
Boshlanadi xush chog'ing.
Gap shu yerga yetgan chog'
Kelib qoldi mard o'rtoq.
Chinordek zo'r qomati,
Go'ro'g'lidek savlati;
Shu ishga gar qilsa qasd,
Raso ishga tushsa bas,
Har ish kelar qo'lidan,
Sher qocholmas yo'lidan.

V

So'z boshladi yuksak tog',
— Hoy, mard o'rtoq, mard o'rtoq,
Bir umrlik do'stimiz,
Senga aytar so'zimiz,
Qara shuncha keng o'tloq,
Suvsizlikdan dili tog'.

Uning ohin o'chirib,
Dildan dog'in o'chirib,
Chamanzorga aylantir,
Mangulikka shodlantir.

— Hoy, mard inson, mard inson,
Menga ham ber hayot — jon, —
Dedi o'tloq hansirab,
Issiqlikdan qovjirab,
Xarsang toshday qotaman,
Misdek qizib yotaman,
Suv ber menga, suv bergin,
Ko'ksimdan so'ng gul tergin,
Suray hayot zavqini
Ham qo'shiqlar shavqini.
Ko'ksim bo'lzin chin bo'ston,
Bahra olsin har bir jon.

VI

Shunday qilib uch o'rtoq
So'z bitishdi ushbu chog'.
Yo'l olishdi Sir tomon,
Suv berar, deb begumon,
„Sir“ qo'ynida bu vaqt
Odatdag'i ur-yiqit.
Tog'lar bilan olishib,
Toshlar bilan solishib,
Birin otib qirg'oqqa
Qiyo boqmay hech yoqqa.
Oqar edi yo'lida,
Shamshir — asov qo'lida,
Ba'zan, kesib qirg'oqni,
Urib-sochib qumloqni,
Oqar edi qir bo'ylab,

Ba'zan yoqimli kuylab,
Jo'r bo'lardi qushlarga,
Esh bo'lardi tushlarga.
Ba'zan bosib to'qayni,
Quvib luqma-halolni
Arslon kabi tutoqib,
Dev singari yutoqib,
Olg'a bosar o'shqirib,
Ba'zan toshar jo'sh urib,
Uch do'st sohil kelganda,
(„Sir“ bularni bilganday)
Bo'shashtirmas oqishin
Qo'ymas mag'rur boqishin.
Ketar hamon yo'lida,
Shamshir-asov qo'lida.
Kimsa yo'lni to'ssin-chi,
Yoki oshib o'tsin-chi...
Yo'q-yo'q, bo'shga oqish, bas.
Bir orolga boqish, bas.
Inson seni no'xtalar,
Telbaliging to'xtalar!
Yurib yangi yo'llardan,
Bog'-bo'stonlar ochasan,
Ishga chiqdi ulug' xalq,
Bilakda kuch to'liq xalq.



Shukur Sa'dulla

(1912—1972)



Shukur Sa'dullaning birinchi she'rlar to'plamni 1932-yilda „Hayqiriq“ nomi bilan bosilib chiqdi. Shundan keyin uning „Uch ayiq“ (1935—1936), „Yoriltosh“ (1939), „Ikki sandiq“ (1942), „Sen nima qilding?“ (1942), „Shohista“ (1944), „Shirin kun“ (1946), „She'rlar“ (1955), „She'r va ertaklar“ (1957), „Pyesalar“ (1959), „Dastyor qiz“ (1960), „Sening alboming“ (1962), „Komandirning boshidan kechirganlari“ (1962), „Kachal polvon“ (1963), „Ozoda“ (1969), „Ism qo'yilmagan xat“, „Sening bayraming“ (1972), „Mening aziz bolalarim“ (1974) va boshqa kitoblari bosilib chiqqan.

KACHAL POLVON YOKI YOG‘OCH QO‘G‘IRCHOQNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI

(Qissadan parcha)

BIRINCHI BOB QO‘G‘IRCHOQLAR MAMLAKATI

Afsonaviy shahar odamlari

Qadimgi zamonda ertaknamo bir o'lka bo'lib, unda kichik-kichik odamchalar yashar edilar.

Bu o'lka ikki yoni tog' bilan o'ralgan keng vodiy qo'yniga joylashgandi. U „Qo‘g‘irchoqlar mamlakati“ deb atalar edi.

Qo‘g‘irchoqlar mamlakatining odamlari insonlarga o'xshab kiyinishar, gaplashar, ishlashar va kun ko'rishar edi.

Qo‘g‘irchoqlar mamlakatida ko‘z ko‘rmagan, qulog eshitmagan ajoyib-u g‘aroyib voqealar sodir bo‘lib turardi. Shunday voqealarning eng qizig‘i Shirinsoy shahrida yuz berdi.

Shirinsoyda ikki toifa odamchalar yashar edi. Bularning biri — dang‘illama uylarda yashovchi, yaxshi kiyinib, yaxshi oshaydigan qorni katta boylar edi. Ular yashaydigan mahalla — Boyguzar deb nomlanardi. Ikkinchisi esa — qamish va poxol uylarda yashovchi, yupun kiyangan, oriq, ammo mehnatkash odamlar edi. Bu odamlar — qo‘g‘irchoqlar va qo‘g‘irchoqbozlar yashaydigan mahalla Faqir mahalla deb atalardi.

Kambag‘allar tishining kirini so‘rib, mehnat qilib kun ko‘rishsa, boy xonadonlar ishlamay tishlab, semirishar, omborlari g‘allaga to‘lar, xazinalari boyir edi.

Kambag‘al mittilar dunyoning boshqatdan yaralishini istar, faqirchilik asoratini yo‘q qiladigan kuch paydo bo‘lishini kutishar edi.

Shu zayilda yillar, asrlar o‘tdi, bobokalonlar dunyoga kelib ketdi. Otalar tug‘ilib, dunyodan o‘tishdi, bolalar tug‘ilib, katta bo‘lishdi. Ammo boy-boyligicha qolaverdi, el boshiga kambag‘allikni solaverdi. Amu oqaverdi, Sir toshaverdi...

Tengqurlar

Kunlardan bir kun, hech kimning xayoliga kelmagan, ammo unga hamma mushtoq bo‘lgan bir paytda, mana shu qo‘g‘irchoqlar yashagan bepoyon kenglikda bir polvon bola tug‘ildi. U ruhan tetik, sog‘lom, murg‘ak qo‘lchalari kuchli, ovozi quloqni yorgudek o‘tkir edi.

Bu polvon bola tug‘ilganda, dunyoning bo‘lak o‘lkalaridagi Qo‘g‘irchoqlar mamlakatida ham shunday tetik, sho‘x, mard bolalar dunyoga keldi. Ota-onalar, yor-birodarlar, urug‘-aymoqlar uni qo‘llarida ko‘tarib, ardoqlashdi, katta-katta to‘ylar, ziyofatlar berib, bolaning dunyoga kelganini muborakbod qilishdi, unga yurtdagi eng chiroyli, go‘zal nomlarni topib qo‘yishdi.

Apelsinxo‘r italyanlar bu qahramonni Pulchinello deb atashdi. Faranglar — Polishinel, suv o‘rtasida yashovchi inglizlar — Ponch deb, nemislar — Ganivurt, gollandlar — Pikelgiring deb, chexoslovaklar — Kashparon, uzun choponli turklar — Qora qiz deb nomlashdi. Nomlari tilga olingan qahramonlarning o‘zlariga yarasha ajoyib va g‘aroyib tarixlari borki, ular kitoblarda yozilgan.

Ammo ularning tengquri bo‘lgan bizning qahramonimizni-chi! Uning ham o‘ziga xos ajoyib va g‘aroyib tarixi bor.

Men uni bir boshdan gapirib beraman.

Qilich taqqan yigit

Qo‘g‘irchoqlar mamlakatida mashhur qo‘g‘irchoqboz Shomamat ota, Orif jarchi, Beknazar karnaychi, Ernazar maymunchi va boshqalar yashar edilar. Ular qo‘g‘irchoqlar yasar, ularni gapga, o‘yinga, kurashga o‘rgatar, yaqin-yiroqdagi hech bir to‘y, gap, besh kecha qo‘g‘irchoqlar o‘yinisz o‘tmas edi.

Juma kuni...

Havo aynib turardi. Endi yoz boshlanganiga qaramay, quyosh yuziga parda yoyilib, uning iliq, ravshan, saxiy nurlari xiralan-ganidan ko‘ngillar g‘ash... Shuning uchun ham hamma uy-uyiga kirib ketmoqda edi. Bunga barham berish kerak edi.

Shunda birdan Faqir mahallani boshiga ko‘tarib, Orif jar-chining ovozi yangradi:

— Hoy xaloyiq! Hoy shirin-shakar bolalar! Ko‘rganlar dar-monda, ko‘rmaganlar armonda! Yalanglikda hademay qo‘g‘irchoqlar o‘yini boshlanadi. Qo‘g‘irchoqlar pahlavoni yovuz ajdar bilan kurashga tushadi. Kim yengadi — ko‘rib qoling, yurib qoling! Ko‘r-gan darmonda, ko‘rmagan armonda! Hoy, chiqa qolinglar!...

Yalanglikdan karnayning tomoshaga chorlagan baland ovozi eshitildi. Hamma yalanglikka qarab oqdi.

Chodiri xayolini tikib olgan qo‘g‘irchoqboz Shomamat bobo, ko‘zlarini olaytirib chinqirdi.

Hamma yoq suv sepganday jimib qoldi. Tomosha boshlandi.

... Birdan o‘tlar orasini yorib, vishillab, og‘zi karnayday ochilgan ikki boshli ajdaho chiqib keldi.

— Qani u, qani u menga qarshi tig‘ ko‘targan odam? — dedi u vhima bilan.

Tomoshani zavq bilan ko‘rib o‘tirgan bolalar nafaslarini ichlariga yutib, jim bo‘ldilar.

— Qani deyapman? — deb qichqirdi ajdar. U dumlarini silkitib, og‘zidan o‘t purkab, to‘lg‘ana boshladi... — Yeyman, chaynamasdan yutaman. Qani deyman menga dap qilgan yigit?! Aytinglar!

Ajdar ko‘zlarini cho‘g‘day yaltiratib, zahar sochib atrofni titkilay boshladi. Tomoshabin bolalar yuraklarini hovuchlab o‘tirar edilar. Nega desangiz, ajdaho qo‘llarini sal cho‘za, raqibini ushlab, g‘ijimlab tashlar edi. Ajdar sudralib, o‘tlar ichiga kirib ketdi.

Birdan qilich yalang‘ochlagan yosh yigit paydo bo‘ldi.

— Qani u... qani bu odamxo‘r ajdar! — dedi u tomoshabin bolalarga murojaat qilib... — Men uni izlab yuribman. Zaharli ilonning boshini kesish xayrli ish... Qani u?

Bolalar chuvvos solib, ajdar ketgan tomonni ko'rsatishdi.

— Shu yoqdam? Bo'pti. Rahmat sizlarga!

Yosh yigit so'zini tugatmasdanoq qah-qah urgan ovoz eshitildi.
Bu ajdarning kulgisi edi. U azot turdi-da, yigitga qarab o't purkay boshlandi.

— To'xta! Mard bo'lsang maydonga chiq, yo o'lish, yo savash!
— dedi yosh yigit.

Ajdar bir lahza sarosimaga tushdi. Keyin pisand qilmay:

— Ham olishaman, ham savashaman, — dedi gerdayib.

Ikki o'rtada olishish boshlandi.

Ajdar tirnoqli panjalari bilan yigitchaning belidan siqib ushlar, kuchanar, yigit bo'lsa baquvvat qo'llari bilan ajdarning belini sindirguday qisardi. Nihoyat bel olib kurashishga tob berolmagan ajdar qo'llarini qo'yib yuborib, birdan yigit yelkasiga o'tkir tishlarini botirdi.

— Eh, la'nati! Kurashda tish ishlatilmasdi-ku. Ablah ekan-san! — dedi yigit alam bilan.

U bor kuchini zabardast bilagiga yig'ib, ajdarning belini qisdi. Uni dast ko'tarib yerga urmoqchi bo'lganda, ajdar muqarrar o'limdan qutulish uchun og'zidan o't purkab yubordi.

— Ih! — dedi yigit.

Ajdar uning qo'lidan sirg'anib chiqdi-da, o't purkagancha katta xarsang toshga intildi. U xarsang toshni ikki qo'llab ko'tarib, yigit ustiga otmoqchi bo'ldi.

Polvon yigit vaqtini boy bermadi — qilichini yonidan sug'urdiyu, ajdarning tosh ko'targan qo'llarini chopib tashladi, o't purkovchi tillarini kesdi. So'nggi marta qilich tortib, saranglagan bahaybat kallasini uzib tashladi.

— Mana, — dedi u g'or ichiga ko'z yogurtirib, — endi ajdar yo'q, hammangiz ozodsiz!

Shunday deyishi bilan tog' bag'ridagi g'ordan odamlar chiqib kelaverdi. Ular pahlavon yigitni qo'llarida ko'tarib:

— Sen bizning qahramonimizsan! Sen bizning xaloskorimizsan! — deb qichqirdilar.

Yigit ularga tetik boqdi-yu, shu zahoti madori qurib, ular qo'liga „shilq“ etib yiqilib tushdi.

— Xayr, do'stlarim! — dedi u. — Meni ajdar zaharladi. Endi o'laman.

Shunday deb u ko'z yumdi.

Bo‘ronli kun

Tomoshabin bolalar chuvvos solib qichqirib, hovlini boshlariga ko‘tardilar.

Shunday to‘polon bo‘lib turganda, havo battar aynidi-yu, qo‘qqisdan bo‘ron ko‘tarildi. Shamol shunday zo‘r kuch bilan izg‘idiki, chodiri xayolchi Shomamat qiziqchini qo‘g‘irchoqlari bilan osmonga uchirib ketguday bo‘ldi. Tomoshabinlar to‘zonda ko‘zlarini zo‘rg‘a ochib-yumib, uylariga qarab chopdilar. Hamma narsa osmonga uchdi. Ammo qo‘g‘irchoqboz Shomamat qiziq qo‘g‘irchoqlarini qo‘yniga tiqib, gandiraklay-gandiraklay zo‘rg‘a uyiga yetib oldi.

Bo‘ron zo‘ridan chang-to‘zon osmonni tutdi, dovuchchalar va g‘o‘ralar yer bilan bitta bo‘lib to‘kildi, daraxt shoxlari uzilib tushdi.

Qo‘g‘irchoqboz Shomamat qiziq esini yig‘ib, nafasini rostlaganda, qulog‘iga ingrangan ovoz eshitildi:

— Vo-ey, qiynalib ketdim!

Shomamat qiziq hayron bo‘lib, yon-veriga qaradi — hech kim yo‘q, qo‘g‘irchoqlar miq etmay jim o‘tirishardi. U, shamol shiddatidan shoxlarini egib, butun tanasi bilan silkinayotgan ulkan tut daraxtiga razm soldi. Shoxlarining har bo‘g‘inida g‘uj-g‘uj g‘o‘ralar pishay deb turgan serbarg daraxt chayqalib g‘ijirlar edi. Daraxtlarning tilini biluvchi cholning rahmi kelib ketdi. U hamma narsani unutib, ilk yoz kunida mavrudsiz shataloq otgan bebosh bo‘ronni koyidi.

Shu vaqt kutilmaganda:

— Qutqaring! — degan ovoz eshitildi.

Qo‘g‘irchoqboz chodiri xayolini tutib, o‘yin ko‘rsatayotganda og‘ziga sopaloq¹ solib, chiyillab, bola bo‘lib chinqirganini esladi. Bu ovoz uning yosh qahramonlaridan birining ovoziga o‘xshab ketar, ammo ancha baland, yangroq va amirona edi.

— Nima bo‘lyapti, tushimmi-o‘ngimmi, — dedi o‘zicha Shomamat qiziq.

Shamol hovlidagi yagona tutni shunday egib yubordiki, uning shoxlari yerga tegay-tegay dedi.

Qo‘g‘irchoqbozning yuragiga birov yana chang solganday bo‘ldi.

¹ **Sopaloq** — plastinka.

— Voy! — dedi chiyillagan ovoz.

Qo‘g‘irchoqboz bilsa: tut daraxti shamoldan nolib, yig‘la-yotgan ekan.

Daraxtning yig‘laganini hech kim ko‘rgani yo‘q, albatta. Ammo Shomamat qiziq ko‘rdi, hatto ko‘z yoshlari ni to‘kkanining guvohi bo‘ldi.

Siz-u biz daraxt ko‘zlaridan qizil suv oqqanini ko‘rganmiz, ammo bunga e‘tibor berganimiz yo‘q. Bu esa daraxtning og‘rib, ko‘z yoshi to‘kkani emasmikin? Bu qizil suv, axir daraxt ko‘zi deb ataladigan dumaloq chanoq orasidan sizilib chiqadi-ku...

Bo‘ron me‘yoriga yetganda, qarsillagan ovoz eshitildi. Birgina qo‘g‘irchoqboz emas, uning hamma o‘yinchi qo‘g‘irchoqlari vahima bilan ko‘zlarini chirt yumib olishdi. Qarsillagan ovozdan so‘ng bahaybat bir narsa gumburlab yerga urildi. Osmondan tog‘ qulaganday bo‘ldi.

— Voy belim, uzilib ketdi!

Zuvillab bir necha daqiqa o‘tdi.

Qo‘g‘irchoqboz ko‘zini ochdi: shamol qanday boshlangan bo‘lsa, shunday qo‘qqisdan tingen, yakka tut qoq belidan cho‘rt uzilib tushgan edi.

Shomamat qiziq uydan otilib chiqdi-yu, daraxt shoxlarini quchoqlay boshladi.

— Sho‘rlik daraxt, beling sindimi? Chida biroz, o‘zim davolab qo‘yaman, — derdi o‘zicha.

Qo‘g‘irchoqlar bo‘lsa, eshik tirqishidan, tokchalardan, oynalardan mo‘ralab, hovlida nimalar bo‘layotganiga ko‘zlarini javdiratib qarab turar edilar.

Chaqaloq

Shomamat qo‘g‘irchoqbozni hamma „Sehrgar chol“ deb atardi, chunki u o‘z ishining omilkor ustasi edi.

Shomamat qiziq chopqi olib, daraxtni butadi. Uning yo‘g‘on tanasini arralayotganda, bir bo‘lak kundacha orasidan bo‘ron paytida chiyillagan ovoz eshitildi:

— Ing‘a... ing‘a...

— Chaqaloq, — deb ko‘nglidan o‘tkazdi chol.

U kundachani tarashlar ekan, xayolga berildi:

„Koshki shu qattiq yog‘ochdan bir bola yasasam-u, ajdar zahar solib o‘ldirgan o‘g‘lim o‘rnini bossa, qariganimda yonimga kirib, tayanchim bo‘lsa...“

Chol kundani quchoqlab, ayvonga kirdi. Uni obdon tarashladi. Avval yog‘ochdan uzunchoq yuz yasadi. Yuz — pishiq, chiroyl va silliq bo‘lib chiqdi. Chol bu yuzga qarab shunday suyunib ketdiki, go‘yo qariganida bola ko‘rayotganday bo‘ldi.

Keyin qo‘g‘irchoqboz unga ikki qosh, ikki quloq yasadi. Yonidan pichog‘ini oldi-da, avaylab ikki ko‘z kosasini o‘ydi. Cho‘ntagidan chiroyli qora munchoq olib, ko‘z kosasiga solib qo‘ydi.

— Voy, kulyapti, — deb qichqirib yubordi qo‘g‘irchoqboz, o‘zidan o‘zi.

Chindan ham qo‘g‘irchoqboz qo‘lidagi yog‘ochning yuzi yarqirar, munchoq ko‘zlar o‘tdek chaqnab, allanarsalar deb imo qilar, aylanlar va pirpirab kular edi.

— O‘zimning qarog‘im! — dedi quvonib ketgan chol uni o‘pib. Keyin u bosh, bejirim burun, og‘iz, bo‘yin va qo‘l yasadi.

Qo‘g‘irchoqboz o‘z ishi bilan ovora ekan:

— Ing‘a... ing‘a! — degan boyagi ovoz eshitildi.

— Hozir, bolam, hozir! — dedi chol shoshib.

U tezda qorin va oyoq yasadi. Hatto oyoqlarining panjalarini yasashni ham unutmadi.

Qo‘g‘irchoqboz umrida ko‘p qo‘g‘irchoqlar yasagan, ularning quvonchini ham ko‘rgan, azobini ham tatigan, ammo buningday xushbichim qo‘g‘irchoq yasamagan edi. Chol suyunganidan ko‘zlariga yosh olib, yangi tug‘ilgan farzandni silab-siypay boshladи.

— Mening kenjatoyim, ko‘z nurim!

Chol bolani etagiga o‘radi-da, uyga kirdi.

— Suyunchi beringlar, suyunchi! — dedi u ovozini baralla qo‘yib.

Uy tokchalarida, sandal va sandiq ustlarida, ko‘rpachalarda tizilishib o‘tirishgan qo‘g‘irchoqlar yalt etib cholga qarashdi.

— Yaxshilikka ko‘rinsin! — dedi ular suyunib.

Shomamat ota yangi qo‘g‘irchoq tarixini so‘zlamоqchi bo‘lib, endi og‘iz juftlagan ediki, Qo‘g‘irchoqlar xonasiga, hokim uchun soliq yig‘gани kelgan mast Qora mirshab kirib keldi. Shahar hokimining yasovulboshisi bo‘lgan bu qashqirning qamchisidan qon tomар edi.

— Yo‘qot! Bo‘ynini kes buni! — deb qichqirdi u bo‘g‘ilib.

Shomamat ota so‘na chaqqanday cho‘chib tushdi.

— Hoy, Qora mirshab! Bir qoshiq qonimdan kech! Yangi bola tug‘ildi. Men suyunmay, kim suyunsin! Qo‘y buni — yashasin, dunyodan rizqini topib yer...

Oraga Beknazар karnaychi, Ernazar maymunchi, Orif jarchi va boshqalar tushishdi. Ular Qora mirshabga bir kosa may tutdilar.

Chol „yangi qo‘g‘irchoq tug‘ilishi katta janjalga sabab bo‘lmasin tag‘in“ deb qo‘rqib ketdi.

Zarbof to‘nga o‘ralib, qora qunduz telpagini chakkasiga qo‘yib, kerilib o‘tirgan Qora mirshab alam bilan qo‘lidagi sharobini simirib yubordi. Achchiq may ichiga kirdi-yu, ko‘zlardan o‘t chaqnatib yubordi. U o‘rnidan irg‘ib turdi-da: „Jallod!“ deb qichqirmoqchi bo‘ldi. Ammo tili tutildi, ko‘zлari suzildi, may uning qo‘l-oyog‘i-nigina emas, tilini ham bog‘lab qo‘ydi.

Qora mirshab gandiraklab ketib, umbaloq oshdi-da, gum-burlab yerga quladi va o‘rnidan turolmay, qattiq xurrak otib uxlاب goldi.

Qo‘g‘irchoqlar yengil nafas oldilar-da, uning oyoq-qo‘lidan sudrab, ovrizga eltilib yotqizdilar.

— Xayriyat, bola omon qoldi, — dedi chol.

Shu payt Qo‘g‘irchoqlar mamlakatining ichki xonalaridan jajji-jajji qizlar va ayollar chiqib, cholni o‘rashdi.

— Bola muborak bo‘lsin!

— Umrini bersin! — deb duo qilishdi.

— Bolani menga bering! — dedi Kayvoni.

Boshida qora ro‘mol, yuzlari turshakday burishgan nuroniy kampir bolani bag‘riga oldi-da:

— Hoy To‘tixon, — dedi peshanasini ko‘k durra bilan tang‘ib bog‘lagan chiroqli juvonga qarab, — tez choyshab olib keling!

To‘tixon deb atalgan juvon charx urib uyni, ayvонни aylanib chiqdi-da, tandir boshida turgan yengchani ola chopdi.

Kayvoni-kampir avval achchiqlandi, keyin yengchani oldi-da, darrov bolani o‘radi.

— Qani, issiq suv tayyorlanglar, chaqaloqni cho‘miltiramiz, — dedi u.

Birpasda iliq suv, jom, badanga surtish uchun namakob, upa o‘rnida sepish uchun qoqkesak maydasi tayyorlandi. Kampir bolani cho‘miltirdi.

U bolani yengchaga o‘rarkan:

— Darrov o‘g‘ilchaga kiyim tikinglar! — deb buyurdi yordam-chilarga.



Hakim Nazir

(1915- yilda tug'ilgan)



O'zbek bolalar nasrining rivojiga katta hissa qo'shib kelayotgan yozuvchilardan biri Hakim Nazirning ilk kitobi — „Qishloqdag'i jivanlarim“ hikoyalar to'plamni 1948- yilda bosilib chiqqan. Shundan buyon ijodkorning bolalar uchun 50 dan ziyodroq kitoblari dunyo yuzini ko'rdi. „Yaxshi ism“, „Bulbul“, „Bir tup g'o'za“, „Do'stalar“, „Boshoq“, „Qodir bilan Sobir“, „Yonar daryo“, „So'nmas chaqmoqlar“, „Ko'kterak shabadasi“, „Suv gadosi“, „Lochin qanotlari“, „Kenjatoy“, „Tohir va Zuhra“, „Chiranma g'oz — hunaring oz“ kabi hikoya, qissa, roman, pyesalari adibning nomini keng kitobxonlar ommasiga tanitdi.

Bundan tashqari, H.Nazir „Katta tarbiyaviy qurolimiz“, „Navqiron avlod oldidagi burchimiz“, „Arkadiy Gaydar“, „Do'stim Zafarni eslasam“, „Kichiklarning katta do'sti“, „Baxtiyor avlod kuychisi“, „Sevimli bolalar yozuvchisi“ va boshqa ilmiy-nazariy maqolalarida bolalar adabiyoti oldida turgan muhim vazifalar ustida to'xtaladi.

YONAR DARYO

(*Qissadan parcha*)

Sahro shamollari

Mana, avtobusda ketyapmiz. Notanish shahar ko'chalari orqada qoldi. Dala yo'llari keldi...

Shamol kuchayib, avtobus oynalaridan kirib turadi. Issiq, nafasni siqadigan shamol. Xuddi kun botayotganday havo bo'zarib ketadi. Goh-gohida qum kukunlari avtobus ichiga tutundai uradi, odamlar oynalarni bekitib qo'yishadi. Ko'p o'tmasdan avtobus ichi hammomday bo'ladi.

Hamma yoqni qum bo'roni qoplaydi. Osmon ko'rinxay qoladi. Avtobus qanday yo'l topib borayotganiga hayron bo'laman.

Yonimizda kelayotgan bir yigit bizga qiziqib qoladi. U, baroqqosh, ko'zi chaqchaygan, afti ishshaygan. Yosh bo'lsa ham sichqon dumiday mo'ylov qo'ygan. U tashqaridagi bo'ronni-yu, ichkaridagi issiqni pisand qilmaydi. Hammaga gap otib kelardi.

Yigit endi bizdan ketayotgan joyimizni surishtirdi.

Bo'ron „Yonar daryo“ quruvchilar posyolkasiga ketayotganimizni aytib bergan edi, yigit birdan yelkamizga qoqib:

— E, ofarin, bizning do'stlarimiz oldiga ketayotgan ekansizlarda! — deb qoldi. Bo'ron aytmasdanoq, yigit gazo'tkazuvchilarning nomlarini sanab ketdi. Sulton amaki bilan-ku eskidan tanish ekan. Yigitning o'zi Gazqaynar degan joyda ishlab, gazo'tkazuvchilarning ishidan ham xabardor bo'lib turarkan.

— Ofarin, „Yonar daryo“ni ko'rmoqchimiz denglar-a? Arziydi ko'rsanglar. Joyida! Ammo-chi, — dedi boshmaldog'ini baland ko'tarib, — tomoshaning koni Gazqaynar shahri azimda. Uni ko'rmabsan — olamga kelmabsan. Xo'p desalaring, olib ketay. Uchgilaring kelsa — osmon baravar dorimiz, futbolga ishqiboz bo'lsalaring — stadionimiz bor. Cho'milaman desalaring, ko'limiz naqd — ichida tanga baliqlari bilan...

— Shamoli ham zo'rmi?

— Hay, hay, so'rama.

— Bundan ham-a? — dedim tashqarida quturayotgan shamolga imo qilib.

— Shamolning og'zi o'shoqda-da.

Shu vaqt mashina to'xtadi-yu, Bo'ron „tushamiz“ deb qoldi. Savat bilan xaltani ko'tarib tushayotganimizda, mo'ylovli yigit:

— Arslonovga salom aytinlar. „Ali champion salom aytdi“, desanglar biladi. O'zlarining bir aylanib konimizga boringlar, — dedi.

Shamol meni dovdiratib qo'ydi.

Qayoqqa ketayotganimizni bilmayman. Chunki hech qanaqa yo'lning o'zi yo'q. Bu yaqin orada odam qorasini tugul, tikkaygan narsa ham ko'rinxaydi: na uy, na daraxt, na chayla. Hammayoq qum, shag'al.

— Qayoqqa ketyapmiz, Bo'ron?

— Surishtirmay yuraver, — deb u oldinlab ketdi. Orqamizdan botayotgan quyoshning xira shu'lesi tushdi. Bo'ronning soyaboni orqaga o'girilgan shapkasiida bir nima yillaydi: yulduzchami? Ha, yulduzcha! Bo'ron: sahroga endi keldik, halitdan bo'shashma. Qani

shippagingni yechgin-chi, — dedi. O‘z botinkasini yechib, qo‘ymay menga kiydirdi. Botinkasi oyog‘imda shaloplasa ham, ancha yaxshi bo‘ldi. Lekin mening shippagimdan Bo‘ronning tovoni chiqib qoldi. Shunda ham parvo qilmadi, hakachaklab Layka bilan quvisha ketdi. Hayron qolaman unga: charchash nimaligini bilmaydi-ya!

Nima ekan deb atrofga alangladim. Juda uzoqda, botayotgan quyoshning somonday sariq yallig‘i tushib turgan joyda asalari uyalaridek qutichalar ko‘rindi. Yaqinlashganimiz sari bu qutichalar vagonlarga o‘xshab ketdi.

— Iya, Bo‘ron, poyezd o‘tadimi bu sahrodan?

Bo‘ron qattiq xaxolab, tushuntirdi:

— G‘ildirab yuradigan posyolka bu. Quruvchilar posyolkasi.

— Ana o‘sha „Yonar daryo“, ya’ni gazo‘tadigan trassa o‘tgan joylar, ilgari ham aytgan edim-ku?

— Aytganing bilan men boshqacha o‘ylagandim-da. O‘zing „olov oqadi“ deganding-da!

Bo‘ron qotib kului.

— Qoyil beshinchli sinf o‘quvchisiga. Shu choqqacha o‘z uyangdan tashqariga chiqmaganing bilinib turibdi.

Yana sal yurgan edik, toshlar va qamishlardan ishlangan chayla uchradi. Chaylaga boylog‘liq turgan qora ot bizni ko‘rib kishnadi. Chayla tepasidagi ayriga qo‘nib turgan kattakon qush qanotini par-par silkitib, naq ustimizga sapchiguday bo‘ldi. Men cho‘chib orqamga tislani turuvdim, Bo‘ron: „Qo‘rqma, o‘zimizning qo‘lga o‘rgatgan burgutimiz“ — dedi-da meni eshik yonidagi katta katak oldiga sudradi. Katakdada dumi uzun, sap-sariq yungli, tilladay tovlangan chiroyli hayvon tipirlab turibdi. Tulki... Hayvonot bog‘i esimga tushib ketdi. Tulki quloqlarini ding qilib shahlo ko‘zlarini bizga ayyorona qadadi. Bo‘ron unga tegajaklik qilib qo‘l silkitadi, har silkitganda tulki chetandan sapchib chiqquday bo‘ladi.

— Hu, ayyor o‘lgur! Sherikingni tashlab keldim. Bemalol yashayver endi. Keyin menga tushuntiradi Bo‘ron. — Shu o‘lgurda, kiyik bolasini chiqishtirmagan, hadeb ovqatini yeb qo‘yavergan... Hu, o‘lgur...

Bo‘ronning Toshkentga tashlab kelgan kiyigiga achinayotgani yaqqol sezilib turardi.

Ovozimizni eshitib chayladan betlari kepchikday, uzun soqollari jo‘xori popiltirig‘iday qizg‘ish, ko‘k yaktak ustidan qavat-

qavat belbog‘ bog‘lagan bir chol chiqdi. U cho‘loqlanardi. Chiqqa solib:

— Kel, bo‘tam, sog‘-salomat keldingmi? — deb Bo‘ronni quchoqladi. Keyin mening yelkamga qoqdi. Boshqa so‘z aytmasdan, bizni chaylaga kirgizdi-yu, o‘zi qumg‘on ko‘tarib chiqdi. „Ming‘aymas odamga o‘xshaydi“, deb orqasidan qarab qoldim. Bir oyog‘i yog‘och ekan. Ketidan anqayganimni ko‘rib, Bo‘ron:

— Bizning boboy, bilib qo‘y, — dedi.

— A-a? — deb ajablanib qoldim. (Esimga „Titov“ familiyasi tushdi, hayronligim oshdi.)

— Jamoa xo‘jaligining bosh cho‘poni. Otlari ham Cho‘ponbobo, — deb qo‘shib qo‘ydi Bo‘ron.

Yana ot kishnadi. Layka begonasirabmi, vovilladi. Bo‘ron yugurib chiqdi-da, otga beda solib, Laykaning oldiga suyak tashlab keldi.

— Ot kimniki?

— Boboyniki-da!

— Qanday qilib minadilar?

— Nima deb o‘ylayapsan boboyni! Katta chavandoz. Uloqda birovni oldiga tushirmaydi. Urushda geroy bo‘lgan. Budyonnii armiyasida xizmat qilgan.

Og‘zim ochilib qoldi: sodda bir cho‘pon-a... Ishonmay turganimni bildi-da, Bo‘ron nimanidir o‘ylab qoldi. Chayla burchagida turgan yashikni titkilashga tushdi. Undan bitta dala sumkasi chiqdi. Sumkani ochib ag‘dargan edi, konvert, bloknot aralash suratlar tushdi. Suratlardan birini menga uzatdi. Men suratga angraygancha qoldim: bir odam egniga shinel, boshiga soldatcha shlyom kiygan, otni gijinglatib turibdi. Katta qo‘y ko‘zlar bilan qayrilma qoshla xuddi Cho‘ponbobonikiday. Faqat soqoli yo‘q, yosh.

— Ana shunaqa! — deb Bo‘ron maqtanganday bo‘ldi. Keyin yana bitta surat ko‘rsatdi. Bunisida uch kishi: bittasi Cho‘ponboboning hozirgi turishidan — soqolli, yaktakli, boshida kigiz qalpoq. Yonidagi kishi mo‘ylov dor, yulduzchali shapka kiygan, rusga o‘xshaydi. Uchinchisi bo‘lsa jikkakkina, ko‘zlar yuvosh bir bola.

— Iya, bu bola o‘zing emasmi?

— O‘xshaymanmi..?

Ancha vaqtidan keyin Cho‘ponbobo halloslab qumg‘on ko‘tarib kirdi. Mening oldimidagi suratga ko‘zi tushdi-da, uni qo‘liga olib tikildi. Xuddi sog‘ingan odamini uchratganday:

— Eh, do'stim Titov, qadrdonginam, — deb o'zicha so'zlandi, — ko'p odamoxun edi, rahmatli... Urushga ham borib kelgan. Keyin sahroda o'n yilcha kezdi biz bilan. Men yo'l ko'rsatuvchi edim. Titov odamlar bilan birga sahroni ilma-teshik qildi. Yer tagidan xazina topadigan olim edi u.

— Qum bo'roni yutdi u sho'rlikni, — deb shivirladi. O'rtaga: bir yashikni xontaxta o'rnida qo'yib, atrofiga po'staklar soldi: „Ol, ol“ boshlandi. Mening miyamni „qandoq qilib bo'ron odamni yutadi?“ degan savol timdalagancha qoldi.

Boboyni ming'aymas kishi deb yanglishibman. Juda gaplasha-digan chiqdi. Bo'ron oldida gapni menga burdi:

— Shunaqa qilib, mehmon bola, Arslonovning o'g'liman, degin-a? Yashavor, yigitlar sultonining o'g'li! Kelayotiboq sahro shamolini tatib ko'rdingmi? Qiynalmadingmi, ishqilib?

Hamma yog'im og'rib, oyog'im bezillab turgan bo'lsa ham, sir boy bermadim.

— Hechqisi yo'q, o'rganib qolasan. Bu yerga kelgan odam sahro tabiatini bilan olisha-olisha pishib ketadi. Boboy piyolada menga choy uzatib, gapni uladi: — U yog'ini so'rasang, dadang o'z o'g'limday bo'lib qoldi. Zeriksa, gaplashgani chaylaga keladi. Har zamonda o'z qo'li bilan osh qiladi. Ammo pazanda yigit ekan, palovxonto'rani do'ndirib tashlaydi-da, to'g'risi — dedi boboy ko'zlarini suzib choy icharkan. Palov bilan ko'k choy yig'lab ko'rishadi-da. A'zoyi badaningga mumiyoday singib ketadi, jonivor. Dadangni o'zim o'rgatdim ko'k choyg'a. Bosh og'riq kasali bor ekan, ko'k choy davo bo'ladi unga...

Yuragim shig'illab ketdi: „yana kasali tutibdi-da!“ Boboy salmoqlanib gapirardi. Gaplari qiziqarli edi-yu, endi miyamga kirmasdi. Bo'ronni „yur“, deb turtdim. Boboy darrov sezdi.

— Bo'lmasa dadangning oldiga bora qol. Sog'inib, diqqat bo'lib yuruvdi o'ziyam. Darvoqe, ertalab mashinada tuman tomonga o'tib ketgan edi, qaytdimikan-a — dedi. Bo'ronga tayinladi: — Mehmon bilan qaytib kelinglar. Shu yerda yotasizlar, durustmi?

Borayotib, o'ylayman: „Sog'inib yuribdi deydi. Kimni sog'inadi? Biznimi? Oyim: „Qochib ketdi, unutdi“, dedi-ku. Unutgan odamni sog'inarmidi? Innaykeyin, diqqatligi nimadan ekan-a? Sultan amaki o'yimizdag'i o'tgan gaplarni boboya gapirdimikan? „O'g'limday bo'p qoldi“ debdi-ku, gapirsaga-pirgandir-da“.

QAYTISH

Kechasi vahimali tushlar ko'rib chiqdim. Xuddi bir vaqt dagidek lochin meni osmonga olib chiqqan mish-u, men uning changalidan ayilib tushib ketayotgan mishman...

Qattiq ovozdan uyg'onib ketdim. Bo'ron bilan ikkovimiz apil-tapil boshimizni ko'tarsak, Cho'ponbobo tepamizda.

— Qani, tura qolinglar, bo'talarim, ildamroq. Kutib qoldi.

Chayla eshidiga mashina turgan ekan. Kechasi adamni olib ketgan qizil yozuvli mashina. U nega kelganini so'ramasimizdanoq, tanish haydovchi bizni chaqirdi. Uchovimiz chiqdik. Mashina qo'zg'alishi bilan oldimizga adam minib yurgan „Gaz- 69“ chiqdi. Unda Vasya, Mamed, yana bir-ikki kishi ketayotgan edi. „Vilis“ to'xtab, Vasya bizning mashinaga o'tdi.

Men Bo'ronga, Bo'ron menga qaraydi: „Qayoqqa ketyapmiz? Nega bunaqa shoshilinch? Boboy mening ko'zim bejoligini bildi-da:

— Senga mashina yuboribdi dadang. Sog'ingan bo'lsa kerakda, darrov. Sening bahonangda biz ham ko'rib kelaylik, — dedi. Keyin Vasyaga qaradi. — Tungi smena durust o'tdimi, bolam. Jo'nashib ketdimi ishing?

— Yo'rg'alab ketdi! — dedi Vasya.

— Yo'rg'alagan bo'lsa, oshiqlarining olchi. O'zlarining omadi kelgan yigitsanlar-da, — deb qo'ydi boboy xursandlik bilan soqolini silab.

— Ammo, — dedi Vasya paxsaday qo'llarini tizzasiga shap urib, — jonini ayamay ishni yurgizdi-yu, o'zi safdan chiqdi-da. Shunisiga xafamiz.

— Yaxshi nafas qil, bolam, — dedi boboy astoydil ishonch bilan. — Xudo xohlasa, tuzaladi, doktorlar davosini topadi. Bot fursatda qarabsanki, yana saflaringda yuribdi-da.

Bu gaplarni boboy meni tinchlantirish uchun gapirdimi yo chindan ishonib gapirdimi, bilib bo'lindi.

— Aytganingiz kelsin ishqilib, otaxon, — deb qo'ydi Vasya chuqur nafas olib.

Vasyaning avzoyidan adamning kasali og'irga o'xshaydi. Men endi hech kimning gapini eshitmasdan, o'zimcha xayol surib ketyapman: doktorlar davo topib, ko'zini ochayotganmikan, yo bo'lmasa butunlay... Yo'q, yo'q, boboy aytgancha, „yaxshi nafas“ qilay. Ko'zi ochilishi kerak. Ochiladi, albatta!

Ana, derazalariga ohak surkalgan bino. Kasalxonadir. Mashinadan tushamiz. Ostonaga qadam qo'yamiz. Yuragim qinidan

chiqib ketay deb, tipir-tipir qilyapti: adam qay ahvolda yotganikan, hozir? Meni tanirmikan?

Q‘rqa-pisa odamlar ketidan yo‘lakka kir yapman. Birdan qarshimda adamni yetaklagan doktor opa ko‘rindi. Adamning ko‘zi bog‘liq edi. Borib, qo‘lini ushладим. Darrov bildi. Meni bag‘riga bosdi. O‘zim gap topolmayman. O‘zi bir narsa dermikan deyman. Indamaydi. Xafamikan?

Doktor opa hammamizni haligi mashinaga boshlab chiqdi. O‘zimcha kasali yengil bo‘lsa javob bergenmikan, deyman. So‘rashning iloji yo‘q. Ketyapmiz. Adamga to‘xtovsiz gapirishardi. Posyolkaga qaytyapmiz, degan xayolda edim, bir payt aeroportga kelib qolibmiz.

Odamlar adam bilan meni aeroport maydoniga olib chiqishdi. Uzoq gaplashib, xayrlashishdi. Men adamni yetaklab samolyotga chiqdim. Shundagina Toshkentga qaytayotganimizni bildim. Bilibiq, yuragim orqamga tortib ketdi: sevinishdanmi, cho‘chishdanmi — tushunolmasdim. Bir yoqdan — rosa xavotir bo‘lib, eshikka temulishgan oyim, buvim ko‘z oldimga kelishdi, ularni hoziroq ko‘rgim kelib ketdi. Ikkinchchi yoqdan — bu yerda orttirgan yangi o‘rtoqlarim, alomat kishilar va qiziq ishlarni ko‘zim qiymasdi. Xuddi taruzi qo‘ltig‘idan tushgan odamday bo‘sashdim. Shu chog‘ esimga Layka tushdi. Fotoapparatim-chi? Iya, aytganday daftar, qalamlarim-chi? Xaltada borganicha shundoq qolaveribdi. Ta’tilda men ham boshqa bolalar qatori ko‘rgan-bilganlarimni yozib bormoqchi edim. Sinfoshoqlarim yozib borishganda, o‘qituvchi „qani seniki?“ desa, nima deyman endi? Tag‘in urishadigan bo‘ldida: „O‘yin qaroqliging, besaranjomliging qolmabdi“, deb.

Odam chuqur xayolga botsa ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar bo‘lib qoladimi, deyman. To‘satdan oldinga qalqib ketdim-u, hushim joyiga keldi. Adam qo‘yib yubormadi. Endi bir gap so‘rab qoladimi deb xavotir bo‘lamon. Yo‘q, indamaydi.

Gulduros solib samolyot osmonga ko‘tarildi. Men g‘ildirak oynadan tashqariga qarayman. Yer bilan osmon bir-biriga qo‘shilishib ketganday, hamma yoq qip-qizil lovillab yonayotganday ko‘rinadi. „Nega bunday?“ deb adamdan so‘rayman deyman-u, gapim yoqmaydimi, deb so‘ramayman. Lekin dilimdagini topganday, o‘zi so‘rab qoldi:

- Nimani ko‘ryapsan, o‘g‘lim?
- Osmomni.
- Qizilqumni-chi?

— Yo'q.

Adam bir xo'rsinib qo'ydi. Nega xo'rsindiykin: „Qizilqumdan uzoqlashganidanmi, endi uni ko'rishga ko'zi yetmaganidan-mikan?“

— Yaxshiroq qara-chi: uzoqdan Qizilqum qanaqa ko'rinarkan?

Egilib uzoqlarga qarayman. Ko'zimga xuddi oppoq ochilib yotgan paxtazor ko'ringanday bo'ladi.

— Paxta! Oppoq paxta!

— Yo'g'-e! — dedi adam kulgi aralash. — Iyunda paxta ochilarmidi! Bulutdir?

Ha, ha, bulut ekan. Saldan so'ng, paxtaday sochilgan mayda bulutlar bir-biriga qo'shilib xirmon-xirmon bo'ldi. Samolyotning hamma yog'idan tog'day bostirib kelaverdi. Ehe, tag'in samolyot ularga urilib, ag'darilib ketsa-ya? Vahima bosdi. Ko'zlarim tinib ketdi.

Meni chalg'itish uchunmi, adam so'raydilar:

— Sahro senga yoqdimi? Nima deb javob beraman: „Yoqdi“ desam, nimasi yoqqanini o'zim bilmayman. „Yoqmadi“ desam, xuddi sahrodagi o'rtoqlarimni xafa qilayotganga, ularning yaxshiliklarini unutayotganga o'xshayman. Nahotki hammasidan kechsam, ularni qayta ko'rmasam.

Adamning savoliga javob berish o'rniga, shoshilib so'rayman:

— Endi sahroga qaytmaymizmi, ada?

Adam biroz o'ylab oldi-da:

— Senga bog'liq, o'g'lim, — dedi.

Ajablanib unga tikilaman. U jim bo'lib qoladi. Ko'zi yumuq odamning nima o'layotganini, xursandmi, xafami, bilib bo'lmas ekan. Goho jag'ini qimirlatib, tishini g'ijirlatib qo'yishidan, ko'zi og'riyotganga, bir nima alam qilayotganga o'xshab ketadi. Shuning uchun men boshqa so'z so'ramayman. Faqat ichimda o'ylab ketaman: „Senga bog'liq“, degani nima degani? Axir o'zining kasali tutib, ko'zi bunaqa bo'lib qoldi-ku? Doktorlar uni sahrodan hayday berib, oxiri jo'natdi-ku? Endi qaytib borolarmidi? Oyim bo'lsa, oldin ham borishiga qarshi edi. Endi-chi? Oyimning ko'nish-ko'nmasligi menga bog'liqmikan? Oyimga, buvimga qulq solmagan, menga qulq solarmidi? Hech-da.

Samolyot qattiqroq silkinib oldi. Men o'rnimdan qo'zg'alib ketdim. Adam yana suyab qoldi.

Samolyot yana pastlay boshladи. Xiyol o'tmay, yer ko'rindi.

Toshkent, ana Toshkent!

Samolyotdan tushdik. Adamni yetaklab, aeroport maydoniga yurdim. Maydonda odam tirband. Shovqin-suron. Hamma temir panjaraga qarab intiladi. Ko'zimga bu odamlarning har biri ikki-uchtadan bo'lib ko'rindi. Qulog'imda xuddi karnay-surnay chalinayotganga o'xshaydi. Shu payt tanish bir qichqiriq eshitaman. Odamlarga alanglayman. Iya, anavi, to'da ichidan kelayotgan kim? Oyim emasmi? Ha, ha, xuddi o'zi, o'zginasi!.. Bizni kutgani chiqibdi-da. Qayerdan bilibdi-a, bizning kelishimizni?.. „Oyi!“ deyman, tomog'imga ovozim tiqiladi. Oyim jon holatda keladi-yu, indamay-sindamay meni quchoqlab oladi, u yuzim, bu yuzimdan o'padi. Shu zahoti birdan afti tirishib ketadi.

— Bu nima qilganing, o'zboshimcha! Bu nima qilganing, daydi!
— deb qulog'imdan cho'za boshlaydi.

Men piq-piq yig'lab yuboraman. Ikki-uch qadam narida turib qolgan adam buni payqaydi-da:

— Qo'ying, uni xafa qilmang! — deydi asta.

Oyim ishchi kiyimidagi ko'zi bog'liq bu odam kim bo'ldi ekan, deb unga baqrayadi, qulog'imni qo'yib yuboradi.

— Adam, adam-ku! — deyman men hiqillab, lovillagan qulog'imni silab.

— A-a? — deydi oyim cho'zib. Bir zum ko'zlarini bejo bo'lib turadi-da, birdan borib adamning yelkasiga qo'llarini tashlaydi. Shu ko'yi ancha turgandan so'ng titroq ovozda:

— Nima bo'ldi sizga, nima bo'ldi? — deydi-yu, ho'ngrab yuboradi.

— Ko'z og'ridi. Salgina, — deydi adam oyimning qaltiragan qo'llarini ushlab.

Keyin adamning bir qo'ltig'idan oyim, bir qo'ltig'idan men tutib, aeroport binosiga kiramiz. Ko'chaga chiqaverishda oyim „Shundoq turinglar“ deydi-da, tarozida yuk tortayotgan joyga o'tadi. Hademay, bitta chamadon ko'tarib chiqadi. Ha, endi bildim: oyim bizni kutib olganimas, qidirib borgani otlangan ekan!

Taksiga tushib, uyga ketyapmiz. Adam oyimga ko'zi bog'liq holda uyga borishi yaxshi emasligini aytdi. Doktorlarning Toshkentdag'i katta kasalxonaga yozib bergen qog'ozini ko'rsatdi. Shundan so'ng oyim meni ko'chamizning og'zida tushirib qoldirdi-da, adamni kasalxonaga olib ketdi.





Po'lat Mo'min

(1922—2004)



Po'lat Mo'min asli pedagog bo'lganligi uchun ham bolalarni bir umr sevib, ular uchun ajoyib-g'aroyib asarlar yaratdi. Uning biringchi she'rlar to'plami — „Sayrang, qushlar!“ nomi bilan 1949-yilda bosilib chiqdi. Shu asaridan so'ng P. Mo'min bolalar shoiri sifatida tanildi. U 60 dan ziyodroq kitoblar muallifidir.

Shoirning „Obod o'l kam“, „Bo'l tayyor!“, „Oftob chiqdi olamga“, „Yer chopildi — javob topildi“, „Odob yaxshimi, oftob yaxshimi?“ kabi o'nlab she'rlarini bolalar sevib o'qib kelmoqdalar.

P. Mo'minni bolalar o'z qo'shiqchi-shoirlari sifatida e'zozlaydilar. Uning „Ko'ylagim“, „Ikki qo'y mang, o'qituvchim“, „Besh oldim — besh“, „Ustozlar“, „Salimjon-nimjon“, „Salimjon endi polvon“ kabi qo'shiqlarini sevib kuylamaydigan bola topilmasa kerak.

Po'lat Mo'minning „Eh, rosa shirin ekan“, „Xolning jiyron velosipedi“, „Ko'ngil istar yaxshilik“, „Jalil eshitgan ertak“, „Alla bilan Jalla“, „Oltin nay“, „Qovoqvoy bilan Chanoqvoy“, „Suqatoy-Konfetvoy“ kabi poema-ertak va pyesalari bolalar adabiyotining rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

SALIMJON-NIMJON

(Hazil qo'shiq)

Salim, Salim, Salimjon,
Buncha bo'lding sen nimjon?
Koptok misol semirding,
Go'yo taning xamirjon.
Salimjon — nimjon.

Hech bir chiqmay oftobga,
Ranging o'xshar betobga.

Uyqu bosib ko'zingni,
Qarolmaysan kitobga.
Salimjon — nimjon.

Ayta bersak bir chetdan:
Doim qochding mehnatdan.
Hech qilmaysan harakat,
Aslo bormi g'ayratdan?
Salimjon — nimjon.

Bizlar kabi kuch yig'gin,
Tur o'rtoqjon, tez chiqqin.
Ishlab maktab bog'ida,
Terlab-terlab chiniqqin,
Bo'larsan polvon.

SALIMJON ENDI POLVON

Salim, Salim, Salimjon,
Oldin edi sal nimjon.
Agar uni ko'rsangiz,
Salimjon endi polvon.
Salimjon — polvon.

Do'stlarini tanigan,
G'ubor ketgan tanidan.
Bizning o'sha Salimjon,
Tanqidlarni tan olgan.
Salimjon — o'g'lon,
Salimjon — polvon.

Koptok bo'lib shishganmas,
Labi-lunji tushganmas.
Chehrasi ham ochilgan.
O'qimaydi „besh“ dan past.
Salimjon — shodon,
Salimjon — polvon.

Yog'day yoqqan harakat,
Kirgan rosa g'ayratga.
Bel bog'lagan do'stlarday
Doim o'qish, mehnatga.
Salimjon — chaqqon,
Salimjon — polvon.

OFTOB HAM YAXSHI, ODOB HAM YAXSHI

Oftob yaxshimi,
Odob yaxshimi,
Oftob berar nur.
Odob-chi, huzur.

Lolalar uchun
Oftob yaxshidir.
Bolalar uchun
Odob yaxshidir.

Oftob bo'lmasa,
Qorong'i tushar.
Odob bo'lmasa,
G'am-qayg'u tushar.

Oftob ko'rinar,
Tog'-tepalikda.
Odob ko'rinar
Salom-alikda.

Odob har kimning
Yaxshi so'zida.
Odob har kimning
Yuzi-ko'zida.

Olamning yuzi
Oftobdan isir,
Odamning yuzi
Odobdan isir.

Olamning doim
Oftobi bo'lsin.
Odamning doim
Odobi bo'lsin.

YER CHOPILDI — JAVOB TOPILDI

— Bezoval qilmang —
Deya onamga,
Dars tayyorlashga
Kirdim xonamga.

Boshimni qashib,
Rosa o'tirdim.
Ko'p misollarni
Yozdim, o'chirdim.

Xayol otlari
Uchishib chaqqon,
Tutqich bermaydi,
Qochdilar har yon.

Masala qurg'ur
Yechilmaydi hech.
Bunday qarasam,
Bo'lib borar kech.

Cho'kib o'tirmay
Hovliga chiqdim,
So'ng yerni chopib,
Rosa chiniqdim.

Birozdan keyin
Yorishdi ko'nglim.
Go'yo ochildi
Fikrimga yo'llim.

Barcha savolga
Javob topildi.
Shu bahonada
Yer ham chopildi.

XURSANDMISIZ — XURSANDMIZ!

(„A“ sinfi bilan „B“ sinfi lapari)

- „B“ sinfi: — Xo'sh, „A“ chilar, qalaysiz?
- „A“ sinfi: — Qalaymasmiz, oltinmiz.
- „B“ sinfi: — Bu chorakda qandaysiz?
- „A“ sinfi: — Maktabda eng oldinmiz.
- „B“ sinfi: — Xursandmisiz?
- „A“ sinfi: — Xursandmiz!

„B“ sınıfı: — Ko‘rsak deymiz „assalom“,
Sinfimiz ko‘p ozoda,
O‘qiymiz sof havoda.

„A“ sınıfı: — Xursandmısız?
„B“ sınıfı: — Xursandmız!
„B“ sınıfı: — Sinfimizda yo‘q aslo
Do‘stlar, „ikki“, „uch“ baho.
„A“ sınıfı: — Sinfingizda bo‘lganmız,
Ko‘rib zavqqa to‘lganmız.

„B“ sınıfı: — Xursandmısız?
„A“ sınıfı: — Xursandmız!
„A“ sınıfı: — Tabriklaymız, „B“ chilar!
„B“ sınıfı: — Rahmat sizga, epchillar.
Ahil bo‘ldik, kengashdik.
Endi sizga tenglashdik.

„A“ sınıfı: — Xursandmısız?
„B“ sınıfı: — Xursandmız!



Do'stjon Matjon

(1924—1989)



Iste'dodli shoir Do'stjon Matjon she'rлarida bolalarning qaynoq hayotlari hamisha ufurib turadi. Kichkintoylarni a'lo o'qishga, ona-Vatanni sevishga, do'st-o'rtoq, ahil, saxiy bo'lishga undovchi asarlari bilan tobora bolalar qalbidan joy olayotgan asarlari bir talay. Ayniqsa, uning „Velka botir“, „O'g'illar qo'shig'i“, „Mening orzularim“, „Do'stlik“, „Qo'shmag'iz“ kabi she'rлarida shu ruh bo'rtib turadi.

DARVOZABON

Jamoamiz hali yosh,
Treneri Rustamjon.
Mohir hujumchi Yo'ldosh,
Bizga boshliq — kapitan.

O'yinchilar ichida,
Darozi mening o'zim.
Sergak soqchiman juda,
Mudom koptokda ko'zim.

Mayliga kelsin uchib,
Xoh balanddan, xoh pastdan.
Shu on olaman quchib,
O'tkazib yubormasdan.

SAMOKATIM

Samokatim, samokatim,
Yog'och otim, saman otim.

O'yinchoqlar ichida sen
Rosa uchqur qanotim.

Chuh, ey, mening samokatim,
Yog'och otim, saman otim.

Dadajonim olib berdi,
Ravon yo'lga solib berdi.

Inoqlashing ikkov, deya,
Jilovingni qo'yib berdi.

Chuh, ey, mening yog'och otim,
Saman otim, otgin odim.

Balki o'tib bahor, qish, yoz,
Bo'y cho'zarmen ham biroz.

Unutmasman aslo seni,
Bo'lganimda zo'r chavandoz.

Chuh, ey, mening saman otim,
Yog'och otim, samokatim.

SUFLYOR

Norjonlarning sinfida
Borar edi imtihon,
O'tirmasdi sira jim,
Suflyorlik qilib Norjon.

Goh otsa shpargalka,
Goh aytardi pichirlab.
Bilag'on sanab o'zin,
Tinchimasdi vijirlab.

Mana, navbat, nihoyat
O'ziga kelib qoldi.
G'oz yurish qilib borib,
Qo'liga bilet oldi.

Chiqli unga biletdan
Oddiygina bir savol.
Mag'zini chaqa olmay,
Norjon bo'lib qoldi lol.

OCHKONI TENG BO'LISHAR

Ishqiboz ikki polvon,
Kuch sinashar shaxmatda.
Bellashadi beomon,
O'yin qizir g'oyatda.

Kishnatib „sipoh“ini,
Yelib borar Rustamjon.
Raqibining „Shoh“ini,
Qurshab oladi shu on.

Qarab turmas Omon ham,
Xavfni sezadi zumda.
Zehnini charxlab ildam,
O'ta boshlar hujumga.

Labin tishlab Rustamjon,
Yurishni qayta boshlar.
„Fil“ini qilib qurbon,
„Farzin“ga qarmoq tashlar.

Bu xatarli tuzoqqa,
Chap berar yana Omon.
O'zi qo'ygan qarmoqqa,
Rustam tushar shu zamon.

Tez orada tugar „jang“,
Bahsdan mamnun bo'lishar.
Natija bo'lib durang,
Ochkoni teng bo'lishar.

KO'CHAMDA BOR BIR BOLA...

Ko'chamda bor bir bola,
Bu she'rim o'sha haqda.
Nomin aytmayman, chunki
Bundaylar oz sanoqda.
Mazasi yo'q darslardan
Yashirmoqlik ne darkor!?
Bu yil ham uchinchida
O'qimoqda u takror.
Qaylardadir sanqiydi,
Maktabga kelmas yetib,

Kech qolmagin, desalar
Qo'yar qo'lin silkitib.
Kitobni hech o'qimas,
Futbolga chopar nuqul.
Oyisi ish buyursa,
Mudom aldab qochar ul.
So'zlari biram dag'al,
Odobni hech bilmaydi.
O'zidan boshqalarni
Nazariga ilmaydi.
Tuzalmasa bu bola
Doston etgum ta'rifin.
Butun elga yoyaman
Qo'shib ism-u sharifin.

BALIQ OVIDA

Majnuntolning salqinida o'tirib,
Zilol suvning oqishiga boqaman.
Qarmog'imdan nigoh uzmay, o'y surib,
Shirin xayol daryosida oqaman.

Dikir-dikir o'yin tushsa po'kagim,
Ikki ko'zim bir nuqtaga tikilar.
Quvonchimdan ura boshlar yuragim,
Deyman: „Hozir katta baliq ilinar“.

...Shamol, to'lqin po'kagimni tortqilab,
Goho-goho qo'yar meni ranjitib.
Shunda hamki, hislar bilan to'lib qalb,
Ketgim kelmas bu qirg'oqni tark etib.



Qudrat Hikmat

(1925 — 1968)



Qudrat Hikmat qisqa umr kechirdi, ammo ijodi sermazmun bo'ldi. U 20 dan ortiq kitoblari bilan bolalar adabiyotining oltin fondidan o'ziga xos o'rinn egalladi.

Qudrat Hikmat mактабгача tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'plab she'rlar yozgan. „Bog'chadagi bog'cham“, „Oftob“, „Gunafsha“, „Oyga poyga“, „Toychoq“ kabi she'rlarida do'stlik, hamkorlik, ona-tabiat va unga muhabbat g'oyalari yotadi. Mehnat mavzusi shoir ijodida bosh masala hisoblanadi. Kimki halol, pok bo'lsa, jismoniy mehnatni sevsal, kattaga ham, kichikka ham ma'qul bo'ladi. Bu tushuncha shoirning „Buvimning deganlari“, „Uch o'rtoqning sovg'asi“, „Do'ppi“, „Ona orzusi“ she'rlarida ifodalananadi.

Q. Hikmat bolalar adabiyotida „Chirchiq farzandi“, „Qum ostida qovunlar“, „Bobodehqon hangomasi“, „Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak“, „Ko'milgan oltin, vaysaqi xotin va tadbirkor ovchi qissasi“, „Chovkar“ kabi qator poema, ertak-dostonlari bilan kitobxonlar tomonidan haqli ravishda e'zozlanadi.

BUVIMNING DEGANLARI

Buvim bilan Sanobar,
Qurt tutishdi barobar.
Katta uyning to'rida,
Ipak qurtlar so'rida.
O'rmalashar vishillab
Tut bargi yer pishillab,
Sanobarning vaqt chog'.
Barg keltirdi bir quchoq
Buvim dedi: — Hoy qizim,

Endi senga shu so‘zim —
Qurtlar kirdi dahaga,
O‘rnak bo‘lib hammaga.
Dastaga harakat qil,
O‘z ishingning ko‘zin bil!
Bu yil bizlar uch marta
Qurt tutib, mamlakatga —
Topshiramiz pillani,
Pilla emas, tillani.

SUV

Tog‘dan kelar pildirab,
Ariqlarda shildirab
Muzday tiniq zilol suv,
Simob kabi o‘ynab u —
Qaysi yerda oqsa ham,
Gurkirab yashnar o‘lkam.
Uzoqlardan, daryodan,
Kanal qazib har yoqdan
Olib keldik gulbog‘ga,
Ekinlarga quymoqqa.
G‘o‘za qonib ichsin deb,
Cho‘lni bahor quchsin deb.
Go‘zal Vatanda aslo
Qolmasin deb bo‘z, sahro.

UCH O‘RTOQNING SOVG‘ASI

Kechqurun katta uyda,
(Men ham bor edim unda)
O‘ltirishib uch o‘rtoq
Suhbat qildilar uzoq.
Navbat bilan oxiri
Dedi ulardan biri:
— Gulbahorga endi sen
Nima sovg‘a etasan?
Salmoqlanib Ne‘mat der:
— Jamoamiz

millioner.

Bor uning katta bog‘i,
Serhosildir tuprog‘i,
Ko‘rkamlikda yagona

Tut ko'chatdan yuz dona —
Ekaman Xol bobomdek,
O'sib olma, bodomdek
Bo'lsinlar yashil daraxt,
Barglaridan hamma vaqt
Ipak qurtlar bahr olsin,
Dong'i elga taralsin,
Mana, mening sovg'am shu.
Yana qizir tortishuv:
— Gulbahorga endi sen
Nima sovg'a etasan?
— O'rtoqlar, — dedi

Ergash,
Bog'da ishlash tag'in gasht.
Har xil rangli gullardan
Tanlab-tanlab ulardan
Maktabimiz yoniga,
Dam olish maydoniga,
Yangi gulxona yasab,
O'tqazaman safma-saf.
Shabadalar ertalab,
G'unchalarni erkalab,
Yoqimli hidlar sochsin,
Kishi bahrini ochsin,
Mana mening sovg'am shu.
Lekin oson emas bu!
— Gulbahorga endi sen
Nima sovg'a etasan?
Qodirjon dedi: — Men ham
Quti yasayman ko'rkam.
Qushlar unga in solar,
Yayrab o'sar qushchalar.
Chittak, mayna, bulbullar,
Bizga qalin do'st ular.
Turli zararkunanda
Hasharotni ko'rganda,
Ayamasdan har qatla
Qirib tashlar albatta.
O'ynab behi, olchada,
Yursinlar keng bog'chada.
Mening sovg'am shu bo'lar
Bog'ga husn qo'shilar.

OYGA POYGA

Inson va shamol
O'ynashib poyga.
Barobar uchmoq
Bo'lishdi Oyga.

Yo'l juda olis,
Yetmoq mashaqqat.
Kerak behad kuch,
Iroda faqat.

Shamol der unga
Ortib ehtiros:
— Uchib yurishlik
Bobomdan meros.

Mendan ham o'zg'ir,
Chaqqonmi odam?
Eslolmas buni
Bo'ronboy dadam.

Sinashib ko'rsak,
Jumboq bo'lar hal.
Da'voying bekor,
O'yla, tag'in sal!

Inson miyig'ida
Kuladi xolos.
Go'yoki osmon
Unga ko'k palos.

Ko'p o'ylab, uchqur
Raketa qurdi.
So'ng ikkalasi
Oyga yugurdi.

Shamol olamga
Rosa jar solib,
Dastavval yo'lda
Keladi g'olib.

Biroq kekkayib,
Boqarkan asta.
O'zini ko'rди
Bulutdan pastda.

Hali yo'l olis,
Yetmoq mashaqqat.
Kerak behad kuch,
Iroda faqat.

— Kel! — der keng fazo,
Zavqqa zavq qo'shib,
Inson boradi
G'ayrati jo'shib.

Intizor Oyga
Kosmonavt qo'nar.
Tilsimni ochib,
Ortiga jo'nar.

Mardlar maydonda
Sinalar degan
Xalq so'zi asl,
Hech o'lmaydigan.

MIX

Qalpoq kiygan askarga
O'xshaydi mix polvon ham.
Birikadi u bilan
Birikadi bu bilan.
Eshig-u rom, narvon tosh.
U bor uylar saranjom.
Havas qilar har asbob.
Ko'rinishdan kamsuqum
Ro'zg'or uchun qulay, bop
Maxsus katak qutida
Saqlashadi tejalab.
Qurilishda ustalar
Ishlatishar rejalab,
Goh yanglishib ko'z joyga
Qoqib ayb qilishsa,
Qalpog'ini qiyshaytib,
Uni mayib qilishsa,
Norozilik bildirib,
Mix qoladi qayrilib.
Deraza ham o'rashmas,
Kesakidan ayrib,

Ko'rsa o'yinqaroqlar
Tepib, sochib ketadi.
Ko'zim tushsa nogahon
Jonom achib ketadi.
Turli-tuman buyumning
Pay tomiri o'shadir.
Bo'lak-bo'lak yog'ochni
Bir-biriga qo'shadir.
Bir istagim bor, uka:
Mixday to'g'ri, o'tkir bo'l!
Hurmat qilib do'stlaring
Shunda senga berar qo'l.

GAZ O'CHOQ

Plita o'choq
Qurdi gazchilar.
Oshxona issiq,
Xuddi yoz chilla.
Unga qon tomir
Qamishdek quvur.
Ichidan oqar
Buloq bo'lib nur.
Na tutuni bor,
Na quruq isi.
O'zingiz kelib
Ko'ring yaxshisi.
Ilikday palov
Dam yeraptida.
Biqirlab qaynar
Choydish kaftida.
Duxovkasida
Pishar yog'liq non.
Undan yolchigan
Barcha xonadon.

ALISHER VA KITOB

Kitobga o'ch o'gilcham,
Oltin topgan singari.
Chiqsa yangi bir asar
O'qir mendan ilgari.

Mayli bo‘lsin hikoya
Yoki to‘rt yo‘l quvnoq she’r.
Ayvonchada muk tushib,
Sharillatar Alisher.
Qosh qorayib ketguncha
Qo‘ldan tushmas kitobi.
Unga yoqqan she’rlarning
Hozircha yo‘q hisobi.
Olimdek serharakat.
Ishlar puxta berilib.
Uncha-muncha yoshlardek
Oshib ketmas kerilib.
Turnaqator savolga
Soldat kabi doim shay.
Hozirjavob bo‘lmasdi,
Shuncha kitob o‘qimay.

FIKRIM OSHAR O‘RGANIB

Kumushdek tong. Tiniq ko‘k.
Chalinadi qo‘ng‘iroq.
Jiring!
Jiring!
Jiring!
Bolalar darsga kiring!
Biz uchun yangi parta,
Kitob, daftар va karta,
O‘tiramiz bo‘ysira,
Hamma shunga bo‘ysunar.
Mehribon muallima —
Rahmatova Halima.
So‘zlar mакtab haqida
Tinglaymiz: men, Aqida,
Qiziqtirar harf meni.
O‘qiymiz „Alifbe“ni.
Dugonamdan ham oldin,
„O“, „L“ ni bilib oldim.
Fikrim oshar o‘rganib,
Keling sinab ko‘rgani.
Kumushdek tong. Tiniq ko‘k,
Chalinadi qo‘ng‘iroq.

Jiring!
Jiring!
Jiring!
Bolalar darsga kiring.

OQ TERAKMI, KO'K TERAK

Boya-chi, biz hovlida,
Bo'lib tarafma-taraf,
Navbat bilan aytishdik,
Taraf-tarafga qarab:
— Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
Chilvir sochi selkillab
Chug'urlashib qizlar der:
— Bizga kerak maktabda
Eng a'luchi Alisher.
— Oq terakmi, ko'k terak.
Bizdan sizga kim kerak?
Qiyqirishib barobar
Dedik: — Bizga yuboring,
Ilg'or paxta terimchi,
Ishchan qizcha Muborni.
— Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?



Nosir Fozilov

(1929 - yilda tug'ilgan)



Nosir Fozilov o‘zbek bolalar prozasiga katta hissa qo‘sghan adiblardan biri. Uning „Irmoq“, „Oqim“, „Robinzonlar“, „Qush qanoti bilan“, „Qorxat“, „Ko‘klam qiyoslari“, „Diydor“, „Tanolangan asarlar“ (2 jiddlik), „Bolaligim — poshsholigim“, „Bir otar to‘pponcha“ kitoblari shular jumlasiga kiradi.

QADR VA MEHR

(*Qissadan parcha*)

Yo‘q, hecham maqtanayotganim yo‘q. Handalakdekkina shirin qishlog‘imiz bor: uch mahallaga bo‘lingan bo‘lsa ham orastagina, shinamgina. Nomi ham o‘ziga yarashib tushgan: „Chaman!“ Odamlari ham qishlog‘imizday sodda, yoqimtoy, zahmatkash. Odamlarimiz qanday yumush bilan shug‘ullanishmasin, qishlog‘imizga yarashib turadiganday nazarimda: o‘roq o‘rishi ham, ketmon chopishi ham, qo‘sheti haydashi, suv sug‘orishi ham...

Qishlog‘imiz oqshomini bir ko‘rsangiz: odamlar daladan qaytib kelayotgan, poda orqasida bulutdek chang qoldirib, qishloq sari siljiyotgan, kun bo‘yi ang‘iz ustida donlab, g‘ujg‘on o‘ynab yurgan qora zag‘chalar qishloq osmonini ajib bir kuyga to‘ldirib, Sir bo‘yiga — qo‘noq joyiga shoshilayotgan... Qarab turib hayron qolasan: go‘yo mamlakatimizda urush bo‘lmayotganday. Bunaqa paytda odamlarning urush tufayli chekayotgan dard-hasratlari-yu, la’nati urushning qishlog‘imiz boshiga solgan va solayotgan noxush nadomatlari ham esingga kelmaydi. Qishloqning oqshom ko‘rinishlari — tirikchilik musiqasi seni bir nafas o‘z og‘ushiga olib, sarmast qilib qo‘yadi. Aslida shundaymi? Yo‘q, bu faqat

tashqi ko‘rinishi. Qishloq tirikchiliga, odamlarning ichki kayfiyatiga tuzukroq razm solgan kishi boshqacha holatni tuymay iloji yo‘q. Shu kichkina qishloq umri, tirikchiligi tashqaridan qaraganda go‘yo tinch oqar soyga o‘xshaydi. Jimir-jimir qilib yuzasi silliq oqib turibdi, ammo tagi-chi, tagi? Tagida girdoblar, shovvalar, buralib oqadigan joylari bor, shovvalar yo‘lida xarsanglar-u to‘nkalar yotibdi...

Ishdan qaytayotganimda shunday kayfiyatda edim. Kelsam oyim uyda ekanlar. Bizlardan ilgariroq qaytibdilar.

— Keldingmi, bolam, sigirlaringga qara.

Kamzulimni yechib, chopganimcha podaning oldiga chiqib ketdim. Quyosh endi qizarib botib, podaning oldi qishloqqa kirib kelayotgan ekan. Bolalarning qiy-chuvi-yu, sigirlarning mo‘rashi, itlarning vovillashi... hatto mana bunday shabadasiz oqshomda sigirlarning tuyoqlaridan ko‘tarilgan oppoq changning kattakon juldur ko‘rpaga o‘xhab havoda muallaq qalqib yurishi, hamma-hammasi har kuni bo‘ladigan manzara. Lekin bu manzara har kuni yangi, har kuni qiziq bo‘lib ko‘rinadi menga. Kunduzi dalada, ko‘chada ko‘rolmagan bolalarni shu yerda ko‘rasan. Huv, ana, quyuq chang orasida Karim ko‘zoynak olasini oldiga solib, targ‘ilning dumidan ushlagancha chopib boryapti...

Jalil bilan Abdunabilar ham shu yerda. Ana, Iriskeldi bobo kelyaptilar tayoqlarini do‘q-do‘q etkazib. Uning o‘g‘li Qalmaqon poda ketidan u yoqdan-bu yoqqa chopadi, chetga chiqqan sigirlarni qaytaradi:

— Hoy, ko‘zoynakning targ‘ili, qayt orqangga, qorason tekkur!

Ba‘zan jahli chiqib ketsa, butun qishloq eshitguday qilib sigirlarni egalariga o‘xshatib so‘kadi:

— He, egangga o‘xshamay o‘l, sumiltirik! Bu senga „Qovun-qurt“ mahallasimi, surishtirmay kirib ketaverasan...

Bunaqa paytda ba‘zi sigirlar shoxini bigiz qilib, Qalmaqonga o‘dag‘aylaganday bo‘ladi. Shunda u tayog‘ini o‘qtalib po‘pisa qiladi:

— Yaxshi mol bo‘lay desang, Karim ko‘zoynakka o‘xshama, bo‘yningga pichoq tortilgur!

Biz qotib-qotib kulamiz...

„Karim ko‘zoynak“ deganimiz bu — qishlog‘imiz hisobchisi Izzatulla akaning o‘g‘li. „Qovunqurt“ mahallasidan. O‘zi biz bilan teng. Bir sinfda o‘qiyimiz. Qop-qora, ozg‘in, rangpar, o‘z ishiga pishiqqina, shumgina. Buning ustiga ko‘zoynak taqib yuradi. Ko‘zi

nochor bo'lsa kerak-da. Qishlog'imiz kichkina bo'Igani uchun bu yerda ro'y bergan barcha g'ayritabiyy ishlar xuddi kaftda turganday ko'rindi-qoladi. Bunaqa odamga hamqishloqlar darrov o'zlaricha laqab ham to'qib olishadi. Qishlog'imiz yosh-yalanglari orasida Karimdan boshqa ko'zoynak taqqan bola yo'q. Ammo Karimlar „Chaman“da uch-to'rtta. Ulardan bu Karimni farqlash uchun bo'lsa kerak, hisobchining o'g'lini „Karim ko'zoynak“ deb atab ketishgan. Shunga o'xhash ba'zi kattalar Qo'chqor muallimni „Qo'chqor cho'loq“ deb atashadi. Negaki, u yaqinda askarlikdan bir oyog'idan ayrilib, qo'litiqtayoqda qaytib keldi. O'zi judayam yaxshi odam. „Siz“lab so'zlashi odamlarimizga picha erish tuyulsa ham, u kattaniyam, kichikniyam „siz“lab gapiradi; hurmat ma'nosidamish. Hozir u bizlarga, ya'ni maktab bolalariga brigadir: bug'doy o'rimida ham, paxta yaganasi-yu chekankasidayam, xirmondayam... Mana erta-indin ariq tozalashga, chalovga chiqsak, unda ham bizlarga bosh-qosh bo'ladi. Frontda ko'rgan qiziq-qiziq voqealarni aytib beradi. U kishi bilan birga ishlagan odam hech ham charchamaydi, zerikmaydi ham. Shunday odamni qanday qilib „Qo'chqor cho'loq“ deysan? Hech ham-da! Karim ko'zoynak boshqa gap. O'ziniyam anuv kuni „Eshak karvon“dan, so'ng xirmondan boplاب haydadik-da! Sira esidan chiqmaydigan bo'lidi.

„Qilgan ishlariyam, fe'l-atvoriyam xuddi otasining o'zi-ya! Yo tavba!“ — deb yoqa ushlashadi ba'zi kattalar. Otasining qanaqaligini biz qayoqdan bilamiz? O'zi ingichkadan kelgan, ko'z-lari ich-ichiga kirib ketgan, rangi zahil, shopmo'ylov bir odam. Mo'yloving uchlari naq qo'chqor shoxidek qayrilib, qulqlariga tegay-tegay deb turadi, jazirama saraton bo'lsa ham boshidan qorako'l telpagini, egnidan qora drapdan ko'krak cho'ntakli qilib tiktingan kitelini, galife shimini tashlamaydi. Biz bolalar uchun u xo'jaligimizning hisobchisi, xolos. Boshqasini bilmaymiz...

...Sigirlarni olib kirib og'ilxonaga bog'ladim. Oyim ularni birpasda sog'ib, qo'shninikiga tegishik'ka berib kirdi. So'ng sandal atrofida ovqat ichib o'tirganimizda:

- Indinga chalovga chiqar ekansanlar, bobongning oldiga tushib chiqmaysanmi? — deb qoldilar oyim.
- Sariyog' bilan suzma to'planib qoldi. Ko'ylaklik mato olib

¹ Sut almashish: bir kun bu qo'shni u qo'shninikiga olib chiqib beradi, ertasiga u qo'shni bu qo'shninikiga. Shunday qilinganda sut, qatiq, yog', suzma barakaliroq bo'ladi.

qo'ydim, deyayotganday bo'luvdilar. Hademay sentabr kelib qoladi. Singlingga ko'ylak tikib berishim kerak. Bir yumushga tushib ketganingdan keyin bu ishlarga qo'ling tegmay qoladi, bolam.

- Mayli, — dedim kosamning tagini yalayotib. — Bir o'zimmi?
- A'zam o'rtog'ing tushmasmikin?
- Bilmadim.
- So'rab boq.

Sekin A'zamlarnikiga chiqsam, Po'lat amakim fonus ko'tarib, hovlida yurgan ekanlar.

- Assalomu alaykum, amaki, A'zam uydami?
- Vaalaykum... Ha, Ergashvoy, senmisan!? Kir, kiraver. O'rtog'ing uyda.

Kirsam A'zam xontaxta ustiga muk tushib olib, yettinchi chiroqning xira yorug'ida qirt-qirt qilib xat yozib o'tirgan ekan. Mening kirib kelganimni payqamadi ham. Ahyon-ahyonda qalamining ketini tishlab, nimalarnidir o'ylab qoladi, keyin burnini shilq etkizib tortadi. Bir mahal menga ko'zi tushib qoldi-da:

- Iye, senmisan? Hechqursa yo'talib ham qo'ymaysan-a... Qo'rqtib yubording-ku, — dedi yozishda davom etib.
- Nima qilyapsan?
- Sobit akamga xat yozyapman. Mana, kecha xat keldi, — dedi u sal maqtanib. Qo'lida uchburchak qilib buklangan xat turardi:
- Ergashvoyga, kelin oyimlarga salom de, depti.

— Salomat bo'lishin. — Men shunday dedim-u, indamay turib qoldim. Bu gap topolmaganidan emas, yo'q. Shu kunlarda dadamdan xat kelmay turgan edi. Men A'zamga havasim kelib indamay qolgandim. So'ng muddaoga ko'chdim: — Ertaga bir shaharga tushib chiqmaymizmi? Oyim yog', suzma yig'ilib qoldi, deyaptilar. Sizlarniki ham to'planib qolgandir.

- Dadamlardan so'rab ko'ray-chi?
- Asta o'rnimdan turdim. U ham turdi.
- Bo'lmasa dadangdan so'rab boq. Xo'p desalar birga tushib chiqamiz.
- Mayli. Qaytanga xatni ham shaharga olib borib, vokzalagi pochta qutisiga tashlaymiz. Tezroq boradi.

...Ertalab A'zam ikkalamiz ikki eshakda shaharga jo'nadik. To'g'ri bobomlarnikiga bordik-da, eshaklarimizni hovliga bog'lab, olib kelgan suzma va sariyog'larimizni uyg'a qo'yib, vokzalga chiqdik. Vokzalning ro'parasida kichikkina bozorcha ham bor. Bu bozorchadagilar ayniqsa poyezd kelishi oldidan harakatga tushib

qolishadi. Kirlanib rangi bilinmay ketgan uzun-uzun peshtaxtalar ortida egni-boshidan yog' hidi anqib turgan semiz-semiz xotinlar chigit yog'iga pishirilgan somsalar, baliqlar, yaxna g'oz go'shlari, mol tuyoqlari, pishirilgan tuxumlarni sotib o'tirishibdi. Bir qozoq kampir ayron shopiradi... Ishtahani qitiqlovchi xushbo'y hid rastalarni tutib ketgan. Bizlar tupugimizni qult-qult yutib, bir-birimizga qaraymiz. Bir oyog'ini oq doka bilan qalin qilib bog'lab, qo'lтиqtayoqqa osilib olgan, egnida gimnastyorka-yu, boshidagi pilotkasi bir tomonga xiyol qiyshayib turgan askar yigit qo'lidagi narsasini odamlarga ko'z-ko'z qilib baqiradi:

— Maxorka, maxorka! Pervoy sort! Oling...

Latta-putta bozoriga o'tgandik, bizning qishloqdan kelganimizni sezishdi shekilli, atrofimizni o'rab olishdi:

— Mana, galife shim...

— Mana, soldatcha etik. Ol, armonda qolasan.

— Xanjar nemetskiy... Yaltillaydi. Ol!

— Lampa-shisha... Ola qol, arzon beraman. O'ttiz so'm...

— Mana buni bir ko'rgin-chi, shivyon, xuddi o'zingga o'lchab tikkanday, — deb bir chaqqon yigit A'zamning yelkasiga qo'lida ko'tarib yurgan, urinib qolgan qora kostumni yopdi. Kostum uning egnida halpillab turar edi: — Ol, arzon beraman. A, labbay? E, puling yo'qmi? Mayli, yo'q bo'lsa, sariyog'mi, bug'doymi, almashtiraveramiz...

Olomon orasidan zo'rg'a sirg'alib chetga chiqsak, munkillab qolgan bir kampir nimadir deganday bo'ldi. Qarashlari iltijoli, ayanchli edi. Yoniga borgandik, ko'ylagining keng yengidan bir qog'oz chiqardi-yu, ehtiyyotdan bo'lsa kerak, tevarak-atrofga alanglab, sekin shivirladi:

— Zabornoy kerak emasmi, bolalarim?

Bosh chayqab o'tib ketdik. Ikkalamizda ham sas-sado yo'q, miq etmay kelyapmiz. Qancha yurdik bilmayman, bir mahal A'zam „iy“ deb qoldi.

— Nima bo'ldi?

— Sal bo'lmasa xatni tashlash yodimdan ko'tarilayozibdi.

— Ha-ya. Yur, men ham kecha dadamga xat yozib cho'ntagimga solib oluvdim.

Darhol orqamizga qaytdik. Avvalgi kelganlarimizda bir necha marta ko'rghanmiz. Shundoqqina perronda, „Restoran“ deb yozib qo'yilgan joyda kattagina pochta qutisi bor. Hamma xatni shu yerga olib kelib tashlaydi. Kim biladi deysiz? Poyezd shundoqqina

yonginasida bo'lgandan so'ng tezroq olib ketadi, deb o'ylashsa kerakda. Balki shundaydir. Kim biladi tag'in? Biz ham xatlarimizni o'sha qutichaga tashlab, ortimizga qaytdik. Miq etmay, poyezd yo'li bo'ylab ketib boryapmiz. Yo'l bo'yida chelak ko'tarib, ko'mir terib yurgan bolalar: „Eshelon kelyapti, eshelon kelyapti! — deb baqirishib, chetga chiqishdi. Shu mahal uzoqdan parovozning horg'in tovushi eshitildi! Sal o'tmay stansiyaga kiraverishdag'i semafor ko'tarildi. A'zam ikkalamiz ham bir chekkaga chiqib, poyezdnинг kelishini kuta boshladik. Sal o'tmay parovoz „oh-uh“ qilib, stansiyaga kirib keldi. Ko'z uzmay qarab turibmiz: qizil vagonlarda birining qo'li, birining oyog'i shikastlangan, boshqa biri qo'litiqtayoqqa suyangan soldatlar... Ba'zilari tikka turishibdi, ba'zilari o'tirishibdi. Boshini oq doka bilan tang'ib, ustidan chuchvara qalpog'ini bostirib kiyib olgan bir soldatning garmoshkasi avjida...

Vagonlar shaqir-shuqur qildi-yu, o'tdi-ketdi. Shundoqqina ko'rinih turibdi: poyezd vokzalga borib to'xtagach, bozordagi haligi ayollar oldilarida olib o'tirgan narsalarini ko'targancha soldatlar tomon yopirilishdi...



Xudoyberdi To'xtaboyev

(1932 - yilda tug'ilgan)



X. To'xtaboyev bolalar uchun sarguzasht asarlar yozuvchi adiblardan biri hisoblanadi. Uning ijodi XX asrning 50- yillardidan boshlangan. Uning birinchi kitobi „Shoshqaloq“ nomi bilan 1962- yilda chop etilgan.

X. To'xtaboyev juda sermahsul ijodkorlardan biri hisoblanadi. Adibning „Sariq devni minib“, „Sir ochildi“, „Aka-uka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganlari haqida jajji qissa“, „Besh bolali yigitcha“, „Qasoskorning oltin boshi“, „Yillar va yo'llar“, „Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrgarlar jangi“, „Mungli ko'zlar“, „Jannati odamlar“ kabi kitoblari bolalarda katta qiziqish uyg'otmoqda.

SARIQ DEVNI MINIB

(romandan parcha)

I K K I N C H B O B

Jarangla, qo'ng'irog'im!

Ertaga o'qish boshlanadi, degan kuni kechasi, rostini aytib qo'ya qolay, u xlabel olmadim. Har xil shirin xayollar surib, bir mahal xlabel qolibman-u, xayolimning bir tomoni sekingga tushga ulanib ketganini o'zim ham payqamay qolibman. Bir vaqt bunday qarasam, Otajon Azizovich jamiki o'quvchilarni to'plab, menga maqtov qog'ozni topshirmoqchi bo'layotgan emishlar-u, men xomkalla bo'lsam, uni olmayman deb, qochib yurgan emishman. Nihoyat, meni ushlab qo'limga maqtov qog'ozini zo'r lab berishdi. Qarsak demagani, hamma yoqni qoplab ketdi. O'zim ham qo'shib qarsak chalib yuboribman deng.

— Hoshim, tek yotasanmi, yo‘qmi! — deb buvijonim sekingina biqinimga turtib qo‘ydi.

— Maqtov qog‘ozim qani? — so‘radim uyqusirab.

— Qanaqa maqtov qog‘oz?

— Hozir qo‘limda turuvdi-ku?

— Uyqusirama. O‘ng tomoningni bosib yot.

O‘ng tomonimni bosib yotgan edim, chindan ham dong qotib uqlab qolibman. Qattiq zang ovozidan uyg‘onib ketdim. Maktabimizning hovlisidagi qari tutning shoxiga katta temir osib qo‘yishgan edi. Kimdir ana o‘sani jaranglatib uryapti. Xiyol o‘tmay gorn ham chala boshlashdi, yana xiyol o‘tmay yoniga childirma ovozi qo‘shilib ketdi.

— Salom, mакtab, salom, sentabr! — dedim-da, sakrab o‘rimdan turdim. Nonushta ham qilmay papkani qo‘ltiqqa olib, o‘zimni ko‘chaga urmoqchi bo‘lgan edim, buvijonim:

— Singillaring bilan ketasan! — deb yo‘limni to‘sdi.

Bunday qarasam... Obbo, sochlariга lentalar taqib, oppoqqina ko‘ylaklarini kiyib, bir dasta gulni bag‘riga bosib bir chekkada Donoxon turibdilar!

— Xohladimga boryaptilarmi! — deb sekingina biqinidan chimdib qo‘ydim.

Nariroqda Oyshaxon ham yasan-tusanni joyiga qo‘yib, tay-yorgarlik ko‘ryaptilar.

— Qani, mакtab tomon shagom-arsh! — dedim-da, ikkovini oldimga solib ko‘chaga chiqdim.

Hay-hay, bugun ko‘chada chindan ham bayram bo‘lyapti, hamma yasangan-tusangan, qo‘llarida gul, lablarida kulgi, maktabga shoshishyapti. Maktab tomonda hamon gorn yangraydi, childirma gumburlaydi:

— *Gumbura gum,*

Gumbura gum.

Chal tezroq!

Mulla Hoshim

Maktab borar.

A’lo o‘qish

Niyati, niyati.

Algebra,

Rus tili,

Hammasi ham

Besh bo‘lar,

*Besh bo'lar.
Chal tezroq,
Chal tezroq,
Gumbura gum,
Gumbura gum!..*

Maktab hovlisiga o'yinga tushib, muqomlar qilib kirib bordim. Childirmani Sulton yig'loqi chalayotgan ekan. Sharutta qo'lidan oldim-da, yengni shimarib, barmoqlarimni ho'llab, childirma chalish mana bunaqa bo'ladi deb savalab ketdim.

*Taka tum-tum, tum, taka-tum,
Har yonlarni kezib yurdim.
Yaxshi-yomon barin ko'rdim,
A'lo o'qiyman deb keldim.*

Ana shunaqangi gaplarni xayolimdan o'tkazib, childirmani zavq bilan urayotgan edim, kimdir orqamdan kelib bilagimdan mahkam qisdi. Qarasam, Vohid Soliyevich ekan:

- Barakalla, childirmani yaxshi chalar ekansiz!
- Boplab tashlaymiz-da, domlajon!
- Chalavering, qattiqroq chaling! — deb Vohid Soliyevich yana qayoqqadir ketdi. Aksiga yurib xuddi shu paytda qo'llarim charchab qolgan edi. Childirmani yonginamda ko'zini mo'ltilatib turgan Sulton yig'loqiga uzatdim-da, do'stlarim bilan quchoqlashib ko'rshib ketdim. Maktab hovlisiga birin-ketin yettinchi sinfga bir amallab ko'chib olgan Zokirvoy, kutubxona tashkil qildim deb kerilib yurgan Orifboy, mendan qo'rqqanidan doim oxirgi soatdan qochib ketadigan Hakimjon, Mirobiddinxo'jalar kirib kela boshlashdi. Bolalar to'p-to'p bo'lib gaplashishar, oromgohlarda, sayohatlarda ko'rgan-bilganlarini bir-biriga so'zlab, maqtanishar, kulishar edi. Ikrom kemaga tushib, daryoda suzibdi, Shoolim dadasi bilan cho'lida qovun ekishgan ekan, bitta qovunni so'yishsa, ichidan tarvuzning urug'i chiqib kelibdi.
- Yolg'on! — dedi Zokir ishonmay.
- Bas boylashaman, — dedi Shoolim gapiga hech kim ishonmaganiga yig'lagudek bo'lib.

Bu yil biz bilan o'qiydigan Shohida mening oyim ishlaydigan fermada buzoq boqqan ekan, ferma mudiri: „O'ninchini bitirsang, seni sigir sog'uvchi qilib olaman, rasmingni gazetada chiqartiraman“, — deb va'da beribdi.

Xuddi shu paytda turnikka chiqa olmaydigan jismoniy tarbiya o'qituvchimiz Odiljon aka baland ovoz bilan, hamma bo'y-bo'y bilan, sinf-sinfi bilan safga tizilsin, deb buyruq berib qoldi. Bir-birimizni itarishib, turtishib, endigina safga tizilib bo'lgan edikki, ichkaridan mening jonajon muallimlarim — Vohid Soliyevich, algebra o'qituvchisi Qobilov, qadrdon direktorimiz Otajon Azizovichlar birin-ketin chiqib kelishdi. Otajon Azizovich meni ko'rsin deb, oyog'imning uchida turib shuncha bo'ynimni cho'zaman, qani endi men tomonga bir qiyo boqsa!

Direktorimiz o'quv yili boshlangani bilan bizni tabriklab, hammamiz a'lo o'qishda, a'lo xulqli bo'lishda bir-birimizga namuna bo'lishimiz kerakligi to'g'risida roppa-rosa 21 minut gapirgandan keyin o'qimagan kishi u dunyo-yu bu dunyo odam bo'lmaydi degan mazmunda ham yetti minutcha gapirib, oxirida:

- To'g'rimi, Hoshim? — deb so'rab qo'ydi mendan.
- Juda to'g'ri, — dedim men ham shoshib-pishib.
- A'lo o'qish bu senga childirma chalish emas! — dedi bir chekkada turgan Qobilov domla.
- Bu yil algebrani ham childirma qilib chalib yuboraman, domlajon, — dedim men ham gapdan qolmay.

Majlis tugab qiy-chuv, to'polon bilan sinf rahbarlarimiz boshchiligidagi o'z sinfimizga qarab yo'l oldik. Mirobiddinxo'ja bilan kelishib, deraza oldidagi partani tanladik. Nega desangiz bu yerdan ko'chadan o'tgan-ketganlarni bemalol ko'rib o'tirsa bo'ladi.

Xuddi shu paytda sinfning eshigi ovozsiz ochilib, ostonada Akromning bu yil birinchi sinfga kelgan singlisi Hojar ko'rindi.

— Aka, mening familiyam nima bo'ladi? — deb so'radi u qu'rqa-pisa. Bolalar yana kulmoqchi bo'lib chog'lanishdi-yu, ammo muallimning haligi qarashi eslariga tushib ketdi shekilli, hech birlari botina olmadi.

- Familiyang Abbosova bo'ladi, — tushuntirdi Akrom singlisiga.
- Shundan so'ng muallim yo'qlama bo'yicha o'quvchilar bilan birma-bir tanisha boshladi. Oxirida o'zini ham tanitdi:
 - Meni Vohid Soliyevich, deb chaqirasizlar!
 - Xo'p bo'ladi, domla, — dedi Mirobiddinxo'ja.
 - Domla degan so'z, bugundan e'tiboran ishlatsilmasin! — ta'kidladi Vohid Soliyevich, — kimki meni domla deb chaqirsa, javob bermayman. Qani, sinfboshi qilib kimni saylaymiz

Bo'yim novcharoq bo'lgani uchun omadim kelib meni saylab yuborisharmikan, degan yashirin bir umidda negadir o'zimdan-

o'zim ham xursand bo'lib, ham uyalib, qizarib-bo'zarib o'tirib-man. Bordi-yu, saylaymiz deyishsa shoshib qolib yo'q deb qo'ymay deb, o'zimni hushyor tutishga tirishib turgan edim:

— Hamroqulning o'zi bo'la qolsin! — deb qoldi kimdir orqadan. Shundan keyin butun sinf:

— Hamroqul bo'lsin!

— O'zi a'lo o'qiydi.

— Intizomi ham yaxshi, deb har tomondan chuvullab yubordi. Bolalar chuvullahgan sari men o'zimdan-o'zim battar uyalib, bo'ynimni ichimga tortaman deng.

— Tozalik komissiyasiga raislikka kimni ko'rsatamiz? — so'radi Vohid Soliyevich. Hamma jim. Nazarimda kimni saylasak ekan, deb har biri o'zicha o'ylayotganga o'xshaydi. Sharutta o'rnimdan turdim:

— Mirobiddinxo'jani saylarmiz. Qaranglar, bo'yni ham oppoq, kiyimlari ham yuvilgan, dazmollangan. Oyisi dazmol bosishni bilmaydi, o'zi dazmollagan. To'g'rimi? Undan keyin bitta-yarim-talarining tugmalaring uzilib ketsa, darrov qadab ham beraveradi, do'ppisining ichiga doim igna qadab yuradi, to'g'rimi? — Shunday deb do'stginamning do'ppisini olib, ich tomonini o'quvchilarga ko'rsatgan edim, chindan ham kizagida ikkita ko'rpa qaviyidigan igna turgan ekan — bolalar kulib yuborishdi. Hazil-hazil bilan Mirobiddinxo'ja tozalik komissiyasiga rais bo'lib ko'tarildi.

Ana shundan keyin sinf rahbarimiz o'quvchilar bir-birlari bilan musobaqalashib o'qishlari kerak, a'lochi o'quvchilar qoloq o'quvchilarni musobaqaqaga chaqirsin, bir-biriga qo'lidan kelgancha ko'maklashsin deb qoldi. Hamroqul birinchi bo'lib Akromni musobaqaqaga chaqirdi. O'qituvchi:

— Ko'ndingmi? — deb so'ragan edi, Akrom o'rnidan turib, kafti bilan og'zini bekitdi-da:

— Im... — deb qo'ydi.

— Xo'pmi, yo'qmi? — yana so'radi muallim.

— Imm, — dedi yana Akrom. Xuddi shu paytda uning ko'zlari olayib, lablari qiyshayib ketdi. Hammamiz qo'rqib ketdik. Yonida o'tirgan bola:

— Vohid Soliyevich, tomoq'iga non tiqilib qoldi, — dedi shoshilib. Keyin zarb bilan yelkasiga bir musht tushirgan edi, yo'q, do'stimning tomoqqinasiga qurib ketmagur kolbasa tiqilib qolgan ekan, og'zidan bir parcha go'sht uchib chiqdi. Hamma kulib yubordi. Bu gal Vohid Soliyevich ham o'zini tutib tura olmadidi.

Halidan buyon jiddiy turganini ko'rib, rosa siqib suvimizni ichadigan sinf rahbariga uchrab qoldik shekilli deb hammamiz ham qo'rqib, yuragimizni hovuchlab turgan edik. Kulganini ko'rib, o'zimizni sal erkinroq tuta boshladik.

— Men u bilan musobaqa o'ynamayman, — dedi Akrom sinfda g'ovur bosilgach.

— Nega o'ynamaysan?

— O'tgan yili varragimni olib, pulini bermagan.

— Hecham-da, — o'rnidan turib ketdi Hamroqul, — men senga uning o'rniga avtoruchka bergen edim-ku!

— Avtoruchkang yozmas ekan, varragimni to'lab qo'y.

Vohid Soliyevich shartta o'rnidan turib:

— Uyat emasmi! — dedi-da, ikkovini ham o'rniga o'tqazib qo'ydi. Keyin musobaqa o'ynagan boshqa bolalarning familiyasini daftariga yoza boshladi. Bir mahal navbat menga ham yetib qoldi-ku.

— Ro'ziyevni kim musobaqaga chaqiradi? — so'radi muallim. Hozir bolalar meni talashib qolishsa kerak, deb o'yladim-u, o'zimdan-o'zim xursand bo'lib ketdim. Ammo bir minut, ikki minut... mana o'n minut o'tdi ham-ki, hech kimdan sado chiqmaydi. Shunaqangi o'sal bo'ldimki, asti qo'yaverasiz. O'tirishimni ham, tikka turishimni ham bilmay, nuqlul barmoqlarimni g'ijimlayman, deng.

— Nahotki, Ro'ziyevga hech kim do'stlarcha yordam berishni istamasa, — hayron bo'ldi muallim. Shundan keyin ham bittasi g'ing demasa-ya, qizarib-bo'zarib endi o'rninga o'tirayotgan edim:

— Men musobaqaga chaqiraman! — deb qoldi oldingi partada o'tirgan Saddinisa. Avvaliga, o'lay agar butunlay ishonmadim, meni mazax qilyapti deb o'yladim. Nega desangiz, anovi Saddinisa boshiga o't qo'yib daladan qaytayotganida ariqning ichiga berkinib olib, it bo'lib vovillab, panalab orqasidan quvib rosa o'takasini yorgan edim. O'sha kuni Saddinisa dadangga aytib bir kaltaklatmasammi, degan edi. Esidan chiqib ketdi shekilli, dadamga aytib kaltaklatmadi. Kaltaklatish o'rniga, bugun, hech kim meni mensimay, odam qatoriga qo'shmay turgan bir paytda xijolatdan qutqarib jonimga oro kirib o'tirsa-ya, bunisi necha puldan tushdi endi, Mullahoshim!

— Hazillashayotganing yo'qmi? — so'radim qo'rqa-pisa.

— Rost aytayapman, — menga emas, muallimga qarab dedi Saddinisa.

Sal vaqt o'tmasdan qo'ng'iroq chalinib darslar ham boshlanib ketdi. Dars boshlangandan keyin, o'zingiz ham bilasizki, o'qituvchilar ishni darrov savol-javobdan boshlashadi. O'sha kuni to'rtta fan kirdi. Lekin to'rtovida ham yangi dars o'tilmay, nuqlu o'tganlarni qaytarishdi, javob bermagan bola qolmadi. Men kamtarlik qilib derazadan o'tgan-ketganlarni tomosha qilib, jimgina o'tiraverdim. Nega desangiz o'tgan yili safarda bo'lganim uchun hammasi esimdan chiqib ketgan ekan. Geografiya muallimimiz menga ko'zi tushishi bilan:

— Iye, Hoshim, sen ham shu yerdamisan? — deb negadir kulimsirab qo'ydi.

Xullas, oltinchi „B“ sinfida men yana o'qishlarimni boshlab yubordim. Darsdan qaytayotganimizda Saddinisa yonimga kelib:

— Hoshim aka, darsni biznikida tayyorlaymizmi yoki sizlarnikiga boramizmi? — deb so'radi.

Bugun men yangi-yangi do'stlar orttirganim, hech qaysi fandan ikki olmaganim, biron ta ham o'qituvchimdan dakki eshitmaganim uchun o'zimda yo'q xursand edim. Shuning uchun ham:

— Yo'q, darsni ertaga tayyorlaymiz, — deb qo'ya qoldim.

— O'zingiz bilasiz. Lekin oyingiz anovi kuni biznikiga borib, oyim bilan gaplashib o'tirganlarida yig'ladilar...

— Nima deb yig'ladil?

— Hoshim meni kuydirgani-kuydirgan deb yig'ladilar.

— Hechqisi yo'q, hozir borib bir kuldiraman, hammasi esidan chiqib ketadi, — dedim-da, tezroq yurib ilgarilab ketdim. Meni Akrom kutib turgan edi-da.





Farhod Musajon

(1933- yilda tug'ilgan)



Farhod Musajonning bolalarga bag'ishlangan hikoya, qissa va pyesalari 1958- yildan e'tiboran chop etila boshlangan. Yozuvchining „Daradagi qishloqda“ (1960), „Turdi, velosiped, qizil bog'ich va men“, „Oftobni quvlab“ (1970), „Chin do'stlik“ (1976), „Chevar qiz“ (1982), „Buloq suvi“ (1982), „Turdi, velosiped va men“ (1983), „Tekin tomosha“ (1989) kabi kitoblarining maydonga kelishi bolalar uchun katta bayram bo'ldi.

Farhod Musajon hamma bolalar uchun yozadi. Uning kitoblari orasida maktabgacha tarbiya yoshidagi, kichik mактаб yoshidagi, o'rta va katta maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan asarlarni ham uchratish mumkin.

Farhod Musajon kattalarga bag'ishlab ham asarlar yozib keladi. Dramaturgning „Xayolparastlar“, „Oq kabutar“, „Xizmatingizga hozirmiz“, „Shaharlik olifta“, „O'g'limni qaytarib bering“ kabi katta-kichikka bag'ishlangan pyesalari respublika teatrлarida qayta-qayta qo'yilib keladi.

ENDI HECH KIM ZERIKMAYDI

(Hikoya)

Marhamatning o'yinchoqlari juda ko'p: Tulkivoy bilan Bo'rivoy, Xo'rozcha va Quyoncha, Bo'taloq bilan Toychoq, Arslon va Ayiqpolvon.

Marhamat o'yinchoqlarini bir uy qilib yasatib qo'ygan.

Shanbada Marhamatning tug'ilgan kuni bo'ldi. Uyiga bog'chasidan, mahallasidan o'rtoqlari kelishdi. Katta mehmonxona bolalarga to'ldi.

Rosa maza bo'ldi. Marhamatning onasi har xil shirinliklar pishirgan ekan, hammani mehmon qildi.

Innaykeyin o'yin-kulgi boshlandi. Marhamatning bog'cha o'rtog'i Sayyora qo'shiqqa juda usta edi, tortinchoqlik qilib o'tirmasdan rosa ashulani oldi. Bolalar unga qo'shilishib aytishdi. O'yinni ayniqsa Po'latjon bopladi.

Shundan keyin Marhamat o'rtoqlarini o'z xonasiga olib kirdi. Bolalar o'yinchoqlarni ko'rib, qarsak chalib yuborishdi.

— Vuy, o'yinchoqlarning ko'pligini, — dedi Sayyora.

— Mana bu Toychoqning chiroyliligini, xuddi hozir yugurib ketadiganday gijinglab turibdi! — dedi Po'latjon.

U Toychoqni yolidan silamoqchi bo'lib qo'lini cho'zdi.

— Yo'q, tegish mumkin emas, — tergash ohangida gapirdi Marhamat, — sindirib qo'ysan.

— Sindirmayman, yolidan silab qo'ymoqchiman, — dedi Po'latjon, — xo'p deya qol.

— Tegma dedim-ku! — yer depsindi Marhamat.

— Quyonchani o'ynashga berib tur, — dedi Gulmira.

— Yo'q, men bularni ataydan yasatib qo'yanman, qancha ko'rsanglar ko'raveringlar, tegmasalaring bo'ldi, — dedi Marhamat.

Bolalar birpas o'yinchoqlarni tomosha qilib turishdi, keyin yana mehmonxonaga qaytishdi.

Biroz o'tirib mehmonlar uy-uylariga tarqadi. Marhamat ancha charchagan ekan, uxlagini yotdi. Hademay shirin uyquga ketdi.

Eng qizig'i keyin bo'ldi. Yarim kecha edi. Hamma o'yinchoqlar hamon o'z joylarida ko'rgazmaga qo'yilgandek qotib turi-shardi. To'satdan Ayiqpolvon bir kerishdi-da, yo'g'on ovozda do'rillab gapirdi:

— E, zerikib ketdim, hech kim biz bilan o'ynamaydi.

— Men ham zerikib ketdim! — qichqirdi Xo'rozcha bo'ynini cho'zib.

— Qachon qarasa bitta joyda turganimiz-turgan, — kishnab yubordi Toychoq, — biz zerikmay kim zeriksin?!

— Meni ham bolalar bilan o'ynagim kelyapti, — dedi Quyoncha yig'lamsirab.

— Og'aynilar, menda bitta taklif bor, — dedi ayyor Tulkivoy, — kelinglar, yana o'yinchoq do'koniga qochib ketamiz. U yerda bizni boshqa bolalar sotib olib uyiga opketadi. Keyin maza qilib o'ynaymiz.

Bu taklif hammaga ma'qul tushdi. Ayiqpolvon lapanglab yo'il boshladi, qolgan o'yinchoqlar uning ketidan ergashdi.

Marhamat ertalab uyg'onib ko'zini ochsa xonasi bo'm-bo'sh. Xo'rligi kelib yig'lab yubordi. Shunda bir burchakda o'tirgan Bo'taloq (uni Marhamat yaqinda olib kelgan, shuning uchun Bo'taloq hali zerikib ulgurmagan edi) Marhamatni ovutdi.

— Yig'lama, Marhamat. Men o'yinchoqlarni qayoqqa qochib ketganini bilaman, yur, oboray, — dedi.

— Koshkiydi oborsang, — sevinib ketdi Marhamat.

Bo'taloq Marhamatni do'konga boshlab bordi.

Marhamat qarasa, hamma o'yinchoqlari o'sha yerda ekan.

— Yuringlar, uyga, — dedi Bo'taloq, — Marhamat endi sizlarni zeriktirib qo'ymas ekan.

— To'g'ri, zeriktirib qo'ymayman, — dedi Marhamat, — kim so'rasha beraman, bolalar bilan to'yguncha o'ynaysiz.

O'yinchoqlar Marhamatning chin yurakdan gapirayotganini ko'rib rozi bo'lishdi. Hammalari yo'lga tushishdi. Ko'chada — Marhamatlarning uyi oldida ularni Sayyora, Gulmira, Po'latjon va boshqa bolalar kutib olishdi.

Marhamat o'yinchoqlarni o'rtoqlariga bo'lishib berdi.

— Olinglar, hammamiz birga o'ynaymiz, — dedi Marhamat, — endi hech kim zerikmaydi.

Bu gapni eshitib bolalar ham, o'yinchoqlar ham sevinchlaridan qarsak chalib yuborishdi.

Turdi, velosiped va men

Ko'zimni ochsam, tepamda buvim turibdilar. Qattiq uxbol qolgan ekanman, g'ijinib qo'ydim.

— Nega uyg'otasiz? Nima, endi sizning dastingizdan dam olish kuni ham uxbol bo'lmaydimi?!

— Kallayi saharlab uyg'otgani o'zimning ham ko'zim qiyaydi, — dedilar buvim, — nima qilay, anavi bezbet o'rtog'ing kelgan edi. Yarim soatdan oshdi, eshikning tagida turibdi tirjayib. G'iyosjon hali uxbol yotibdi, desam ham ketmaydi.

Buvim „bezbet“ deb Turdini aytadilar. Bilmaganlar, buvimni jahldor kampir ekan, deb o'ylashi mumkin, lekin aslida buvimlar bolalarni juda yaxshi ko'radilar. Gohida bir to'da bo'lib hovlida to'polon boshlasak, hassalarini do'qillatib quvib beradilar, bolalar tumtaraqay bo'lib qochib qolishadi. Buvim ularning orqasidan kulib qo'yadilar. Mahalladagi hamma bolalar buvimdan qo'rqishadi. Faqat bitta Turdi buvimning po'pisalarini pisand qilmay, tirjayib turaveradi. Shuning uchun buvim uni, yarim hazil-yarim chin, „bezbet“ deydi.

Turdi kelganini eshitib, sakrab turdim-u, hovliga chiqdim. Uning odati shunaqa, ginaxonlikni bilmaydi. Bugun mushtlashsa, ertaga hech narsa bo'limgandek gaplashib ketaveradi.

— Nima bo'ldi, bunaqa vaqtli turadigan odating yo'q edi-ku! so'radim undan.

— Yur, velosiped uchamiz, — dedi Turdi tomdan tarasha tushgandek.

— Velosiped bo'lsa jon-jon deb uchardim.

— Topamiz.

— Qayerdan?

— Esingdami, uzog' yili mening bitta velosipedim bor edi, o'sha sal buzilib qolgan. Tuzatib minamiz.

— Bo'pti! — suyunib ketdim.

Yugurganimizcha Turdilarnikiga bordik. U meni o'tinxonaga boshlab kirdi. Nomi o'tinxona bo'lgani bilan ichiga kirsa odam yo'qolar ekan. O'tin ham, ko'mir ham, eski-tuski stol-stullar, simkaravot, tog'oralar, tagi tushgan chelaklar hammasi shu yerda.

— Qani velosipeding? — so'radim Turdidan.

— Hozir topamiz, — dedi Turdi, — shu yerda bo'lishi kerak.

Shunday dedi-yu, emaklab qaqr-ququrlarning ichiga sho'ng'ib ketdi. Men ham velosipedni axtarib, engashganimcha stolning tagiga kirdim. Stolning tagidan o'tib, beshikka duch keldim. Yerga yotib uning ham tagidan o'tmoqchi bo'lib boshimni suqqan edim, peshanam bir narsaga to'q etib ketdi. Bunday qarasam, tuvak ekan.

— Turdi, kichkinaligingda beshikda yotganmisan? — deb so'radim.

O'tinxonaning narigi burchagidan Turdining ovozi eshitildi.

— Yo'q, adamlar o'sha beshikda yotgan ekanlar, buvim ataylab olib qo'yanlar esdalik uchun.

Yana qidirishga tushib ketdik. Qulog'imga Turdining pishillashi eshitildi, xolos. Bir mahal taqira-tuqur qilib bir narsa ag'darilib tushdi-ku! O'rnimdan turib qarasam, kir yuvadigan eski jomashovning tagidan tirjayib Turdi chiqib kelyapti.

— Bitta g'ildiragini topdim, — dedi u sevinib.

Ko'p o'tmay men velosipedning ikkinchi g'ildiragini topdim. Yana ozgina qidirgan edik, saksovulning tagidan ramasi ham chiqib goldi.

— Sal buzilgan degan shumi? Dabdalasi chiqib yotibdi-ku! — dedim Turdiga. — Buni tuzatish uchun kamida bir hafta

kerak. Ta'tilda qayerda eding. Yur, undan ko'ra, futbol o'ynagani boramiz. Dam olish kuni bekor o'tmasin.

— G'ildiraklarini qo'ysak, bo'ldi, tuzaladi-qoladi, — Turdi to'la ishonch bilan gapirardi.

Kun bo'yi ovora bo'lib kechga yaqin velosi pedning ikkala g'ildiragini o'rnatdik. Turdi uchib ko'rmoqchi bo'lib mingan edi, besh qadamcha yurmasdan oldingi g'ildiragi chiqib ketib o'mbaloq oshib tushdi. Aytuvdim-a, murvatlarining tishi yeyilib ketgan, yangisini sotib olish kerak deb, ishonmovdi. Mana, oqibati nima bo'ldi.

O'lgedek charchab uyga qaytdim. Dars tayyorlashga ham hafsalam kelmadni. Televizor tomosha qilmoqchi bo'ldim. Qarasam, yana sevgi haqida kino ko'rsatishayotgan ekan. Undan ko'ra kirib uyquni urgan yaxshi dedim-da, sekin xonamga kirib ketdim.

Ertasiga ertalab nonushta qilib o'tirganimda Turdi mактабга chaqirib kelib qoldi. Apir-shapir choyimni ichdim-u, portfelimni qo'ltiqlab ko'chaga yugurdim. Turdi meni ko'rishi bilan so'radi:

— Uy vazifasini qildingmi?

— Yo'q, — javob berdim men, — qachon qilaman, o'zing bilan birga bo'ldim-u.

— Men ham qilmadim, — dedi Turdi iljayib.

Shundan keyin ikkalamiz jim bo'lib qoldik. Anchagacha miq etmay bordik.

— Bittadan „2“ oladigan bo'ldik, — dedi Turdi.

Men „to'g'ri“ degandek, bosh silkib qo'ydim. Turdining aytgani keldi. O'qituvchi ikkalamizning ham kundaligimizga bittadan „2“ qo'ndirdi.

— Xol qo'ydi-a!? — dedi pichirlab Turdi dars paytida.

Ensam qotib, Turdiga javob ham bermadim. Alam qiladi-da, odamga! Doim dars tayyorlab kelsang-u, bir marta uy ishini qilmay qolsang, darrov „2“ qo'yish kerakmi? Alamimizni nimadan olishni bilmay, Turdi ikkalamiz jo'rttaga to'polon qila boshladik. Hali oldimizdag'i partada o'tirgan Saidaning sochidan tortamiz, hali orqadagilarga qarab basharamizni burishtirib maynavozchilik qilamiz, ataylabdan shang'llab gaplashamiz. Bu ham yetmagandek, o'zimizdan o'zimiz qiqir-qiqir kulamiz.

— G'iyos, juda bugun kayfing chog'mi? Yoki „2“ olgan ningga shunchalik suyunib ketyapsanmi? — so'radi o'qituvchimiz Xatira opa.

— Nima bo'pti, bitta „2“ olgan bo'lsam, — dedim qo'rslik bilan, — yig'laydi deb o'ylaganmidingiz?

— Bilmadim, yig'lash kerakmi, yo'qmi, ammo yolg'onidakam kulish senga sirayam yarashmas ekan, — dedi Xatira opa.

Nima deyishimni bilmay qoldim. To'g'ri-da, o'zim iljayayotgan bo'lsam ham, ichimni mushuk tirnayotgandek edi. Shundan keyin jim bo'lib qo'ya qoldim. Ammo ko'nglim g'ash edi.

Turdiga bo'lsa uncha-muncha gap ta'sir qilmasdi. U dars tugashi bilan olgan „2“ sinii ham unutdi.

Maktabdan qaytayotganimizda qo'yarda-qo'ymay Turdi meni do'konga sudradi. Shunaqa xiraki, shirachga o'xshab yopishadi odamga. Noiloj ko'ndim. Do'konga borib velosipedga yangi murvatlar — kamera, nippel sotib oldik. Uyga kelib nomiga ovqat yegan bo'ldim-u yana Turdilarnikiga yugurdim. Ikkalamiz yana velosiped tuzatishga kirishib ketdik. Oxiri bir amallab velosipedni tuzatdik. Qorong'i tushib qolgan bo'lsa ham, ko'chaga chiqib rosa uchdir.

Terlab-pishib uyga kirib bordim. Shu paytgacha nima qilib yuribsan, deb so'rashgan edi, Turdilarnikida dars tayyorladik, deb qo'ya qoldim. Ish o'ngidan kelib adamlar kundaligimni ham so'ramadilar. Eslariga tushib qolmasin, deb sekingina o'z xonamga kirib ketdim. Dars tayyorlayman deb kitobni ochsam, ko'zim qamashadi. Kitobni yopdim-da, birpas shalpayib o'tirdim. Oxiri qandoq qilib uqlab qolganimni ham bilmayman.

Ertasiga maktabda uy ishini qilmaganimiz uchun Turdi ikkalamiz yana bittadan „2“ qo'ndirdik. Maktabdan kelganimizdan keyin Turdi yana velosipedga yopishdi. Men ichimda jonjon deb turgan bo'lsam ham:

— Ey, Turdi, bunaqada „ikkichi“ bo'lib ketamiz-ku, — dedim har ehtimolga qarshi.

— Qanaqa-da? — so'radi Turdi.

Juda parvoi falak-da, shu Turdi. Men adamdan bugun rosa urish eshitaman, deb yuragim taka-puka bo'lib ketyapti-ku, u bo'lsa pisand ham qilmaydi, tirjaygani-tirjaygan.

— Mana ko'rasan, „ikki“larimiz uchun yo uyda, yo maktabda bir karra dabdala qilishadi, — dedim xavotirimni yashirmay.

— To'g'ri aytasan, — qichqirdi Turdi.

Keyin sakrab velosipedga mindi-yu, uchirib haydab ketdi. Orqasidan qarab qoldim, havasim keldi. „Kel, nima bo'lsa bo'lar“, deb ketidan yugurdim. Shu kuni ham rosa velosiped uchdir.

Shunchalik berilib ketibmizmi, qorong'i tushib qolganini ham sezmabmiz. Endi uyga qaytmoqchi bo'lqanimizda oldimizdan Lola chiqib qoldi. Yo'q, ortiqcha gap qilgani yo'q, faqat „charcha-

madilaringmi, bundan uch soat burun kinoga ketayotganimda ham velosiped uchib yurgandilaring“ — dedi.

— Biz charchash nimaligini bilmaymiz, — ishshayib javob qildi Turdi.

Lola boshqa bir so‘z demay yo‘lida davom etdi.

Lekin bizni ko‘rgani chatoq bo‘ldi, nega deganda sinf rahbarimizga dars tayyorlash o‘rniga qorong‘i tushguncha velosiped uchib yurishibdi, deb chaqishi mumkin.

Aytganim keldi. Ertasiga maktabga borsak, katta tanaffus vaqtida Lola men bilan Turdini pionerlar xonasiga kirishimizni taklif qildi. Turdi ikkalamiz tirjayib qo‘ydik. Ho, kim qo‘yibdi bu kishiga gaplashishni. O‘zi o‘ninchida o‘qiydi, sinfimizni otaliqqa olgan. Bo‘yi ham atigi yarim qarichgina katta bizlardan. Tilimizning uchida, nomiga sizlab gapiramiz. Kattalik qilib o‘quvchilar xonasiga chaqiribdilar. Mayli, ko‘raylik-chi, nimalar derkin?

Turdi ikkalamiz oldinma-ketin o‘quvchilar xonasiga kirib bordik. Lola to‘rdagi stulga o‘tirdi. Xuddi kattalarga o‘xshab qoshlarini chimirib bizlarga tikildi.

— Keldik, — dedi Turdi tirjayib.

Men kulib yubormaslik uchun yerga qarab oldim.

— O‘tiringlar, — dedi Lola.

— Xo‘p bo‘ladi, — Turdi oldingidan ham ko‘proq tirjayib stulga o‘tirdi. Nima uchundir borgan sari mening kulgim battar qistab ketyapti. O‘zimni zo‘rg‘a bosib o‘tiribman.

— Nega tirjayan? — deb so‘radi Lola Turdidan.

— Tirjaymayapman, basharam o‘zi shunaqa, — dedi Turdi.

Men o‘zimni tutolmay, piq etib kulib yubordim. Turdi ham shuni kutib turgan ekanmi, xaxolab yubordi.

— Ha, maynavozchilik qilyaptimi birov, kulasانlar? — dedi Lola jiddiylik bilan. — Menga musobaqaga qatnashasanlarmiyo‘qmi, aytlarining, keyin chiqib xohlaganlaringcha kulaverlaring.

— Qanaqa musobaqaga? — so‘radi Turdi.

— Velosipedchilar musobaqasiga. Yaqinda rayon birinchiligi uchun bolalar o‘rtasida poyga o‘tkaziladi. O‘shanda ishtirok etish uchun eng yaxshi velosipedchilarni tanlab olib, mashg‘ulot o‘tkazamiz. Poygada yutganlar Toshkentga, respublika musobaqasiga boradi.

Turdining ko‘zları chaqnab ketdi. Lekin sir boy bermay, tusmollab so‘radi:

— Hammani ham olaversizlarmi?

— Hammani ham olavermaymiz, faqat qiziqqanlarni, astoydil sportchi bo'lishga qasd qilganlarni olamiz. Ming epchil bo'lsin, qiziqlishi bo'lmasa, undan yaxshi velosi pedchi chiqmaydi, — dedi Lola.

— To'g'ri-yu, lekin men bilaman, „ikki“si birlarni olishmaydi. Olishsa ham, „ikki“ngni tuzat, bo'lmasa musobaqaga qatnashmaysan, deb miyani achitishadi.

— Hech qanday musobaqaga qatnashmasang ham baribir, agar „ikki“ng bo'lsa tuzatasan, deb miyangni achitishadi. Tuzatmasang, sinfda qolasan, — dedi Lola beparvolik bilan.

— To'g'ri... — dedi Turdi boshini qashlab. Keyin burnini shilq etib tortdi-da, menga qaradi. — Yozilmaymizmi, G'iyos?

— Bilmasam, — dedim men.

Turdi men tarafga engashdi-da, qulog'imga shivirladi:

— Kel, yozilaveramiz, agar yoqmasa, dars tayyorlashga vaqt yetishmayapti, deb qochib qolamiz.

Men ham Turdining qulog'iga shivirladim:

— Anu-chi... e... haligi... mayli, yozilsak yozilaveramiz.

Lola xuddi bizning shivirlashayotganimizni eshitmagandek boshini ko'tarmay, oldidagi qog'ozga bir narsalarni yozib o'tirardi.

— Yozilamiz, — dedi Turdi unga.

— Nima? — qog'ozdan boshini ko'tarib so'radi Lola.

— Yozilamiz, deyman.

— Familiyang nima edi? — bilmagandek so'radi Lola.

Turdi sakrab o'rnidan turdi.

— Ermatov Turdi.

— Seniki-chi?

— Ashurov G'iyos, — dedim men.

— Bo'pti bo'lmasa, — dedi Lola familiyalarimizni yozib olib.

— Ertadan mashg'ulot boshlanadi. Bolalar maktab maydonchasida yig'ilishadi. Kechqurun soat oltiga yetib kellaring.

— Xo'p bo'ladi, — deb chiqib ketdik.

Endi uch-to'rt qadam yurgan edim, esimga bir narsa tushib qolib, orqamga qaytdim. O'quvchilar xonasining eshigini ochib, Lolaga „xayr“ dedim. Meni ko'rib Turdi ham qaytdi. Eshikdan boshini suqib:

— Xayr bo'lmasa, Lola opa, — dedi tirjayib.

— Xo'p, xayr, — dedi Lola ham jilmayib.

Shundan keyin sinfimiz tomon yugurgancha ketdik.

O'sha kundan keyin, oradan bir oycha vaqt o'tdi. Turdi

ikkalamiz velosipedga juda berilib ketdik. Lekin, avvalgidaka, kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay velosiped minmaymiz. Haftasiga uch marta ikki-uch soatdan mashg'ulot bo'ladi. Hozir maktabimizda Turdidan usta velosiped haydaydigan bola yo'q. Shahar championi bo'lmoqchi va albatta shahar birinchiligi uchun bo'ladigan musobaqada qatnashmoqchi. Trener Sodiq aka harakat qilsang, yaxshi natija ko'rsatib, sovrinli o'rinni egallashing mumkin deptilar.

Hadeb Turdini gapisan, o'zing-chi deb so'rarsiz. Men ham musobaqada qatnashaman, maktabimizning yuzini yerga qaratmasman, deb o'layman.

Olgan „ikkilaringiz“ nima bo'ladi deysizmi? Allaqachon Turdi ham, men ham tuzatdik. „Ikki“ngni tuzatgin, deb hech kim zo'rlagani yo'q. Faqat velosiped to'garagiga qatnashsanglar, dars tayyorlashga vaqtlarining yetmay qolmasin, deb Lola kun jadvali tuzib berdi. Shu jadvalda nima yozilgan bo'lsa, o'shani qilaverdik. Vaqtida ovqat, vaqtida velosiped, vaqtida dars... hammasini ham qilib ulgurasan. Qarabsizki, „ikki“dan ham qutulib qolibmiz. Yaxshi narsa bo'lar ekan bu jadval.

Bolalar, qulog'ingizga gapim bor, agar kimga o'shanaqa jadval kerak bo'lsa, bizning maktabga kelsin, yo Turdidan, yo mendan so'rasha, berib turamiz, ko'chirib oladi. Bo'ptimi?



Latif Mahmudov

(1935 - yilda tug 'ilgan)



Latif Mahmudov bolalar nasri va dramaturgiyasi bo'yicha samarali ijod qilib kelmoqda.

Latif Mahmudov „Cho'qqidagi lola“, „Ikki do'st“, „Chinorlar“, „Sadoqat“, „Ikki dangasaning sarguzashtlari“, „Qizg'anchiq“, „Jasur bolalar“, „Bolalar quvonchi“, „Sho'x daryoning siri“, „Sirli xat“, „Eski dutorning siri“, „Tog'da otilgan o'q“, „Qopga yashiringan odam“ kabi qirqa yaqin kitoblari nashr qilingan.

„Ali bilan Vali“, „Sirli xat“, „Ishyoqmasning qilmishi“, „Burgut olib qochgan bola“, „Qorbobo bilan uchrashuv“, „E, attang...“, „Haqiqiy o'g'il bola“ kabi pyesalari respublikamiz bolalar teatrлari sahnalarida qayta-qayta namoyish qilinmoqda.

ALI BILAN VALI

(Dramadan parcha)

- | | |
|--|----------------------------------|
| 1. Ali.
2. Vali.
3. Ozoda.
4. Dilbar.
5. Soli. | }

5—6- sind o'quvchilari. |
| 6. Yulduz — birinchi sind o'quvchisi, Alining singlisi.
7. Asad Saidovich — o'qituvchi.
8. Rohila — Alining oyisi. | |

Birinchi parda

Birinchi ko 'rinish

Sinf eshigi ochiq. Oldi qator partalar, o'qituvchining stoli, doska ko'zga tashlanib turibdi. Bolalar qiy-chuv bilan sinfga kirib

kelishdi. Hammasi Dilbarning nazoratidan o'tib, birin-ketin partalarni to'ldirishmoqda. Yo'lakning boshida shapkani teskari kiyib, bandi yo'q papkani qo'ltilqlagan Ali bilan Vali ko'rindi. Ali Dilbarni ko'rib, darrov to'xtadi. Shapkasini to'g'rilab oldi. Vali esa o'rtog'iga ma'nodor qarab qo'ydi, biroq oldinga yurgani yuragi dov bermay to'xtab qoldi.

Vali — Qo'lga tushdik.

Ali — Nima deyapsan?

Vali — Ana unga qara, darrov eshikning tagiga turib olibdi-ya!

Ali — Hali bu holva.

Vali — Yo'g'-e!

Ali — Ha, ishonaver, shu keldi-yu, hammaning tinchi buzildi.

Vali — To'g'ri aytasan, ilgari qandoq edi-ya!

Ali — Oh-oh-oh, u kunlar qani, tushday o'tdi-ketdi. Qadriga yetmagan ekanmiz, oshna!

Shu payt Ali bilan Valiga shubhali nazar tashlab, Soli shoshgancha o'tdi. Ikki o'rtoq uning orqasidan qarab qolishdi.

Ali — Ana, Solivoy keldi. Dilbarning yana bitta dumi.

Vali — E-e, undan xafa bo'lma, o'zining kallasi bormi, kim nima desa, to'g'ri deb chapak chalaveradi.

Ali — Shunaqalar bo'lmasa anovi oyimqiz bilagiga latta bog'lab, eshikda qorovul bo'lib turarmidi, ko'rasan endi, hammani dikir-dikir o'ynatib, sinfga emaklatib kiritadi. Menga qara, Vali, sen yo'l boshla.

Vali — Nima?!

Ali — Anovi palakatni chalg'itib tur, men lip etib sinfga kirib olay. Ko'ylagim biroz g'ijim edi, dazmollagani erinib, o'rnimdan turib kelavergan edim. Ha, nega indamaysan?

Vali — A?! Xo'p, mayli. (*Vali yuragini hovuchlab sinfga yaqin yurdi. Dilbarning orqasiga o'girliganidan foydalanib, Ali sinfning eshigiga yashirindi. Dilbarni chalg'itib o'tib ketish payida turgan edi, Vali Dilbarni sekin tirsagidan ushlab gapga tuta boshladi.*)

Vali — Menga qara, Dilbarxon!

Dilbar — Nima?

Vali — Bir narsaga hech ishongim kelmayapti-da, nimaga deysanmi, shungaki, anovi maktabdaligingda to'qson olti yashar Xadicha xola degan kampirni o'qish, yozishga o'rgatganmishtsan, shu rostmi?

Dilbar — (*Ensasi qotib*). E-e, bo'ldi, bo'ldi. Ko'p cho'zma.
Qani qo'ling?

Vali — (*O'zini go'llikka solib*). Nima, fol ochmoqchimisan?

Ozoda — (*Sinfdan bosh chiqarib*). Bu nima qiliq, tartibga bo'ysun-da!

Vali — (Noiloj qo'lini cho'zadi). Mana, ko'ra qol, top-toza!

Dilbar — Yaxshi, kir.

(*Vali yana bir nima demoqchi bo'lib og'iz ochadi, ammosinfdan chiqqan Ozoda gapirtirgani qo'y may sudrab ketadi. Shu payt ikki-uch bola eshikka yaqinlashadi-yu, Dilbarning chalg'iganidan quvonib, Ali eshikning orqasidan chiqadi, lip etib sinfga o'tay deganda, Dilbar ko'rib, yo'l to'sadi.*)

Dilbar — To'xta!

Ali — Nima deysan?

Dilbar — Men navbatchiman.

Ali — E, navbatchi bo'lsang doska art, nega yo'l to'sasan!

Dilbar — (*Afsuslanib*). Men o'qigan mакtabda tartib boshqacha edi. Navbatchi ozodalikni tekshirmay sinfga qo'ymasdi. Bu yerda unaqa emas ekan.

Ali — Ha, unaqa emas. Hali ham o'sha maktabingga boraver. Seni hech kim ushlab turgani yo'q, qani, oyimqiz, sag'al chetroqqa o'tib tur-chi!

Dilbar — Nega?

Ali — Turtib yubormay deyman-da!

Dilbar — Ho-ho, qani turtib ham ko'r-chi!

Ali — Nima qilarding?

Dilbar — Nima qilardingmish-a, yuzlaringni timdalab olaman!

Ali — (*O'dag'aylab*). Meni-ya?!

Dilbar — Ha, xuddi seni-da, ke, ko'p gap sotmay qo'lingni ko'rsat, qara, bo'yningni yuvsang bo'lmaydimi?

Ali — Bo'ynimga nima qipti?

Dilbar — Popkangga o'xshab qorayib ketibdi. Tirnog'ingni qara, xuddi qoshig'-a, voy-bo'! Bu ahvolda oyog'ingga ham bir yilda bir marta suv tegmasa kerak o'zi!

Ali — (*Titrab-qaqshab*). Nima, yana bitta qaytar, nima deding? (*Ali g'azabdan qaltirab ketdi. Jon holatda qo'ltig'idan papkasini olib, Dilbarning boshiga tushirmoqchi edi, Dilbar kulimsirab Aliga yaqinlashdi. Uning beparvoligi Alini dovdiratib qo'ydi.*)

Dilbar — Ur, ha, nega qarab qolding, ur! (*Ali papkani jahl bilan chetga uloqtirdi. Nima qilayotganini o'zi ham bilmay, shoshib-pishib botinkasini yechdi va qo'lini yerga tirab, oyog'ini osmonga ko'tardi.*)

Ali — Mana, oyog'imni ko'rmoqchi bo'lsang, ko'r!

Dilbar — Hoy, Ali, jinni bo'lma!

Ali — (*Battar o'chakishib*). Yo'q, ko'rasan, ha, paypog'imni yechib ko'rasan, qani, ko'rmay ham ko'r-chi, nima qilarkinman!

Shu payt qo'ng'iroq chalinganini Ali ham, Dilbar ham eshitmadni. Yo'qlama ko'tarib kelayotgan o'qituvchi Asad Saidovich sinfga yaqin qolganda ajablanib to'xtab qoldi. Shosha-pisha cho'ntagidan ko'zoynak olib taqdi, engashib, Alining u tomoniga, bu tomoniga o'tib qaradi. So'ng ajablanib, Dilbarga o'girildi.

Asad Saidovich — Nima qiliq?

Dilbar — (*Alining papkasini yerdan olarkan beparvolik bilan*). E-e, Asad Saidovich, yangilikdan xabaringiz yo'q. Ali masxaraboz bo'lib, sirkka kirgan ekan, sirkda namoyish qiladigan bir-ikkita nomerlarini menga ham ko'rsatyapti.

Asad Saidovich — Nima, nima?

Ali bir joyda qotib qoldi. So'ng birdan qochmoqchi bo'ldi. Ammo shu qadar dovdirab qolgan ediki, nima qilishini bilmay, qo'li bilan emaklab sinfga kirdi-yu, arang oyoqqa turib, birinchi partada o'tirgan Valining yoniga o'zini tashladi. Asad Saidovich „attang“ deya bosh chayqay-chayqay sinfga kirishi bilan bolalar baravar o'rnilaridan turishdi.

Asad Saidovich — Salom, bolalar!

Bolalar — Salom!

Asad Saidovich — O'tiringlar.

Bolalar o'tirishdi. O'qituvchi yo'qlama qilishdan avval yana Aliga qarab bosh chayqadi. Alining ko'zlari bejo, partadan bosh ko'tarmay o'tirardi. Butun alamini Validan olmoqchi bo'lib bir turtdi, Vali sakrab tushdi-yu, o'qituvchiga bildirib qo'yishdan cho'chib, tilini tishlagancha o'rtog'iga o'girilib pichirladi.

Vali — Ha?

Ali — Yasha-e, laqillatib turganing shumi?

Vali — E, ko'rmayсанми, анови xira qiz sudrab kirib ketdi. Lekin xafa bo'lma, hozir ko'rasan, Dilbarni bopladir, rosa kulgi bo'ladi.

Asad Saidovich — (*bolalarga bir-bir qarab*). Navbatchi kim?

Dilbar — Men, Asad Saidovich.

Asad Saidovich — Hamma bormi?

Dilbar — Ha, hamma bor.

Asad Saidovich — (*Birdan doskaga ko'zi tushib*). Iye, qizim, doskani artish esingdan chiqibdi-ku!

Dilbar — (*Hayron*). Voy, tozalab qo'ygan edim-ku, mana, hozir, hozir birpasda artib qo'yaman. Iye, qayoqqa ketdi, shu yerda turgan edi-ku?

Asad Saidovich — Nima qidiryapsan, qizim?

Dilbar — Latta, Asad Saidovich, latta yo'q!

Vali — (*Piq-piq kulib*). Dilbarxon!

Dilbar — Nima?

Vali — Anavi mакtabda doskani qo'l bilan o'chirar ekan-sizlar-da!

(*Ali og'zini katta ochdi, Vali unga qo'shildi, sinfda endi kulgi ko'tarilay degan edi, Asad Saidovich bu nima qiliq degandek qarab qo'ydi. Ali shoshib qo'llari bilan og'zini yopdi.*)

Dilbar — Asad Saidovich, ruxsat bering, olib kelay.

Asad Saidovich — Bunaqa narsani tanaffusda tayyorlab qo'yish kerak, bor.

Dilbar — Xo'p, Asad Saidovich.

Asad Saidovich — Xo'sh, bolalar, uy vazifa tayyormi?

Bolalar — Tayyor!

Asad Saidovich — Yaxshi, qani, kim chiqadi?

Soli — Men!

Ozoda — Men!

(*Asad Saidovich boshqa bolalarga bir-bir qaray boshladi.*

Alining yuragi shuv etdi. Valining biqiniga turtib qo'ydi.)

Ali — (*Pichirlab*). Ko'tar!

Vali — Nima deysan, biqinimni teshib yubording!

Ali — Qo'lingni ko'tar, bo'lmasa mendan so'rab rasvo qiladi.

Vali — Iye... o'zim partaning tagiga kirib ketay deb turibman-u.

Shu payt latta ko'tarib, sinfga Dilbar kirdi. Shosha-pisha doskani arta boshladi. Asad Saidovich hamon bolalarni ko'zdan kechirish bilan band... Ali Valining tirsagiga turtib yuboradi. Vali beixtiyor qo'l ko'tarib, darrov pastga tushiradi.

Asad Saidovich — Vali, qo'l ko'targanday bo'ldingmi, chiq, chiqa qol.

Dilbar kelib joyiga o'tirdi. Vali bir lahma nima qilishini bilmay dovdirab qoldi-yu, so'ng, zo'rg'a kitob ko'tarib doskaga chiqdi.

A s a d S a i d o v i c h — Masalani yoz. Ishlash yo'llarini tushuntir.

V a l i — (*Dovdirab*). A?! Xo‘p, xo‘p, hozir yozaman. (*Vali masalani yozdi, chiqarolmay xunob, dam doskaga chizadi, dam qo‘li bilan o‘chiradi, ora-chora yer ostidan Asad Saidovichga qaraydi. Asad Saidovich jim. Yo‘qlamaga nimanidir yozish bilan band.*)

A s a d S a i d o v i c h — Ha, bo‘ldingmi?

V a l i — Hozir, Asad Saidovich, hozir, bo‘layozdim.

A s a d S a i d o v i c h — (*Bosh ko‘tarib doskaga qaraydi*). Barakalla! Tayyor emasmisan, nega qo‘l ko‘tarding?

O z o d a — Qo‘l ko‘tarsam chiqarmaydilar deb o‘ylagan-da! (*Vali lavlagisi chiqib, ter bosdi. Cho‘ntagiga qo‘l solib, ro‘molcha oldi va shosha-pisha yuz-ko‘zlarini arta boshladi. Dilbar birdan sapchib o‘rnidan turib ketdi.*)

D i l b a r — Hoy, Vali!

V a l i — Nima deysan?

D i l b a r — Qo‘lingdagi nima?

(*Vali birdan qo‘lidagi ro‘molcha emas, doska artadigan lattaligini ko‘rib, nima qilishini bilmay qoladi.*)

V a l i — Iye-iye, bu, iye-iye!

D i l b a r — Bekor aytibsan, qo‘lingdagi „iye-iye“ emas, doska latta, men o‘qigan mактабда doskani qo‘l bilan o‘chirsak ham, ammo hech kim dastro‘mol o‘rniga doska latta tutgan emas, tavba, bu yangilik! (*Vali qo‘lidagi lattani chetga uloqtiradi.*)

V a l i — (*O‘ziga-o‘zi pichirlab*). Men qayoqdan bilay. Ro‘-molcha o‘lgur bu cho‘ntakda ekan.


A s a d S a i d o v i c h — Doskaga chiqqanining ham yaxshi bo‘ldi, hech bo‘lmasa lattani kim olganini bildik. Barakalla, hali darsdan so‘ng oldimga kir, o‘qituvchilar xonasida bo‘laman. Xo‘sh, doskaga kim chiqadi, qani?

P a r d a



Miraziz A'zam

(1936 - yilda tug'ilgan)



Iste'dodli bolalar shoirlaridan biri Miraziz A'zamdir. Uning „Metallurg“, „Aqli bolalar“, „Senga nima bo'ldi?“, „G'alati tush“, „Yer aylanadi“, „Yerga dovrug' solamiz“, „Bir cho'ntak yong'oq“ kabi kitoblari chop etilgan.

Miraziz A'zam dostonnavis qalamkashlardan biri hisoblanadi. Bu jihatdan qaraydigan bo'lsak, uning „Asror“, „Erk qushi“, „Ona yurt osmonida“, „Antiqa“ dostonlari bolalar adabiyotida muhim o'rinn tutadi.

ASROR

(Dostondan parcha)

Yig'ilish davom etadi

11

Asror minbarga chiqdi,
Ozroq turdi shalvirab.
Uzr aytdi kimgadir,
Keyin birdan qaltirab,
Bo'g'ilib dedi: — Ra'no!
Senga bir savolim bor...
Ra'no dedi: — So'rayver!
Mening javobim tayyor!
— Nega pilla qurtiga
Qo'noq tut kesmadingiz?
— Qo'noq tutning bargida
Shirasi kammi debmiz.
— Asosingiz bormidi?

— Qurt qo‘noq barg yemadi.
— Qo‘noq sabab ekanmi?
(Ra’no javob bermadi.)
Javob qaytar. Javobing
To‘g‘ri bo‘lsin misli o‘q.
— Bizga tut bargi kerak!
Qay xilidan? Farqi yo‘q!
— Bu gal to‘g‘ri gapirding:
Qurt tut bargga parvona.
„Qo‘noq tutni yemadi“ —
Degan gaping bahona.
Siz qo‘noq tut kesishga
Erinchoqlik qilgansiz.
Baliq tutni kesishni
Qulayroq deb bilgansiz.
Yo qolmagan hoynahoy
Butalmagan qo‘noq tut.
Xo‘jalikdan olgansiz
Mo‘ljal bilmay ko‘proq qurt.
Endi reja to‘lsin deb,
Aylanarsiz uyma-uy.
Chalasiz-da, chor-nochor,
O‘zingiz to‘qigan kuy...
Zirillab yurgandirsiz
Endi quloqni ushlab.
Nima qilasiz bunda
Aybingizni xaspo‘shlab?!

12

Asror qaddin rostladi,
O‘yga botdi ko‘zlar.
Chamasi u xotirjam
Ta’sirchan so‘z izladi.
Lekin bundan voz kechib,
Peshonasin ushladi.
Gapirganday o‘ziga
Asta so‘zlay boshladi:
— U kungi ko‘ngilsiz gap
O‘ylatib qo‘ydi meni.
Hamon tashib yuribman
Qalbimning alamini.

Kezdim hovlima-hovli,
Tomorqama-tomorqa.
Bir gapni aytib qo'yay
Dalillarga qilib orqa:
Bu yil qishloqda hech kim
Tut mevasin yemaydi.
Yillar o'tib bolalar
Shinni nima, bilmaydi.
Buning uchun kim aybdor?
Birov emas. O'zimiz.
Reja desa ko'rmaydi
Hech narsani ko'zimiz.

Yig'ilish davom etadi

13

Asror qirdi tomog'in,
Bir on turdi dovdirab,
Ulab ketdi so'zga so'z
Ikki ko'zi javdirab:
— Bilaman, pillachilik
Mashaqqatli, nozik ish.
O'tmaydi hazil-huzul,
Chalakam-chatti yumush.
Bu ishda doim kerak
Xotiring bo'lmog'i jam.
Esimda, pilla tutgan
Mening katta buvim ham.
Hay-hay xonani oqlab,
Qurtlarni puf-puflashi...
Tezroq barg keltirmasak
Siqilib uf-uflashi...
Qush, pashsha kirmasin deb
Doka tutib darchaga,
„Yompanglar darchani!“ — deb
Tayinlashi barchaga...
Pillaxona pechkasin
Tez yangilab turishi...
Changitmasdan xonani
Ohista supurishi...
Isiriq tutatishi

Hafta o'tmay dam-badam...
Essizgina buvim-a,
Bevaqt o'tdi olamdan...
Hali shundoq esimda:
Bir kun keldim qoshiga.
„O'tin keltir!“ — dedi u, —
Qani o'choq boshiga.
Aytganimni qilib sen
Yoqib tursangmi olov,
Zumda damlab tashlayman
Senga qo'l bola palov.
Men keltirdim qurigan
Tut shoxidan ko'tarib,
Buvim: — Omon bo'l! — dedi,
O'tinimni qaytarib. —
Boshqa o'tin olib kel,
Ko'zginamning qarog'i,
Pilla tutilgan joyda
Yoqilmas tut butog'i... —
Boshqa kun shunday degan
Buvim qo'shni xolaga:
— Kechirasiz, egachi,
Kirmaysiz bu xonaga.
O'zingiz ham bilmasdan
Bir ish qilib qo'yasiz.
Nozik-nihol qurtimni
Kasal qilib qo'yasiz.
Bir kuni o'zim ko'rdim:
Boshlandi dastak qo'yish,
Qittay joydan yiqilib
O'ldi bir qurt boyaqish.
O'lib qolar hattoki
Chaqib olsa chumoli.
Bilaman, pillachining
Juda qiyin ahvoli.

Yig'ilish davom etadi

14

Asror tut mevasiga
Gapni bura boshladi.

Shunda o'sha sharttaki
Ra'no luqma tashladi:
— Mulohaza qilasan
O'ziga xos, mustaqil.
Lekin. Asror, ketdi vaqt,
Bizga gapni qisqa qil!
Asror norozi bo'lib
Muallimga qaradi.
Muallim parvo qilmay,
Sochlarini taradi.
— Tugata qol, ha, — dedi
Loqaydgina sas bilan.
Nazdida, unga hech kim
Boqmasdi havas bilan.
Ruhi tushdi Asrorning,
Yolg'iz sezdi o'zini.
— Mayli, gapim tamom, — deb
Pirpiratdi ko'zini.
Umrida u ilk bora
O'zining haqligiga
Gumon qildi.
To'satdan
Ishonmadi aqliga.
Bir odam so'zlayversa
Befoydadan befoyda,
Ko'pchilikka yoqmasa...
Demak, masala mayda...
Demak, tugashi kerak
Bundan buyon tutchilik.
Endi yashashga haqli
Faqat i pakqurtchilik...
Ammo birdan Rahimjon
Sakrab turdi o'rnidan:
— Uzr, o'rtoq muallim,
Uzr, Ra'no, qadrdon!
Sizlardan bir iltimos:
Cheklamanglar gapini.
Sezarmiz so'ng, ehtimol,
Gaplarining nafini.
O'zimizni ma'qullab,

Tinglamasak o'zgani,
Qotib qolish demak bu,
Yo safimiz to'zgani...
Gapir, Asror, tinglaymiz,
Gapir hamma gapingni,
Bo'shataver ko'nglingni,
Qo'yaver talabingni...
Asrorning vujudidan
O'tganday bo'lди to'fon.
O'zini ushlashiga
Yo'q edi sira imkon.
Tiqilardi tosh bo'lib
Allanima bo'g'ziga.
Kipriklari achishar,
So'z kelmasdi og'ziga.
Voy Rahimjon, Rahimjon,
Shunday ekansan-da sen.
Qalbing bir zulmat desam,
Kundai ekansan-da sen.
Bor ekan-ku, safdoshlik,
Qalbi daryo hotamlar.
Bor ekan-ku, haqiqat,
Bor ekan-ku, odamlar.
Asror rostlab qaddini
Dedi qilt-qilt yutinib:
— Tut mevasin maqtayman,
Do'stlar, yana botinib.
Bu tut degan narsamiz
Quvvat koni asliqa.
Shohlar so'ratib yegan
Tutni bahor faslida.
Sizlar shohdan kammassiz,
Tut bu — bahor himmati.
Tutga to'ying bir marta,
Yilga yetar quvvati.
Ilik uzildilarga
Darhol beradi barham.
Ham angina bo'lmaisiz,
Ruhingiz bo'lar bardam.
Tutning shifobaxshligi

Ma'lum ko'hna tarixda.
Barcha fazilatlari
Sig'maydi bir ta'rifga.
Ipak kerak xalq uchun,
Ipak — kiyishga kerak.
Tut esa kerak xalqqa,
To'yib yeyishga kerak.
Tutni pilla tufayli
Haqqimiz yo'q qirishga.
Xalaqit bermasin-da,
Bir ish ikkinchi ishga!

Yig'ilishning oxiri


15

Yig'ilishning so'ngida
Muallim nutq so'zлади:
— Bolalar, majlisingiz
Muhim ishni ko'zлади.
Siz ko'targan masala
Asosiy masaladir.
Shu asosda baxtiyor
Jamiyat yasaladi.
Buni bilar ekansiz,
Tan berdim hammangizga.
Aqli bolasizlar!
Balli! Qoyilman sizga!
Gapirmagan bir odam
Qolmadi ichingizda.
Hammani qiziqtirgan
Ma'no bor ishingizda.
Menga yoqdi judayam
Bundagi olishuvlar,
Shunday olishar doim
Olovlar bilan suvlar.
Ra'no chiqdi, masalan,
Gurillagan o't bo'lib,
Asror hisga berilsa,
Gaplarini cho'rt bo'lib.
Anglash mumkin Ra'noni;
Chirqillamas bekorga...

Gard yuqmasin, deydi u
Dabdurustdan Asrorga.
Ra'no juda aqli,
Prinsipli, odil qiz.
Do'stini pok saqlashga
Hamma vaqt ham qodir qiz.
Asrorning chiqishi ham
Chakana chiqish emas,
Uncha-muncha bilimdon
Hech kelolmas unga bas.
O'z fikrini asoslab
Keltirdi qancha dalil.
Unga qarshi so'zlash-chun
Aylanmas, hattoki til.
Ha, Asror ham aqli,
Pishiq va puxta bola.
Lekin boshqa ayblari
Vijdoniga havola.
Rahimjon ham aqli,
So'zlayversam jo'yasiz.
Lekin gapirsa agar
Xursand bo'lib qo'yasiz.
Asror bilan o'rtada
Bo'limganday biror gap,
O'tgan ishni unutib,
Zarracha ham bo'lmay chap,
Kichik bir taklif bilan
O'rtaga fayz kiritdi.
Mana endi, do'stlarim,
Majlis ham yaxshi bitdi:
Ha, majlis yaxshi bitdi:
Do'stlar sinaldi bir-bir.
Hammaning ham ko'nglida
Hech qolmadi shubha, kir.
Oq yo'l sizga, bolalar,
Tilayman faqat oq yo'l
Yutuqqa erishsangiz,
Demak, bizning baxt ham mo'l.
Sizga o'qilgan darslar
Ketmabdi, deyman, bekor...

To‘lan Nizom

(1938- yilda tug‘ilgan)



To‘lan Nizom Andijon viloyatining Bo‘z tumanida tavallud topgan. U Andijon pedagogika institutida o‘qib yurgan kezlarida she’riy mashqlari vaqtli matbuotda e’lon qilingan. Bugungi kunda shoirning 20 dan ziyodroq turli nomdag‘i kitoblari chop etilgan. Shoirning „Sening ertaklarинг“, „Yoshlik bayozi“, „Iftixor“, „Quyosh yo‘li“, „Ona tilim, ona elim“, „Andijonda bir qush bor“, „Cho‘lpon“, „Chaman ichra“, „Muqaddas ruh“ kabi to‘plamlari yosh kitobxonlarning dillariga quvonch ulashib kelmoqda.

ANDIJONDA BIR QUSH BOR

Istirohat bog‘ining
Havaskor bulog‘ining —
Ko‘rki bo‘lgan bir qush bor.

Ko‘zi quyoshga o‘xshar,
Parvozi mag‘rib — mashriq,
Patlarida kumush bor.

U nurga cho‘milganda,
Ming rangga ko‘milganda,
Ajib bahor-u qish bor!

Tildan tilga o‘tilgan,
Qo‘sish bo‘lib yetilgan,
Shuhratida balqish bor.

Yelkasida Andijon,
Yaratgan paxta — xirmon!!!
Ne ellardan olqish bor!
Andijonda bir qush bor!

QALDIRG‘OCH

O, qaldirg‘och, qaldirg‘och,
Qora ko‘zlarling qiyg‘och.
Duming o‘xshar xivichga,
Qanotlaring qilichga.

Oyoqlaring tim qora,
Tumshug‘ing tig‘day bor-a?
Bo‘yinchangda oq sharf,
Bir ko‘ray yaqin borib.

Loy ko‘tarib shiftdasan,
In solishga ustasan,
Me‘mormisan, ayt, o‘zing,
Buloqdek qaynar so‘zing.

Qushlar ichra donosan,
Yomonlikdan tonasan.
Qilgan ishing jasorat,
Qiyratasan hasharot.

Qish kelganda ketasan,
Janub tomon yetasan.
Qaytganingda sen takror —
Yurtga keladi bahor.

O, qaldirg‘och, qaldirg‘och.
Ayvонимда bola och!

TINCHLIK UCHUN

Plastilindan o‘g‘lim
Yasabdi turli qurol.
Ularga hayron boqib,
Ohista berdim savol:

— Bular nima, Ozodbek?
— Mana, bu — tank,
 bu — nagan.

Mana bu — to‘p, samolyot,
Pulemyotdir bu turgan.

Mana busi — kemadir,
Dengizlarda suzadi.
Bu — raketa juda zo‘r,
O‘ydan uchqur, o‘zadi.

Bu — bir askar, postida
Juda botir, bemalol —
Toshday qotib turibdi,
Qo‘lida ushlab qurol.

Dushman sira kelolmas,
„Biznikilar“ mustahkam.
Shunda qo‘zg‘ab hislarim,
Ozodga dedim men ham:
„Yaxshi“, dedim ohista,
Boshim chulg‘ab xayollar.
— Tinchlikka qalqon bo‘lsin
Sen yasagan qurollar!

BO‘ZDA BO‘LGANMISIZ?

— Siz Bo‘zda
bo‘lganmisiz?
Ko‘rganmisiz husnini?
— Men Bo‘zni rosa kezib,
Chaman bildim ko‘ksini!
— Tunab qoldingizmi hech
O‘y surdingizmi oqshom?
— Bunda tonglar
boshqacha,
Yulduz, oyda o‘zga rom!
— Nimasi dilni ochar,
Qovunimi, tarvuzi?
— Yoqimli ekan Bo‘zning,
Qish, bahor va yoz-kuzi!
— Ko‘rib quvondingizmi,
Ilhomrez joylarini?
— Ko‘rdim unga ruh
bergan
Sho‘xoqar soyolarini!
Bildingizmi, yer — oltin,
Quyosh bunda to‘kar zar.
— Vatan bo‘ylab, ha,
bugun,
Mehnatkash Bo‘z —
mo‘tabar!

OLMAXON


Arslonbobda — dovonda,
Tog‘ bag‘rida, o‘rmonda
Yashar edi Olmaxon,
Quvonchi jahon-jahon.
Shoxdan shoxga o‘tardi
Sakrab-sakrab ketardi.
Butoqlarda o‘y surar,
Daraxt uchida turar.
Ko‘zi qora munchoqday,
Yaltiraydi chiroqday.
Dumi supurgi misol,
Qayriladi bemalol.
Oldingi oyoqlari,
Tirnog‘i, barmoqlari,
Odamnikiga o‘xshar,
Yog‘ochni mahkam ushlar.
Quloqlari ding xo‘pam,
Sezgir, chopqir va o‘ktam.
Fe’li ham ancha durust,
Bolalarga biram do‘st.
Yo‘ldan o‘tgan har kishi,
Bo‘lsa hamki tashvishi,
Bir zum to‘xtab qoladi,
Cho‘ntakka qo‘l soladi.
Olmaxonga qarab u,
Chaqirar: Kakku! Kakku!
Qo‘liga nima kirsa,
Dili nima buyursa,
Donmi, danakmi, bodroq,
Ishqilib bitta yemak,
Unga tutishar har dam.
Shunda olmaxon biram
Epchil bo‘lib ketadi,
Kishini shod etadi.
Lekin yomon tomoni,
Yeyolmas ekan nonni.
Unga pista yo yong‘oq
Keltirmasangiz har choq.
Sizga qiyo boqmaydi,

Qilik'i ham yoqmaydi.
Chiyillar ermak qilib,
Sizni bir nodon bilib.
Qochib ketadi uzoq,
Dumini qilib baroq.
Qay kuni bevosh Sobir,
Shoshilib qilmay sabr,
O'zligini unutib,
O'jar, shumligi tutib,
Cho'ntagidan qand olib,
Uni kaftiga solib,
Olmaxonni chaqirdi,
Hushtak chaldi, baqirdi.
Olmaxon keldi darrov,
Yuragi ham berib dov.
Sobir qo'liga boqdi,
Tumshug'ini bir qoqdi.
Dumini likillatib,
Oyog'in dikillatib.
Jimirib qulog'ini,
Tig'latib tirnog'ini,
Qochmoqchi edi nari,
Tez ayon bo'ldi bari.
Sobir mahkam ushladi,
Yosh ko'nglini xushladi.
U talpinar har yoqqa,
Qochmoq bo'lib uzoqqa.
Sobir erkalab, qiy nab,
Shum fe'li yana aynab.
Qulog'ini chimchilar,
Jonivor ko'p chiyillar.
Qandni tiqar og'ziga,
Hatto uning bo'g'ziga.
Solmoqchi bo'lar barmoq,
Olmaxon dumi baroq.
Qo'rquinhdan qaltiraydi,
Ko'zları yaltiraydi.
Shu zamon kelib qoldi,
Sobirni tutib oldi
Bir barvasta oqsoqol,
Yuzi-ko'zi bemalol.

— Bolam, kimsan? Ne uchun
Uni qilasan tutqun?
Nega berasan azob?
Sobir qilolmas javob,
Chol so'zjadi tutoqib,
Hatto ko'zdan yosh oqib.
Bu tabiat sen uchun
Umring bo'lsin deb uzun,
Yaratilgan azali,
Bu dunyoning go'zali
O'rmon, daryo, ko'llardir.
Ularda yashayotgan,
Rizqini oshayotgan
Jonivorlar oz qoldi,
Bu ish xatarga soldi.
Aynidi zamin, samo,
Olmaxon ham ko'p emas,
Ular soni xo'b emas.
U jonivor a'zosi,
Tabiatning bolasi.
Seni onang suyganday,
Dilga mehrin tuyganday.
Uni sevar tabiat,
Shunchun qilar tarbiyat.
Odamlar bilib qo'ysin,
Sendayni tiyib qo'ysin.
Ha, sendayin bolalar,
Keyin qilar nolalar.
Sen qushlarga in yasa,
Don ber agarda yesa.
Olmaxonni o'ynabsan,
O'ynab ancha qiyabsan.
Sen-chi, unga mag'iz ber,
Yong'oq, pista, mayiz ber.
Quvnab yursin o'rmonda,
Sen qolmagin armonda.
Sobir o'rmon oralab,
O'zin o'zi qoralab,
Chopib ketdi yo'lida,
Qandi qoldi qo'lida.

Tursunboy Adashboyev

(1939- yilda tug‘ilgan)



Tursunboy Adashboyev o‘zbek va qirg‘iz tillarida ijod qiladi. „Kamolning olmasi“ deb nomlangan birinchi kitobi 1967- yilda talabalik chog‘idayoq nashr etilgan. Keyinchalik Toshkentdagi „Yosh gvardiya“, Bishkek shahridagi „Mektep“ nashriyotlarida „Biz sayohatchilar“ (1969), „Ala-Toluk bolomun“ (1971), „Arslonbob sharsharasi“ (1973), „Surnay“ (1975), „Nur daryo“ (1977), „Guldasta“ (1979), „Olatog‘-lolatog“ (1982), „Oqbura to‘lqinlari“ (1985), „Sovg‘a“ (1987), „Orzularim qo‘sish qanotim“ (2003) kabi kitoblari bosilib chiqqan.

DO‘STLIK

Qoratog‘ni kesib o‘tar.
Kumush kamar Osonsoy,
Undan yashnar bog‘i-rog‘ni,
Chust, Namangan, Kosonsoy.
O‘rtato‘qay suv ombori
Qurilmagan jo‘rttaga.
O‘zbek-qirg‘iz do‘stligining
Ramzi erur o‘rtada.
Qardoshlikka kafolat,
Ikki el teng kurashgan.
Shuning uchun so‘ngsiz dashtlar,
„Oq oltin“dan nurafshon.
Birodarlik qaror topsa
Qish tushgusi qahridan.
Har ikki el bahramand

O‘rtato‘qay nahridan.
O‘zbekning to‘y-tomoshasi
Qirg‘iz bilan o‘tadi.
Jannatmakon yaylovlari
Chotqolgacha yetadi.
Qirg‘iz mehmon chorlasa gar,
O‘zbek uning qoshida.
Savat to‘la uzum, anor,
Kirib kelar boshida.
Beshbarmoqni to‘g‘rash uchun
Kirisharkan bu chog‘i,
Tog‘am etik qo‘njisidan
Olar Chustning pichog‘in.
Bir iltimos, do‘sralimning
Mendan ko‘ngli qolmasin.
Namanganga fayz kiritgan,
Karavonning olmasi.
Qon-qardoshlik saxovati,
Bamisol, bol, qimiz.
Har sohada tengsiz rivoj,
To‘kinchilik, mol semiz.
Topilmagay bu do‘slikning
Na o‘xhashi, qiyosi.
Unga quvvat, kuch bergusi
Buyuk davrim ziyosi.

„ERTAKLAR DUNYOSI“

„Ertaklarning dunyosi“
Bordir desam shu bobda.
Asqar bunga ishonmay,
— Bor, — der faqat kitobda.
Bilsang, Yalta shahridan
O‘n chaqirim uzoqda
Keng o‘rmonzor qo‘ynida,
Sen uni ko‘rib — boq-da
„Ertaklarning dunyosi“, —
Atay tashkil etilgan.
Rassomlarning hafsalasi,
Mehri bilan yetilgan.

Darvozadan o'tish bilan
Ajoyibot boshlanar...
Goho kulib, lol qolib,
Ko'zlarizingiz yoshsanar.
Pushkin yozgan ertaklar,
Ko'rk bag'ishlar bog' aro,
Baliqchi chol va kampir
Yonda teshik tog'ora.
„Aldarko'sa“ otida
Ovul kezar aylanib.
Ana mashhur „Ur to'qmoq“
Turar jangga shaylanib.
Bo'ri xafa, yordam so'rар,
Qorlar yog'ib qovog'idan.
Turna esa cho'ng souyakni
Tortar uning tomog'idan
Juda moslab yo'nilgandir,
Hayvonlarning shakli, izi.
Aslida-chi, ular bari
Archa, tolning jo'n ildizi.
„Ziyod botir“ yo'lда borar
Ajdarhoga qasd qilib.
Bu ko'rgazma tashkil topgan,
Zo'r ertaklar asos bo'lib.

KIM POLVON?

- Sinfimizda eng kuchli kim?
- Turdi.
- O'tgan safar Burhonni
Ko'tarib yerga urdi.
- Unchalikmas,
Ichimizda polvon G'ani.
- Tunov kuni shart ko'tardi
Vazniga teng shtangani.
- Akram eng zo'r, — dedi qizlar,
Bolalar kuldil gurros,
- Sinfimizni yolg'iz o'zi
Ortiga tortar, bu rost!
- Bu rost!..

„SH“ BILAN „CH“

„Arra“, „Karra“ so‘zlarini
Burro aytar ukam Botir.
„Sh“ bilan „Ch“ harflariga
Biroz tili kelmayotir.
— „Pishloq yedim qishloqda,
Shermat yurar „Chayka“da.
— „Pisloq yedim qisloqda,
Sermat yurar „Sayka“da.
— Chinoraning chinnisi bor,
Chinnisida shinnisi bor.
— Sinoraning sinnisi bor,
Sinnisida sinnisi bor.
Ana shunday jumtlalarni
Sal qiynalib aytar Botir.
Lekin, juda mashqi baland
Olmang undan xavotir.

TO‘RT AMAL

O‘qish borar o‘rmonda,
Qatnashmagan armonda.
Chinor osti g‘akkadir,
Muallimi Hakkadir.
Arifmetik to‘rt amal
O‘rgatilar galma-gal.

1. OLUV

Yong‘oqqa o‘ch Olmaxon
Hadeb boshin qashiydi.
Uchdan to‘qqiz olinmagach,
Uyga nima tashiydi?
Shpargalka Qarqunoq
Shpargalka qorasin.
Uch ortiga nol qo‘yib
Topdi oxir chorasin.

2. QO‘SHUV

Doskadagi yozuvlarni,
Dumida artib,
O‘rganmoqda qo‘shuvni,

Mushuk batartib.
Bu amalda sanoq son
Boradi ortib.
To‘g‘ri topsa o‘nta sichqon
O‘ziga tortiq.

3. KO‘PAYTIRISH

Quyon bo‘lsa hisobdan
Eng oldingi marrada.
Vazifani ishlar zumda
Oddiy usul-karrada.
Tulki atay Quyondan
So‘radi shu payt qo‘qqis:
— Uch joyda uchta sabzi?
— Bo‘ladi rosa to‘qqiz.
— Olti karra olti-chi?
Do‘stim qancha bo‘ladi?
— O‘ttiz olti karamga,
Olaqopim to‘ladi.

4. BO‘LUV

Qizilishton nazdida,
Bo‘lish og‘ir ko‘rinar.
Biroq sakkiz ikkiga,
Oppa-oson bo‘linar.
Tumshug‘ida hisoblab,
Ter to‘kar ancha-muncha.
Noldan nolni ayirsa,
Qoladi teshik kulcha.
Besh ikkiga... mumkin emas.
Sizga ayon tushuncha,
Bu topshiriq uy vazifa,
Dars tugadi buguncha.

DOVONLAR

Pomir — jahon tomidir deb
Aytishmaskan bekorga.
Yo‘lim tushdi xizmat bilan
Bu yil ayni bahorda.
Pillapoya ekan unga

Oloy, G'ulcha tomonlar.
Qo'qiybelim va Chig'irchiq,
Toldiq degan dovonlar.
Siz ham borib qolarsiz, ha,
Do'stim kechmi, ertami?
Sayohatning gashti bordir,
Kelgan yaxshi el tanib.
Mashhur ipak yo'lidir bu
O'shilikning ko'pi ko'rgan.
Qolib ketdi ortimizda
Langar-u, So'fiqo'rg'on.
Tongda bizga peshvoz chiqdi,
Sug'urga kon Ketmontog',
Chap tarafi archa, qayin,
Undan nari ketgan tog'.
Shu payt chiqdi bo'z o'tovdan
Bir oqsoqol yelvagay,
Qimiz, ayron ichmoq uchun
Bunga kimlar kelmagay.
Og'aynilar, dedi birdan,
Shofyor tog'am Mirqosim.
Toldiq degan dovon shudir,
Bolalar sal dam olsin.
Sovisin deb ochib qo'ydik
„„Po'lat ot“ kapotini.
Mehmon qildi Sadir bobo,
Nosvoydan kap otinib.
Tishlaringni zirqiratar,
Gar ichsang qashqa buloq.
Yaxnalikda teng kelmaydi,
Unga hech boshqa buloq.
Qovun poliz egatini
Eslatar Toldiq dovon.
Zabt etamiz endi seni,
Biroz dam oldik, dovon.
Asta do'ngga tirmashamiz
Vaqtni o'tkazmay jadal.
Piyoz hidlab borayapmiz,
Chunki havo kam mahal.
Qilt etmaymiz o'rindan,
Qon otilar burundan.

Besh ming metr tepalikda
Jamoat jam, but edik.
Pastda qolgan mashinalar
Xuddi gugurt qutidek.
Dovon orti — dasht daladir,
Daraxt unmas, bari tosh.
Kechga yaqin kirib bordik,
Qaydasan deb Saritosh.
Nimagadir qorin to‘ymas
Tomog‘imiz taqillab.
Sakson ikki darajada
Qumg‘on qaynar vaqillab,
Pomir bilan Katta Oloy,
Tutash atrof — tegara.
Qizil Ortdan, shunday o‘tsang
Tojikiston — chegara.
Tomchi suvning qadri o‘tar
Ba’zan tomog‘ing qurg‘ab.
Tuz solsangiz go‘sht pishmaydi,
Azaldan shunday Murg‘ab.
Yo‘llar qaltis, entikasiz
Tushsa daydi, qing‘ir tosh.
Yana qancha dovon turar
No‘livoy- u Ching‘irtosh.
Goh surilib ko‘chkidayin,
Oqib tushar talay qum.
Chunki dengiz yuzasidan
To‘rt ming metr Qalayqum.
Shunday qilib og‘aynilar
Adir, dovon, qir osha.
Ko‘rkam tog‘li Badaxshonni
Rosa qildik tomosha.
Chidang do‘stim, safar chog‘i
Toliqsa gar tovonlar,
Zotan bizni yuksaklikka
Olib chiqar dovonlar...





Mahkam Mahmud

(1940-yilda tug'ilgan)



Mahkam Mahmud ko'proq tarixiy mavzularda, fantastik janrda ijod qilib keladi. Adibning „Bibixonim“, „Shohlar malikasi“, „Mavarounnahr yulduzi“, „Sulton Mahmud G'aznaviy“, „Boysung'ur ibn Shohruh“, „Imom Zayniddin G'azzoliy“, „Men — men emasman“, „Teskari ko'zlar sayyorasi“, „Sirli qasr“, „Mangu kuy izlab“, „Eh, odamlar“ kabi o'nlab asarlari yosh kitobxonlar qo'lida qo'lma-qo'l bo'lib yuribdi.

U xalqimiz orasida yetuk adabiyotshunos olim va tarjimon sifatida tanilgan.

Mushkul muammo

(Xayoliy hikoya)

O't o't ichidan, o'ting bor ersa...

Sufiy Ollayor

Havo aynib, dengizda g'alayon boshlangan, to'lqinlar g'a-zabga minib, qirg'oqqa tobora bostirib kelar edi. Dam olayotganlar shosha-pisha yig'ma so'richalari va soyabonlarini yig'ishtirishar, cho'milishni bas qilinglar, deb sho'x bolalarga baqirishar edi. Biroz pakana, to'ladan kelgan, peshonasi yaltiroq akademik Ibrohim Mo'minov ham o'g'ilchasi Oybekni suvdan chiqishga zo'rg'a ko'n-dirib, uni kiyintira boshladi. Ikki yuzi kulchaday Oybek qirg'oqdan ketishga shoshilmas, ho'l shag'al orasidan dengiz to'lqinlari chiqarib tashlagan yumshoq vati p-tiniq meduzabolalarini kaftiga olib, yana dengizga otar edi. Shu payt kurort xizmatchisi gruzin kampir chala-chulpa ruschalab, Ibrohim Mo'minovga shoshilinch telegrammakelganini aytdi. Akademik oyoqlarini ti pirchilatayotgan sho'x Oybekni ko'targanicha qirg'oqdan baland yo'lkaga chiqdi. Bola otasining qo'lidan sirg'alib tushib, o'zi chopqillab ketdi.

Xonada, rang-barang dengiz toshchalari uyilib yotgan stol ustida qizil hoshiyali telegramma yotar edi. Akademik uni qo'liga olib, tez ko'z yogurtirdi.

„Shoshilinch telegramma.

Gagra. Shota Rustaveli ko'chasi, 141. Akademik Ibrohim Mo'minovga. Hurmatli Ibrohim muallim, Sizni Tarozi yulduzlar turkumiga, Koinot olimlarining Oliy kengashiga chaqirishyapti“.

Telegrammada boshqa hech qanday izoh yo'q edi. Mayli, Toshkentga borishganida ma'lum bo'ladi.

Alloma to'qima xivich kresloga o'tirib, yaltiroq manglayini silaganicha o'ylanib qoldi. Dam olish muddati o'zi oxirlab qolgandi. Ishni ham sog'ingan...

Ibrohim Mo'minov O'zbekiston Fanlar Akademiyasining vitse-prezidenti, shuningdek, bir necha sayyoralarlardagi akademiyalarning faxriy a'zosi edi. Turli fanlarning vakillari bilan muomala qilish, ularning fanlariga aralashib, har xil muammolarni yechishga yordamlashish har qanday odamni ham toldirishi tabiiy edi. Mo'minov har yili ta'til paytida dam olmas, qadimiyl Sharq falsafasi tarixiga oid kitobini tugallashga intilardi. Mana, kurortda ham shu kitobning bir bobini yozib ulgurdi. Bu — Navoiy davrining eng buyuk allomalaridan Husayn Voiz Koshifiy falsafasi haqidagi bob edi. Har holda, kurortda vaqtি behuda o'tmadı. XV asr falsafasining hozirgi odamlar hayotiga zarur tomonlarini aniqlab chiqdi. O'g'ilchasi Oybek ham bod asoratidan qutulib, ancha quvvatga kirib qoldi.

Ko'rinishi ham, ruhi ham tetiklashgan akademik Mo'minovni kasbdoshlari va shogirdlari o'rab olishdi. Odatda, rahbar odam dam olib qaytganida hamma uni ruhlantirishga intiladi. Bu yomon emas. Biroq ba'zilar chin dildan gapirmay, boshqa o'ya bo'ladi. Ibrohim Mo'minov kim sofdil-u, kim soxtadilligini ilgarilari yaxshi ajratardi. Hozir ajratish qiyin bo'lib qoldi.

Bundan bir necha yil avval u Kalonov degan kishini „Ensiklopediya“ nashriyotiga rahbarlikka tavsiya qilgan edi. Afsuski, chalasavod va amalparast bo'lib chiqdi. Kalonov tarixdagи buyuk kishilarni qomusga kiritish o'rniga o'zining hamtovoqlari, qarindosh-urug'larini kiritibdi. Bu ishga qarshi chiqqan odamlarni quvg'in qilibdi. Undan bezib, ko'pchilik iste'dodli olimlar boshlagan xayrli ishlarini tashlab ketib qolishibdi. Buni Mo'minov keyinchalik bildi...

U xonada yolg'iz qolgach, ish stoli ustida, turli qog'ozlar orasida qandaydir nur tarqatib turgan sayyoralararo telegrammani qo'liga oldi.

„Ibrohim Mo‘minovga. Sizni Koinotdagi ongli mavjudotlar yashovchi barcha sayyoralardagi ilmiy jamoalar rahbarlarining uch kunlik oliy kengashiga taklif etamiz. Kengashda ko‘p asrlar avval taraqqiy etgan va zamonamizda unutila boshlagan eng qiyin fan asoslari o‘qitiladi. Olimlar bilan EOT—2501 ixtirochisi suhbat o‘tkazadi“.

„Tarozi“ turkumining 12-sayyorasi kosmodromida mehmonlarni Sayyoralararo ilmiy koordinatsiya markazi rahbarlari — ikki boshli donishmandlar kutib olishdi. Bu odamlarning aso-siy boshi ona tilida gapirsa, yordamchi boshi chet tillarda gapirar edi. Mehmonlar turli shakldagi aqli mavjudotlarni ko‘raverib o‘rganib qolishgani uchun odatdagiday salom-alikdan so‘ng, do‘sstar bilan hol-ahvol so‘rashishga tushib ketishdi.

— Yerdayam hal qilinmagan masalalar shunaqa ko‘payib ketdiki, bitta boshimiz kamlik qilyapti, — hazillashdi Mo‘minov 12-sayyoralik ikki boshli olim do‘sstaridan biriga.

— Yerliklarning ham bir nechtadan boshi bor, ammo o‘zlarini bilishmaydi, — e’tiroz bildirdi ikkala boshida ham sochi oqara boshlagan mezbon. — Nega bo‘lmasa, bir odam o‘z-o‘ziga zid ish qiladi? Ba’zilar bo‘lsa boshini ishlatmay birovlarning boshini ko‘tarib yurishadi... Ha-ha-ha...

Mo‘minov ham xaxolab kulib yubordi, u mezonning nimaga ishora qilganini darrov tushungan edi. Hazilga hazil bilan javob berdi:

— Ba’zilarning bittadan ham boshi yo‘q, ha-ha-ha... Bizni nimagacha qirishipti, bilmaysizmi? — hamon labini yig‘ib ololmay so‘radi Mo‘minov. — Bu yoqqa kelib-ketish osonmi? Uch-to‘rt hafta ishdan qoladigan bo‘ldik.

— Mengayam anig‘ini aytishmagan. Eng qiyin fan... Barcha sayyoralardagi aqli mavjudot uchun eng zarur fan... deyishyapti.

— Yo‘q, do‘stim, — e’tiroz bildirdi Mo‘minov. — Yerda o‘rta asrda yashagan Ibn Sino degan mutafakkir aytgan ekan: „Hamma fanlarni o‘rgandim va oxiri shuni bildimki — hech narsani bilmas ekanman...“ Biz hali nimani bilibmiz? Odamzodning umrini uzaytirolmayapmiz. Boshqacha aytganda, bir boshimizni ikkita qilolmayapmiz. Ha-ha-ha...

Hamrohi bu beozor hazilga kulib qo‘ya qoldi. So‘ng gapini yana asosiy mavzuga burdi:

— Yerliklarni ilm-fanda ming yilcha orqada qoldirgan, kapalaklarga o‘xshab uchib yuradigan, juda qisqa umr ko‘radigan

Zuhal olimlari ham, aksincha, uch-to'rt asr yashovchi Nohidliklar ham kengashga chaqirilgan. Har holda, qandaydir juda muhim yangi fan kashf etilgan bo'lsa kerak.

— Qani, boraylik-chi, bunday fanga tishimiz o'tarmikin?..

Ikki do'st olis tepalikdagi adl qarag'ay va shamshod daraxtlari orasida niliy gumbazlari yarqirab turgan qasr tomon yo'l olishdi.

Bilim qasriga eltuvchi maxsus ravon yo'l yo'q edi, u yerga har kim har xil so'qmoqdan chiqib borardi...

Bilim qasri g'oyat hashamatli, ammo yangi emas edi. U ikki ming yil avval suv, olov, chaqmoq, bo'ron, to'fondan jafo ko'rib, tangri taoloni izlab kelevchilarning eng katta sajdagohi edi. Ibtidoiy odamlar bu qasrni yo'niq toshlardan shunchalik puxta qurishganki, hanuzgacha biror toshi ko'chmagan. Zalning katta sahnidan boshqa uch tomonida yetti qavat ustma-ust qurilgan hujralar bo'lib, hammasining ravoqlari zalga qaragan. Zalning o'ttiz metrli gumbaz shiftining doirasida ibtidoiy odamlar tasavvur qilgan tangri taoloning go'zal jamoli antiqa ranglarda tasvirlangan. Doiraning atrofida esa ikki boshli sahobalar bilan shaytonlarning kurashi lavhalari aks etgan. Bu qasrni biron dinga mansub deyish qiyin edi. U jafokash insoniyat xayoli parvozining mevasi edi.

Hozir bu binoning juda katta sahnasiga organ, chang va royal o'rnatilgan bo'lib, qadimiy musiqa asarlaridan konsertlar qo'yilar edi.

Ibrohim Mo'minov zalda o'tirgan mehmonlarni ko'zdan kechira boshladgi. Oldingi qatorlarda juda ilgari yashab o'tgan Suqrot, Aflatun, Arastu, Evklid, Buqrot, Jolinus, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Sa'diy, Fuzuliy, Rustaveli, Navoiy, Bobur, Galiley, Kopernik, Eynshteyn va yana Ibrohim aka tanimagan boshqa buyuk allomalarning soyalari o'tirishardi. Ularni maxsus elektron-optik mashina EOT—2501 yordamida chaqirishgan edi.

Hozirgi kengash hay'ati ham shu mashina va uni ijod qilgan bir guruh olimlardan iborat edi. Kengashga ana shu EOT—2501 ni kashf etgan keksa alloma raislik qilar edi.

— Muhtaram olim-u fozillar! Bugun 2501- yilning 21- iyulida qadimgi davrlarda taraqqiy etgan va endilikda unutilib ketgan eng qiyin fandan birinchi darsimizni boshlaymiz, — raisdan so'ng mashinanining ovozi qadimgi Misr tilida, yunon, lotin, arab, fors, turk, ingliz, fransuz va rus tillarida yangradi.

Qisqa e'londan so'ng EOT—2501 kashfiyotchisi barcha sayyoralarining olimlariga savol bilan murojaat qildi:

— Muhtaram olim-u fozillar! Darsni boshlashdan oldin hammangizga bitta savol berishga ijozat etgaysiz. Qani ayting-chi, orangizda umr bo'yi yolg'on so'zlamagan biror olim bormi? Qani, Suqrot muallim, ayting-chi, balki siz umringizda yolg'on gapirma-gandirsiz?

Qadimgi yunon ridosining etagini viqor bilan ko'targan do'ngpeshona Suqrot muallim o'rnidan turdi va Bilim qasridagi odat bo'yicha — tinglovchilarga ta'zim qilib, shoshilmay gap boshladi:

— Umr bo'yi yolg'on gapirmadim... deyolmayman...

Zalda avval shivirlash, keyin shov-shuv boshlandi. Hammaning nigohi faylasufga qaratildi. Suqrot muallimning yuziga sezilar-sezilmas qizillik yugurdi. Soya rangli edi.

— To'g'ri, men yolg'oni juda kam gapirdim. Umrimning oxirida esa, demos — xalq meni o'limga hukm qilganida ham yolg'on so'zlamadim va o'z ixtiyorim bilan zahar ichdim...

Zalga chuqur sukunat cho'kdi. Hatto soya ham nafas olayot-ganga o'xshab turardi.

— Men umrimda juda ko'p yolg'on gapirganman, — kulib turib gapirdi Aflatun. — Hatto ustozim Suqrot hakimga yolg'on gapirishni maslahat bergenman. Negaki, Kengashning hukmi noto'g'ri, adolatsiz edi. Xalq majlisi agar oqil va adolatli bo'lsa, u o'zining eng ulug' farzandi Suqrot hakimni o'limga hukm qilarmidi?!

Aflatun yengil ta'zim bilan gapim tamom, deganday ishora qildi.

— Qani, haq gapirish haqida yana kimda qanday fikr bor?

Albert Eynshteyn o'rnidan turdi. U bir zum alanglab qoldi.

— Ko'zoynagimni qayoqqa yo'qotibman? Ha, darvoqe, men o'Iganman-ku, ko'zoynaksiz ham ko'ra olaman. Ma'lumki, men „Avlodlarga maktub“ qoldirgandim. Yuz yildan keyin ochib o'qilsin, deb vasiyat qilganman. Ammo avlodlar mening vasiyatimni o'qishsa ham parvo qilishmadi. Men ularni turli xavflardan ogohlantirgan edim. Rostini aytsam, hamma kashfiyotlar ham insonga foyda keltiravermaydi.

Beruniy so'z oldi. U sallasining pechini yelkasidan oshirib, quiy solingen boshini qo'liga tiragancha so'zlar, go'yo o'z-o'ziga gapirayotganday edi:

— Hukmdorlarning maqtovni yoqtirishi, alarning haq gapdan qo'rqishi olimlar boshiga ko'p falokatlar yog'diradur. Hatto

zamonasining eng adolatli va mard hukmdori bo‘lmish Jurjon amiri, shamsulmaoliy¹ Qobus ibn Vashmgir ham haq gap uchun safdoshlarimdan bir nechasiga jazo bergan. Hukmdor qanchalik oqil va odil bo‘lsa, raiyat, ulamo, fuzalo ham haqgo‘ylikka yuz tutgay...

— So‘z o‘rta asr arab olimi Abu A’lo al-Maarriyga, — e’lon qildi rais.

Ko‘zlarida bir olam aks etgan sakson yoshlardagi qariya, taylasoni² uchini g‘ijimlab turib, javob berdi:

— Men bu odamlarga sodiq, haqgo‘y erdim, beg‘araz,

Ammo bag‘rimdan ilon chiqди, dilim o‘rtar maraz.

Men aziz bilganlarim manfur bo‘ldi oqibat,

Obdan bilganlarim ko‘nglimga urdi oqibat.

Shundan keyin boshqa sayyoralardan kelgan allomalar so‘z olishdi. Ularning gaplari ham juda ma’noli, hikmatga boy edi. Ibrohim Mo‘minovning ham bu borada aytadigan gaplari ko‘p edi. Shuni bilganday, rais unga so‘z berdi.

— Men tarix ilmidagi haqgo‘ylik haqida ikki og‘iz gapirmoqchiman. Biz tarixchilar va faylasuflar, ko‘pincha, voqealarni buzib ko‘rsatamiz, yomonni yaxshi deymiz, yaxshini yomon deymiz. Ulug‘ odamlarni o‘g‘ri deymiz, o‘g‘rini to‘g‘ri deymiz. Kelajak tuturuqsizligimiz uchun, to‘g‘rirog‘i, vijdonsizligimiz uchun bizni la’natlaydi...

Olimlarning gaplarini jim tinglab, o‘zining turli asboblari orqali yozib olayotgan EOT—2501 ning ko‘zlarida qizil chiroq yondi. Rais xulosaga o‘ta boshladi.

— Majlisimiz boshida hozir deyarli unutilib ketgan fan haqida gapirgan edik. Bu hammangizga ma’lum — mantiq fani. Mantiq — hozir olimlarni qiyaydigan eng qiyin fan bo‘lib qoldi. Sizlarga shu fan asoslarini o‘rgata boshlaymiz.

Shunday deb, EOT—2501 ixtirochisi hay’atning uzun eman stoli ustida yotgan bir varaq oq va bir varaq qora qog‘ozni doskaga ilib qo‘ydi. So‘ng zalda o‘tirganlarga qarab, tantanavor gapirdi:

— Ertadan boshlab, hammamiz oqni oq, qorani qora deyishni o‘rganamiz...

Shiftdagи sahabalar odamlarning ishlariga tushunmasdan, ajablanib qarab turishardi...

¹ Shamsulmaoliy — quyoshday yuksak (Qobus ibn Vashmgirning taxallusi). ² Taylason — qadimgi erkaklar ro‘moli.



Safo Ochil

(1942- yilda tug'ilgan)

Safo Ochil xalqimizga serqirra ijodkor, taniqli shoir, iqtidorli adib va tarjimon, iste'dodli adabiyotshunos olim, tarbiyashunos va muallim, mohir noshir sifatida tanilgan. Uning „Umidvor qushcha“, „Kamalak va sumalak“, „Aytsammi yo aytmasam“, „Burgut“, „Qalb gulshani“, „Muborak kunlar“, „Zamin sadolari“, „Orzular ko'kidagi shafaqlar“ va boshqa kitoblariga kiritilgan asarlaridan namunalar maktablarda, kasb-hunar kollejlarida, oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan adabiyot darsliklaridan munosib o'rinn olgan.

NODIR PAHLAVON

1

Nodir pahlavon,
Botir pahlavon.
Uyqusirardi,
Mushtin tugardi...
— Dada, dadajon,
O'tmasin bir on.
Ruxsat beringiz,
Kuchim ko'ringiz.
Ho', tog' ustida,
Yurtning qasdida,
Bir dev turibdi,
Uya quribdi.
Juda zo'r emish,
Odamxo'r emish.
O'zi ko'p ulkan,

Qora dev ekan.
Mo'ylovi shopday,
Og'zi naq qopday,
Ko'zi mayoqday,
Tuki tayoqday.
Hamla qilsin-chi,
Yo'qolib tinchi.
Qani, ko'raman,
Qilich uraman.
Dada, dadajon,
O'tmasin bir on.
Ruxsat beringiz,
Kuchim ko'ringiz! —
Olganday javob,
Kerishdi shu tob.

Dilda muddao,
 El uchun go'yo,
 Jang qilmoqchi u,
 Tang qilmoqchi u,
 Devning o'zini,
 O'yib ko'zini.
 Murg'ak dildagi,
 Murg'ak beldagi,
 Buyuk g'ayrat bu,
 Suyuk g'ayrat bu.

Ishga tutinib,
 Duldujni minib,
 G'ayrati oshdi,
 Daryoday toshdi.
 Mag'rur judayam,
 Mingta devni ham
 Pisand qilmasdan,
 Qo'rqinch bilmasdan
 Boradi uchib,
 Umidin quchib,
 (Umidki, omon —
 Devga ko'p yomon)
 Bog'lab u qanot,
 Belbog'i po'lat,
 Chaqnaydi ko'zi,
 Belida gurzi.
 Qo'lida qilich,
 Yuragida o'ch,
 Ko'zlari chaqin,
 Ishonchi yolqin!

Devmisan, dev-da,
 Qoyaday gavda.
 Ikki shoxi bor,
 Vahshatli jondor.
 Yelkasida bir,

Kokili qo'ng'ir,
 U nafas olsa,
 Yoki yo'talsa,
 Titrar hammayoq,
 Momaqaldiroq
 Gurlagan kabi,
 Turar asabiy.
 Og'zi o't purkar,
 Daraxtlar yonar,
 Uning o'tidan.
 Hech kim u bilan,
 Olisha bilmas,
 Teng kela olmas.
 Yurtning boshida,
 Dahshatli juda,
 Shunday u maxluq —
 G'am, alam, qayg'u.

Bola tez yelib,
 Devga duch kelib,
 To'lg'ab gurzini,
 Aytdi so'zini:
 — Hoy, yurtga ofat,
 Yovuz kasofat,
 Qon emar so'na,
 Bu yerdan jo'na!
 Ayni zahoti,
 Nodirning oti,
 Gijinglab birdan,
 Uchay deb qirdan,
 Qora dev shu on,
 Ko'tarib suron,
 O't sochdi lov-lov,
 Tutun va olov,
 Yer bilan ko'kni,
 Hatto maxluqni,
 Ko'rsatmay qo'ydi.
 Achchiq dud tuydi,
 Nodir bir fursat,
 Mayli, kuch ko'rsat,

Yana va yana,
Qilgum tantana,
Baribir o'zim,
Shu qat'iy so'zim.

6

Nodir pahlavon,
Botir pahlavon,
O'zin kam ko'rmay,
Aslo tinch turmay,
Dev tomon uchib,
Tog'dayin ko'chib,
Dudni yo'qotdi,
Gurzisin otdi
Devning boshiga,
Borib qoshiga,
Dev gangigan choq,
Qilib u ilmoq,
Bitsin deb kuning,
Bo'yniga uning
Kamarin soldi,
Bo'g'moqchi bo'ldi.

Dev ham bo'sh kelmay,
Hech pisand qilmay,
Kamarni darhol,
Jo'n va bemalol,
Otdi parchalab,
So'ngra jangtalab
Qora dev yana,
Minorday tana,
Ko'tarib qo'lin,
To'sdi g'or yo'lin.
Kuchimni ko'r deb,
Manglayi sho'r deb,
O'rnidan jildi,
Toshni qum qildi!
O'z ko'nglin xushlab,
Xarsangni ushlab,
Otdi Nodirga,
Otdi botirga,

Biroq pahlavon,
Chap berib shu on,
To'g'rilab boshni,
Otilgan toshni
Oldi quchoqlab,
Dev dilin dog'lab,
Va unga otdi,
Asta qulatdi.
Yiqildi battol,
Yiqildi behol.
Payt keldi endi,
Duldul ham qo'ndi.
Yerga burgutdek,
Nodir turmay tek,
Otni tezlatib,
Devni ko'zlatib,
Qilichin urdi,
Dev gangib turdi,
Takror-u takror,
Qayg'urmay ming bor,
Qilichin solib
Dedi: — Men g'olib!
Baqirdi nega?
O'z tovushiga,
O'zi uyg'ondi.
O'yga cho'lg'andi...
O'ylari shirin,
Dilda yashirin,
Hansirar endi
O'zicha dedi:
— Kuchga to'laman,
Botir bo'laman!

KUNGABOQAR

Kungaboqar muloyimdir,
Uyati bor,
O'ziga xos qiziq, ajib
Odati bor —
Tunda yerga, kunduz esa
Kunga boqar.

Shu boisdan yer-u kunga
Birday yoqar.

Qorni to‘ygach, „yig‘ib olar“
U esini.
Quyosha ham ko‘rsatadi
Yelkasini.

HALOL YUR

Amakimning do‘sti bor,
O‘zi katta mansabdar.
Jindek maqtashsa agar,
O‘zin sezar baxtiyor.

Men ham bir kun maqtasam,
Erkalay ketdi meni.
Maqtovimga shirsaqich
Undirdim o‘sha kuni.

Mumday eriydi ko‘ngli,
Xullas, topildi yo‘li:
Katta bo‘lganda maqtab,
Undiraman „Jiguli“.

Deb yurgan edim, akam
Meni koyib berdilar:
— Rohatini ko‘radi
Har kimki mehnat qilar!

Qiliq qilma yasama,
O‘z kuningni o‘zing ko‘r!
Tilyog‘lama bo‘limagin,
Och qolsang ham halol yur!

OXIRGI SO‘ZLAR

Sarg‘aygan barglar
Yerga to‘kildi.
Go‘zal chiroyi
Zum o‘tmay so‘ldi.

Kimdir yoqipti —
Barglar jizillar,
Yonib chiqmoqda
Oxirgi so‘zlar...

YARADOR QUSHCHA

1

— Oyi, oyi, oyijon,
Bugun qiziq tush ko‘rdim.
Birdan chiqazib qanot,
Osmonda uchib yurdim.

Xuddi shu hozirgidek,
Qo‘llarim ham bor emish.
Bir qushchani otdilar,
Shunda qo‘llar berdi ish.

Ushlab qolib qushchani,
Uyasiga yotqizdim.
Yaralarini bog‘lab,
Tongni birga otqizdim.

Chiyillardi bechora,
Yotar edi tovlanib.
Yig‘lab-yig‘lab oxiri
Mana, qoldim uyg‘onib.

Tushdagidek ne uchun,
Uchib yura olmayman?
Yarador qushchamni men
Nahot ko‘ra olmayman?

2

O‘yinqaroq bir bola,
Qoshi baroq bir bola,
Sopqonidan otib tosh,
Qush ko‘zidan to‘kdi yosh.

Qulab tushdi qushchajon,
Ti pirchilar chalajon.
Armon qilar qushchajon,
Shafqat kutar qushchajon.

Olib qochdim mushukdan,
In tuzatdim yashikdan.
Yarasini boyladim,
Xavfsiz inga joyladim.

Don-dun berdim har kuni,
Holin so‘rdim har kuni.

Tuzalgach asta-asta,
Zerikdi u qafasda.
Qolgan kabi armonda,

Uchsam derdi osmonda.
Uni yaxshi ko'rardim,
Darrov qo'yib yubordim.

KO'KLAM QO'SHIG'I

Momaqaldiroq
Arava qo'shib,
Tog'lar ustidan
Kelmoqda tushib.

Olam yarqirar,
Yo'qdir qiyosi.
Jaranglab ketdi
Yomg'irning sasi.

Yomg'ir yog'moqda
Shitir-shitirlab,
Ko'klam qo'shig'in
Aytar shivirlab.

Giyohlar bilan
Bo'lmoqqa sirdosh,
Bulut ortidan
Entikar quyosh.

Shamol uyg'onib,
Yela boshladi,
Maysalarni u
Silay boshladi.

Haydab ketmoqda
Bulutni shamol.
Maysa va quyosh
Ko'rishar visol.

* * *

Havas bilan bolalar,
O'ynashardi voleybol.
„Tap-tup“ etib bitta to'p
O'tar edi qo'lma-qo'l.

Yorilar, yirtilar u,
Bunisi ma'lum bizga.
Biroq uning ahvoli,
Tushmasin boshimizga!...

BURGUT

(*Ertak-doston*)

Tog'ga yondash —
Yam-yashil qishloq.
Unda hayot
Qaynoqdir, qaynoq.

Saxovatli,
Manzurdir, manzur,
Chorva bilan
Olamga mashhur.

Mo'l-ko'lchilik
Haddan ziyoda.
Sof havosi
Tanga shifo-da!

Bir tomoni
Tog'ga tutash qir.

Bir tomoni
Yaylov, daladir.

Soy bo'yida
Mayin maysalar.
Zavq bag'ishlar
Shivirlasalar.

Qachonlardir,
O'tgan zamonda
Tog'ga tutash
O'sha tomonda.

Kun ko'rardi
Ajib bir yigit.
Pahlavon, mard
Ismi-chi, Burgut.

Burgut — sinchkov	Nega menga
Ko‘zлari o‘tkir.	Xizmat qilmaydi?
Hatto odam	Boqqan bo‘lsam,
Xayolin o‘qir.	Urug‘-aymog‘in...
O‘zi epchil,	Ko‘taradi
Dovrug‘dor mergan.	Nega dimog‘in?“
Yurt qo‘riqlab	Chaqirtirdi,
Yurgani-yurgan.	Uydi qovog‘in.
(Hammaga teng,	Uqala, deb
Hammaga odil.	Cho‘zdi oyog‘in.
Dilda borin	Burgut tomon
Aytardi dadil.)	Barcha tikildi.
Atrofni u	O‘tirganlar
Kuzatar sergak.	„Ho-ho“lab kului.
Biroq fe‘li	Uning rangi
Qo‘rsroqdir andak.	Ketdi bo‘zarib.
So‘lim-so‘lim	Tahqir ko‘ksin
Edi bu qishloq.	Borardi yorib.
Zamindori	Vujudida
Yurar kayf taroq.	Sezdi u malol.
To‘y to‘rida	Qo‘lga oldi
Mo‘ylovin burab,	O‘zini darhol.
Ko‘ngliga u	Odamlargacha
Tushganin so‘rab.	Termildi yona.
O‘ltirardi	Bo‘lib o‘tgan
Misoli xoqon.	Ushbu hangoma.
To‘kin edi,	Tegdi Burgut
To‘kin dasturxon.	Izzat-nafsiga.
Yeb-ichardi	So‘ng o‘qrayib.
Ho‘kiz singari,	Basma-basiga.
Xizmatidadir	Shart burilib,
Yoshlarning bari.	Ketdi, yeb azob.
Bunda lekin	Zamindor-chi,
Kimdir ko‘rinmas.	Qoldi darg‘azab...
U o‘yladi...	* * *
O‘ylandi birpas.	Qaysi bir kun
„Burgut yo‘q-ku,	Tarqaldi mish-mish.
Nega kelmaydi?	

Qishloqqa yov
Kelayotganmish.

El bag'rida —
Ayanchli ingroq,
Zamindorni
Bosdi qaltiroq.

Xavfsirab u
Mol-u mulkidan,
Amali-yu
Uzun ilgidan.

Buyruq berdi:
„Jarchilar, alhol,
Yovqurlarim
Chorlangiz darhol.
Sodiq bo'lsa,
Kim bu maskanga,
Tayyorlansin
Beomon jangga“.

* * *

Qir ustida —
Qirday bir maxluq.
Devmi desa,
O'xshamaydi, yo'q.
Ko'zlaridan
Olov sachratar.
Qarab tursang,
Ko'nglingga botar.

Og'zi esa
G'orday, bahaybat.
Yurt boshiga
Kelgan kasofat.

Yelkasida
Yoli selkillar.
Boshqacha bir
Ajdardir, ajdar.

Pastda qo'ylar,
Yotar qirilib.

Burgut titrar,
G'azabi kelib...

Ajdar birdan,
Burgutni ko'rib,
O't purkadi,
Boshin ko'tarib.

Burgut qalbin
Qurshab oldi o'ch.
Va chulg'adi
G'aroyib bir kuch.

Tashlandi so'ng
Sherday o'kirib.
Ajdar puflab
Tashladi surib.

Puflashi-chi,
Misoli bo'ron.
Siljigani
Bermaydi imkon.

Kamon tortdi,
Ko'zlab ko'zini.
Qonga belab,
Ajdar yuzini.

Bamisol
Momaqaldiroq,
Gumburladi —
Dahshatli ingroq.

Qahri keldi,
To'la vajohat,
O'rmalardi
Tezkor kasofat.

Burgut hidin
Iskab, oh tortib,
Duch kelganni
Domiga tortib...

Qisirlardi
Burgutning tishi,

Oldin o'tgan	Qishloq sari
Mardlarning ishi	Chopib ketdilar.
Yodiga tushgach,	Qachon kelar
Sevindi g'oyat.	Deya xushxabar,
Madad bo'ldi	Qishloq ahli
Tengsiz jasorat!	Burgutni kutar!
Qilichini	Yetti navkar
Qindan sug'urib,	Keldi yurib g'oz.
So'ngra biroz	Qishloq ahli
Engashib turib,	Chiqishdi peshvoz.
Shundoq oldga	Navkarboshi
Ko'ndalang tutdi.	Gerdaiyb turib,
Ajdar uni	So'z boshladi
Domiga yutdi.	Tomog'in qirib:
Yovuz ajdar	— Tepalikda
Tani tilinib,	Ajdar yotardi.
Qoq ikkiga	U xotirjam
Qoldi bo'linib...	Xurrak otardi.
Burgut bo'lib	Bosib bordik
Ishidan shodon,	Sezdirmay asta.
Terin artib,	So'ng bitkazdk
Boqdi yurt tomon!...	Kunin bir pasda.
* * *	
Zamindorning	Burgut asli
Yetti navkari,	O'zi qo'rqaq-da.
Qo'rqiб titrar	Qochib qoldi
Simob singari.	Boshqa qishloqqa.
Ajdar o'ldi,	Burgut — qochoq!
O'lGANI ayon.	Nahotki... Sabab?
Navkarlar-chi,	Kimdir hayron,
Sevindi chunon.	Kimdir darg'azab.
Burgut qani?	O'sha kuni
— O'ldi u nokas.	Qilishdi qaror:
— O'ldi, o'-l-d-i...	„Qaytib kelsa, Haydalsin beor!“
Qayta tirilmas.	Mol-mulkini
Bunga chindan	Bo'lishib darrov,
Ishonib ular,	So'ng uyiga
	Qo'yishdi olov...

* * *

Burgut g'amnok,
Yo'q edi majol.
Tutun ichra
Surardi xayol.

So'zlab berdi
Onayizori
Bo'lgan gapni
Tutab oh-zori:
— Hasadgo'y ko'p,
Ko'pdır beimon.
Yurt ishonar
Ularga hamon!

Xaloyiq jim...
Bir so'z deyolmas.
Go'yo oyoq
Ostida cho'p-xas.

Burgut yondi
Chekib nadomat.
Ustun chiqdi
Axir xiyonat.

Bo'hton yoqqach,
Qadri-sha'niga,
Bunday hayot
Tegib joniga,

Cho'lga tomon
Ketdi-ku chopib...
Sirli bir o't
Yegach u topib.

Shamshir misol
Qanot bitibdi.
Alam bilan
Uchib ketibdi.

La'nat o'qib
Yolg'on turmushga,
Aylanib u
Ulkan bir qushga,
Bulutlarni
Kesib borardi.
Dardi ko'nglin
Ezib borardi.

O'z-o'ziga
Nenidir so'zlar.
U kimsasiz
Joylarni izlar.

Ko'rindi, ho',
Yuksak qoya ham.
Yashayin deb,
Yolg'iz, xotirjam,
Odamlardan
Uchdi u yiroq,
Endi Burgut
Tinmay chekar oh!..

* * *

Kuyib qallob,
Nomard dastidan,
Uchib o'tar
Qishloq ustidan.

Dardin yutar,
Aslo aytolmas...
Odam bo'lib,
Ortga qaytolmas!

Tomirida
Yurt ishqı oqar.
Qoyalardan
Sog'inib boqar!..



Anvar Obidjon

(1947- yilda tug‘ilgan)



Anvar Obidjon iste’dodli bolalar shoiri, adibi, dramaturgidir. Uning biringchi kitobi — „Ona yer“ 1974- yilda dunyo yuzini ko‘rgan. O‘tgan yillar davomida Anvar Obidjonning „Masxaraboz bola“, „Bahromning hikoyalari“, „Olovjon va uning do‘stlari“, „Ey, yorug“ dunyo!“, „Juda qiziq voqeа“, „Oltin yurakli bola“, „Dahshatli meshpolvon“, „Qo‘ng‘iroqli yolg‘onchi“, „Pahlavonning o‘g‘irlanishi“, „Ramazon va Gulmat hangomasi“, „Odobli bo‘lish osonmi?“, „Bezgakshamol—2“ va boshqa kitoblari chop etilgan.

DAHSHTALI MESHPOLVON

(Doston-qissadan parcha)

Ajdodlarining butun bir sulolasini yer chopib, urug‘ sochish bilan ko‘hna xonadonga rizq ularшиб kelgan Meshpolvon ilgari sahroni hech ko‘rmagan edi. Sahro deganda har vaqt uning ko‘z o‘ngida to‘lqinlari qotib qolgan dengizni eslatuvchi yap-yaydoq qim barxanlari jonlanardi. Unchalik emas ekan. Bu maskanning ham o‘z shovqin-u jimliklari, maysa-yu o‘simpliklari, muqim kun kechiruvchi jonzot-u hasharotlari, alohida bardoshga yo‘g‘rilib yaratilgan parranda-yu darrandalari, ularning o‘ziga xos yashash tarzi, ayni chog‘da, bir-biriga zanjir halqalaridek bog‘liqligi, faqatgina shu joyga mansub hayot qonunlari bor ekan.

Odamzod doimo odamlar orasida o‘zini erkin va qudratli sezadi, chetga chiqdi deguncha turli xavf-xatarlarga yo‘liqadi, yolg‘izlanib, pashshadek ojizlanib qoladi. O‘rmon ayiqlari bilan, adir bo‘rilari bilan, to‘qay qoplолнari bilan, suvlik nahanglari

bilan, dasht qashqirlari bilan, tog‘ to‘ng‘izlari bilan uni hurkita boshlaydi, qalbida yana tezroq odamlarga borib qo‘shilish istagini tug‘diradi.

Sahroda ham shunday bo‘ldi. Sovuqturq echkemarlar galasi o‘ttiz qadamcha orqaroqqa yoyilib olib, Meshpolvon bilan uning cho‘loq xachirini talay joygacha ta’qib qilib borishdi.

Meshpolvon xachirga teskari o‘tirib, bigizli o‘qlovni qo‘liga qo‘ndirib, eti dir-dir titrab, yirtqichlarga zog‘lanib qarab, to‘xtamasdan olg‘a ketaverdi. U umrida ilk bor sodir bo‘lish ehtimoli kutilayotgan katta jangga o‘zini tayyorlab, qorniga qistirig‘liq dastkallak tig‘ini boshmaldog‘ida siypab-siypab qo‘yadi. Kun tikkaga kelib, borliqni jizg‘anak qilishga urinayotgan pallada, nihoyat, echkemarlarning bardoshi sob bo‘lib, odatdagि tirikchilikka tarqalishdi.

Jizg‘anak barxanlarning cheki yo‘qdek edi. Meshpolvon birikki kundan keyin: „Bu sahroning cheti yer tugagan joyga borib taqalsa-ya“, — deb xavfsiray boshlagan ham ediki, orqadan bir otliqning sharpasi ko‘rindi. Yaqinlashib kelg‘ach, mundoq qarasa, guldor yugan ushlagan, tagida tulpor kishnagan, ko‘zida qandaydir ilinj, belida bir quloch qilich, gavdasi g‘o‘la, bilagi quvvatga to‘la bir o‘spirin qarshisida turibdi, qozonqopqog‘-u o‘qlovlardan ajablanib, tegrasida aylanib yuribdi. Siyog‘idan payqash mumkinki, shoshib tursa — qamchilab, shoshmasa — so‘z bilan chimchilab o‘tadigan chamasi bor.

Uning avzoyidan cho‘chinqiragan Meshpolvon „qo‘rqqaq oldin musht ko‘tarar“ qabilida ish ko‘rib, qolaversa, qo‘ynidagi ilonlariga ishonib, boshidan chapyani oldi, peshonasidan terni yengiga artib, to‘satdan dag‘dag‘a qildi:

Qo‘rqmay o‘limdan,
Turma yo‘limda.
O‘qlov qo‘limda,
Ilon qo‘ynimda.

Bu qozonqopqoq
Mardlarga yaroq,
Dastkallam — pichoq,
Xachirim cho‘loq.

Boshimda yo‘q soch,
Chapya menga toj,
Yo‘lni to‘sma, qoch.
O‘zi qornim och.

Buni eshitib, aslzoda o'spirin qotib-qotib kuldil. Kulgisi tiyilgach, Meshpolvonga masxaraomuz tikilib, otdan xachirga bukilib, so'roq qistovini boshladi:

Tappaytirib burningni,
Qappaytirib qorningni
Qayoqlarga ketyapsan?

Och qarg'adek donsirab,
Nortuyadek hansirab,
Qayoqlarga ketyapsan?

Tuksiz kallangni ochib,
Miyang qatiqdek achib,
Qayoqlarga ketyapsan?

Sahroyi tap-taqirda,
Uch oyoqli xachirda
Qayoqlarga ketyapsan?

Meshpolvon o'ziga gap yuqtirgisi kelmay, kalaka qilinayot-ganini go'yoki sezmay, jiddiy turib javob qildi:

Yo'lga chiqsam, asosim bor,
Sepkilshohda qasosim bor,
Elimni u talab o'tdi,
Asalimni yalab o'tdi.
Kallalardan qasr qildi,
Ko'pchilikni asir qildi.
Pahlavon dadam — unda,
Mehribonim — onam unda.
Borib ozod qilayin deb,
Enamni shod qilayin deb,
Qo'g'irmoch yeb, kuchni to'plab,
Yo'lga tushdim kaftga tuflab.

Bu gapdan keyin dimog'dor o'spirinning birdan qiyofasi o'zgardi, kechir meni, dardingni so'ramasdan turib, qattiq tegib qo'yibman, deya otdan tushdi. Kelib Meshpolvonga do'stona qo'l uzatdi:

— Endi og'a-ini bo'lamiz, — dedi u ochiq chehra bilan boqib.
— Yo'limiz bir ekan. Mening otim — Oshiqbola.
— Men to'g'rimda, albatta eshitgansan, — deb kekkaydi Meshpolvon. — O'sha dahshatli Meshpolvon menman. — So'ng afsuslangandek bosh tebratib, qo'shib qo'ydi, — Sening noming qulog'imga chalinmagan ekan. He, attang...

Meshpolvon shu g'o'dayganicha birpas o'zidan quvonib turaversin. Fursatdan foydalaniб, biz Oshiqbola bilan durustroq tanishib olaylik.

* * *

Voh, nuridiydam kitobxonim! Tili biyron bolakaylor! Shirin-shakar qizaloqlar! Sizlar judayam omadlisiz. Chunki o'zbeklarga faxrli, yovlarga qahrli bo'l mish dovyurak Go'ro'g'libek haqidagi qiziq rivoyatlarni eshitmagan, uning mardona janglarini sharaf-lovchi dostonlarni o'qimagan sho'rpeshonalar orangizda yo'q.

Esingizda turgan bo'lsa, yengilmas Go'ro'g'libek shuncha davr surib, bittayam farzand ko'rmadi. Hasanxon degan bolani Vayan-gan elatidan, Avazxonni Xunxer yurtidan olib kelib, tarbiyalash uchun bunisini Misqol pariga, unisini Og'a Yunus pariga tutqazdi.

Bolalar ulg'ayib, yigit bo'ldi, biri lochin-u, biri burgut bo'ldi. Ko'п savdolarni boshdan kechirib, g'animplarning kayfini uchirib yashashdi. Hasanxon suluv xon Dalliga uylanib, o'g'il ko'rди, otini Ravshanbek qo'ydi. Avazxon bilan Gulqizdan esa qiz tug'ilib, nomi Gulnor bo'ldi.

Necha marta qor erib, necha bor chechak undi. Qiz erkaroq, o'g'il serkaroq bo'lib chaqaloqlar voyaga yetgach, Hasanjon Avazbekning xonadoniga sovchi jo'natdi. Keksa Go'ro'g'libekning o'zi o'rtaga tushib, oqlik so'rab bordi. Avazxon bo'lsa o'z og'asi Hasan-xonning o'g'lini qiziga teng ko'rmay, boboning dilini og'ritdi. Bu orada Ravshanbek Shirvonshohning qizi Zulkumorga oshiq bo'lib, yuz xil quvonch-azob ko'rib, oxiri unga uylandi.

Yana kun ketidan oylar o'tdi, qo'ldan-qo'lga choylar o'tdi, Ravshan bilan Zulkumor sochi jingalak, peshonasi do'ngalak, zotdor qo'zidek to'lpoq, qora ko'z-u oppoq o'g'il ko'rishdi, ismini Oshiqbola qo'yishdi.

Oshiqbola uch yoshida ariqdan sakrab o'tadigan, to'rtida harf bitadigan, beshida kitob tutadigan, oltisida o'zini otda erkin tutadigan, yettisida noniga xanjarda yog' surtagan, sakkizida o'q-yoy bilan tangani yirtadigan, to'qqizida tuxumni xom yutadigan, o'nida polvonlarni yelkada turtadigan, o'n birida uyida oshna kutadigan, o'n ikkisida haftalab ovga ketadigan bo'ldi.

O'n uchida ham ovdan ko'ngli sovumadi. Bir kuni chambillik chapdast jo'ralari bilan kiyik quvib yurib, Bobotog'da bir gala qizlarga duch kelib qolishdi. Ularning sardori, Boysun begining Oytumor ismli qiziga ishqи tushib, eliga sarxushlanib qaytdi, dardini Go'ro'g'libek bobosiga aytdi. Bobosi qirqta guldek navkarini chaman,

ulovlarini saman qilib, sovg'a-yu, mol-hol, yana uchta oqsoqol bilan Boysungasovchi yubordi. Ko'p o'tmay, sovchilar ikki qo'li burnida qaytib, noilojlikning sababini aytib, Sepkilshohning askarlari Boysundagi sandiqlarni qoqlab, yigit-qizlarni bog'lab, qul va cho'rilikka olib ketganini ma'lum qilishdi. Buni eshitib, Go'ro'g'libekning yurak sanchig'i, Oshiqbolaning achchig'i qo'zidi. Bobosidan G'irotni tilab, dadasingin qilichini tasmasiga ulab, Sepkilshohning qasdida jag'ini silab, yo'lga chiqdi...

Oshiqbolaning gaplarini Meshpolvon o'shanday g'o'dayganicha tinglab bo'lgach, unga boshdan oyoq nazar solib, dedi:

— Dadam onamgasovchi qo'yanida opoq otam: „Hali yosh ekansan, kurash tushsang — belingni, o'g'ri bossa — kelingni,¹ dashman kelsa — elingni saqlay olarmikansan?

Avval iligingni to'ldir, biron hunarni do'ndir, payingni shishir, aqlingni pishir, keyin uylan“, degan ekan. Seniyam boshing chumchuqdeg-u, yondim-kuydim deyishingga o'laymi?

— Zotimiz o'zi shunaqa, — deb javob qildi Oshiqbola, — Dadam Ravshan botir ham o'n uch yoshida Shirvonda qilich savashib, onamni olib kelgan.

Buni eshitib, Meshpolvon chuqur xo'rsinib qo'ydi:

— Mening dadam o'ttizada ro'zg'or qilgan.

* * *

Shu ko'yi ikkalasi gapni gapga ulab, yomonning nomini balchiqqa bulab, yaxshini osmonga ko'tarib, garmseldan yuzlari ko'karib, saksovullarni oralab, poyonsiz sahroni bo'ralab bora-verdilar. Bir yoqda jizg'anak azobi, ikkinchi yoqda suv va ovqat tejami, yana uyqusizlig-u sargardonlik balosi qo'shilib, uch-to'rt kundayoq Meshpolvonning holi tang bo'ldi: og'zi qaqrab, tomog'i taqilladi, jag'i ochilib, tili sangilladi.

Oshiqbola shu damgacha o'zini o'zi bardam tutib kelayotgan edi. Ammo ertalab qulog'i tagida qandaydir shish paydo bo'ldi-yu isitma chiqib, ko'zlariga qon quyildi, belidan mador ketdi.

— Buqoq bo'lganga o'xshayman, — deya ruhi so'nib po'ng'illadi u. — Shu bashara bilan Oytumorga qanday yo'liqaman?

Meshpolvon pishillaganicha qo'l siltab, dedi:

— Xafa bo'lma, buning yo'li oson. Ozgina noningdan bersang, qanday tuzatishni aytaman.

¹ Keli — ichi o'yilgan go'la, kelisop bilan urib, unda don tuyishgan.

Bo‘lsayam sal nafsi buzuq,
 Meshpolvoni ekan qiziq.
 Undan biron savol so‘rsang,
 Javob berar taom bersang.
 — Sahrodayam bormikan ko‘z?
 — Avval menga qurutdan cho‘z.
 — Nega otdan kichik xachir?
 — Talqon berib, keyin gapir.
 — Gullarmikan saksovul ham?
 — Aytay, nonni ko‘rsam baham.
 — Oymomodan kattami Yer?
 — Bilmaysanmi? Mayizdan ber...
 Necha kunki, ahvol shudir,
 Ol deyish yo‘q, faqat — „yedir“.
 Bo‘lsayam sal nafsi buzuq,
 Meshpolvoni ekan qiziq.

Oshiqbola G‘irotning yuganini tortib, sekin yerga tushdi. Otning beliga har ko‘zi bir toy paxtadek keladigan kattakon xurjun tashlangan edi, ochiqqa‘l aslzoda undan to‘rtta non, yarim xalta talqon, yigirmatacha pishirilgan tuxum, anchagina mayda turshak olib, dasturxon yozdi. Yozilayotgan dasturxonning shabadasidan uchgan qumlar to‘xtab ulgurmasidan, Meshpolvon allaqachon shu joyga chordona qurib olgandi. Oshiqbola narsalarni birin-ketin o‘rtaga keltirib qo‘yayotgan chog‘da u mammun tamshanganicha, har safar: „Rahmat, oshna. Sira kam bo‘lma!“ — deb turdi.

Nihoyat, „oling-oling“ga navbat keldi. Oshiqbola dastlabki non burdasini og‘ziga solayotib, tuxumga sepishga tuz yo‘qligini ko‘rdi-yu turib borib, yana xurjunni titkiladi. Tuzni olib bo‘lganini tushunmay, bir muddat angrayib qolganidan so‘ng, Meshpolvondan so‘radi:

— Hoy, dasturxondagilar qani?
 — Nima balo, seniyam qorning ochmidi? — deya bezrayib boqdi Meshpolvon. — Shuni oldinroq aytmaysanmi? Qo‘lingdagi yeydigan narsami o‘zi?

— Tuz.

— Qani, bu yoqqa uzat-chi!

Meshpolvon tuzni olib, shartta og‘ziga to‘kdi. Yutayotib, hatto yuzini burishtirib ham qo‘ymadi.

Ular ovqatlanib bo‘liboq yana yo‘lga tushishdi. Oshiqbola olmaqoqini so‘rib borayotib, buqoqning davosini aytaman degan eding, deb zardalandi.

— Hozir aytaman, — dedi Meshpolvon. — Oldin ozgina ovqatdan cho'zgin. Chika minan Puka esdan chiqibdi-ku.

— Kim deding? — bir to'g'ram zog'orani uzatayotib so'radi Oshiqbola.

— Ilonlarim, — deya zog'orani uch qismga bo'lib, birini o'ng qo'yniga, ikkinchisini chapiga tiqdi Meshpolvon. Uchinchi bo'lakni esa o'zi yamlay boshladi. — O'ng qo'lting'imdagisi — Chika, chapdagisi — Puka. Umringda oshiq o'ynaganmisan? Otgan oshig'ing yutuq tomonga yonboshlasa, chika, teskari tarafi tushsa, puka bo'ladi.

Ana endi Meshpolvonning Oshiqboladan kulishini ko'ring:

Sho'ring qursin, baxmal chopon,
Ulg'ayibsan juda nodon.
Oshiq nima, bilmasmisan?
O'zbekmisan, habashmisan?
Bordir yana yong'oq o'yin,
Yutsang — ovqat ikki qo'yin.
Yoz kelganda kirib bog'ga,
Otganmisan po'lat soqqa?
Yerga chizib „fizma-chiziq“,
Sopol surish undan qiziq.
O'ynamagan bo'lsang dasta
Demak, mendan zarbing past-da.
Bilmayman, deb jahlim qo'zma,
Axir, mashhur „quloqcho'zma“
Kam emasdир ulog'ingdan,
O't chaqnaydi qulog'ingdan.
Hammasini qiyoslab ko'r,
„Mo'ri-mo'ri“ o'yini zo'r.
Bordir yana „bekinmachoq“,
Eng qaltisi — „urshapaloq“.
Aralashsa agar qizlar,
Kelin-kuyov saylab bizlar,
O'ynar edik „Xola quchgan“,
Kimkisovchi — qo'lga tushgan.
O'ynaganlar „Oq-ko'k terak“,
Chopa olar naq pirpirak.
Yetti pushtdan qolgan meros
„Halov tuya“, „Tojixo'roz“...
E, bularni kim bilmabdi,
Bu dunyoda tug'ilmbabdi.

Oshiqbola nafsi o'tkir yo'ldoshining bidirlashlariga beparvo qulq solib turgach, qovoq-tumshug'i osilib turadi:

— Buqoqning davosi nima, deyapman? Yo xurjunim bo'shamaguncha aytmaysanmi?

— Buqoqmas bu, — deb, nihoyat, asosiy gapga o'tdi Meshpolvon. — Buni tepki, deyishadi. Davosi oson: ikkita kulchami, to'rtta olmami, oltita varaqimi — nimaiki topsang, hisobini juft qilib, egizak tug'gan xotinning uyiga borasan, qo'lingdagini berib, dardingni aytasan. Yegan og'iz uyalar, degan gap bor. Xotin hamma ishini tashlab qo'yib, kallangni po'saxonaga¹ minib yotqizadi, shishgan joyingga yalang oyog'i bilan yetti marta tepadi. Bir haftadan keyin „sen ko'rmading, men ko'rmadim“ bo'lasan.

Hafsalasi pir bo'lgan Oshiqbola indamay otiga qamchi urdi. Meshpolvon ham nogiron xachirni oldinga niqtab, sevimli qo'shiq'ini xirgoyi qila boshladi:


Olma yedim baqalog'idan,
Gilos yedim chaqalog'idan,
Anjir yedim yapalog'idan,
Bog'bon buvaning shapalog'idan...

Ular turtinib-surtinib, yana talay yo'l bosishdi. Egizak bolali xotin u yoqda tursin, qarg'ish tekkan bu sahroda biron-bir tirik jonning o'zini uchratish amri mahol edi. Shunga qaramay, Oshiqbolaning bo'ynidagi shish bir haftada o'z-o'zidan qaytib ketdi.



¹ Po'saxona — ostona

**Hamza
Imonberdiyev**
(1954—1997)



Qisqa va sermazmun umr kechirgan Hamza Imonberdiyev baxtiyor oilasi quchog'ida, qadrdon do'stlari, ustozi shogirdlari davrasida, sevimli jamoasi orasida yashab-ishlab ijod qildi. „Quvnoqlar quvonchi“, „Shokoladxo'rilar“, „Kulgi shaharchasi“, „G'aroyib pufak“, „Oydag'i tomosha“, „Qutichada mitticha“, „Lofchilar-aldoqchilar“, „G'aroyibkent hangomalari“, „Bir kunlik mo'jiza“ nomli kitoblari bosilib chiqqan.

LOFCHILAR-ALDOQCHILAR

Ali, Vali lofchilar —
Xushchaqchaq aldoqchilar
Rosa lofni urishar,
Ko'pikdan uy qurishar,
Mazza qilib kulishar.

Ali debdi: — Vali, kel,
Rasmimga bir baho ber.
Qushcha chizdim ajoyib,
Ajoyib-u g'aroyib.
Ana u don yeyapti,
Menga rahmat deyapti.

Vali boqsa varaqqa,
Shakl yo'q hech qanaqa.
— Aldabsan-ku qani don?
— Qush yeb qo'ydi-da nodon!
— Yo'qotdingmi hushingni,
Ko'rmayapman qushingni?!

— To‘ygach, qushcha chirq etdi,
„Rahmat“ deb uchdi-ketdi!

Ali, Vali lofchilar —
Xushchaqchaq aldoqchilar
Rosa lofni urishar,
Ko‘pikdan uy qurishar,
Mazza qilib kulishar.

* * *

Ali boshin qashlaydi.
Jiddiy turib boshlaydi:
— Aqli bir itim bor,
Misolni shart ishlaydi.
— Ruchkani qanday ushlar?
— Tishi bilan tishlaydi.
Xo‘jayin, o‘ynab qol, der,
Tortinma, bemalol, der.
She‘r yodlashmi, masala,
Deydi, menga qo‘yib ber.
— Bo‘lishi mumkin, Ali, —
Quvvatlar uni Vali.
— Menda ham o‘zi ishlar
Yangi avtoruchka bor.
Masalami, misolmi,
Bir zumda qilar tayyor.
— Unda nega „uch“ olding
Tunov kuni diktantdan?
— Ruchkamga siyoh tortish
Chiqib ketibdi yoddan.

Ali, Vali lofchilar —
Xushchaqchaq aldoqchilar
Rosa lofni urishar,
Ko‘pikdan uy qurishar,
Mazza qilib kulishar.

TURDI, O‘G‘RI VA KETMONVOY

— O‘g‘ri urdi, o‘g‘ri urdi! —
Dodlab qoldi bir kun Turdi.
Ota-on, militsioner
Har tomonga zir yugurdi.

— Nima bo‘ldi? Ne gap axir?
Ne yo‘qoldi tezroq gapir?!

— Ishtaham yo‘q, voy, ishtaham,
Ishonsangiz tushimda ham
Ovqatlar tinch qo‘ymas edi,
Yerdim, yerdim, to‘ymas edim.
Endi esa... yo‘q, tez choping,
Ishtahamni tezroq toping.

Boshim og‘rir tun-kun lo‘q-lo‘q,
Sog‘lig‘imning mazasi yo‘q.
Tush ko‘raman ayqash-uyqash,
Uxlolmayman, oh, ko‘nglim g‘ash.

— O‘g‘ri urdi, o‘g‘ri urdi! —
Tinmay dodlar kichik Turdi.
— Sog‘lig‘im-u, shirin uyqum
Tez topinglar, — deb buyurdi.

Naq o‘ttizta militsioner
Saf tortishib: — Topamiz, — der.
— Tez yo‘qolgan buyumlarning
To‘la-to‘kis ro‘yxatin ber!

Doktorlar ham, shoshaylik, deb,
Ishtahasin ochaylik, deb.
Shahar bo‘ylab kezdilar xo‘p,
Dorilardan tizdilar ko‘p.

Ukol olsa nozik joylar,
Turdi sho‘rlik xo‘p voy-voylar.
Ishtaha-chi, ochilmaydi,
Ochilmoqqa shoshilmaydi.

Hovlida jim yotgan ketmon
(Ishlatilmay zanglab ketgan)
Toqati toq bo‘lib xullas,
Turib ketdi o‘rnidan dast.

Bir-bir bosib kelib to‘g‘ri
Dedi: — Menga ayon o‘g‘ri!
— Kim ekan u? Ko‘rsat bizga
Ozor bergen o‘g‘limizga —
Jazosini olsin axir,

Jon Ketmonjon, tezroq gapir!
Turdi qistar: — Ko‘rsat, ushlay,
Biqiniga boplab mushtlay!

— Shoshma, Turdi, sabr et picha,
Avval zangim ketgunicha.
Yumshatasan daraxt ostin,
Tekislaysan baland-pastin.

Gulzorni ham chopib ber, hay,
So‘ngra mayli, topib beray.
G‘irromlik yo‘q, aldash ham yo‘q,
Sen ko‘nglingni tutaver to‘q.

Ish boshladи tezda Turdi,
Gursillatib ketmon urdi.
Jiq ho‘l bo‘ldi ko‘ylak terdan,
Bosh og‘rig‘i qoldi birdan.

Ishtaha ham ochildi lang.
Turdi hayron, turar hang-mang,
Gulzorni ham bo‘ldi chopib,
Yo‘qotganin oldi topib.

Do‘sstar, ayting ochiq, to‘g‘ri,
Sezdingizmi, kim u o‘g‘ri?!

DARSDA

— Egam, qara, pishillab
Uxlayapti-ya O‘lmas!
— Shu gapni aytish uchun
Uyg‘otdingmi, a galvars?!

MASLAHAT

— Qancha „s“ yoziladi
„Hassa“ so‘zida, ajab?
Bittami, ikkitami,
Bilolmay hayron Rajab.
— Uchta „s“ yozing, aka, -
Aql o‘rgatar Jo‘ra.
— Ortib qolgani ma‘qul,
Yetmay qolgandan ko‘ra.

ALLA

— Ana, Bo'ri kelyapti!
Uxlay qol, ovunchog'im.
Qo'y shunday deb qo'rqtib,
Uxlatar qo'zichog'in.

— Vuy, anovi ilonni!
Uxla tez, bolajonim.
Chumchuq shunday qo'rqtib,
Uxlatar polaponin.

— Uxla, Olabo'jiyov
Ko'rsatgan qorasini.
Odam shunday qo'rqtib,
Uxlatar bolasini.

Ona Burgut allalar:

— Uxla, kuchga to'lib o's.
Ushbu tog'-tosh, osmonning
Hukmdori bo'lib o's!

Pisand etmay xatarni
Shundanmi polaponi,
Tushlarida charx urar
To'ldirib keng samoni.

KENGURUNING NIDOSI

— Ko'nglim juda bezovta,
Qafasingni och, egam.
Xo'p de, loaqal bir marta,
Portlab ketar yuragim.

Ko'nglim juda bezovta,
Hozirgina tush ko'rdim.
Dingolar qurshovida
Bolamni behush ko'rdim.

Xizmat qildim chin dildan,
Endi juda qaridim.
Qafasim atrofidan
Ayt, xalq qachon aridi?!

Shu katakda o'tkazdim
Ayni o'ktam chog'imni.
Chidolmayman, bas endi,
Bolajonim sog'indim...

Kenguruning ko‘zidan
Dumalaydi unsiz yosh:
— Yolvoraman, jon egam,
Tezroq qafasingni och!

KIM KIMNI TERGAYDI?

— To‘g‘ri o‘tir, qiyshayma! —
Ukajonim tergayman.
— Bo‘ldi endi, ishshayma! —
Tergab tinchlik bermayman.
— Yaxshi o‘qi, toza yur, —
Dadam meni tergaydi.
— Barvaqtroq tur, chop, yugur,
Sog‘lom bir vaqt terlaydi.
— Kurash til, urfing uchun,
Buni birov bermaydi! —
Shunday deb bobom har kun
Dadamlarni tergaydi.
— Buva, — dedim bir kuni, —
Bormi sizni tergar zot?
— Ko‘hna qabristondagi
Ajdodlar tergar bot-bot, —
Deya bobom „uh“ tortdi,
Ko‘z yumib, o‘yga botdi.

YAKSHANBADA

Ota-onam dam olar:
— Bizni tinch qo‘y, jon „qo‘zim“,
Akam ham jo‘nab qolar,
Bugun yana bir o‘zim.

Mushugim bor ovunchoq,
Biroq no‘noq-da so‘zga,
Gaplashgani kimsa yo‘q
Televizordan o‘zga.

Yaqin surib kursimni,
Joylashgancha qulay man,
Hech ajralmas do‘stimning
Quloqlarin burayman.

Zerikkan chog'i u ham,
Javray ketdi tinmasdan.
O'tiraman yonidan
Bir qadam ham jilmasdan.

Meni sira tinglamas,
Faqat o'zi gapirar.
Soqov bo'lish hech gapmas
Bunaqada, yopiray.

Tikilaman ko'chaga,
Ko'kda quyosh porlaydi.
Zumrad bog'lar bag'rige
Kela qol, deb chorlaydi.

Qarab dilim mayliga,
O'rnimdan turaman shart.
Otilaman ko'chaga
Qidirib dilkash, hamdard.

Meni ko'rib yaproqlar
Chapak chalib quvnaydi.
Qushlar sayrar chah-chahlab,
Kaptarlar g'uv-g'uvlaydi.

— Ha, qalaysan, kapalak?
U o'ynoqlab charx urar.
— Salom, bola, -- degandek
Anhorda suv sharqirar.

O'sha kuni kechgacha
Sof havoda tiniqib,
Ona tabiat bilan
Gaplashdim xo'p miriqib.

SIRLI FUTBOL

Omchorxona ichida
O'yin borar g'alati,
Futbolchi sichqonvoylar
Ko'rsatishar talantin.

Tomoshabin mushuklar
O'tirishar suyunib,
Goh big'illab qo'yishar
Yolg'ondakam kuyunib.

To'p — dumaloq bo'g'irsoq,
Uchar har yon o'q kabi.
O'yin chiqqan avjiga,
Goldan darak yo'q hali.

Aybdor bunga hakamdek,
Big'illashdi har yondan:
— Nega gol yo'q, qani gol?
Sudya, yo'qol maydondan!

Hakam sichqon dovdirar,
Zo'r-zo'r ekan, nachora,
Hushtagini topshirib,
Qochib qoldi bechora.

Shu payt deng naq markazdan
Tepdi Viy-viy botinib.
Darvozabon Chiy-chiycha
Tutolmadi otilib.

Bombardirni shu zahot
Tushirgali suratga.
Fotomuxbir Baroqvoy
Sudrab ketdi xilvatga.

Chiqar rangli surati
Gazetada azonda.
Tushib ketgan bo'lmasa
Agarda oshqozonga.


Hech gap emas jarohat,
Davolar doktor Miyov.





Sharl Perro

(1628—1703)



Sharl Perro adabiy ertak asoschisi sifatida bir necha asrlardan beri dunyoga mashhur bo'lib kelmoqda. Buyuk fransuz shoiri va tanqidchisining „Qizil Shapkacha“, „Zolushka“, „Uyqudag'i malika“, „Mitti bola“, „Etik kiygan mushuk“ kabi ertaklari dunyo kezib, kitobxon bolalar qalbini rom etmoqda.

Adib xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan yumordan, istehzoli kulgidan o'rinali foydalanganligi sababli bunday baxtga erishgan.

Ertakchining barcha asarlarida yaxshilik yomonlikka, soddalik ayyorlikka, olижаноблик yovuzlikka, go'zallik xunuklikka qarshi qo'yiladi. Insonga mehr-muhabbat ulug'lanadi.

QIZIL SHAPKACHA

(Ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir qishloqda jajjigina bir qizcha bor ekan, u dunyoda tengi yo'q, juda yoqimtoy qiz ekan. Oyisi uni jonidan ham yaxshi ko'rар ekan, buvisi bo'lsa undan ham yaxshi ko'rар ekan.

Buvisi nevarasining tug'ilgan kuni munosabati bilan qizchaga bitta qizil shapkacha sovg'a qilibdi.

O'shandan beri qizcha qayoqqa borsa, shu chiroyli, yangi qizil shapkachasini kiyib borar ekan. Shuning uchun qo'nish qo'shnilar uni ko'rganda:

— Ana, Qizil Shapkacha kelyapti! — der ekanlar.

Bir kuni oyisi somsa pishirib, qizchaga aytibdi:

— Oying aylansin, Qizil Shapkacha, mana bu somsa bilan kuvachadagi yog‘ni buvingga oborib bergin, eson-omonligini bilib kelgin.

Qizil Shapkacha kiyinib, buvisini ko‘rgani narigi qishloqqa ketibdi. U o‘rmondan o‘tayotsa, oldidan bir Bo‘ri chiqib qolibdi. Bo‘ri Qizil Shapkachani yamlab yutib yuborgusi kelibdi-yu, lekin botinolmabdi, chunki shu yaqin orada o‘tinchilar daraxt kesib yurar, boltalarining taraq-turuq ovozi eshitilib turar ekan.

Bo‘ri yalinib qizdan:

— Qizil Shapkacha, qayoqqa ketyapsan? — deb so‘rabdi. Qizil Shapkacha bo‘lsa, o‘rmonda to‘xtab, Bo‘ri bilan gaplashishning qanday qo‘rquinchli ekanini bilmas ekan. Shuning uchun ham u Bo‘ri bilan salomlashibdi-da, keyin debdi:

— Buvimni ko‘rgani ketyapman, buvimga mana bu somsalar bilan kuvachada yog‘ oboryapman.

— Bovingning uyi uzoqdam? — deb so‘rabdi Bo‘ri.

— Ha, ancha uzoqda, — deb javob beribdi Qizil Shapkacha.

— Tegirmon orqasidagi qishloq bor-ku, hov ana, eng chekkadagi uyni ko‘ryapsanmi — o‘sha.

— Yaxshi, — debdi Bo‘ri, — men ham buvingni ko‘rib kelaman. Manavi yo‘ldan boraman, sen bo‘lsang anavi yo‘ldan bor. Ko‘ramiz, kim oldin borarkan.

Bo‘ri eng yaqin yo‘ldan g‘izillab chopib ketibdi.

Qizil Shapkacha bo‘lsa eng uzoq yo‘ldan yurib ketibdi.

Qizcha yo‘lma-yo‘l to‘xtab, gullar teribdi, gulasta yasabdi. Qizil Shapkacha hali tegirmon oldiga yetmagan ekan. Bo‘ri kampirning uyiga yetib kelib, eshikni taqillatibdi.

— Taq-taq!

— Kim? — deb so‘rabdi kampir.

— Men nevarangiz Qizil Shapkachaman, — deb javob beribdi Bo‘ri ovozini ingichka qilib. — Siznikiga mehmon bo‘lib keldim, somsa bilan kuvachada yog‘ keltirdim.

Kampir bu vaqt to‘sakda kasal bo‘lib yotgan ekan. U chindan ham Qizil Shapkacha kelgandir deb o‘ylab, shunday debdi:

— Jonginam, ipni tort, eshik ochiladi!

Bo‘ri ipni tortibdi — eshik ochilibdi. Bo‘ri chopib borib, kampirni bir yamlab yutib yuboribdi. Bo‘ri judayam och ekan, negaki u uch kundan beri ovqat yemagan ekan.

Keyin Bo‘ri eshikni yopib, kampirning to‘sagiga kirib yotibdi-da Qizil Shapkachani kuta boshlabdi. Tezda Qizil Shapkacha kelib, eshikni taqillatibdi:

— Taq-taq!

— Kim? — deb so‘rabdi Bo‘ri.

Qizil Shapkacha Bo‘rining xunuk ovozini eshitib, avval qo‘rqibdi, keyin: buvim tumov-pumov bo‘lgandir, — deb o‘ylab, javob beribdi:

— Men nevarangiz Qizil Shapkachaman. Sizga somsa bilan kuvachada yog‘ keltirdim.

Bo‘ri yo‘talib olib, ingichka ovoz bilan:

— Ipni tort, jonginam, eshik ochiladi, — debdi.

Qizil Shapkacha ipni tortsa— eshik ochilibdi.

Qizcha uyga kiribdi. Bo‘ri bo‘lsa ko‘rpaga burkanib olib, debdi:

— Somsani stolga, kuvachani tokchaga qo‘y, o‘zing yonimga kelib yot! Juda charchagandirsan.

Qizil Shapkacha Bo‘ri bilan yonma-yon yotib, undan so‘rabdi:

— Voy, buvijon, qo‘llaringiz buncha uzun?

— Seni mahkamroq quchoqlash uchun, jonginam!

— Buvijon, oyoqlaringiz buncha katta?

— Tezroq chopish uchun, jonginam!

— Buvijon, quloqlaringiz buncha katta!

— Yaxshiroq eshitish uchun, jonginam!

— Buvijon, ko‘zlariningiz buncha katta?

— Seni yaxshiroq ko‘rish uchun, jonginam!

— Buvijon, tishlaringiz buncha katta?

— Seni tezroq yeb qo‘yish uchun, jonginam!

Qizil Shapkacha dod deguncha qo‘ymay, yovuz Bo‘ri unga yopishib, uni shippagi va qizil shapkasi bilan birga yutib yuboribdi.

Baxtni qarangki, shu vaqt uy yonidan o‘tinchilar o‘tib bora-yotgan ekanlar.

Ular shovqin-suronni eshitib, uyga chopib kiribdilar va Bo‘rini o‘ldiribdilar.

Keyin uning qornini yorsalar, ichidan Qizil Shapkacha bilan buvisi omon-eson chiqibdi.





Daniyel Defo

(1660—1731)



Jahon bolalar adabiyotining shoh asarlaridan biri „Robinzon Kruzo“dir. Bu kitobning yozilganiga ikki yuz elliq yildan ham ko‘p bo‘lgan. Bu sarguzasht roman buyuk ingliz adibi Daniyel Defoning qalamiga mansubdir.

Defo uzoq umri davomida ko‘p kitoblar yozgan, ammo hech biri „Robinzon Kruzo“ chalik shuhrat qozonmagan.

Adib bu romaniga Ibn Sinoning bir orolda yolg‘iz yashovchi bola haqidagi „Hay y ibn Yaqzora“ asarini hamda XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida kimsasiz orolda 28 yil yashagan shotlandiyalik Aleksandr Selkirkning boshidan kechirgan sarguzashtlarini asos qilib olgan.

ROBINZON KRUZO

(Romandan parcha)

Bu yerda yakka-yolg‘iz sargardon bo‘lib qolganligimni o‘ylab yig‘ladim, lekin ko‘z yoshi bilan hech qachon baxtsizlikdan qutulib bo‘lmasligini o‘ylab, yo‘limda davom etishga va har nima qilib bo‘lsa ham majaqlangan kemaga yetib olishga qaror berdim. Yechinib, suvga tushib suzib ketdim.

Qiyinchilikning eng og‘iri endi keldi. Harchand harakat qilmay, kemaga chiqa olmadim. U sayoz joyda turib qolganidan juda baland edi, osilib chiqmoq uchun qo‘lga ilinadigan hech narsa yo‘q. Ancha vaqt kema atrofida suzib, aylanib yurdim va birdan kema arqoniga ko‘zim tushib qoldi (darrov uni ko‘rmaganimga o‘zim ham hayronman). Arqon kemaning teshigidan chiqib osilib turar edi, arqonning uchi suvdan ancha baland bo‘lganidan uni zo‘rg‘a ushlab

oldim. Men arqonga osilib, kema nasosxonasi yonidagi matroslar uyiga chiqib oldim. Kemaning tagi teshilgan, pastki qavatidagi ombor suvga to'lib qolgan edi. Kema qattiq, qumloq sayoz joyda turib qolgan, uning orqa tomoni baland ko'tarilib, burni esa suvga tegay deb qolgan edi. Shunday qilib, kemaning quyruq tomoniga suv kirmagan va bu yerdagi ashyolar omon edi. Men darrov quyruq tomonga bordim, chunki avvalo, ashyolardan qaysi biri buzilganini va qaysi biri butun qolganini bilib olmog'im zarur edi.

Kemadagi ozuqalarning hammasi batamom qup-quruq ekan. Ochlikdan yuragim ezilib ketgan edi, shuning uchun darhol omborxonaga kirib, cho'ntaklarimni suxariga to'ldirib oldim va fursatni boy bermaslik uchun kemani tekshirib yurgan yo'limda suxarini yedim. Kema kayutasidan bir shisha rom topib oldim, bu romdan bir necha qultum ichdim, chunki oldimda turgan ishlarni bajarmoq uchun kuch yig'ib, baquvvat bo'lib olishim lozim edi...

Menga asqotadigan ashyolarning hammasini sohilga olib chiqmoq uchun, avvalo, qayiq topmog'im kerak edi. Lekin qayiq yo'q, yo'q narsani orzu qilish esa befoyda. Ehtiyojning o'zi bizni ixtirochi qiladi, men darhol ishga tutindim. Kemada ehtiyyot machta va shu kabilar bor edi, men shulardan sol yasamoqchi bo'ldim va jon-jahdim bilan ishga tutindim.

Bir necha yengilroq xodani tanlab, suv oqizib ketmasligi uchun ularning har birini arqonga bog'lab suvga tashladim. Keyin o'zim kemadan tushib, to'rtta xodaning ikki uchidan arqon bilan mahkam bog'ladim, uning ustidan ikki-uchta yog'ochni ko'ndalangiga qo'yib turib bog'ladim, solga o'xshash bir narsa hosil bo'ldi.

Bu sol meni bemalol ko'tardi, lekin ko'p yuk uchun u juda yengil va kichik edi.

Men yana qaytib kemaga chiqishga majbur bo'ldim. Kema duradgorining arrasini qidirib topib, ehtiyyot machtani uch bo'lak qilib arraladim, bu xodalar bilan solni ancha katta qildim. Men bu ishga juda katta, juda ko'p kuch sarf qildim, kerakli narsalarni g'amlab olish orzusi menga madad berib turdi, men shuncha katta va qiyin ishni bajardimki, oddiy sharoitda bu ishni qilishga kuchim yetmagan bo'lardi.

Endi mening solim katta va mahkam, ancha-muncha yukni ko'tara oladigan bo'ldi.

Bu solga nimani yuklamoq va uni to'lqin oqizib ketmasligi uchun qanday tadbir qo'llamoq lozim? O'ylab turishga fursat yo'q, shoshilish lozim edi.

Avvalo qayiqqa kemadagi hamma yog'och va taxtalarni ortdim, keyin matroslarimizning uchta sandig'inинг qulfini buzib ochdimda, ichidagi narsalarni olib tashladim. O'zimga eng ko'p asqotadigan ashyolarnigina olib, uch sandiqni to'ldirdim. Sandiqning biriga oziqalarni: guruch, suxari, uch bo'lak golland pishlog'ini, beshta katta bo'lak quritilgan echki go'shtini (bu go'sht kemada bizga asosiy ovqat bo'lgan edi) va Yevropadan kemadagi tovuqlarimizga bermoq uchun olib kelgan arpadan qolgan qismini soldim; biz tovuqlarni yo'ldayoq so'yib yegan edik, ammo arpadan ozginasi qolgan edi. Bu arpa bug'doy aralash edi; bu don menga juda asqotgan bo'lar edi, lekin kalamushlar unga juda qattiq ziyon yetkazgan edi. Bulardan tashqari, bir necha yashik vino, olti shisha araq topdim. Bu kapitanimizniki edi.

Bu yashiklarni solga, sandiqlar yoniga joyladim.

Ammo men yuk ortish bilan ovora bo'lib turgan paytda suv mavj ura boshladi, qirg'oqqa tashlab ketgan kamzulimni, ko'ylak va jiletimni suv dengizga oqizib ketganini ko'rib juda xafa bo'ldim.

Endi egnimda yolg'iz paypog'im bilan ishtonim qoldi, xolos (o'zi surpdan tikilgan, kaltaligidan tizzamga zo'rg'a kelar edi). Kemaga qarab suzgan vaqtimda bularni yechmagan edim. Bu hol meni faqat ovqatnigina emas, balki kiyim-boshning ham g'amini yeyishga majbur qildi. Kemada har xil ko'ylaklar ko'p edi, lekin men hozircha bulardan bir juftini oldim, xolos. Chunki meni boshqa narsalar, ayniqsa, ish asboblari ko'proq qiziqtirar edi.

Izlab-izlab oxiri duradgorimizning qutisini topib oldim, bu butun boshli kemaga ham alishtirmas edim. Qutining ichida nima borligiga qaramasanoq solga qo'ydim, chunki qutida qanday asboblar turishini o'zim juda yaxshi bilar edim.

Endi miltiq va o'q-dorini g'amlab olishim kerak edi. Kayutadan ikkita ov miltiq va ikkita to'pponcha, yana bir xalta o'q bilan ikkita zang bosib ketgan qinsiz qilich topib olib, bularni miltiq dorisi soladigan idish bilan birga solga joyladim. Kemamizda uchta kichkina bochkada miltiq dorisi borligini bilar edim-u, ammo bularning qayerda turishini bilmas edim: u yoq-bu yoqni yaxshilab ko'zdan kechirgach, uchala bochka ham topildi. Bir bochkadagi dori ivib qolibdi, qolgan ikkitasi avvalgiday quruq turgan ekan, bularni ko'tarib chiqib, miltiq va qilichlar bilan birga solga ortdim. Endi mening solim yukka liq to'ldi, yo'lga tushmoq kerak edi. Sohilga

chodirsiz, eshkaksiz yetib olish oson emas: ro'paradan salgina shamol urishi bilan mening solim suvga g'arq bo'lib ketishi turgan gap edi.

Baxtimga dengiz sokin edi. Orqa tomondan sekingina toshqin boshlandi, bu toshqin mening solimni sohilga itarar edi. Buning ustiga sohilga tomon ohistagina shamol urdi. Shuning uchun kemadagi qayiqdan siniq eshkak olib, darhol yo'lga tushdim. Oradan ko'p o'tmay, kichkina bir qo'lтиqqa ko'zim tushdi, shu qo'lтиqqa qarab yo'l tutdim. Solni suv oqimining eniga qarab zo'rg'a yurgizdim va bu joy sayoz bo'lganidan suv tagiga eshkakni tirab, haligi qo'lтиqqa yetib oldim; suv qirg'oqqa sekin urilib orqaga qaytganda mening solim butun yuki bilan sohilda qoldi.

Endi mening oldimda atrofni tekshirib ko'rish, o'zimga turar joy bo'la oladigan, buyumlarimni qo'yish uchun bexatar bir o'rinn topish vazifasi turar edi. Qayerda turganligimni, ya'ni qit'agami, yoki orolga kelib qolganligimni hali ham bilolganim yo'q. Bu yerda odamlar yashaydimi? Bu yerda yirtqich hayvonlar bormi? Yarim milcha yoki undan salgina nariroqda tikka va baland tepalik ko'rindi. Shu tepaning ustiga chiqib atrofni kuzatmoqchi bo'ldim. Miltiq, to'pponcha va dori soladigan xaltani olib, atrofni tekshirib ko'rgani yo'lga tushdim.

Tepaning ustiga chiqish qiyin edi. Tepaning ustiga chiqib atrofga ko'z tashlagach, sho'rlik peshonamning yorishmagani ma'lum bo'ldi: men orolga kelib qolgan ekanman! Chor-atrof nuqul dengiz, agar dengizdan chiqib turgan bir necha katta toshni va ikkita orolchani hisobga olmaganda, quruq yerdan hech nishona yo'q, shu ikkita orolcha ham to'qqiz milcha narida bo'lib, men turgan oroldan ancha kichik edi.

Yana bir holni ham bilib oldim: bu yerda yovvoyi o'simliklarga o'sib, hech qayerda odam obod qilgan yer ko'rinnmas edi, bundan chiqadiki, bu yerda chindan ham odamlar turmaydi!

Bu yerda yirtqich hayvonlar ham yo'q edi, men bitta ham yirtqichni ko'rmadim. Ammo parranda juda ko'p, ularning hammasi men bilmaydigan allaqanday parrandalar zotidan edi, bir parrandani urib oldim, uning go'shtini yesa bo'ladimi, yo'qmi — hech bila olmadim.

Tepalikdan tushayotib, katta bir qushni urib oldim: bu qush o'rmonning ochiq joyidagi bir daraxtda qo'nib turgan edi.

O'ylaymanki, bu yerda miltiq ovozi birinchi marta eshitilgan bo'lsa kerak. Men miltiqni otib bo'lar-bo'limasoq daraxtzordan bir

gala qush chiyillashib uchib ketdi. Qushlarning har qaysisi o‘z boshiga qichqiraverdi, ammo bu qushlardan hech birining ovozi men bilgan qushlar ovoziga o‘xshamas edi.

Men otib o‘ldirgan qush xuddi bizning Yevropa qarchig‘aylari jinsiga o‘xshab ketadi: patlarining rangi, tumshug‘ining tuzilishi bizdagi qarchig‘ayga juda o‘xshasa ham uning tirnoqlari kalta. Go‘shtidan o‘limtik isi burqsib turganidan men uni yeya olmadim.

Birinchi kundagi tekshirishlarimning natijasi shunday bo‘ldi. Keyin men soldagi narsalarni sohilga tashiy boshladim. Bu ishni bitirguncha kech kirdi.

Kechqurun bugun qayerda va qay xilda tunasam ekan, deb o‘ylay boshladim.

Ochiq yerda yotaverishga qo‘rqdim: agar menga biror yirtqich hujum qilib qolgudek bo‘lsa, holim nima kechadi? Shuning uchun sohildan kechasi uslashga qulayroq bir joy tanlab, uning atrofini sandiq va yashiklar bilan o‘radim, uning o‘rtasida esa taxtalar bilan kapa yasadim.

O‘zimdagи oziqalar tamom bo‘lsa, nima yeb kun o‘tkazish masalasi ham boshimni qotirdi: qushlardan va men miltiq otgan vaqtimda daraxtzor ichidan chiqib qochgan bizdagi quyonlarga o‘xhash bir xil jonivorlardan boshqa bu yerda hech bir tirik jonne ko‘rmadim.

Shu payt meni ko‘proq boshqa narsa qiziqtirar edi. Men kemadan olish mumkin bo‘lgan narsalarning ko‘pini hali tashib olganim yo‘q edi; kemada menga asqotadigan ko‘p narsalar, eng zaruri kemada chodirlar bilan arqonlar qolgan edi. Shuning uchun, agar menga hech narsa xalaqit bermasa, yana kemaga suzib borishga qaror berdim. Bo‘ron turishi bilanoq kemani parcha-parcha qilib yuborishini bilar edim. Boshqa ishlarning hammasini qo‘ya turib, kemadagi narsalarni tashib olish kerak edi. Oxirgi mixgacha hamma narsani sohilga chiqarib olmaguncha xotirjam bo‘lish mumkin emas.

Kemadagi narsalarni olib o‘tishga qaror berganimdan so‘ng, qayiq bilan borish kerakmi yoki avvalgi singari bu safar ham suzib borish kerakmi, deb o‘ylay boshladim. Suzib borish yaxshiroq degan fikrga keldim. Bu safar kiyimlarimni kapaga yechib qo‘ydim, egnimda ichki ko‘ylagim, surp ishtonim va paypoqsiz kiyilgan tuflı qoldi, xolos.

Avvalgidek, bu safar ham kemaga arqonga osilib chiqdim, keyin yangi sol yasab ko‘pgina zarur buyumlar olib o‘tdim. Birinchidan, duradgorimizning hujrasida bo‘lgan asboblarning

hammasini, masalan: ikki-uch qop katta-kichik mix, mixni burab chiqaradigan otvyortka, yigirma to'rtta bolt va bulardan tashqari, menga eng kerakli asbob bo'lgan charxni olib solga joyladim.

Keyin kema to'pxonasidan bir qancha buyumlar, masalan, uchta temir lom, ikkita kichkina bochkada miltiq o'qi, biroz miltiq dorisi topib oldim. So'ngra kemadan juda ko'p har xil ko'ylik, ehtiyot chodir, to'shak va yostiqlar oldim. Bularning hammasini solga ortib, omon-eson sohilga chiqarib oldim.

Kemaga jo'nab ketayotganda, biror yirtqich oziqalarimni yeb qo'ymasmikan, deb qo'rqqan edim. Baxtinga oziqalar omon ekan.

Ammo mening yo'qligimda allaqanday bir jonivor daraxtzordan kelib sandiqlarimdan birining ustiga chiqib o'tiribdi. U meni ko'rib, sal nariga qochdi, lekin darrov to'xtadi va hech qo'rqlmay, bemalol cho'nqayib olib, men bilan tanishmoqchi bo'lgandek ko'zlarimga termilib turaverdi.

Bu jonivor juda chiroqli, xuddi bizdagi mushukka o'xshar edi. Men miltiqni olib uni nishonga oldim, lekin u o'z boshiga kelgan xatarni fahmlamay, hatto o'tirgan joyidan ham qimirlamadi. Buni ko'rib, unga bir bo'lak suxari tashladim, albatta, unga suxari tashlashim noto'g'ri edi, chunki suxari juda oz va uni ehtiyot qilmog'im zarur edi. Shunday bo'lsa ham, bu jonivor menga juda yoqib qolganligidan bir bo'lak suxarini undan ayamadim. U yugurib kelib suxarini iskab ko'rni va uni yeb, maza qilib lablarini yalay boshladi. U yana berarmikin, deb umidvor bo'lib kutib turdi. Men unga boshqa hech narsa bermadim. U biroz tikilib turib, keyin qaytib ketdi.

Shundan keyin o'zim uchun kapa yasashga tutindim. Kapani daraxtzordan keltirgan xodalar bilan kema chodiridan yasadim. Oftobda yoki yomg'irda buzilishi mumkin bo'lgan narsalarning hammasini shu kapaga olib kirdim, kapa atrofiga bo'lsa, odam yoki hayvonlar hujumidan saqlanmoq uchun yashik va sandiqlarni uyib qo'ydim...





Jonatan Swift

(1667—1745)



Ingliz adibi Swiftning „Gulliverning sarguzashtlari“ romanini o‘qimagan kitobxon topilmasa kerak. Adib romanda ochko‘z, molparast, mansabparast, tekinxo‘r, takabbur qirollar va vazirlar hukmronlik qilgan jamiyatda inson hech qachon baxtini topa olmasligini Gulliver sayohat qilgan o‘lkalar timsolidha ochiq-ravshan ko‘rsatadi.

GULLIVERNING SARGUZASHTLARI *(Romandan parcha)*

Men Nottingemshirda tug‘ilganman, u yerda otamning uncha katta bo‘limgan mulki bor edi. Yoshim o‘n to‘rtga to‘lganda otam meni Kembrij shahridagi Imanuyel kollejiga o‘qishga yubordi. U yerda uch yil bilimlarni zo‘r hafsala bilan o‘rgandim. Biroq kollejda o‘qishim uchun mablag‘ yetkazib berishga otamning qudrati yetmay qoldi, shuning uchun meni u yerdan olib, Londondagi mashhur shifokor Jems Betsga shogirdlikka berdi, undan to‘rt yil ta‘lim oldim. Otam har zamonda yuborgan pullarning hammasini navigatsiya hamda matematikaning boshqa sohalarini o‘rganishga sarfladim. Bu fanlar hamma sayohatda qo‘l kelishi mumkin, men esa, taqdir meni sayohatchi qiladi, degan fikrga qattiq ishongandim. Mister Betsnikidan ketib, uyga Nottingempshirga qaytib keldim. Otam, tog‘am Jons hamda boshqa qarindosh-urug‘larimizning qo‘llab-quvvatlashi tufayli qirq funt to‘plashga muvaffaq bo‘ldim va ma‘lumot olishni davom ettirish uchun Leydenga jo‘nashga ahd qildim. Qarindosh-urug‘larim menga har yili o‘ttiz funtdan pul yuborishga va‘da qilishdi. Leyden shahrida uzoq sayohatlarda asqotib qolishini bilib, ikki yil-u yetti oy tibbiyotni o‘rgandim.

Leydenden qaytgach, saxovatli ustozim mister Betsning yordamida kapitan Eibregem Pennell qo'mondonlik qilayotgan „Qaldirg'och“ kemasiga jarroh bo'lib ishga kirdim. Ana shu kemada uch yarim yil xizmat qildim. Levant va boshqa mamlakatlarga sayohat qildim. Yurtimga qaytgach, Londonga ko'chib kelishga jazm etdim. Mister Bets bu fikrimni judayam ma'qulladi va meni bir qancha bemorlarga tavsiya etdi. Men Old-Juridagi uncha katta bo'Imagan uyning bir qismini ijaraq oldim, Nyugetstritda yashovchi paypoqfurush mister Edmond Bertonning qizi miss Meri Bertonga uylanib, to'rt yuz funt sep oldim.

Oradan ikki yil o'tgach, saxovatli ustozim Bets vafot etdi: maoshim keskin kamayib ketdi. Do'stlarim juda oz edi, ko'pgina hamkasblarimning bema'ni qiliqlariga taqlid qilishga esa vijdonim yo'l qo'ymadi. Shuning uchun ham xotinim va ba'zi tanishbilishlarim bilan maslahatlashib, yana dengizchi bo'lishga ahd qildim. Olti yil mobaynida kema jarrohi bo'lib ishladim, ikkita kema almashtirdim. Ost hamda Vest-Indiyaga bir necha marta sayohat qildim. Ana shu xizmatda o'z ishlarimni ancha o'nglab oldim.

Safarga ketayotganda ko'plab kitob olar va bo'sh vaqtlarimni qadimiylar yangi eng yaxshi yozuvchilarining kitoblarini o'qishga bag'ishlardim, qirg'oqqa chiqqanda esa yerli aholining urf-odatlarini kuzatardim, tillarini o'rganardim. Xotiramning yaxshiligi tufayli bularni osongina o'zlashtirib olardim.

Keyin sayohatim uncha muvaffaqiyatli bo'lmadi. Dengiz me'damga tegdi, xotinim, bola-chaqalarim bilan uyda qolmoqchi bo'ldim. Men dengizchilar orasida bo'lib ko'proq tajriba ottirish niyatida Old-Juridan Fegter-Leynga, u yerdan Uoppingga ko'chdim, lekin mo'ljalim amalga oshmadidi. Uch yillik behuda kutishdan keyin „Olu“ kemasining egasi, kapitan Vilyam Prichardning naf keltiradigan taklifini qabul qildim, u bilan Janubiy dengizga¹ jo'nadim.

Biz Bristoldan 1699- yil 4- mayda yo'lga chiqdik. Avvaliga sayohatimiz juda muvaffaqiyatli bo'ldi. Hamroh shamol kemamizni oldinga yo'naltirdi. Ko'p o'tmay Ost-Indiya tomon yo'l oldik. Xuddi shu paytda dahshatli bo'ron ko'tarildi. Dovul bizni Vandimen Yeridan shimoli-g'arb tomonga qarab surib ketdi. Biz janubiy kenglikning 30° 2' ida edik. Ekipajimizdag'i o'n ikki kishi

¹ **Janubiy dengiz** — Tinch okeanning janubiy qismi ilgari shunday atalardi.

o'ta charchash hamda maza-matrasiz ovqatdan vafot etdi, boshqalar ham haddan tashqari holdan toygandi. 5- noyabr kuni (o'sha yerlarda yozning boshlanishi) qattiq shamol kemamizni hamon oldinga haydab borishda davom etdi; hamma yoqni qalın tuman qoplagandi. To'satdan kemadan qandaydir yarim kabelt¹ uzoqroq masofada to'lqinlar urilib pishqirayotgan joy ko'rindi. Shiddatli shamol kemani o'z og'ushiga olib, qoya sari surib boraverdi, biror chora ko'rish uchun vaqt o'tgan edi. Kema shitob bilan borib, toshga urildi va bir zumda chil-chil bo'ldi.

Ekipajdan olti kishi, shu jumladan men ham, dengizga qayiq tushirishga, kema va qoyadan uzoqlashishga muvaffaq bo'lgandik. Mening hisobimga ko'ra, eshkak eshib faqat uch milya² yurdik. Keyingi kunlarda kemada shunchalik qattiq ishlagan edikki, eshkak eshishga ham darmonimiz yetmay qoldi. Biz eshkaklarni uloqtirib, o'zimizni to'lqinlar ixtiyoriga topshirdik. Yarim soatdan keyin shimoldan esgan qattiq shamol qayig'imizni ag'darib tashladi. Qayiqdag'i hamrohlarimga ham, shuningdek, xalos bo'lish umidida qoyada yoki kemada qolganlarga ham nima bo'lganini bilmayman. Fikrimcha, ularning hammasi halok bo'lgan bo'lsa kerak. O'zim esa suvg'a dumalab tushgach, shamol va oqim yo'nalishida boshim og'gan tomonga qarab suzaverdim. Bir necha marta suv tubini paypaslab ko'rdim. Nihoyat, juda holdan toyib, to'lqinlar bilan olishishga kuchim yetmay qolganda oyog'im yerga tekkanini sezdim.

Xuddi shu paytga kelib, bo'ron ham ancha tindi. Suv tubi shunchalik qiyalik ekanki, sohilga yetguncha bir milya masofagacha suv kechib borishga to'g'ri keldi. Shunda kech soat sakkizlar bo'lsa kerak. Men mamlakat ichkarisiga yarim milyacha yurib bordim, biroq uy yoki u yerda yashovchilardan nom-nishon ham topolmadim. Charchashdan, issiqdan hamda kemani tark etish paytida yarim pint³ aroq ichib olganimdan qattiq uyqum keldi. Juda ham past hamda mayin ko'kat ustiga cho'zildim va qattiq uyquga ketdim, umrim bino bo'lib bunaqa qattiq uxlamagandim.

Mening hisobimga ko'ra, uyqum to'qqiz soatdan oz davom etmagan bo'lsa kerak, chunki uyg'organimda hammayoq yop-yorug' edi. Men o'rnimdan turmoqchi bo'ldim, biroq qimirlay

¹ **Kabelt** — ingliz dengiz o'lchovi. Bir kabelt 183 metrga teng. ² **Milya** — bu yerda 10 kabeltga teng dengiz miliyasi haqida gap boradi. ³ **Pint** — yarim litrga teng ingliz suyuqlik o'lchovi.

olmadim. Qo'l-oyoqlarim yerga mahkam chirmab tashlanibdi, o'zim osmonga qarab yotardim. Uzun va qalin sochlarim ham yerga bog'lab tashlangan edi. Ayni paytda, butun gavdam — qo'lting'imdan sonimgacha ingichka chilvirlar bilan tortib bog'langanligini sezdim. Men faqat osmonga qaray olardim, xolos: quyosh omonsiz kuydirar, ko'zlarimni qamashtirardi. Qulog'imga allaqanday noaniq shovqin chalindi, lekin tepaga qarab yotganidandan hech narsani ko'ra olmadim.

Ko'p o'tmay, qandaydir bir jonli narsa chap oyog'imdan o'rmalab, asta-sekin ko'kragimga chiqqanini, iyagimga yaqinlashib kelganini sezdim. Ko'z qirimni tashlab, qo'liga o'q-yoy ushlagan, sadoq osgan, bo'yи bir qarich ham kelar-kelmas odamni ko'rdim. Uning orqasidan o'shang a xhash yana qirqa odam kelayotganini ham payqadim. Hayratdan qattiq baqirib yubordim, ustididan yerga sakrab tushgan odamchalarining ba'zilari mayib bo'lishdi. Biroq ko'p o'tmay ular yana qaytishdi. Bitta botirrog'i yuzimga shu qadar yaqin keldiki, uni ro'yirost ko'rdim. Hayron bo'lganini izhor qilib, qo'lini ko'tardi. Ko'zlarini olaytirdi, aniq, lekin chinqiriq tovush bilan: „Gekina degul!“ dedi. Boshqalar ham bu so'zni bir necha marta takrorlashdi, lekin men o'shanda uning ma'nosini bilmadim.

Kitobxon osongina tasavvur etayotgan shu muddat ichida juda noqulay ahvolda yotdim. Nihoyat, ozgina urinib, chap qo'limni chirmab turgan arqonni uzib, arqon bog'langan qoziqlarni yerdan sug'urib tashladim. Qo'limni ko'zimga olib bordim, shu payt meni bog'lab tashlashda naqadar ustalik qilinganini sezdim.

Boshimni keskin burib, menga behad azob berayotgan, chap tomondan sochimga bog'lab qo'yilgan chilvirlarni sal bo'shatdim. Endilikda boshimni o'ng tomonga sal burishga imkon tug'ildi. Biroq, mitti odamchalar yana qochib ketishdi, ulardan birortasini ham ushlay olmadim.

Shundan so'ng qulogni teshib yuboradigan darajada qichqirqlar yangradi. Shovqin tingach, kimningdir „Tollgo fonak!“ deb xitob qilganini eshitdim. Shu zahotiyoy yuzlarcha yoy o'qlari chap qo'limga sanchilganini sezdim. O'qlar menga ignadek sanchilardi. Yangidan yana o'q uzishdi. Endi ular, bizning Yevropada bomba otganday, osmonga qarab o'q uzishardi. Tanamga (garchi buni uncha sezmasam-da) o'q yomg'iri yog'ildi. Bir necha o'q yuzimga kelib tegdi, yuzimni qo'lim bilan to'sib oldim. Diqqatpazlik va og'riqdan ingradim, bo'shalish uchun yana harakat qildim. Biroq

bu odamchalar oldingisidan ham kuchliroq qilib yana o‘q uzishdi: ulardan ba’zilari biqinimga nayza suqa boshladi, lekin baxtimga, nayzalar qo’tos terisidan tikilgan kamzulimni tesha olmadı.

Men to qorong‘i tushgunga qadar qimirlamay yotgan ma’qul, deb o‘yladim. Qorong‘ida, chap qo‘lim yordamida bo‘shalib olishim uncha qiyin emas. Bordi-yu, bu mamlakat odamlarining hammasi ham shu ko‘rib turganlarim singari mitti bo‘lsa, menga qarshi qo‘yiladigan har qanday armiyani bir yoqli qilishga qudratim yetadi, deb o‘ylashga to‘liq asosim bor edi.

Ammo taqdir menga boshqacha boqdi. Jim yotganimga ishonch hosil qilgan odamlar o‘q uzishni to‘xtatishdi, lekin qulog‘imga chalinayotgan shovqin-surondan ularning soni ancha ko‘payganini bildim. O‘ng tomonda, qulog‘imning naq ro‘parasida qandaydir taqillash ovozları eshitildi — nimadir qurishayotganga o‘xshardi. Ming mashaqqat bilan o‘sha tomonga boshimni burdim va o‘zimdan to‘rt yard¹ uzoqroqda bo‘yi bir yarim fut keladigan minbarga ko‘zim tushdi. Minbarga o‘sha yerlik odamlardan to‘rt-beshtasi bemalol sig‘ardi. Ulardan biri, eng zodagoni bo‘lsa kerak, uch mulozim kuzatuvida minbarga chiqdi, uzundan-uzoq nutq so‘zlab menga murojaat qildi, lekin uning birorta ham so‘zini tushunmadim.

Shuni eslatib o‘tish kerakki, bu amaldor gapini boshlashdan oldin uch marta „Lengrodegilsan!“ deb qichqirdi. Bu so‘zlarni eshitgan zahotiyooq, ellikka yaqin odam menga yaqinlashib, so-chimga bog‘lab qo‘yilgan chap tomondagi arqonlarni kesib tashlashdi. Bu — boshimni o‘ng tomonga burishga va gapirayotgan odamning tashqi qiyofasi hamda qo‘l harakatlarini bemalol ko‘rishga imkon beradi.

Ko‘rinishdan u qirq yoshlarda bo‘lib, bo‘yi safdoshlarinikidan balandroq edi. Ulardan biri — mening o‘rta barmog‘imday keladigani (ehtimol, u mahram bo‘lsa kerak) xo‘jasining uzun etagini ushlab turar, qolgan ikkitasi esa ikki tomonda tik turishardi. U chinakam notiq singari gapirardi. Nutqda ba’zan do‘q, ba’zan va’da, achnish, muruvvat ohanglari yangrardi. Men eng itoatkor qiyofada qisqa javob qaytardim, so‘ng chap qo‘limni ko‘tardim, quyoshga boqdim, go‘yo uning o‘zimga guvoh ekanligini anglatdim. Men ochlikdan o‘lar holatga yetgandim (oxirgi marta, halokatga

¹Yard — 91,4 santimetrga teng.

uchramasimizdan bir necha soat avval, kemada ovqatlanganman), shu vajdan sabrsizligimni bosa olmadim va odob qoidalariga zid bo'lsa-da, ovqat yegim kelayotganini bildirib, tez-tez barmog'imni og'zimga olib bordim.

Gурго (keyin bilsam, amaldorlarni shunday deb atasharkan) meni yaxshi tushundi. U minbardan tushib, yon tomonlarimga bir necha narvon qo'yishni buyurdi. Turli xil noz-ne'matlar solingen savatlarni ko'targan yuzdan ortiq odam narvondan yuqoriga ko'tarilib, og'zim tomon ravona bo'lishdi.

Ovqatlar, mening haqimdag'i xabar yetib borishi bilanoq, podshoning amri bilan bu yerga yetkazib kelingandi. Ne'matlar turli-tuman jonivor go'shtidan tayyorlangan edi, biroq ta'miga qarab, qaysisi qanday jonivor go'shti ekanligini ajrata olmadim. Bu yerda kurak, son, biqin go'shtlari bor edi, ular ko'rinishidan qo'y go'shtini eslatsa-da, kattaligi arang turna qanotiday kelardi. Men ulardan ikki-uchtasini, har biri miltiq o'qiday keladigan, uchta nonga qo'shib birdaniga og'zimga solardim. Odamchalar menga juda chaqqonlik bilan xizmat qilishar va bo'yimdan, ishtahamning karnayligidan mamnun bo'lishib, ming xil imo-ishoralar qilishardi.

Qornim to'ygach, biror narsa ichgim kelganligiga ishora qildim. Bular juda ham ziyrak, kashfiyotchi xalq ekan. Yegan ovqatimga qarab, meni oz narsa bilan qondirib bo'lmasligini bilishib, odatdan tashqari epchillik bilan arqon yordamida bochkalardan eng kattasini ustimga tortib chiqarishdi, qo'limga yumalatib olib borishdi va og'zini ochishdi. Bochkada chorak litrcha vino bor edi, uni bir ko'tarishda ichib yubordim. U burgund vinosiga o'xshasa-da, mazasi anche yaxshi edi. Ular ikkinchi bochkani ham olib kelishdi, buni ham oldingisi singari ichib, yana so'radim, lekin ularda boshqa vino topilmadi.

Men bu karomatlarni ko'rsatayotganimda odamchalar xursandlikdan qichqirib yuborishdi va ko'ksimda hadeb: „Gekina degul!“ degancha o'yinga tushishdi. Ular imo-ishora bilan har ikkala bochkani yerga tashlashni iltimos qilishdi, biroq bundan oldin pastda turganlarning chetlanishlari lozimligini ogohlantirib: „Boramchivola!“ deb qattiq baqirishdi. Bochkalarni osmonda ko'rishgach, yana baravariga „Gekina degul!“ deb qichqirishdi.

Rostini aytsam, ular tanamda u yoq-bu yoqqa yurishayotganida dastavval, qo'limga tushgan qirq yoki elliq kishini ushlab olib, yerga uloqtirish vasvasasi ham qo'zg'aldi. Ammo ular meni anche

azobga qo'yishganini, boshimga bundan ham battar azoblarni solishlarini, ularga bo'ysunishga va'da berganimni o'ylab, bu fikrlarni miyamdan chiqarib tashladim. Bundan tashqari, xarajatlarning yuziga qaramay, meni bu qadar siylagan xalq mehmondo'st odamlar toifasidan bo'limg'i kerak, deb hisobladim.

Har holda bu mitti odamlarning qo'rmasligidan ajablanmasdan ilojim yo'q edi. Men ularga qandaydir ulkan mahluq bo'lib ko'rinishim kerak edi, ular bo'lsa dadil ustimga chiqib, bitta qo'lim bo'shligini parvolariga ham keltirmay, bemalol o'ynab yurishardi.

Oradan biroz vaqt o'tgach, qarshimda ulug' martabali zot — imperator hazratlarining elchisi paydo bo'ldi. Elchi janobi oliylari ko'pgina mulozimlari kuzatuvida oyog'imdan chiqib, yuzim tomon yura boshladi. U imperatorning muhri bosilgan ishonch yorlig'ini ko'zimga yaqin olib kelib ko'rsatdi, menga qarab nutq so'zлади. Elchi qiyofasida g'azab alomati ko'rinmasdi, ammo o'ta qat'iyatlilik bilan o'n daqiqacha gapirdi. Gap orasida qo'li bilan bir tomonini ko'rsataverdi. Keyinroq bilishimcha, gap oliv hazratlari davlat kengashi bilan birgalikda meni bu yerdan yarim milya naridagi poytaxtga olib kelishga qaror berganligi ustida borgan ekan.

Uning nutqiga javoban men ham bir necha so'z aytdim, biroq uni hech kim tushunmadi. Shunda men imo-ishora tiliga o'tdim. Men bo'sh qo'limni boshqa qo'limga, so'ng boshim va tanamga qo'ydim, bu bilan erkinlik olmoqchi ekanligimni bildirdim. Nazarimda, oliv janoblari bu xatti-harakatlarni yaxshi anglatdi shekilli, chunki yo'q degan ishorani bildirib bosh chayqadi, meni asir sifatida olib ketishlarini imo bilan uqtirdi. Ayni paytda menga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishlarini ham pisanda qildi.

Shu payt, arqonlarni uzib tashlashga yana bir urinib ko'raymikan, deb o'yladim. Biroq terimga sanchilgan yoy o'qlari tufayli yaralar bilan qoplangan yuz va qo'llarimning achishib og'rishi meni bu niyatdan qaytardi. Buning ustiga, dushmanlarim tobora ko'payib borayotganligini sezdim. Shu sababli, menga nisbatan ko'ngillari xohlaganicha munosabatda bo'lishlari mumkinligini imo bilan tushuntirdim. Shundan keyin gурго hamda uning mulozimlari menga odob bilan ta'zim qilishdi va ancha xursand bo'lishib, uzoqlashishdi.

Ko'p o'tmay quvnoq hayqiriqlar yangradi, „Peplon selan“ so'zi tez-tez takrorlanib turdi. To'satdan, meni qo'riqlayotganlar o'ng yonboshimga ag'darilishga imkon beradigan qilib, chap

tomondagi arqonni bo'shatishganini payqadim. Bundan ilgariroq qo'l va yuzlarimga qandaydir xushbo'y malham surtib chiqishgan va o'q tekkan joylardagi og'riq darhol qolgandi. Rohatlanib, uyqum kela boshladi. Keyin aytib berishlariga qaraganda, sakkiz soatga yaqin uxlabman. Buning ajablanadigan joyi yo'q edi, chunki vrachlar imperatorning buyrug'iga ko'ra vinoga uxlatadigan dori solib qo'yishgandi.

Aslida ahvol bunday bo'lgan ekan: imperator men haqimdag'i ma'lumotni olishi bilanoq, kengash bilan kelishib, meni darhol bog'lash haqida farmoyish beribdi (buyruq kechasi — men uxlayotganda bajarilgan). U yana, uyg'onishim bilanoq meni ovqatlan-tirish hamda poytaxtga olib ketish uchun arava yasashni ham buyurgan.

Bir qarashda bunday yo'l tutish ham o'ta xavfli, ham qahramonlik. Men ishonamanki, yevropalik hokimlardan birortasining ham bunday qilishga yuragi betlamas edi.

Biroq, mening fikrimcha, imperatorning buyrug'i adolatli edi. Darvoqe, bu odamlar uxbab yotganimda meni o'ldirishga urinishdi ham, deylik. Dastlabki hujumdanoq og'riqdan o'zimga kelishim va shunday g'azabga tushishim mumkin ediki, arqonlarni uzib yuborib, o'z navbatida ularga hamla qilishim turgan gap edi. Ular mendan rahm-shafqat kuta olmas edilar, bu aniq.

Bu odamlar ajoyib matematiklar ekan, ular bilimlarning mashhur homysi — imperatorning qo'llab-quvvatlashi va rag'-batlantirishi tufayli mexanika sohasida ulkan kamolotga erishishgandi. Podsho ixtiyorida xodalar va boshqa og'ir narsalarni tashiydigan g'ildirakli har xil mashina bor. Bu yerda, qurilishbop yog'och beradigan o'rmonzorlar bor joyda uzunligi to'qqiz fut keladigan eng yirik harbiy kemalar qurish odat tusiga kirib qolgan ekan. Keyin kemalarni ana shu mashinalarga yuklab, dengizga olib borisharkan.

Besh yuz duradgor va muhandisga darhol ana shu mashinalardan eng kattasini yasash topshirilgan ekan. Buyruq juda qisqa bir muddatda bajarilgan. Qirg'oqqa chiqqanimga to'rt soat bo'larbo'lmas mashina orqamdan jo'natilgan. Men turgan joyga mashinaning yetib kelishini xalq shodon qiyqiriqlar bilan kutib oldi. Bu— balandligi uch duym, uzunligi yetti va eni to'rt futga yaqin, yigirma ikki g'ildirakli yog'och platforma edi. Uni mening gavdamga parallel ravishda qo'yishdi.

Eng mushkul narsa — meni ko'tarib, platformaga yotqizish edi. Ularga yerga har biri bir fut balandlikdagi saksonta xoda qoqishdi, keyin ishchilar bo'ynim, qo'lim, tanam va oyoqlarimga son-sanoqsiz ilmoqli bog'larni bog'lashdi; ilmoqlardan pishiq chilvir o'tkazib, ularni xodalar ustiga o'rnatilgan chig'ir tepasidan olib o'tishdi. Eng baquvvat ishchilardan to'qqiz yuz kishi chilviri torta boshladi. Shunday qilib, uch soat o'tar-o'tmas meni aravaga olishdi va unga mahkamlab bog'lashdi.

Bularning hammasini menga keyin aytib berishdi. Uyqu dor sharofati bilan qattiq uyquga ketib, bu ishlarning birontasini ham sezmabman.

Ilgari aytganimdek, meni to'rt milya naridagi poytaxtga olib borish uchun saroy otxonasidan, har birining bo'yi yarim duym keladigan eng katta otlardan bir yarim mingtasi kerak bo'ldi.

Bir g'aroyib hodisa tufayli meni uyg'otishganda, to'rt soat yo'l yurgan ekanmiz. Arava tuzatilishga muhtoj bo'lib to'xtabdi. Bundan foydalangan mahalliy xalq yoshlardan ikki-uchtasi uxlayotganimda aft-angorim qanaqaligini ko'rmoqchi bo'libdi. Ular arava ustiga chiqib, yuzim tomonga sekin yashirinib borishibdi. Ulardan biri, gvardiya ofitseri, burnimning chap teshigiga qilichining uchini ancha kirgizibdi. Burnimga xas-xashak tekkanday, qattiq aksirib yubordim, uyg'onib ketdim. Botirlar o'zlarini menga sezdirmay, yashirinishdi. Oradan uch hafta o'tgandan keyingina to'satdan uyg'onib ketganligim sababini bildim.

Butun kunni yo'l yurish bilan o'tkazdk. Tunaydigan joyda aravamning ikki tomoniga besh yuzga yaqin gvardiyachi qo'yildi. Ularning yarmi mash'ala, qolganlari esa sal turishga intilishim bilan o'q uzish uchun o'q-yoyni shay qilib ushlab turardi.

Quyosh chiqishi bilan yana yo'lga tushdik, tush paytida shahar darvozasidan ikki yuz yard berida edik. Imperator saroydag'i barcha arkoni davlati bilan bizga peshvoz chiqdi, lekin oliv tabaqa amaldorlar oliv hazratlarining ustimga chiqib, o'z hayotini xavf-xatar ostida qoldirishiga qat'iy qarshilik ko'rsatishdi.

Arava qirollik bo'yicha eng katta deb hisoblangan ibodatxonada yonida to'xtadi. Bundan bir necha yil muqaddam ana shu ibodatxonada dahshatli qotillik yuz bergen. Mahalliy xalq o'ta xudojo'y bo'lganligidan ibodatxonani harom bo'ldi, deb unga kirmay qo'ygan. Ibodatxonani yopishib, u yerdagi ashyo va ziynatlarni olib chiqishgan, u ancha vaqtidan beri bo'm-bo'sh yotgan. Ana shu yerga meni joylashtirmoqchi bo'lishdi.

Ibodatxonaning shimolga qaragan eshiklarining balandligi to‘rt futga, eni ikki futga yaqin bo‘lib, osongina sig‘ishim mumkin edi. Eshiklarning har ikki tomonida, yerdan bor-yo‘g‘i olti duym balandlikda ikkita deraza bor edi. Chap derazadan saroy temirchilari yevropalik xonimlar soatining zanjiri yo‘g‘onligidagi to‘qson bitta zanjirni o‘tkazib, ularning uchini chap oyog‘imga o‘ttiz oltita osma qulf bilan mahkamlab bog‘lab qo‘yishdi. Katta yo‘Ining boshqa tomonida, ibodatxona ro‘parasida balandligi besh fut keladigan minora turardi. Imperator eng yaqin amaldorlari bilan meni yaxshiroq ko‘rish uchun minora ustiga ko‘tarildi. Meni ko‘rish uchun alohida hisobga ko‘ra, ibodatxona yoniga yuz mingdan ortiq shaharlik to‘plandi. Ularning o‘n mingdan ortig‘i menga chirmashib oldi, deb o‘yladim. Biroq, ko‘p o‘tmay, buni man etib, chirmash-ganlarga o‘lim jazosi berilishi haqidagi buyruq chiqarildi.

Temirchilar o‘z ishlarini tugallab, meni aravaga bog‘lab turgan arqonlarni qirqishdi, umrimda hech qachon his etmagan chuqur qayg‘uli kayfiyatda o‘rnimdan turdim.

O‘rnimdan turib, u yoq-bu yoqqa yurganimni kuzatib turgan xalqning shovqin va hayrati ta’rifga sig‘maydi. Meni bog‘lab qo‘yil-gan zanjirning uzunligi ikki yardga yaqin bo‘lib, oldinga yoki orqaga yurish tugul, yarim doira yasab harakat qilish, emaklab ibodatxona ichiga kirish, u yerga uzala tushib yotish imkoniga ham ega edim...





Aka-uka Grimmlar

(1785—1863, 1786—1859)

Yakob (1785—1863), Vilgelm (1786—1859) Grimmlar Margburg universitetida o‘qib yurgan chog‘laridayoq nemis o‘rtta asr tarixi va madaniyati, huquq va mifologiyasi, xalq og‘zaki ijodi hamda til va adabiyot bilan shug‘ullana boshladilar.

1812- yilda Grimmlar yaratgan ertaklarning birinchi tomi — „Bolalar va oilaviy ertaklar“ yuzaga keladi. 1815- yilda ikkinchi tomi, 1822- yilda esa har ikkala tomni umumlashtiruvchi uchinchi tomi bosilib chiqdi.

Grimmlarning dunyoga mashhur bo‘lgan „Zolushka“, „Qor qiz“ ertaklari qahramonlari hammadan turtki yeydigan, so‘kish eshitadigan va eng qiyin yumushlarni bajaradigan qizlar ertak davomida o‘zlarining halol mehnatlari, yoqimli so‘z va tabassumlari bilan baxtiyor bo‘ladilar.

Grimmlarning „Quyon bilan tipratikan“, „Bo‘ri va tulki“ asarlari masal janriga yaqin turadi va kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi. Mualliflarning „Yalqov Geys“, „Gansning baxti“, „Botir tikuvchi“, „Yosh pahlavon“, „Bremen musiqachilari“ kabi ertaklari o‘zbek bolalarining ham sevimli asarlariga aylanib qolgan.

BIR XURMACHA SHAVLA

(Ertak)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir qizcha yashar ekan.

Qizcha bir kuni o‘rmonga maymunjon olib kelish uchun boribdi va u yerda bir kampirni uchratibdi.

— Salom, — debdi kampir qizchaga. — Menga rahm qilib, maymunjonidan bersang-chi!

— Mang, buvi, — debdi qizcha.

Kampir maymunjonn yeb bo'lib:

— Sen menga maymunjon berding, men ham senga biron narsa sovg'a qilaman. Mana senga xurmacha, sen faqat shuni aytishing kerak:

Bir, ikki, uch,
Xurmachada shavla pish.

Shunda u shirin, mazali shavla pishira boshlaydi! Shundan so'ng aytasanki:

Bir, ikki, uch,
Pishirishdan kech.

Shundan so'ng xurmacha shavla pishirishdan to'xtaydi.

— Rahmat, buvi, — debdi qizcha va xurmachani olib, uyiga — onasining oldiga ketibdi.

Onasi bu xurmachani ko'rib juda suyunibdi. Mehnatsiz, ovorasiz, hamma vaqt shirin va mazali shavla bo'lsa-yu, tag'in nega suyunmasin?

Bir vaqt qiz uydan qayoqqadir ketibdi. Onasi bo'lsa xurmachani o'z oldiga qo'yib:

Bir, ikki, uch,
Xurmachada shavla pish, —

debdi. Xurmacha shavla pishira boshlabdi. Ko'p shavla pishiribdi. Onasi to'yib-to'yib yebdi. Xurmacha esa shavlani hadeb pishiraveribdi.

Bir, ikki, uch,
Pishirishdan kech, —

deyishi kerak edi onasi. Lekin bu so'zni esidan chiqarib qo'ygan edi. Xurmacha hamon shavla pishiraveribdi. Uy ham shavлага to'libdi, uy oldida ham shavla, tomda ham shavla, hatto ko'chalar ham shavлага to'lib ketibdi, u hamon to'xtamay, shavla pishiraveribdi. Onasi juda ham qo'rqiб ketib, qizchasi huzuriga yugurib ketibdi. Lekin yo'lda issiq shavla daryo bo'lib oqqani uchun o'tish juda qiyin ekan. Yaxshiyam qizchasi uydan uzoqda emas ekan. Qizcha ko'chadagi voqeadan xabardor bo'lib, darrov uyga yuguribdi. Juda qiyinchilik bilan kelib, eshikning halqasidan ushlab ochibdi va:

Bir, ikki, uch,
Pishirishdan kech, —

deb qichqiribdi.

Shunda xurmacha shavla pishirishdan to'xtabdi.

Ammo xurmacha shunday ko‘p shavla pishiribdiki, kimning qishloqdan shaharga borishiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, unga bu shavla shaharga yetguncha kifoya qilar ekan.

Hech kim bundan shikoyat qilmabdi. Chunki shavla juda shirin va mazali ekan.

TULKI BILAN G‘OZLAR

(*Ertak*)

Bir kuni bir tulki o‘tloqqa kelibdi. O‘tloqda ajoyib, semiz-semiz g‘ozlar sayr etib yurgan ekan. Tulki ularni ko‘rib, juda sevinib ketibdi-da:

- Maza bo‘ldi, hozir hammangni yeyman! — debdi.
- G‘ozlar esa:
 - Tulkijon, bizlarni yema, rahm qil! — deb yalinishibdi.
 - Rahm qilish-a, bo‘lmagan gap. Hammangizni yeyman, — debdi yana Tulki.

Endi qanday qilib qutulsak ekan, deb o‘ylab qolishibdi g‘ozlar. Shunda bittasi:

— Tulkijon, o‘lish oldidan bitta qo‘sinq aytishimizga ruxsat ber. Qo‘sinqni aytib bo‘lganimizdan keyin hammamizni yeysan. Hatto o‘zimiz qarshingda qator tizilib turamiz, semizrog‘imizni tanlashing oson bo‘ladi, — debdi.

— Mayli, qo‘sinq aytsanglar ayta qolinglar, — debdi Tulki.

Dastlab bitta g‘oz qo‘sinq aytibdi. Uning qo‘sinq‘i mana bunaqa uzundan-uzoq ekan: „G‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a!..“

Undan keyin ikkinchi g‘oz jo‘r bo‘libdi: „G‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a!..“

Undan keyin uchinchi g‘oz: „G‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a!..“ — deb qo‘sinq boshlabdi.

Ulardan so‘ng to‘rtinchisi xonish qilibdi: „G‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a!..“.

To‘rtinchi g‘ozdan keyin beshinchi g‘oz ham: „G‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a!..“ deb qo‘sinq boshlabdi.


Oxiri hamma g‘ozlar birgalikda qichqirib „G‘a-g‘a-g‘a“lashga tushibdilar: „G‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a!..“

G‘ozlar qo‘sinq‘i tamom bo‘lishi bilan ertak ham tugar edi. Shundagina tulki g‘ozlarni yer edi.

Biroq aqlli g‘ozlar qo‘sinqni to‘xtatishni o‘ylashmabdi. Ular hozir ham: „G‘a-g‘a-g‘a, g‘a-g‘a-g‘a!..“ — deb qichqirishib yurgan emish.

Gans Xristian Andersen

(1805—1875)



„Bolalar uchun aytilgan ertaklar“, „Yangi ertaklar“, „Tarix“, „Yangi ertaklar va tarix“ va boshqa kitoblari Andersennenning nomini jahonga mashhur qildi.

Yozuvchi ertaklarining qahramonlari o‘zlarining samarali mehnatlari, aql-zakovatlari, axloq-odoblari bilan kitobxon tahsiniga muvaffaq bo‘ladilar. Uning „Qo‘ng‘iroqli girdob“, „Kumush tanga“, „Kolbasa sixidan sho‘rva“, „Go‘ngqo‘ng‘iz“ va boshqa ertaklari fikrimizga yorqin misol bo‘la oladi. Masalan, „Qo‘ng‘iroqli girdob“ ertagida asrlar mobaynida ezilgan, og‘ir mehnat va zulmdan tinka-madori qurigan mehnatkash xalq vakili Blakening o‘z xo‘jasiga qarshi kurashi kitobxon qalbidaadolat va erkka ishtiyooq uyg‘otadi.

Andersennenning „Irkit o‘rdakcha“, „Duymchaxon“, „Kichik Klaus bilan Katta Klaus“, „Qirolning yangi ko‘ylagi“, „Qor malkasi“ singari ma‘lum va mashhur ertaklari o‘zbek bolalarining ham sevimli va ardoqli asarlariga aylaniib ketgan.

IRKIT O‘RDAKCHA

Shaharning chekkasi juda ajoyib edi! Yoz fasli. Dalalarda javdar oltinday tovlanar, suli ko‘kargan, pichanlar o‘rilib, g‘aram qilingan edi; ko‘m-ko‘k o‘tloqda uzun oyoq laylak yurar, misrchasiga kakillardi — bu tilni u o‘z onasidan o‘rganib olgan. Dalalar va o‘tloqlarning narigi tomonida katta-katta o‘rmonlar cho‘zilib ketgan, o‘rmonlarda esa chuqur ko‘llar bor. Shahar chekkasi haqiqatan juda ko‘ngilli edi.

Suv to‘la chuqur ariqlar bilan o‘ralgan eski qo‘rg‘onni quyosh nurlari yoritib turar edi; uyning devoridan to suv bo‘yigacha qariqiz

o'tlari o'sgan; ular shunday katta ediki, kichikkina bolalar uning eng yirik barglari tagida tikka turishsa ham, ko'rinmas edi. Qariqiz o'tlari o'sgan yer qalin o'rmon kabi xilvat va vahimali edi. Xuddi shu yerda bir o'rdak tuxum bosib yotardi. Uning tuxum bosib yotganiga ancha vaqt bo'lgan edi, oxiri joniga tegdi. Buning ustiga, o'rtoqlari uni ko'rish uchun kamdan-kam kelardilar, o'rdaklarga, qariqiz o'tlari ichida yotishdan ko'ra, ariqchada suzib yurish ko'proq yoqar edi-da.

Nihoyat, tuxum po'choqlari qisirlab yorildi.

— Chip, chip! — deb tuxum ichidan chiyillagan tovushlar eshitildi. Hamma tuxum sariqlari jonlanib, boshchalarini chiqardilar.

— G'aq, g'aq! — dedi o'rdak.

O'rdak bolalari tuxum po'chog'idan zo'rg'a chiqishdi, ular qariqiz o'tlarining yashil barglariga tikelishar va atrofni tomosha qilishardi. Onasi ularga xalaqit bermadi — yam-yashil o'tloqqa qarasang, bahring ochiladi.

— Eha, yorug' dunyo judayam katta ekan-ku, — deyishdi o'rdakchalar.

— Bo'lmasa-chi, ular endi juda keng joyda yashardilar-da...

— Siz butun dunyo — shu yerning o'zi deb o'ylayotgan-dirsiz? — dedi onasi. — Unday emas! Dunyo uzoqdan-uzoqqa, u tomonga, bog' orqasiga qarab cho'zilib ketgan, biroq men umrimda u yerlarga borgan emasman!.. Xo'sh, qani hammalaringiz shu yerdamisiz? — O'rdak o'rnidan turdi.

— Oh, yo'q, hammasi emas. Hammadan katta tuxum hali butun! Qachon bu tuxum ochilar ekan? Tez ochilmasa, yorilib ketaman-ku!

Keyin u yana tuxumni bosib yotdi.

— Xo'sh, ishlar qalay? — deb so'radi, ko'rgani kelgan qari o'rdak.

— Manavi katta tuxumni ochishning uddasidan chiqolmay turibman, — dedi yosh o'rdak. — Haligacha yorilmay turipti. Lekin mana shu jo'jalarimga bir qara-chi! Qanday chiroyli! Hammasi ham xuddi otasining o'zi.

— Qani menga yorilmayotgan tuxumni ko'rsat, — dedi qari o'rdak. — Menga ishonaver, bu kurkaning tuxumi! Senga o'xshab men ham qo'lga tushgan edim. Bu tovuq bolalari bilan ko'p mashaqqat tortganman. Men ularni hech suvgaga tushirolmagan edim. Ko'p marta — g'aq-g'aq, dedim, — sira kelishmadi. Qani, yana bir

marta qaray-chi! Ha, xuddi o'shaning o'zi! Kurkaning tuxumi!
Uni tashlab ketaver, bor, bolalaringni suzishga o'rgat!

— Yo'q, yaxshisi biroz bosib yotay, — dedi yosh o'rdak.
— Qirqiga chidadim, qirq biriga ham chiday.

— Yotsang, yotaver! — dedi-da, qari o'rdak ketib qoldi.
Nihoyat, katta tuxum yorildi.

— Chip-chip! — deb chiyilladi jo'ja va tuxumdan o'mbaloq
oshib tushdi.

U shunchalik katta, xunuk, irkit ediki, asti qo'yavering! O'rdak
uni boshidan oyog'igacha qarab chiqdi.

— Haddan tashqari katta! — dedi u. — Boshqalarga bir tuki
ham o'xshamaydi! Chunki, chindan ham bu kurka bolasi emas-
mikan? Har holda zo'r lab bo'lsa ham, suvga tushiraman!

Ertasi kuni havo juda yaxshi bo'lib, yashil qariqiz o'tlarni
quyosh nuri qopladi.

O'rdak o'z bola-chaqalari bilan ariqqa qarab ketdi. Sho'lp etdi-
da, suvga tushdi.

— G'aq, g'aq! — deb qichqirdi u, shunda o'rdakchalar ham
birin-ketin suvga sho'pillashib tushishdi. Avval suv ularni ko'mib
yubordi, lekin ular shu ondayoq sho'ng'ib chiqib, olg'a qarab
tuppa-tuzuk suzib ketishdi. Ularning panjalari to'xtamay qimirlardi.
Hatto irkit, kulrang o'rdakcha ham boshqalardan qolishmadni.

— Bu qanday qilib kurka bolasi bo'lsin? — dedi o'rdak.
— Panjalari bilan biram yaxshi suzadiki! Qaddini to'g'ri tutadi!
Yo'q, bu o'zimning o'g'lim. Unga sinchiklab qarasang, uncha
yomon emas, qani, tez-tez yuringlar orqamdan! Men hozir sizni
jamoaga qo'shaman, — biz qushlar hovlisiga boramiz. Faqat sizni
biron narsa bosib olmasligi uchun menga yaqinroq yuringiz,
mushuklardan ham ehtiyyot bo'linsiz!

Tez orada ular parrandalar hovlisiga yetib keldilar. Oh-oh! Bu
yerda juda shovqin-suron-ku! Ikki o'rdak oilasi bir ilonbaliqning
boshini talashardi, lekin bu boshni mushuk ilib ketdi.

— Yorug' dunyoda hamma vaqt shunday bo'ladi! — dedi o'rdak
va tili bilan tumshug'ini yaladi — uning o'zi ham ilonbaliqning
boshini yeb ko'rishdan toymas edi. — Qani, qani panjalariningizni
qimirlatingiz! — dedi o'rdak bolalariga. — G'aqillangiz, anavi qari
o'rdakka ta'zim qilingiz! U, bu yerda hammadan hurmatliroq. U
ispan naslidan, shuning uchun juda semiz. Uning panjasidagi qizil
lattachani ko'ryapsizmi? Qanday chiroyli! Bu latta katta o'rdaklar
uchun beriladigan eng yuqori daraja belgisidir. Buning ma'nosi

shuki, bu o'rdak yo'qolib qolmasin deb xabardor bo'lib turadilar. Shu latta bilan odamlar va hayvonlar uni darrov tanib oladilar. Qani tezroq! Panjalaringizni bir-biriga yaqin tutmang! Yaxshi tarbiya olgan o'rdakcha otasi va onasi singari panjalarini yuzaga chiqarib yurishi kerak. Qarang: mana bunday! Endi boshingizni egib, „G'aq“ — deb ayting.

Ular boshlarini egib: „G'aq!“ — dedilar. Ammo boshqa o'rdaklar ularga qarab tovushlarini baland qilib gapira boshladilar.

— Mana, yana bir to'da! Go'yo bularsiz o'zimiz kamlik qilganday. Anavi bittasi bo'lsa, juda ham beso'naqay ekan-a! Biz unga kun berarmidik!

Shu onda bir o'rdak yugurib kelib, xunuk o'rdakchaning bo'ynidan cho'qib oldi.

— Qo'ying uni! — dedi ona o'rdak. — U sizga hech yomonlik qilgani yo'q-ku, axir!

— Yomonlik qilmadi-ku, lekin u juda katta va g'alati! — deb pishilladi serjahl o'rdak. — Uning yaxshilab ta'zirini berish kerak.

— Bolalaring juda ajoyib ekan! — dedi qizil lattali qari o'rdak. — O'sha bitta xunugidan boshqa hammasi ham juda yaxshi bolalar... Bunisi o'xshamayapti! Uni boshqacha qilib tuzatsa yaxshi bo'lar edi.

— Buning hech iloji yo'q, janobi oliylari, — deb javob berdi ona o'rdak. — U chiroyli bo'lmasa ham sofdil. Boshqalardan yaxshiroq suzadi. Keyin boshqa o'rdakchalarga baravar bo'lib, kichrayib ketar, deb o'ylayman. Tuxum ichida uzoq vaqt turib qoldi, shuning uchun ham ko'ngildagidek bo'lindi, — u xunuk o'rdakchaning orqasini qashib, patlarini siladi. — Bundan tashqari, u erkak o'rdak, erkak o'rdakka esa chiroy uncha kerak emas. U kuchli va pishiq bo'lib o'sadi-da, o'z kunini ko'rib ketadi, deb o'ylayman.

— Qolgan o'rdakchalar juda, juda ham ko'rkar! — dedi qari o'rdak. — Qani, o'z uyingizdagiday yayrangiz, agar ilonbaliqning boshini topsangiz, mayli, menga keltiringiz.

Shundan keyin o'rdak bolalari o'zlarini juda erkin tutdilar. Faqat hammadan keyin ochib chiqqan irkit o'rdakchaga hech qaysisi kun bermadi. Uni faqat o'rdakchalargina emas, hatto tovuqlar ham cho'qidilar, turtdilar va jig'iga tegdilar.

— Haddan tashqari katta! — der edilar ular.

Oyog'ida popugi bilan tug'ilgan va shuning uchun ham o'zini imperator deb o'ylagan kurka esa yelkanlarini yoygan kema kabi

hurpayib, to‘g‘ri o‘rdakchaga qarab yugurib keldi-da, jahl bilan qichqirdi. Uning tojiga qon yugurdi, qip-qizarib ketdi.

Bechora o‘rdakcha nima qilishini, qayoqqa qochib qutulishini bilmay qoldi. Shunchalik xunuk, badbashara bo‘lib tug‘ilib, butun parrandalar hovlisiga kulgi bo‘lishning nima keragi bor edi!

Birinchi kun mana shunday o‘tdi, keyingi kunlar undan ham battar bo‘ldi. Bechora o‘rdakchani hamma quvardi. Hatto akalari va opalari ham unga jahl bilan: „Mushuk yeb ketsa ham mayli edi, sen badbasharani!“ — deyishar, onasi bo‘lsa: „Ko‘zimga ko‘rimma“ — der edi. O‘rdaklar uni tishlab olar, tovuqlar cho‘qir, qushlarga ovqat beruvchi qiz esa uni oyog‘i bilan turtar edi.

Oxirida o‘rdakcha chidayolmasdan, hovlidan yugurib o‘tdida, to‘sqidan oshib tushdi. Qushchalar qo‘rqanlaridan butalar orasidan pirillab uchib ketishdi.

— „Mendan qo‘rqishdi, chunki men shunchalik badbasharaman!“ — deb o‘yladi o‘rdakcha hamda ko‘zlarini yumganicha yugurib ketdi. U yovvoyi o‘rdakchalar yashaydigan botqoqlikka yetguncha chopdi. Bu yerda u tunadi. O‘rdakcha juda charchagan va xafa edi.

Ertalab yovvoyi o‘rdaklar inlaridan ko‘tarilib, yangi o‘rtoqlarini ko‘rdilar.

— Bu qanaqa qush? — deb so‘radilar ular.

O‘rdakcha har tarafga o‘girilib, bilganicha egilib salom berdi.

— Sen juda irkit, juda badbashara ekansan-ku! — deyishdi yovvoyi o‘rdakchalar. — Aytganday, xunukliging bilan ishimiz yo‘q, lekin biz bilan qarindosh bo‘lishni xayol qila ko‘rma.

Bechora o‘rdakcha! Bu gap uning xayoliga ham kelmagan edi! Faqat qamishzor ichida o‘tirib, botqoqning suvidan ichishga ruxsat bersalar bo‘lgani.

Shu ahvolda u botqoqlikda ikki kun o‘tirib qoldi. Uchinchi kuni u yerga yovvoyi g‘oz bolalari uchib kelishdi. Ular yaqindagina tuxumni yorib chiqqanliklari uchun o‘zlarini juda katta tutardilar.

— Quloq sol, birodar! — dedilar ular. — Sen, shunchalik kulgili tug‘ilgansanki, to‘g‘risini aytganda, bu jihatdan bizga yoqib tushding. Biz bilan birga yurishni va erkin qush bo‘lishni istaysanmi? Bu yerdan sal narida yana boshqa botqoqlik bor, unda juda yoqimtoy yovvoyi g‘ozchalar — qizlar yashaydi. Ular „g‘aq-g‘aq“ deb so‘zlashni biladilar. Sen bu afti-basharang bilan ehtimol ular orasida katta muvaffaqiyat qozonarsan?!

Birdan botqoqlik ustida: „Paq! Paq!“ etib o‘q tovushi eshitilib qoldi, har ikkala g‘oz qamish ichiga jonsiz bo‘lib yiqildi; suv qondan qizarib ketdi. Paq! — degan ovoz yana eshitildi va qamishlar ichidan bir tod‘a yovvoyi g‘ozlar ko‘tarildi. Otishma qizib ketdi. Ovchilar botqoqlikni har tomonidan o‘rab, ba‘zilar botqoqlik ustiga osilib tushgan daraxt shoxlariga chiqib olgan edilar. Ko‘k tutun daraxtlarni bulut singari qopladi va suv ustiga tarqaldi. Shalop-shalop etib, botqoqlik ichida ovchi itlar yugurishdi. Qamish va g‘umaylar u yoqdan-bu yoqqa silkinardi. Bechora o‘rdakcha qo‘rqqanidan na o‘lik va na tirik — chalajon edi! U boshini qanotlari ostiga yashirmoqchi bo‘lgan edi, birdaniga ro‘parasida tillari osilgan va ko‘zları yongan ovchi it paydo bo‘lib qoldi. U o‘rdakchaga qaradi, o‘tkir tishlarini gjijrlatdi, keyin shalop-shalop etib nari ketdi.

— „Tegmadi, — deb o‘yladi o‘rdakcha va nafasini rostlab oldi. — Men shunday badbashara va irkit ekanmanki, hatto meni yegani itning ham ko‘ngli tortmaydi!“ — U qamishlar ichiga yashirindi; uning boshi ustidan o‘qlar to‘xtovsiz o‘tib turar edi.

Otish faqat kechqurun tindi, ammo o‘rdakcha qo‘rqqanidan yana anchagacha qimirlamay o‘tirdi. Bir necha soat o‘tdi. Oxiri u turishga jur‘at etdi, avaylab atrofga ko‘z tashladi, keyin dala va o‘tloq bo‘ylab qochishga urindi. Shunday qattiq shamol turdiki, o‘rdakcha zo‘rg‘a yurardi. Kech kirganda, u bir yog‘och uychaga yetib bordi. Uycha shu qadar eskirgan ediki, oz bo‘lmasa qulab ketar edi, lekin qaysi yoniga qulashini bilmay, o‘zini tutib turardi. Shamol o‘rdakchani uchirib ketay-ketay deganda, u dumini yerga tirab olardi.

Uning baxtiga uycha eshigi bitta oshiq-moshig‘idan chiqib ketgan, qiyshayib osilib turar edi, shuning uchun eshik tirqishidan uychaga bemalol kirish mumkin edi, buni o‘rdakcha sezdi. U tirqishdan ichkari kirdi.

Uychada o‘z mushugi va tovug‘i bilan bir kampir yashar edi. U mushukni „o‘g‘lim“ deb atardi; mushuk belini bukishni, miyovlashni va hatto junidan uchqunlar chiqarishni bilardi, ammo buning uchun uning junini teskari silash lozim edi. Tovuqning bo‘lsa, oyoqlari kichkina va kalta edi, shuning uchun ham uni „kalta oyoq“ deb atardilar; u tuxum qilar, kampir esa uni o‘z qizidek sevar edi.

Ertalab ular yet o‘rdakchani ko‘rib qoldilar; mushuk miyovlay, tovuq esa qag‘illay boshladи.

— Nima ekan u? — deb so‘radi kampir.

U atrofni qarab chiqdi-da, bir burchakda turgan o‘rdakchani ko‘rdi, biroq shapko‘rligidan uni o‘z uyidan adashgan semiz o‘rdak deb o‘yladi.

— Mana buni qara-ya! — dedi kampir. — Agar bu o‘rdak erkak bo‘lmasa, menda o‘rdak tuxumlari ham bo‘lardi. Qani sinab ko‘raylik-chi! Bilamiz-qo‘yamiz!

O‘rdakchani sinashga kirishdilar. Uch hafta o‘tdi, tuxumdan darak bo‘lmadi.

Uyning chin xo‘jayini mushuk bilan tovuq edi. Ular har doim: „Biz bor, olam bor“, „Biz olamning bir pallasi“, — derdilar.

Ular o‘zlarini dunyoning qoq yarmi va buning ustiga uning eng yaxshi yarmi, deb hisoblardilar. Lekin o‘rdakcha: bu to‘g‘rida boshqa fikr ham bo‘lishi mumkin, deb o‘ylardi. Biroq tovuq bunga yo‘l qo‘ymasdi.

— Sen tuxum qilasanmi? — deb so‘radi u o‘rdakchadan.

— Yo‘q!

— Shunday ekan, tilingni tiyib bor.

Mushuk undan:

— Sen belingni bukishni, uchqun chiqarishni va miyovlashni bilasanmi? — deb so‘radi.

— Yo‘q!

— Shunday ekan, aqli odamlar gapirganda aralashma!

O‘rdakcha baqrayganicha bir burchakka o‘tirdi.

Birdan toza va sof havo uning esiga tushib qoldi, quyoshni esladi, keyin juda ham suzgisi keldi. U chidolmadi va bu haqda tovuqqa aytidi.

— Senga nima bo‘ldi? — deb so‘radi tovuq. — Hech ish qilmay bekor yurasan, shuning uchun miyangga har qanday bo‘lmaq‘ur fikrlar kelaveradi. Tuxum qil yoki miyovla — jinniliging yozilib ketadi!

— Oh, suzishday yoqimli narsa yo‘q! — dedi o‘rdakcha.

— Kalla tashlab sho‘ng‘isang, maza qilasan?

— Shu ham maza bo‘ldi-yu, — dedi tovuq. — Judayam aqldan ozibsan! Mushukdan so‘ra-chi, unga suzish bilan sho‘ng‘ish yoqarmikan? U, men taniganlarning hammasidan aqli. O‘zim haqimda so‘zlab ham o‘tirmayman. So‘ngra, bizning poshshaxo-nimiz — kampirdan so‘ra, dunyoda undan aqlli roq odam bo‘lmasa kerak. U kalla tashlab, juda chuqurga sho‘ng‘ishni sevadimi-yo‘qmi, senga aytib beradi.

- Siz gapimga tushunmayapsiz! — dedi o'rdakcha.

- Xo'sh, gapingga biz tushunmasak, kim tushunar ekan?

Nima, sen hali ham bir yoqda turay, mushukdan va bizning poshshaxonimizdan aqllimisan? Ahmoq bo'lma, undan ko'ra senga qilgan yaxshiliklarimizga rahmat degin! Senga joy berdik, isitdik, sen shunday jamoat o'rtasiga tushdingki, bunda ancha narsa o'rgana olasan. Ammo kallang puch, sen so'zlashishga ham arzimaysan. Menga ishonaver! Men senga yaxshilik tilayman, shuning uchun seni koyiyman; chin do'stlar hamma vaqt shunday sirdosh bo'ladilar! Tuxum qilishni yoki miyovlab, silaganda uchqun chiqarishni o'rganishga harakat qil.

— Bu yerdan boshimni olib ketish yaxshiroq, deb o'ylayman! — dedi o'rdakcha.

— Ketsang, ketaver! — dedi tovuq.

O'rdakcha chiqib ketdi. U suzdi, kalla tashlab sho'ng'idi, ammo atrofdagilar avvalgiday undan kulishar, irkit va badbashara deb atashardi.

Kuz keldi. Daraxtlarning barglari sarg'aydi. Shamol ularni uzib, osmonga uchirardi! Kunlar juda sovuq bo'lib qoldi. Qalin qora bulutlar yerga ba'zan do'l, ba'zan qor separdi, to'siq ustiga qo'ngan qarg'a sovuqdan tomog'ini qirib qag'illardi. Huvv! Shunday sovuqni esla, badaning uvishib ketadi! Bechora o'rdakchaga juda qiyin bo'ldi.

Bir kun kechga yaqin, quyosh botmasdan, o'rmon orqasidan kattakon, ajoyib qushlar galasi ko'tarildi. Bunday chiroyli qushlarni o'rdakcha hech ko'rмаган edi — ular bo'yinlari uzun, o'zları qor kabi oppoq qushlar edi. Oqqushlar allaqanday g'alati ovozlar chiqarib, kattakon qanotlarini silkitdilar va sovuq dalalardan issiq o'lkalarga, ko'k dengizning narigi tomonlariga qarab uchdilar. Ular osmon-u falakka ko'tarildilar, buni ko'рган bechora o'rdakchani g'alati vahima bosdi. U suvda pildiroq singari aylanib bo'ynini cho'zdi-da, shunday qattiq va g'alati qilib qichqirdiki, bundan o'zi ham qo'rqib ketdi. U juda chiroyli va baxtli qushlardan ko'z uzolmadni, ular ko'zdan g'oyib bo'lib ketganlarida esa u, suvning eng tubiga sho'ng'idi, keyin yana suzib ketdi. Anchagacha o'ziga kelolmadni. O'rdakcha bu qushlarning otlarini va qayerga uchib ketayotganlarini bilmas edi. Biroq o'rdakcha bu qushlarni shunday sevib qoldiki, u yorug' dunyoda hech kimni bunchalik sevmagan edi. U qushlarning chiroyiga hasad qilmadi, ular kabi chiroyli bo'lish uning xayoliga ham kelmadni.

Jilla bo'limganda o'rdaklar uni o'z yonlaridan quvlamaganlarida ham, u baxtiyor bo'lar edi. Bechora irkit o'rdakcha!

Qish juda-juda sovuq keldi. Suvning muzlab qolmasligi uchun o'rdakcha dam olmasdan suzishi lozim edi, ammo u suzayotgan suv kun sari torayib borardi. Sovuqning zo'ridan hattoki muz chatnab ketdi. O'rdakcha panjalarini tipirchilatib to'xtovsiz suzardi. Eng oxiri u butunlay holdan ketdi, uzala tushib yotdi va muzga yopishib yaxlab qoldi.

Ertasiga ertalab bu yerdan o'tib borayotgan dehqon, yaxlab yotgan o'rdakchani ko'rdi: u yog'och kovushi bilan yaxni sindirdi va chala o'lik bo'lib qolgan o'rdakchani uyiga, xotini oldiga olib ketdi. O'rdakchani isitdilar.

Bolalar o'rdakcha bilan o'ynashmoqchi bo'ldilar, ammo unga, bolalar uni qiynamoqchi bo'lgandyay tuyuldi.

U qo'rqqanidan qochib, sut chelagiga tushib ketdi. Sut chayqalib to'kildi. Beka qichqirib, qo'llarini silkidi, o'rdakcha esa uyning u boshidan-bu boshiga qarab chopaverdi, uchib borib, yog' idishga tushib ketdi. Undan un solingan bochkaga tushib, unlarni to'zitdi. Voy! U nimaga o'xshab qoldi-ya!

Beka uni otashkurak olib quvdi, bolalar chopisharkan, bir-birlarining oyoqlariga turtinib yiqilishdi, chiyillashib kulishdi. Yaxshiyamki, eshik ochiq ekan — o'rdakcha eshikdan chiqib butalar orasiga kirib, qorga o'zini otdi va uzoq vaqt hushsiz yotib qoldi.

O'rdakchaning shu sovuq qishda kechirgan kulfat va baxtsizliklarini boshdan oyoq so'zlab chiqish juda-juda qayg'uli bo'lardi.

Quyosh nurlari bilan yerni yana isita boshlaganda, u botqoqlikda, qamishlar orasida yurardi. To'rg'aylar sayradilar. Bahor qaytib kelgan edi.

O'rdakcha qanotlarini qoqib, uchib ketdi. Uning qanotlari endi avvalgidan ancha-muncha mustahkam edi, shuning uchun u olg'a qarab uchib ketdi. U bir katta bog'ga kirib qolganini sezmay qoldi. Olmalar barq urib gullab yotar edi: xushbo'y siren daraxti o'zining uzun yashil novdalari bilan ariq ustiga egilgan edi. Oh, bu yer munchayam yaxshi, bahor hidi munchayam yoqimli anqiydi-ya?

Birdan qalin qamishzordan uchta oppoq oqqush suzib chiqdi. Ular shunday yengil va tekis suzishardiki, go'yo suv ustida sirg'anganday tuyulardi. O'rdakcha bu ko'rkm qushlarni darrov tanidi, uning yuragini qandaydir bir g'am bosdi.

— Shu ulug‘vor qushlar oldiga uchib boraman. Shunday irkit bo‘la turib, ular oldiga yaqinlashishga botinganim uchun ehtimol ular meni o‘lgunimcha cho‘qishar. O‘rdak va tovuqlarning cho‘qib yurishlariga, qush boquvchi xotinning tepkilariga, qishning qahraton sovug‘iga duchor bo‘lgandan va ochlikdan qiyalgandan ko‘ra, bularning kaltagidan o‘lganim yaxshiroq! — dedi-da, suvga tushib, ko‘rkam oqqushlar oldiga suzib ketdi, oqqushlarning unga havaslari kelib, qanotlarini qoqib, ular ham buning oldiga suzib keldilar.

— Meni o‘ldiringiz! — dedi bechora o‘rdakcha va boshini egib turdi. Birdan oyna kabi tiniq suvda o‘z aksini ko‘rib qoldi. U endi irkit, kulrang o‘rdakcha emas, balki qorday oppoq oqqush edi!

Endi o‘rdakcha shuncha azob-uqubatlar tortganiga hatto xursand edi. U azoblarga uzoq vaqt chidash berdi, shuning uchun ham o‘z baxti va o‘zini o‘ragan barcha go‘zalliklarning qadriga astoydil yeta olardi. Katta oqqushlar esa uning atrofida suzar va uni tumshuqlari bilan silab-siypalardilar. Shu vaqt bog‘ga kichkina bolalar chopishib kirishdi. Ular oqqushlarga non va don tashlay boshladilar. Eng kichkina bola:

— Yangi oqqush uchib kelibdi! Yangi oqqush uchib kelibdi! — deb qichqirib yubordi.

Qolgan bolalar ham:

— Yangi oqqush, yangi oqqush! — deb qichqirdilar.

Bolalar sevinganlaridan chapak chalib, sakrab o‘ynar edilar. Keyin ota-onalari oldiga chopib ketdilar, so‘ngra yana suvga non va pirojniy tashlay boshladilar. Bolalar ham, kattalar ham:

— Hammasidan ham yangi oqqush yaxshi! U juda ham chiroli va yosh ekan, — deyishdi.

Eski oqqushlar uning oldida boshlarini egib turardilar.

U bolsa juda uyalib ketdi, boshini qanoti ostiga yashirdi, buning sababini o‘zi ham bilmasdi. U hamma masxaralagan va quvlagan vaqtlnari esladi. Endi-chi, endi hamma uni go‘zal oqqushlar o‘rtasida eng go‘zali deydi.

Siren daraxti o‘zining xushbo‘y shoxlarini suvga, oqqush ustiga egar, quyosh esa juda iliq, yorug‘ nur sochar... Mana, uning qanotlari shapilladi, kelishgan bo‘yi tiklandi, ko‘kragidan esa shod qichqiriq eshitildi:

— Irkit o‘rdakchaligimda men bunday baxtni xayolimga ham keltirmagan edim!

A. S. Pushkin

(1799—1837)



Aleksandr Sergeyevich Pushkin bolalarni ona-Vatanga, tabiatga, odamlarga mehr-muhabbatlarini oshiradigan ko'plab she'rilar yozdi. „Qish ertagi“, „Dengizcha“, „Men yana keldim“, „Enagamga“, „Bulut“, „Anchar“, „Tutqun“ kabilar shular jumlasiga kiradi.

Buyuk shoirning xalq og'zaki ijodi asosida yaratgan „Shoh Saltan haqida ertak“, „Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak“, „O'lik bekach va yetti bahodir haqida ertak“ asarlari asrdan-asrga, tildan-tilga, dildan-dilga o'tib yuribdi.

O'LIK BEKACH VA YETTI BAHODIR HAQIDA ERTAK

Yoriga aytib vido,
 Otlandi safarga shoh.
 Darichada malika
 Uni kutadi yakka.
 Kecha-yu kunduz kutmish,
 Yo'llariga ko'z tiknish.
 Kuta-kuta nihoyat
 Ko'zlar tolmish g'oyat.
 Lekin, yordan yo'q nishon!
 Faqat quturar bo'ron,
 Qorlarga to'l mish har yoq,
 Hamma yer bo'l mish oppoq...
 Yor yo'lida ko'z uzmay,
 O'tib ketmish to'qqiz oy.
 Hayit kechasi xudo
 Unga qiz etmish ato.
 Erta tongda, ko'p uzoq —

Kutilgan aziz qo‘noq: —
Shoh qaytmishdi safardan,
Begona o‘lkalardan.
Malika shohga boqib,
Xo‘rsinipti dil yoqib.
Shodlanganidan chunon,
Tushga borib bermish jon.
Shoh uzoq tort mish alam,
Ne chora? Banda u ham:
Bir yil tushday o‘tibdi,
Shoh boshqa xotin opti.
Chinakam ham u dilbar
Malikalarga o‘xshar,
Oppoqqina, xushqomat,
Aql-u didda alomat,
Lekin mag‘rur va baxil,
Erka, kunchi, qora dil.
Sepi bor ekan — ko‘zgu,
Ko‘p hikmatli ekan u;
Ko‘zgu so‘zlay olarkan,
Malika quvonarkan,
Faqatgina u bilan,
Hikmatli ko‘zgu bilan
Xursand, hazillasharkan,
Zeb berib, so‘zlasharkan:
„So‘zla aziz oynajon,
Haqiqatni qil bayon:
Men emasmi dunyoda
Hammadan ham ziyoda,
Oppoq, go‘zal va yaxshi,
Yuzim yuzlarning naqshi?“
Oyna derkan javoban:
„Shubhasiz dunyoda san
Oppoq, go‘zal va yaxshi,
Yuzing yuzlarning naqshi“.
Malika qah-qah urib,
Ishva qilib, buralib,
Suzib ko‘zi-qovog‘in,
Qirsillatib barmog‘in,
Qo‘l belda, kerilarkan,
Ko‘zguga termularkan.

Va lekin yosh bekach ham
Ohista bo'lib ko'rkam,
Kun sayin o'saket mish,
O'sib kamolga yet mish.
Yuzlari oq, qora qosh,
Xushfe'l, rahmdil, yuvosh.
Malikaga kuyov ham
Topila qol mish shu dam;
U — shahzoda Yelisey,
Asilzoda Yelisey.
Sovchiga shoh ko'nip ti,
Darrov sep ham unibdi:
Yetti savdo shahari,
Yuz qirq koshon alarga,
Yuz ko'rishga otlanib,
Malika xo'b bezanib,
Ko'zguga termuli pti,
Unga savol beripti:
„Men emasmi dunyoda
Hammadan ham ziyoda,
Oppoq, go'zal va yaxshi,
Yuzim yuzlarning naqshi?“
Ko'zgu depti shu mahal:
„Hech shubhasiz sen go'zal,
Lekin bekach dunyoda.
Hammadan ham ziyoda!
U oq, go'zal va yaxshi,
Yuzi yuzlarning naqshi“.
Malika sapchib ket mish,
Qo'llarini musht et mish.
Ko'zguga bir tushirmish,
Yer tepinib, do'q urmish:
„Ah, past ko'zgu, yaramas,
So'zlar ing bari g'araz.
Qanday menga teng bo'lsin?!

Ta'zirin beray, o'lsin.
O'smay o'lgur, yaramas!
Oqligi bejiz emas:
Onasi ekan bo'g'oz,
Qorga telmurgan, xolos.
Ayt, mumkin mi hech mahal,

U bo'lsa mendan go'zal?
Uning qanday haqqi bor?
Men go'zalman: bo'l iqror.
El-u yurtni izlasang,
Jahonni sinchiklasang,
Yo'qdir menga teng suluv.
Shundaymi?“
Deptı ko'zgu:
„U bari bir dunyoda
Hammadan ham ziyoda,
Oppoq, go'zal va yaxshi,
Yuzi yuzlarning naqshi!“
U, nihoyat o'rtanib,
Hasad o'tida yonib,
Ko'zguni tez olipti,
Ham sandiqqa solipti,
Chaqirib qora qizni,
Ham shoh qizi o'ksizni:
„Olib borib to'qayga,
Odamsiz, xilvat joyga,
Oyoq-ko'lini bog'la,
Tiriklay bag'rin dog'la! —
Deb aytipti cho'riga, —
Yem bo'lsin u bo'riga“.
Yovuz xotinga, aytinq, —
Shaytonmi, jin kelar teng?
Chora yo'q. Qora qiz ham
Shoh qizi bilan ildam
Jo'nab ketcish to'qayga,
Yetmishlar xilvat joyga,
Va bekach payqab qolmish,
Dahshat ichida tolmish
Ham yolbormish: „Panohim?
So'zla, nedur gunohim?
Qizgina rahm et menga!
Malika bo'lsam, senga —
Yaxshiliklar qilarman“.
Qiz uni sevganidan,
Band aylamay, o'ldirmay,
Qo'yib yubormish shunday
Deb: „Qayg'urma, omon bo'l!“

Saroy tomon solmish yo‘l.
Malika so‘rmish jadal:
„Xo‘sheets? Qayoqda u go‘zal?“
„To‘qayda o‘zi yolg‘iz“, —
Deb javob qaytarmish qiz, —
„Bog‘liqdir qo‘l-oyog‘i,
Yirtqich yo‘liqqan chog‘i,
Azobi kam bo‘ladi,
Osongina o‘ladi“.
Shoh qizi yo‘qolipti! —
Deb xabar tarqali pti.
Qiziga shoh chekmish g‘am.
Shahzoda Yelisey ham
Xudodan madad tilab,
Yo‘lga tushmish so‘roqlab
Aziz mehribonini,
Go‘zal qalliqjonini.
Qalliq adashganicha,
To‘qayda butun kecha,
Yurib-yurib toli pti.
Bir ko‘shkka keb qoli pti.
Bir it chiqib shu mahal
Tinchlanipti hurib sal:
Darvozadan kirmish qiz,
Hamma yoq jimjit, beiz.
It yurar erkaanib,
Shoh qizi ham shaylanib,
Yo‘lak tomon olmish yo‘l,
Halqaga cho‘zipti qo‘l;
Eshik ochilib ravon,
Qiz kirsaki, charog‘on —
Bir uy: unda gilamlar,
Osig‘liqmish sanamlar,
Go‘zal pechkasi bormish,
So‘rilar o‘ymakormish.
Qiz ko‘rsaki, bu mazgil
Mehribon va rahmdil
Odamlarning mazgili;
Bu yerda uning dili
Ozor topmasa kerak,
Lek, hech kimdan yo‘q darak.

Uylarga bir-bir kirmish,
Yig‘ishtirmish, supurmish,
Xudo uchun yoq mish sham,
Isitmish pechkani ham,
So‘riga chiqib asta,
Uxlab qol mish birpasda.
Yetganda tush pallasi,
Kelmish odam sharpasi;
Kirmish yetti bahodir,
Mo‘ylovdor, yetti nodir.
Boshliq depti: „Ajabo!
Har yoq toza va barno.
Kimdir yig‘ishtiri pti,
Bizni kutib tur pti,
Kim u? Chiq yonimizga,
Chin o‘rtoq bo‘lgin bizga.
Keksa chol bo‘lsang agar,
Bo‘lursan bizga padar.
Yigit bo‘lsang, biz seni
Deylik tutingan ini.
Kampir bo‘lsang — onasan,
Hurmatlarga qonasan.
Agar bo‘lsang go‘zal qiz,
Bo‘lgin aziz singlimiz“.
Shoh qizi ham shu zamon,
Tushmanish yigitlar tomon,
Ularni izzat qilib,
Salom bermish egilib:
Taklif etilmasdanoq,
Bo‘lgani uchun qo‘noq,
U afv so‘rab, qizarmish,
Ham uyalib bo‘zarmish.
Payqaptilar so‘zidan —
Bu qiz — shoh qizi ekan;
Uni to‘rga o‘tqizib,
Nozi-ne’matlar yozib,
Qadah to‘ldirishi pti,
Patnisda berishi pti.
Qiz rad etmish sharobni,
Zangori mayi-nobni;
Somsadan olib biroz

Tatigan bo'pti, xolos.
„Charchadim, — deb, — juda ham“,
So'rapti olmoqqa dam.
To'rdagi bir xonada,
Keng, yorug' koshonada
Uni qoldirishi pti,
O'zлari chiqishi pti.
Kunlar o'tmish izma-iz,
Va lekin yosh bekach qiz
O'rmonda yashar kushod,
Bahodirlar bilan shod.
Bahodirlar ko'p inoq,
Turishib har sahar choq
Chiqishar sayr etmoqqa,
Ko'k o'rdaklar otmoqqa...
Bu zamon bizning shoh qiz
Saroyda qolib yolg'iz,
Supurib, sidirarkan,
Taomlar pishirarkan.
Bahodirlar bilan u
Yashar ekan ko'p totuv.
Kunlar shunday o'tarkan.
Kun o'tib, kun yetarkan.
Qizni jo'ralar chandon
Sevib qolmishlar jondan,
Bir kuni erta bilan,
Yetti bahodir birdan
Qiz uyiga kiripti,
Boshliq: „E dilbar, — depti, —
Bizlarning singlimizsan,
Bu narsa senga ravshan.
Bizlar yetti jo'ramiz,
Seni yaxshi ko'ramiz.
Har birimiz ham sani
Jon deymiz yor qilgani.
Biroq iloj yo'qdir hech,
Bu mushkulni o'zing yech!
Birimizni yor qilgil.
Boshqalarga bo'l singil:
Nega boshing chayqaysan?
Yo buni rad etgaysan?
Yo tovar qo'l emasmi,

Senga ma'qul emasmi?“
— „Sofdil qahramonlarim,
Aziz og'ajonlarim“, —
Deb shoh qizi so'z boshlar, —
„Yolg'on so'zlasam agar,
Tiriklay yerga kiray.
Men qayliqman, ne qilay?
Men uchun baravarsiz,
Aqli, dilovarsiz,
Bilingki, ko'ngildan man —
Barchangizni sevaman:
Biroq o'zgaga bu bosh
Mangu etilgan yo'ldosh.
Azizdir hammadan ham
U Yelisey shahzodam“.
Jo'ralar jum qolipti,
Boshni qashlab olipti.
„So'rashning aybi yo'qdir,
Oy bekach, bizni kechir“, —
Depti ulkan pahlavon, —
„Bunday bo'lsa hech qachon!
U haqda ochmam og'iz“.
— „Xafamasman“, — depti qiz, —
„Mening ham rad javobim —
Ayb etmangiz“. — Ular jum.
Ta'zim bajo etmishlar.
Asta chiqib ketmishlar.
Shunday qilib, ular bot
Kechirmishlar tinch hayot.
Yovuz beka bu zamon,
Bekachni eslagan on
Tura olmapti chidab:
Ko'pdan beri arazlab
Yurarkan ko'zgusidan:
Endi chiqib esidan
Ko'zgu tomon yuz tutmis,
G'azabini unutmish.
U yana ham kerilib,
Depti tabassum qilib:
„Salom! So'zla, ko'zgujon,
Haqiqatni et bayon:

Men emasmi dunyoda
Hammadan ham ziyoda,
Oppoq, go'zal va yaxshi,
Yuzim yuzlarning naqshi?“
Javob bermish oynajon:
„Go'zalliging begumon;
Biroq yashaydi bir qiz,
Hech qanday hashamatsiz,
Emanlar makonida,
Bahodirlar yonida.
U sendan ham yaxshidir,
Go'zallikning naqshidir“.
Beka to'kmish qahrini —
Qora qizga: — „Meni sen
Aldashga qanday jur'at
Etolding, — deb, — kasofat?“
Qora qiz qolib nochor,
Bariga bo'lmish iqror.
Yovuz beka tutaqib,
Uni dahshatda yoqib,
Deptı: „Yo o'ldirgaysan,
Yoki, o'zing o'lgaysan!“
Yosh malika bir kuni
Kutib og'alarini,
Yolg'iz o'tirar ekan.
Charxin yigirar ekan,
Yo'lakda g'azab bilan
It hurib qolmish birdan.
Qiz qayrilib qarasa,
Gado turipti. „Ena,
Sabr qil pichagina, —
Deptı qiz darichadan, —
Hayday itni hozir man,
Keyin senga, enajon,
Olib chiqay xayr-ehson“.
Qizga kampir der shu dam:
„Oh, jon bolam, qizginam!
Iting jonioymi oldi,
O'ldirishga oz qoldi.
Irg'ishlariga bir boq!
Chiq yonimga, chiq tezroq“.

Shoh qizi ham non olib,
Chiqmoq uchun qo‘zg‘alib.
Zinadan tushmasdanoq
It yetib kepti shu choq,
Hurib erkalanipti,
Oyoqqa surkanipti,
Yo‘l bermapti o‘tishga,
Kampir sari yetishga.
Kampir kelayin desa —
Qiz yoniga, it esa
Vahshiy hayvonlarsimon,
Tashlanarmish u tomon.
„Ajabo, bu nima sir?
Yaxshi uxlamagandir“, —
Deb bekach so‘z qotipti,
„Ma, ol!“ deb non otipti.
Tutib opti shum kampir:
„Senga behad tashakkur,
Tangri qo‘llasin doim;
Sen ham tutib ol, oyim!“
Bekachga to‘lib pishgan,
Oltinday xo‘b yetishgan
Olma uchib boripti,
It sakrab, ingranipti...
Ilib olipti oy qiz
Ikki qo‘llab uni tez.
„Gar siqilsang mabodo,
Yegin, meni qil duo“ —
Deb kampir egilipti,
Va ko‘zdan yo‘qolipti...
Birga shoh qizi bilan
Zinadan chiqar ekan,
Qalbi g‘amga to‘lganday,
„Tashla!“ demak bo‘lganday
It g‘amgin telmuripti,
Qizga qattiq huripti.
Qiz itni erkaapti,
Yumshoq qo‘l-la silapti:
„Ne bo‘ldi senga Lochin?
Yot endi!“ o‘zi lokin —
Uyga kirib ketipti,

Eshikni berkiti pti.
Xo‘jalarin chidamsiz
Kutmak uchun bekach qiz
Charxiga o‘tirsa ham,
Lekin o‘zi dam-badam
Olmaga termularkan,
Faqat uni ko‘rarkan.
Olma to‘lib pishipti,
Juda ham yetishi pti:
Xushbo‘y, bejirim, tarang,
Qip-qizil va tillarang,
Bolga to‘lib turarkan!
Urug‘i ko‘rinarkan...
Ovqatgacha qalamqosh
Kutmoqchi bo‘pti, bardosh, —
Berolmapti sira ham,
Olmani olib shu dam,
Labiga tegizi pti,
Tishlab, bo‘lak uzi pti
Ham yepti uni asta...
O, jonim, u birpasda
Gangib, hushdan og‘ipti,
Qo‘llari bo‘shashi pti.
Tushib qo‘ldan olma ham,
Ko‘zlarini shu dam
But ostiga og‘ib qiz,
Yoti pti sokin, jonsiz...
Safardan eson-omon
Qaytishi pti uy tomon
Bu mahal yetti shovvoz.
Chiqib ularga peshvoz —
It ildam yuguri pti,
Notinch, qattiq huri pti,
Hovlini ko‘rsatib u.
„Yaxshilikka emas bu!“ —
Deptı ular: „Falokat —
Yuz bergen bunda albat“.
Ot qo‘yb keli ptilar,
Ichkari kiriptilar.
Ko‘rib bo‘lmishlar hayron,
It chopib kelib shu on,

Olmaga otilipti,
Yebti-yu, tez o'lipti.
Ma'lum bo'lipti: og'u —
To'lgan olma ekan bu.
Bekach qiz qarshisida
G'am chekib ular juda
Bosh egib, tutib aza,
O'qib unga janoza,
Kafanga oliptilar
Va ko'mmoq bo'liptilar.
Lek, qaytmishlar bundan tez,
Chunki go'zal bekach-qiz
Yotardi xud uyquda,
Sokin, tirikday juda.
Faqat nafas olmasdi,
Go'zaldi qaddi-basti.
Uch kun o'tipti, hanuz
Uyqudan turmapti qiz.
Dilda hasrat, nadomat,
Ko'rsatganicha odat
O'qishib janozasin,
Bekach qizning murdasin
Billur tobutga solib,
Hammalari ko'tarib,
Ketmishlar Bo'shtog' tomon.
Tun yarim bo'lgan zamon
Olti ustunga uni,
Bekachning tobutini
Cho'yan zanjirla asta
Bog'laptilar birpasda.
Atrofiga panjara
Qo'yiptilar ko'p sara.
Ulkan botir egilib,
Murdaga ta'zim qilib.
Dept: „Tinchib uxlugin;
Husning, yovuzlik va kin
Qurboni bo'lib o'chdi,
Ruhing samoga ko'chdi.
Bizlar seni sevardik,
Sevgilingga saqlardik.
Bo'lmay yigitga nasib,

Bo‘lding tobutga nasib“.
Shum malika shu kunoq
Xushxabarga ishtyoq —
Bog‘lab; ko‘zguni olmish
Ham savol berib qolmish:
„Ayt, menmasmi dunyoda,
Hammadan ham ziyoda,
Oppoq, go‘zal va yaxshi
Yuzim yuzlarning naqshi?“
Ko‘zgu depti javoban:
„Ha, malikam, hammadan —
Oqsan, go‘zal, yaxshisan,
Qizil yuzlar naqshisan“.
Bu orada, shahzoda
Jahon kezib aftoda,
Qallig‘ini izlarkan,
Doim yig‘lab, bo‘zlarkan,
Kimdan qilsa u savol,
Savol ko‘rinar mahol:
Yuziga kular birov,
Chetga burilar birov.
Arz aylapti nihoyat
Quyoshga u azamat:
„Nurli quyosh! Ko‘kda san,
Yil bo‘yi aylanasan.
Qishni, iliq, muloyim —
Bahorga ulab doim,
Samlarda yurasan,
Barchamizni ko‘rasan.
Radmi bo‘lur javobing?
Ko‘rmadingmi dunyoning —
Hech yerida shoh qizin,
Bekachni — yer yulduzin?
Men kuyovi.“ — „Chirog‘im,
Bekachingni ko‘rmadim. —
Depti quyosh — muqarrar
U endi o‘lgan chiqar,
Balki, qo‘sним oypatir
Ehtimol uchratgandir:
Biror yerda shoh qizin,
Ko‘rib qolgandir izin“.

Qora tunda shahzoda
Yotmis g'amgin, aftoda,
Oy ko'rinnish, yolvorib, —
Chopipti oyga g'arib:
„Oy, oymoma, do'stginam,
Tilla qoshcham! Keng olam —
Bo'lganda qop-qorong'u,
Chiqasan sochib yog'du.
Odatingni yulduzlar
Sevib, senga termular.
Radmi bo'lur javobing?
Ko'rmadingmi dunyoning
Hech yerida shoh qizin,
Bekachni — yer yulduzin?
Men kuyovi“. „E, inim, —
So'zlapti oy, — ko'rmadim,
Bekaching men. Har kuni —
Chiqqum soqchi turgani
Faqat kelganida gal.
Ehtimol men yo'q mahal
O'tib ketgandir u qiz“.
Shahzoda depti: „Esiz“.
Oy yana depti shuni:
„Shoshma, sabr qil, uni
Balki shamol biladi,
O'sha ko'mak qiladi.
Sen unga bor, jonginam,
Xayr endi, ko'p tortma g'am“.
Yigit g'am yemay shu dam
Boripti shamolga ham:
„Shamol! Qudrating bilan
Bulutlarni quvlaysan,
Ko'm-ko'k dengizni darrov
Qilasan alg'ov-dalg'ov,
Yolg'iz xudodan o'zga
Hech kimni ilmay ko'zga,
Erkin kezib yurasan,
Har yonga yugurasan.
Radmi bo'lur javobing?
Ko'rmadingmi dunyoning —
Hech yerida shoh qizin,

Bekachni — yer yulduzin?
Men kuyovi“. „Qulq sol“, —
Javob beripti shamol:
„Oqishlari ko‘k, sokin
Soydan o‘tgandan keyin,
Haybatli yuksak tog‘ bor,
Tog‘ bag‘rida chuqur g‘or;
O‘sha g‘orda g‘am-alam
Zulmati ichra har dam, —
Ustunlarga tortilgan,
Zanjirga band etilgan
Billur tobut tebranar,
Hech kimsadan yo‘q asar.
O‘sha tobutda bejon
Qaylig‘ing yotar, o‘g‘lon“.
Shamol ketmish shundan so‘ng.
Yig‘lab shahzoda ho‘ng-ho‘ng,
Go‘zal qaylig‘in so‘ng bor —
Ko‘rmoq uchun, dilafgor,
Ketipti tobut tomon.
Borar ekan, namoyon —
Bo‘lmish qarshida zo‘r tog‘,
Atrofi bo‘m-bo‘sh yayloq,
Tog‘ tagida qora g‘or,
Yugurmish unga shunqor.
Ko‘rdi u, g‘amgin, behud
Qalqib turardi tobut.
U tobutda mangulik
To‘sagida yotib tek
Uxlardi bekach yakka,
Yor tobutiga tikka,
Butun jon-jahdi bilan
Otilmish yigit birdan.
Tobut sinmish. Qiz shu on
Tirilmish. Bo‘lib hayron,
Atrofga termularkan,
Zanjirda tebranarkan,
Xo‘rsinib so‘zlapti u:
„Ko‘p uzoq uxlabman-ku!“
Tobutdan chiqmish dilbar...
Oh!.. ikkov ho‘ngrab yig‘lar.

Yigit qizni ko'tarib,
Yorug'likka chiqarib,
Hol-ahvol so'rapti,
Uyga qarab jo'napti.
Darhol tarqapti mish-mish:
Shoh qizi tirik emish!
O'gay ona — malika
Uyida qolib yakka,
Ko'zgusiga termulib,
U bilan suhbat qurib,
Der: „Menmasmi dunyoda
Hammadan ham ziyoda,
Oppoq, go'zał va yaxshi,
Yuzim yuzlarning naqshi?“
Ko'zgu depti shu mahal:
„Hech bir so'zsiz, sen go'zal,
Lekin Bekach dunyoda
Hammadan ham ziyoda,
Yuzi yuzlarning naqshi.“
Shum Beka sapchib turib,
Ko'zgusini sindirib,
Eshik tomon yo'l olmish,
Shoh qiziga duch kelmish.
Va alamga to'lipti,
Chiday olmay o'lipti.
Ko'mib bo'liboq uni,
To'y qilmishlar shu kuni.
Qovushipti ikki bosh,
Ikki yurak, ikki yosh.
Dunyo bo'lgandan buyon
Bunday bazm hech qachon
Hech yerda bo'lgan emas,
Hech kimsa ko'rgan emas;
Men ham to'yda bor edim,
Pivo ichdim, bol yedim,
Faqat mo'ylovim biroz,
Ho'llanib qoldi, xolos...



N. A. Nekrasov

(1821— 1877)



Ruslarning ulug' shoiri Nikolay Alekseyevich Nekrasov xalq kuch-qudratiga, uning porloq kelajagiga qattiq ishonar edi. Bu ruh, isyonkorlik, kelajakka komil ishonch, zamonning, davrning nobopligidan nolish, qahr-g'azab „Bolalar yig'isi“, „Dehqon bolalari“, „Temiryo'l“, „General Toptigin“ kabi she'rлarida bo'rtib turadi. Masalan, „Dehqon bolalari“ she'rini olib ko'raylik. Unda dehqon bolalari bilan pomeshiklarning bolalari o'zaro chog'ishtiriladi. Dehqon bolalari mehnatda o'sganliklari sababli, ular baquvvat, tetik, insoniy xislatlari jihatidan dvoryan bolalaridan ustun turadilar. Bu asar yosh kitobxonda dehqon bolalariga nisbatan muhabbat, mehnatga qobiliyatsiz, tekinxo'r larga nisbatan nafrat hissini uyg'otadi.

„Sasha“, „Ayoz-hukmdor“, „Kuzak“, „Bulbullar“ she'r-larini maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar sevib tinglaydilar va katta estetik zavq oladilar.

MAZAY BOBO VA QUYONLAR

1

Avgust edi, „Malix Vejey“ yonida man
Qush ovlardim keksa Mazay bobo bilan.

Birdan jimlik cho'kdi qishloq atrofida,
Quyosh qoldi qora bulut girdobida.

Uncha qalin emas edi bulut qurg'ur,
Lekin birdan sharros quyib berdi yomg'ir.

Shaffof yomg'ir, to'g'ri yerga sanchilardi,
Yerni boplab po'lat simdek qamchilardi.

Ikki ovchi shiddat bilan tez yugurdik,
Qandaydir bir ombor ichra qochib kirdik.

Mazay bobo hikoyasin boshlay, keling,
Ey, bolalar, diqqat bilan qulqoq bering.

Har yoz uning mehmoniman hafta bo‘yi,
Menga juda yoqib qolgan uning uyi.

Ajoyib bir hovlisi bor, behad dilbar,
Uni bezab turar turli pechak gullar.

Mana shunday tovlanadi bo‘lib ko‘rkam,
Baland ustun uzra turar uylari ham.

(Bu yarlarni suv bosadi bahor chog‘i,
Ariqlari to‘lib oqar bahor chog‘i.
Venetsiyadek suvda suzar qishlog‘i).

Shuning uchun Mazay bobo, gapning chini:
Joni-tani bilan sevar qishlog‘ini.

Farzandi yo‘q: nevarasi bilan yashar,
Zerikadi, yakkaboshlik qilib asar.

Qirq tosh kelar bir shahar bor, unga har choq,
Hech gap emas to‘g‘ri o‘rmon kesib chiqmoq.

— Ko‘cha emas, — deydi Mazay bobo, — o‘rmon,
Unda yashar faqatgina qush-u hayvon.

— Xo‘sish, jinlar-chi? Ishonmayman butun kecha,
Uchratmadim kutib, hatto azongacha.

Lekin yaxshi: savatingni to‘ldirasan,
Ham o‘zingni malinaga to‘ydirasan...

Unda qushlar sayraydiki, ehe... qanday,
Bamisol bo‘sh bog‘chada kuylaganday.

O‘tkir muguz, olov ko‘zli boyo‘g‘li ham —
„Hu-hu“ laydi; tunga borib topar barham.

Lekin o‘rmon tunda juda vahimadir,
Man o‘zim ham qo‘rqan edim, bo‘lay iqror.

Shunday jimlik, zo‘r vahima kasb etadi,
Bo‘m-bo‘sh qolgan butxonani eslatadi.

Qarag‘aylar g‘ijirlaydi unda-bunda,
Qari kampir alahlagan kabi tunda.


Mazay ovsiz o'tkazmaydi bir kunni ham,
Yashasa-chi endi tinib-tinchib beg'am.
Ko'zi xira tortib qolgan, otar arang,
Ba'zan tegmas nishoniga, bo'lur garang.
Achchiqlanmas Mazay bobo asti bundan,
Lekin quyon qochib qolar ildam undan.
Niqtab qolar barmog'ini u tomonga:
„Hap sanimi, to'xtab turgin!“ — deb quyonga.
Mashhur qishloq ovchilari tasvir etgan,
Ertaklarga uning boshi to'lib ketgan.
Sindirgandan beri miltiq tepkisini,
Olib yurar Kuzya gugurt qutisini.
U karqurni aldar-suldab,
O'qdoniga gugurt joylab otar boplاب!
Hayvonlarni ov qiluvchi boshqa birov,
Bir dekchada olib yurar ko'mir-olov.
— Nega kerak, olov desam, ovda senga?
— Qo'l sovuqqa chidamaydi, — deydi, menga.
Agar quyon ko'rib qolsam o'sha zamon,
Qurolimni qo'yib asta chekka tomon.
Isitaman qo'llarimni, — deydi qurg'ur,
So'ng ularni ag'daraman, — deydi bir-bir.
„Mana senga, ovchi!“ — deydi bizning Mazay,
Men ham qotib-qotib kulib qildim maza.
Mana shunday dehqonlarning latifasi,
(Dvoryanlar cho'pchagidan kammi, nesi?)
Men Mazaydan hikoyalar ko'p eshitdim,
Sizlar uchun shundan faqat birin bitdim.

II

Ko'p ezmalik qildi Mazay bu omborda:
„Bizning kichik, pastqamgina botqoqzorda
Besh hissa ko'p bo'lar edi turli qushlar:
Tutmasalar edi ularni to'r bilan,
Ezmasalar edi ularni zo'r bilan;
Quyonlar-chi? Ularni ham... rahming kelar.

Erta bahor toshqinlari boshlangan dam,
Yuzlab halok bo‘ladilar buningsiz ham.
Yo‘q! Bu ham kam! Quvlab qolar qishloqilar,
Tutar, urar changal bilan ham g‘arq qilar.
Noinsoflar!
Men bir kuni o‘tin uchun
Qayiq bilan borar edim.
Talay-talay quyon oqib kelar edi.
Yo‘l-yo‘lakay —
Tutib bordim. Suv ko‘payib borar butun.
Bir orolcha ko‘rib qoldim. Unda ancha
Quyonchalar turishardi uymalashib,
Bechoralar sari daryo har daqiqa
Ko‘tarilib borar edi haddan oshib.
Suv bosishga qolgan jinday joy, atigi
Bir gaz eni, bir sarjincha uzunligi...
Yetib bordim, qocholmasdan quloqlarin —
Silkitardi, tutib oldim shunda birin.
Buyruq berdim hammasiga: hatlang, qani!
Hatladilar quyonlarim, yaxshi juda!
Joylashdi-yu quyonchalar komandasasi,
Orolcha ham qolib ketdi suv ostida.
„Ko‘rdingizmi!“ dedim, „Men-la hazillashmang!
Chiqmang Mazay aytganidan ham adashmang!“
Daryoda jim suzar edik, suhbat shirin,
To‘ngak uzra ko‘rib qoldim tag‘in birin
Og‘irligi tushmas, deya solib oldim.
Endi eshkak urganimda olg‘a tomon,
Ko‘rib qoldim: butazorda ona quyon
Arang turar, boy xotinday seppa-semiz,
Kamzulimga o‘rab oldim uni ham tez.
Dir-dir titrar... Kun ham endi botib borar,
Mana, sershox bir yog‘och ham oqib borar.
Unda suzib ketishardi oqim tomon.
Jonlarini saqlab qolgan o‘nta quyon.
Qimirlamay yotar biri, biri tikka,
Ham o‘tirib olgan biri, qulooq dikka.
„Sizlarni ham olardim-u, esiz-esiz,
G‘arq etasiz qayig‘imni, siz shubhasiz!“
Ammo — yana rahmim kelib, unga asta
Yaqinlashdim, eshkak bilan bir nafasda.

Yog‘ochning bir chekkasidan ilib oldim,
Ularni ham o‘z orqamdan sudrab qoldim...
Shu ahvolda men qishloqdan o‘tgan zamon,
Xotin-xalaj, bolalar ham bo‘ldi hayron:
„Qarang! Nima qilyapti Mazay bobo?!”
„Mayli qarang, tega ko‘rmang, bizga ammo“
Seldan daryo oqimiga chiqib oldim,
Haddan ziyod sevinishdi quyonlarim.
Ko‘rdilarki, qirg‘oq qalin chakalakzor,
O‘rmon, ekin maydonlari — hammasi bor.
Tik turishar, chor tarafga nazar otib,
Haydashga yo‘l bermaydilar, lopillatib,
So‘ng yog‘ochni qirg‘oqqa men yopishtirdim.
Dedim: „Sizni xudoyimga topshirdim...“
Shataloq otib
Ketdi quyonlar.
Men dedim: „Hay-hay,
Kichkina jonlar!
Qoching, ehtiyyot
Bo‘lingiz o‘zga.
Lekin qish vaqt
Ko‘rinmang ko‘zga!
Nishonga olib
O‘q uzaman: „Paq!“
Va alla bo‘lib,
Yiqilasiz naq!..
Zum o‘tmasdan tarqalishib ketdi har yon,
Qayiqchamda qoldi faqat to‘rtta quyon.
Darmonlari ketgan, suvda ivib qolib,
Olib keldim tezda uyga qopga solib.
Bemorlarim yaxshi uxlab to‘yishdilar,
Isib, uxlab hamda rosa to‘yishdilar.
So‘ng ularni olib chiqdim o‘tloq tomon,
Qop ichidan qoqib tashlab va shu zamon,
Hay-hayladim, quvib qoldim, tarqaldilar,
Xo‘p shataloq otib ko‘zdan yo‘qoldilar.
Men ularga tag‘in qayta-qayta aytdim:
„Qishda aslo ko‘rinmangiz“, — deb kuzatdim.
Men ularni ovlamayman bahor, yoz ham,
Terilari aynib ketar, manfaat kam!..



L. N. Tolstoy

(1828—1910)



Asli pedagog bo‘lgan Lev Nikolayevich Tolstoyning bolasiga bag‘ishlab yaratgan asarlarida tarbiya birinchi o‘rinda turadi. L. N. Tolstoy dehqon bolalarining ta’lim-tarbiyasiga oid rang-barang qissalar, hikoyalari, ertaklar, ocherklar, ilmiy-ommabop maqolalar yozdi va ularni o‘zi tuzgan maxsus darsliklar — „Alifbe“, „Yangi alifbe“, „Rus bolalari uchun o‘qish kitobi“ kabi kitoblarida yoritdi.

Buyuk so‘z ustasi L. N. Tolstoy o‘zining bunday kitoblarida mehnatkashlarning turmush sharoitlarining rang-barang qirralarini, odamlarning jonli xarakterlarini, yashash shart-sharoitlarini, ona-tabiat va unga nisbatan bo‘lgan mehr-muhabbatlarini to‘la-to‘kis ochib berdi.

U bolalar uchun jajji, ammo ma’no va mazmun jihatidan yetuk asarlar yaratib berdi. Kichkintoylarga bag‘ishlab („Filli pok“, „Qizcha va qo‘ziqorinlar“, „Danak“); dehqonlar turmushidan olib („Sigir“, „Chol bilan nabira“) va hayvonlar olamini aks ettiruvchi („Arslon bilan it“, „Bulka“, „Fil“) ajoyib-g‘aroyib hikoya va ertaklari, „Akula“, „Sakrash“, „Kavkaz asiri“, „Iikki o‘rtoq“ va xalq og‘zaki ijodi asosida yozgan „Uch ayiq“, „Shat va Don“ asarlari turli millat bolalarining sevimli asarlariga aylangan.

KAVKAZ ASIRI

(Hikoyadan parcha)

III

Jilin sherigi bilan shu ahvolda bir oy yashadi. Xo‘jayin doim kulib: „Tvoya Ivan, xorosh, moya Abdul, xorosh“, — deb qo‘yadi. Ammo yaxshi boqmaydi, faqat tariq unidan qilingan non beradi, bu ham ba’zan xom bo‘ladi.

Kostilin uyiga yana bir marta xat yozdi, pul kuta berib, juda zerikdi. Kun bo‘yi saroyda o‘tirib, qachon xat kelishini hisoblab vaqt o‘tkazadi yoki uxlaydi. Jilin bo‘lsa yozgan xatining borib tegmasligini biladi va boshqa xat yozishni o‘ylamaydi ham.

Ko‘nglida: „Onam men uchun to‘lashga pulni qayerdan olsin? O‘zi bo‘lsa men yuborgan pul bilan yashab turadi-ku. Besh yuz so‘m pul deb xonavayron bo‘ladi“, deb o‘ylaydi va u yoq-bu yoqqa ko‘z solib qochib ketishni mo‘ljallaydi.

Ovulda aylanib yuradi, hushtak chaladi yoki o‘tirib, ba’zi bir narsalar yasaydi: loydan qo‘g‘irchoq ishlaydi yoki novdalardan savat to‘qiydi.

Jilin mana shunday mayda hunarlarga usta edi.

Bir kun u burunli, qo‘lli va oyoqli, tatar ko‘ylagi kiygan bir qo‘g‘irchoq yasadi-da, tomga o‘tqizib qo‘ydi. Tatar xotin-qizlari suvgaga chiqqan vaqtida xo‘jayinning qizi Dina bu qo‘g‘irchoqni ko‘rib qoldi va ularni chaqirib ko‘rsatdi. Xotinlar ko‘zlarini tikib, qo‘g‘irchoqqa qarab kulishar edilar. Jilin tomdan qo‘g‘irchoqni olib ularga uzatdi. Ular kulishdilar, lekin olishga botinmadilar. Shundan keyin Jilin qo‘g‘irchoqni qo‘yib, o‘zi ichkariga kirib ketdi va nima bo‘lar ekan deb bir joydan qarab turdi.

Dina qo‘g‘irchoqning oldiga yugurib kelib, u yoq-bu yoqqa qaradi-da, qo‘g‘irchoqni ko‘tarib qochdi.

Jilin ertasiga ertalab qarab turgan edi, Dina ostona oldiga qo‘g‘irchoqni ko‘tarib chiqdi. Qo‘g‘irchoqni qizil latta bilan o‘rab, chaqaloq boladay qilib, erkalab turardi. Shu vaqtida ichkaridan kampir chiqib, Dinani qarg‘ab-qarg‘ab, qo‘lidan qo‘g‘irchoqni tortib oldi va sindirib tashladи. Dinani bo‘lsa allaqayoqqa, bir ishga yubordi.

Jilin yana ham chiroyliroq qilib boshqa bir qo‘g‘irchoq yasab, Dinaga berdi. Bir kun Dina kuvacha ko‘tarib keldi, uni yerga qo‘yidda, o‘tirib qo‘li bilan kuvachani ko‘rsatib kulaverdi.

Jilin: „Bu nimaga kuladi?“ deb o‘yladi va kuvachani olib, icha boshladi. Qarasa, uning ichida suv emas, sut ekan. Sutni ichidda, „xorosho“ deb qo‘ydi. Dina suyunib ketdi va:

— Xorosho, Ivan xorosho! — deb sakrab turdi va kuvachani Jilinning qo‘lidan tortib olib, chopib ketdi.

Shundan keyin Dina har kuni Jilinga yashirib sut olib keladigan bo‘ldi. Tatarlar echki sutidan pishloq yasab, quritgani tomga yopib qo‘yadilar. Dina shunday pishloqdan ham Jilinga yashirinchha keltirib turdi. Bir kun uyida qo‘y so‘yilgan edi, qizcha yeng ichida bir

parcha go'sht olib kelib, Jilinning oldiga tashladi. O'zi yugurib, qaytib ketdi...

Jilin lattalardan er va xotin kiyimlarini tikib, qo'g'irchoqqa kiygizdi. Qo'g'irchoqlarni o'qqa o'tqizib, parraklarni suvgaga qo'ydi. Parraklar aylanishi bilan, qo'g'irchoqlar irg'ishlab o'ynadi.

Butun qishloq yig'ildi: ular tillarini taqillatib:

— Hay, rus! Hay Ivan! — der edilar.

Abdulning bitta siniq soati bor edi. Jilinni chaqirib, o'shani ko'rsatdi va tili bilan bir narsalarni ishora qilib, tushuntirdi.

Jilin ham:

— Opkel, tuzataman, — dedi.

Soatni olib, pichoqcha bilan ichini ochdi, murvatlarini, charxlarini olib, oldiga yoyib qo'ydi. Undan keyin yana hammasini joy-joyiga qo'yib, qaytib berdi. Soat yurib ketdi.

Shu kundan boshlab, Jilin usta degan nom chiqardi. Uzoq qishloqlardan odamlar kelib, miltiq, to'pponcha, soatga o'xshagan narsalarni tuzattirib ketadigan bo'ldilar...

Jilin oz-moz til bilib qoldi. Unga o'rganib qolgan tatarlar kerak bo'lganda uni „Ivan-Ivan“, deb chaqiradigan bo'ldilar. Ammo ba'zi birlari, yirtqich hayvonlarga qaraganday qilib, olayib qarashlarini qo'ymasdilar.

IV

Ular juda yomon azobda qoldilar. Taxtakachni olib qo'yish va ochiq joyga chiqarish yo'q bo'ldi. Ularga itga tashlaganday xom non va ko'zada suv berdilar. O'ra zax va rutubatli edi. Kostilin butunlay og'rib qoldi va shishib ketdi, hamma yog'iga og'riq kirdi: doim ingraydi yoki uxbaydi. Jilin ham ishning chatoqligini bilib, xafa bo'ldi. Hech qutulish yo'lini topolmadi.

U chuqur ichida yerni kovlay boshlagan edi, xo'jayin ko'rib qolib, o'ldiraman deb po'pisa qildi.

Kunlardan bir kun u, ochiq havo va erkinlikka chiqishni o'ylab, o'rada xafa bo'lib o'tirgan edi. Birdan tizzasiga avval bitta, keyin yana bitta non va giloslar tushdi. Yuqoriga qarasa — Dina ekan. U bularga qarab kuldii, so'ngra qochib ketdi. Jilin bo'lsa: „Dina yordam bermasmikan?“ deb o'yladi.

U chuqurning bir chetini tozalab, loy qildi va loydan qo'g'irchoq yasay boshladi. Odamlar, otlar, itlar yasadi va: „Bularni Dina kelsa, unga uzataman“, deb o'ylab qo'ydi.

Ertasiga Dina kelmadı. Lekin Jilin otlarning yurgan tovushini eshitdi. Kimlardir o'tishdi, tatarlar machit oldida to'plandilar, ular

janjallashadi, baqirishadi va: „o‘ris-o‘ris“ degan gaplarni gapirishadi. Cholning ham tovushi keladi. Ularning nima to‘g‘risida janjalashganlari ma‘lum bo‘lmasa ham, Jilin ruslar yaqinlashib qolganini, tatarlar ularning ovulga kelishlaridan qo‘rqayotganlarini, asirlarni nima qilishni bilmayotganliklarini payqab oldi.

Tatarlar gaplashib bo‘lib, jo‘nab ketdilar. Birdan yuqoridan bir narsaning shitirlagan ovozi eshitildi. Jilin qarasa, yuqorida Dina cho‘qqayib o‘tirib, qarab turibdi, soch popuklari osilib, o‘raning og‘zida silkinib turibdi. Ko‘zları yulduzday charaqlaydi; u yengidan ikkita qurt va kulcha chiqarib, Jilinga tashladi.

Jilin uni oldi va qizga:

— Nega ko‘rinmay qolding? Men senga o‘yinchoqlar qilib qo‘ydim. Ma, ol! — deb, qo‘g‘irchoqlarni bittadan irg‘ita boshladi, u bo‘lsa boshini chayqab, o‘yinchoqlarga qaramadi.

— Kerak emas, — dedi-da, biroz jim o‘tirdi, keyin qo‘lini bo‘yniga olib borib, ishora bilan: — Ivan, seni o‘ldirmoqchilar, — dedi.

— Kim o‘ldirmoqchi?

— Otam, chollar buyurib ketishdi. Ammo senga mening rahmim keladi.

Jilin:

— Rahming kelsa, menga bitta uzun yog‘och keltirib ber! — dedi.

Qiz boshini chayqab: „Bo‘lmaydi“, degan ishorani qildi. Jilin qo‘llarini qovushtirib, unga yolvordi:

— Dina, rahm qil! Dinajon, olib kel, — dedi.

— Yo‘q, bo‘lmaydi, ko‘rib qolishadi. Hammalari uyda o‘tirishibdi, dedi-da, ketib qoldi.

Kechqurun Jilin o‘tirib, o‘zicha: „Nima bo‘larkin“, — deb o‘ylar va hadeb yuqoriga qarab qo‘yar edi. Yulduzlar ko‘rinadi, oy esa hali chiqqani yo‘q. So‘fi azon aytdi, keyin hamma yoq jim-jit bo‘lib qoldi. Jilin mudray boshladi: „Qiz qo‘rqi shekilli“, — deb o‘yladi.

Birdan yuqoridan uning boshiga tuproq tushdi, tepaga qaradi, tuproq tushgan tomondan uzun bir xodachaning uchi ko‘rindi. Sekin-sekin surilib, chuqurga tushdi. Jilin suyunib ketdi, xodachani ushlab oldi, xodacha yo‘g‘ongina edi. U, bu xodachani xo‘jayinning tomida ko‘rgan edi.

Yuqoriga ko‘z tashladi: osmonda yulduzlar charaqlab ko‘rinadi, o‘raning og‘zida, qorong‘ilikda Dinaning ko‘zları mushukning ko‘zlariday yonib turardi. Dina o‘ra labidan pastga engashib: „Ivan,

Ivan!“ deb shivirlar edi, o‘zi qo‘li bilan „jim, gapirma“ degandek ishora qilar edi.

— Nima? — dedi Jilin.

— Hamma ketdi, uyda ikki kishigina qoldi.

Jilin Kostilinga:

— Qani yur, ketamiz endi, yana bir urinib ko‘raylik: men seni chiqarib qo‘yaman, — dedi.

Kostilin bo‘lsa, eshitishni ham istamadi:

— Yo‘q, yo‘q, endi men, ko‘rinib turibdiki, ketolmayman.

Joyimdan jilishga madorim yetmaydi-yu, qayerga ham borar edim?

— Bo‘lmasa xayr, mendan o‘pkalama, — dedi-da, Kostilin bilan o‘pishib, vidolashdi.

Jilin Dinaga: „Xodaning uchini tutib tur“ — deb buyurdi-da, o‘zi osilib chiqqa boshladи. Taxtakach xalal bergani uchun, bir-ikki marta yiqilib tushdi. Kostilin uni suyadi. Oxiri bir iloj bilan yuqoriga chiqib oldi. Dina ikki qo‘li bilan zo‘r berib, uning ko‘ylagidan ushlab tortar va kular edi.

Jilin xodachani tortib olib:

— Dina, buni joyiga oborib qo‘y, bo‘lmasa keyin seni uradilar, —dedi.

Dina xodachani olib ketdi. Jilin bo‘lsa tog‘ etagiga qarab ketdi. Tog‘ yoqasida, bir kamarga o‘tirdi, qo‘liga o‘tkir tosh olib, taxtakachning qulfini sindira boshladи. Ammo qulf ham mahkam edi. Ha deganda sina bermadi.

Tog‘dan kimningdir yengil-yengil sakrab, chopib kelayotganini eshitdi. „Albatta, Dina bo‘lsa kerak“, deb o‘yladi. Qizgina ham yetib keldi, qo‘liga tosh olib:

— Kel, men sindirib beraman, — dedi.

Tiz cho‘kib o‘tirib olib, qulfnini sindira boshladи. Ammo qo‘llari kichik, bilaklari ingichka bo‘lgani uchun hech narsa qilolmadi — kuchi yetmadi.

Toshni yerga otib tashladi-da, yig‘lab yubordi. Jilin tag‘in toshni olib, yana qulfnini buza boshladи. Dina uning yoniga cho‘qqayib o‘tirib, yelkasidan ushlab turdi.

Jilin atrofga qaradi — chapdagи tog‘ orqasidan ufqda qizil nurlar sochib, oy ko‘tarila boshlaganini ko‘rdi. „Har holda oy chiqquncha, soydan o‘tib, o‘rmonga yetib olish kerak“, — deb o‘yladi, o‘rnidan turib, toshni tashladi, — taxtakach bilan ham jo‘nash kerak.

— Xayr endi, Dinajon, seni hech unutmayman, — dedi.

Dina uni ushlab olib, keltirgan nonlarini bir joyga solib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Jilin nonlarni oldi-da:

— Rahmat senga, esli qiz. Mensiz, endi senga kim o‘yinchoq qilib beradi? — dedi va uning boshini silab qo‘ydi.

Dina yig‘lab yubordi, yuzini qo‘llari bilan bekitdi-da, echki yanglig‘ sakrab-sakrab, tog‘ tepasiga chiqib ketdi. Qorong‘ida faqat soch popuklarning shildiragan tovushigina eshitilib turdi.

Jilin cho‘qinib olgach, yiqilib ketmaslik uchun taxtakachdag‘i qulfnii ushlab olib, yo‘lga tushdi. Oyog‘ini sudrab bosar, o‘zi esa oy chiqib kelayotgan tomonda ko‘ringan qizg‘ishlikka hadeb qarab borardi. Yo‘lni tanib oldi. To‘g‘ri, shu yo‘l bilan sakkiz chaqirim yurish kerak, ishqilib oy tamom ko‘tarilguncha o‘rmonga yetib olsa bo‘lgani.

Daryodan o‘tib olganda, oy chiqayotgan tomondagi tog‘ orqasi allaqachon yorishib ketgan edi.

Shundan keyin Jilin soy bo‘ylab ketdi, u ko‘kka qarab-qarab qo‘yadi: hali oy ko‘rinmaydi. Ko‘k yuzi ham yorishib qoldi, so‘ngra soy ichlari ham tobora yorishdi. Tog‘ etagidan paydo bo‘lgan soya borgan sari qisqarib, Jilin tomonga keldi.

Jilin soya tomon bilan boradi. U shoshiladi, oy esa undan ham shoshilibroq ko‘tariladi; o‘ng tomondagi daraxtlarning uchi oqara boshladi.

O‘rmonga yetib qolgan vaqtida, tog‘ning tepasidan oy ham ko‘rinib, hamma yoqni sutdek oqartirib yubordi. Daraxtlarning hamma barglari ko‘rinib turibdi. Hammayoq jimjit, xuddi suv sepganday. Tog‘ning tepasi yorug‘. Yolg‘iz quyida ariqning shildirashigina eshitilib turadi.

Jilin o‘rmonga yetib bordi, yo‘lda hech kim yo‘liqmadi. U qorong‘iroq bir joyni topib, dam olgani o‘tirdi.

Jilin damini oldi, non yedi. Tosh topib, taxtakachning qulfini yana buza boshladi. Qo‘llari shilindi. Lekin qulfnii buza olmadi. O‘rnidan turib jo‘nadi.

Bir chaqirimcha yo‘l bosgandan keyin darmoni qurib, oyoqlari ishdan chiqdi. Har o‘n qadamda bir to‘xtar edi. Jilin: „O‘ylab o‘tirishning hojati yo‘q, kuchim boricha yurishim kerak, o‘tirsam turolmay qolaman. Qo‘rg‘onga yetib borolmayman. Tong otishi bilan o‘rmonning chekkasiga kirib yotib, kechasi yana yuraman“, deb o‘yladi...

Butun kecha yo‘l yurdi. Faqat ikkita otliq tatar uchradi. Jilin ularni uzоqdan ko‘rib, o‘zini daraxtning panasiga oldi.

Oyning nuri ketib oqara boshladi: shabnam tushdi, tong yaqinlashdi, ammo Jilin o‘rmondan chiqolgani yo‘q. „Yana o‘ttiz qadam yurib boraman-da, o‘tiraman“, deb o‘yladi.

O'ttiz qadam o'tdi, qarasa o'rmon tugab qolibdi. O'rmondan chiqdi — hamma yoq yop-yorug‘, oldida tep-tekis cho'l va qo'rg'on ko'rindi, chap tomonda, tog'ning etagida gulxanlardan tutun chiqib, bilinib turadi, o't atrofida odamlar ko'rindi.

Jilin suyunib, bor kuchini to'pladi-da, tog‘ tagi bilan yurib ketdi. Ketarkan, ko'nglida: „Xudoyo o'zing saqla, bunday ochiq dalada otliq tatarlar ko'rib qolmasin, yaqin qolgan bo'lsa ham, qutulib bo'lmaydi“, — deb o'ylar edi. Xuddi shu onda, chap tomonda tepalik ustida uchta tatarning turganini ko'rdi.

Ularning ko'zi Jilinga tushishi bilan, uning ustiga ot qo'ydilar. Qo'rqqanidan Jilinning yuragi chiqib ketdi. Bor kuchini yig'ib turib, jonining boricha:

— Hoy birodarlar! Qutqaringlar! Og‘aynilar! — deb baqiraverdi.

Kazak soldatlari buni eshitib, otlariga sakrab mindilar-da, tatarlarning yo'lini kesib, Jilinga tomon chopdilar.

Kazaklarga uzoq, tatarlarga yaqin edi. Ammo Jilin ham bor kuchini to'plab, taxtakachni ushlagancha, kazaklar tomonga qarab yugurdi, o'zini esa tamom unutgan holda baqirdi:

— Og‘aynilar! Og‘aynilar!

Kazak soldatlari o'n beshtacha edi.

Tatarlar qo'rqib ketib, otlarining jilovlarini tortib, to'xtadilar. Jilin ham yugurib kazaklar oldiga yetib oldi.

Kazak soldatlari Jilinni o'rab oldilar, uning kimligini, qanday odamligini, qayerdan kelayotganini surushtirdilar. Jilin bo'lsa o'zida yo'q, yig'laydi va:

— Og‘aynilar! Og‘aynilar! — deb so'zlanadi, xolos.

Soldatlar biri non, biri shavla, yana biri aroq keltira boshladи, biri shinel keltirib yopdi, biri qulfni sindirgani tutindi.

Ofitserlar Jilinni tanidilar, uni qo'rg'onga olib ketdilar. Soldatlar suyundilar. Jilinning yoniga o'rtoqlari to'plandi.

Jilin boshidan o'tganlarni ularga so'zlab berdi va:


— Mana shunday qilib, uyga ham bordim, uylanib ham keldim, — dedi, — yo'q, nasib qilmagan ekan.

Shundan keyin Jilin Kavkazda xizmat qilib qoldi. Kostilinni bo'lsa, yana bir oydan so'ng, besh ming so'm to'lab qutqarib oldilar. Uni o'lay-o'lay deb turgan bir holda keltirdilar.



K. I. Chukovskiy

(1882 – 1969)



Korney Ivanovich Chukovskiy „Timsoh“ asari bilan o‘tgan asrning 10- yillarda kitobxonlarga tanildi. 1918- yilda uning „Archa“ to‘plamining bosilib chiqishi katta voqeaga aylandi.

„Moydodir“, „Suvarakxon“, „Doktor Voyjonim“, „Telefon“, „Fyodor o‘tkazgan alam“, „O‘g‘irlangan quyosh“ asarlari hamon qayta-qayta dunyo tillariga tarjima qilinib, chop etilmoqda.

DOKTOR VOYJONIM

(parcha)

DOKTOR VA UNING HAYVONLARI

Bir doktor bor edi. U juda rahmdil odam bo‘lib, oti Voyjonim edi. Uning Varvara degan badjahl bir singlisi ham bor edi.

Doktor hammadan ko‘ra hayvonlarni yaxshi ko‘rardi. Uning javonida quyonlar yashardi. Shkafida olmaxon, divanida tiprati-kan, sandig‘ida oq sichqonlar turardi. Shu uyning o‘zida qari ot, uning yonida sigir yashardi. Doktor Voyjonim hamma hayvonlari- dan ham Kika o‘rdakni, Avva itni, kichkinagini Xur-xur cho‘chqani, Karudo to‘tini va Bum boyo‘g‘lini yaxshi ko‘rardi.

Doktor Voyjonimning uyida shuncha hayvonlar bo‘lgani uchun singlisi Varvara unga do‘q qilib:

— Bularingni hoziroq yo‘qot! Ular faqat uylarni bulg‘atadi, xolos. Bu iflos sichqon va cho‘chqalar bilan birga turishni istamayman! — deb baqirdi.

Doktor unga qarab:

— Yo‘q, Varvara, ular iflos emas. Ular mening uyimda turganiga juda xursandman, — dedi.

Doktorga ko'rinish uchun dunyoning hamma yog'idan bemor cho'ponlar, kasal baliqchilar, o'tin kesuvchilar, dehqonlar kelishardi, doktor ularning har qaysisiga dori berardi, ular darrov tuzalib ketishardi.

Mabodo bironqa qishloqi bolaning qo'li chiqsa yoki burni qonasa bormi, u darrov doktor Voyjonimning oldiga yugurib kelardi — qarabsizki, o'n minutdan keyin u hech narsa ko'rmaganday soppasog', xushchaqchaq, to'ti Karudo bilan bekinmachoq o'ynab ketardi, boyo'g'li bo'lsa uni shirinlik va olmalar bilan ziyofat qila boshlardi.

Bir kuni doktor oldiga juda qari bir ot keldi-da, sekingina:
— Lama-vonoy-fifi-ku-ku! — dedi.

Doktor buning otlar tilida nima ekanini darhol payqadi. Buning ma'nosi: „Mening ko'zim og'riyapti. Marhamat qilib, menga ko'zoynak bering“, — degani edi.

Doktor hayvonlar tilida gapirishni allaqachonlar o'rganib olgan edi. U otga qarab:

— Kapuki-kapuki! — dedi.

Otlar tilida bu: „Marhamat, o'tiring!“ — degani edi.

Ot o'tirdi. Doktor unga ko'zoynak taqdi, shu bilan otning ko'zi tuzalib qoldi.

— Chaka! — dedi ot, dumini silkitib, keyin ko'chaga chopib chiqib ketdi.

Ot tilida „Chaka“ degani — „Rahmat“ degani bo'ladi.

Ko'zlari xiralashib qolgan hamma hayvonlar doktor Voyjonimdan tezda ko'zoynak oladilar. Otlar, sigirlar, mushuklar va itlar ko'zoynak taqib yura boshladilar. Hatto keksa qarg'alar ham inlaridan ko'zoynaksiz uchmadilar.

Doktorga ko'rinish uchun keladigan hayvon va qushlar kundan-kun ko'payaverdi.

Toshbaqalar, tuliklar va echkilar kelaverdilar, turnalar va burgutlar uchib keldilar. Doktor Voyjonim ularning hammasini davolayverdi, lekin hech qaysisidan pul olmadi, chunki it, qarg'a va ko'rshapalakda pul nima qilsin!

Tezda o'rnondagi daraxtlarga shunday e'lonlar yopishtirildi:

Qushlar-u hayvonlarga
Kasalxona ochilgan.

Ko'ringani u yerga
Boring albatta tezdan!

MAYMUN CHICHI

Bir kuni kechqurun, barcha hayvonlar uqlab yotgan paytda doktor eshigini allakim taqillatdi.

— Kim u? — deb so‘radi doktor.

— Men, — deb javob qaytardi past ovoz bilan birov.

Doktor eshikni ochdi, uyga oriq va iflos bir maymun kirdi.

Doktor uni divanga o‘tqizdi-da:

— Qayering og‘riydi? — deb so‘radi.

— Bo‘ynim! — dedi-da, maymun yig‘lab yubordi.

Shu gapdan keyingina doktor uning bo‘ynida arqon borligini ko‘rdi.

— Men yovuz sharmankachining¹ qo‘lidan qochdim, — dedi-da, maymun yana yig‘lab yubordi. — Sharmankachi meni urdi, qiyinati va arqonga bog‘lab qayoqqa borsa, o‘scha yoqqa sudrab bordi.

Doktor qo‘liga qaychi olib, arqonni qirqdi va maymunning bo‘yniga shunday ajoyib malham surtdiki, uning bo‘ynidagi og‘riq shu zahotiyoy qoldi. Undan keyin u maymunni tosda cho‘miltirdi, unga ovqat berdi, keyin bunday dedi:

— Maymunjon, menikida yashayver. Men sening xafa bo‘lishingni istamayman.

Maymun juda quvonib ketdi. Lekin u doktor bergen kattakatta yong‘oqlarni chaqib, stol oldida o‘tirganda, uyga badjahl sharmankachi yugurib kirdi:

— Maymuminmi ber! — deb qichqirdi u. — Bu maymun meniki!

— Bermayman! Hech ham bermayman! Maymunni qiyashingga toqatim yo‘q, — dedi doktor.

Sharmankachi jahli chiqqan doktor Voyjonimning yoqasidan bo‘g‘ib, urmoqchi bo‘lgan edi, doktor xotirjam turib:

— Hoziroq jo‘nab qol bu yerdan! Agar yoqalashadigan bo‘lsang, Avvani chaqiraman, etingni g‘archcha uzadi.

Avva uyga yugurib kirdi-da:

„R-r-r-r...“ — dedi xo‘mrayib turib.

Itlar tilida buning ma’nosi: „Qoch, bo‘lmasa qopaman“ degani edi.

¹ Sharmankachi — uyma-uy va ko‘chalarda musiqa chalib yuruvchi.

Sharmankachi qo‘rqib ketib, orqa-oldiga qaramay qochdi. Maymun doktornikida qoldi. Tezda hayvonlar maymunni yaxshi ko‘rishiб, unga Chichi deb nom qo‘yдilar.

„Chichi“ so‘zi hayvonlar tilida „jimjit“ deganidir.

Tanya bilan Vanya uni ko‘rishlari bilan baravariga:

— Oho, muncha antiqa-ya! Muncha ajoyib-a! — deb xitob qilishdi.

Keyin, shu zahotiyoy eng yaxshi o‘rtoq, dugonalari bilan o‘ynaganday, u bilan o‘ynab ketdilar. Ular bekinmachoq ham, koptoq otib ham o‘ynadilar, keyin uchovlari qo‘l ushlashib olib, dengiz qirg‘og‘iga chopib bordilar, u yerda-chi, maymun ularga quvnoq maymunlar o‘yinini o‘rgatdi, bu o‘yin hayvonlar tilida „Tkelli“ deb ataladi.

DOKTOR VOYJONIM ISH BILAN BAND

Har kuni doktor Voyjonimning oldiga davolangani hayvonlar kelishardi. Tulkilar, quyonjonlar, tulenlar, yovvoyi cho‘chqalar, bo‘taloqlar — hammalari uzoq yurtlardan kelishardi. Birovning qorni, birovning tishi og‘rir edi. Doktor ularning hammasiga dori berar, ular bo‘lsa o‘sha zahoti sog‘ayib ketishardi.

Bir kuni Voyjonimning oldiga dumi yuluq buzoqcha keldi, doktor bo‘lsa uning dumini ulab qo‘ydi.

Undan keyin, uzoq yurtdagi o‘rmondan, ko‘zlaridan duv-duv yosh to‘kib, ona ayiq kelib qoldi. U oh-voh chekib ingrar, xo‘rsinar, yig‘lar edi: uning kaftiga kirgan kattakon zirapcha do‘g‘rayib chiqib turardi. Doktor zirapchani olib tashladi, yarani yuvdi va unga o‘zining ajoyib shifo dorisini surtdi.

Shu zahotiyoy ona ayiqning og‘rig‘i bosildi. Keyin itlar g‘ajib tashlashiga sal qolgan kasal quyon surgicalib keldi. Undan keyin qo‘y keldi, u juda qattiq shamollagan, hadeb yo‘talar edi. Ulardan keyin ikkita jo‘jaxo‘roz kelishdi, ular yomon qo‘ziqorinlarni yeb qo‘yib, zaharlangan kurkani olib kelishdi. Doktor har bittasiga dori berdi, dorini ichganlar o‘sha zahotiyoy sog‘ayib ketdilar va har bittasi unga „chaka“ deb aytdi.

Hamma kasallar ketib bo‘lgandan keyin, doktor Voyjonimning qulog‘iga eshigining narigi yog‘ida allanimaning shuvillagan ovozi eshitildi.

— *Kiring!* — deb qichqirdi doktor.

Kirib keldi g‘amgin kapalak:

*„O‘tda kuydi qanotim andak.
Yordam etgin, doktor Voyjonim,
Og‘ir kuygan jazzi qanotim!“*

Doktor Voyjonimning kapalakka rahmi kelib ketdi. U ikki barmog‘i bilan uni ko‘tarib olib kaftiga qo‘ydi-da, kuygan qanotini sinchiklab ko‘zdan kechirdi. Keyin kului-da, kapalakka dedi:

*„Xafa bo‘lma, kapalak!
Yonboshlab yot sen andak.
Men ulayin boshqasin,
Ipakli zangorisin,
Yaxshisin!“*

Shunday deb turib, doktor yonidagi uyga kirdi-da, u yerdan bir quchoq baxmal, atlas, batis, shohi qiyqimlarini olib chiqdi. Qiyqimlar rang-barang: zangori, ko‘k, qora edi. Doktor ularni rosa titkiladi-da, oxirida bittasini — xol-xolli, och ko‘kish tuslisini tanlab oldi. Keyin, shu ondayoq uni qaychi bilan qiyib, ajoyib qanotcha bichdi, bu qanotcha kapalakning ko‘nglidagidek bo‘lib chiqdi.

*Kapalak kului shodon,
Uchdi chamanzor tomon.
U bilan ninachilar,
Kapalaklar uchishar,
Shunda quvnoq Voyjonim,
Oynadan der: „Xo‘p, jonim,
Mayli quvnab o‘ynagin!
Ammo o‘tda kuymagin!“*

Doktor mana shu alfozda o‘z kasallari bilan qorong‘i tushguncha ovora bo‘ldi.

Kechasi u divanga cho‘zildi-da, shirin uyquga ketdi, tushiga nuqul oq ayiqlar, kiyiklar, morjlar kirdi.

Qo‘qqisdan yana birov uning eshigini taqillatdi.

TIMSOH

Doktor turgan shaharda sirk bor edi, sirkda esa kattakon Timsoh yashardi. Uni pul olib odamlarga ko‘rsatar edilar.

Kunlarning birida Timsohning tishi og‘rib qoldi, u davolanish uchun doktor Voyjonimning oldiga keldi. Doktor unga ajoyib doridan beruvdi, tish og‘rig‘i bosildi.

— Sizda qanday yaxshi-ya! — dedi Timsoh, har tomonga qarab, og‘zining so‘lagi oqib. — Sizning qanchadan-qancha

quyonlaringiz, qush va sichqonlaringiz bor-a! Tag'in ularning hammasi semiz, mazali! Siznikida butun umr qolay, ruxsat bering. Men qaytib sirkdag'i xo'jayinimga borishni istamayman. U meni yomon boqadi, uradi, koyiydi, xafa qiladi.

— Qola qol! — dedi doktor, — marhamat! Lekin shuni bilib qo'y: agarda sen bironta quyonimni yoki bironta chumchug'imni yeb qo'yar ekansan, seni bu yerdan quvib yuboraman.

— Bo'pti! — dedi Timsoh xo'rsinib. — Va'da beramanki, doktor, men quyonlaringizni ham, qushlaringizni ham, sichqonlaringizni ham yemayman.

Shunday qilib, Timsoh doktornikida yashay boshladи.

U juda yuvosh edi. Hech kimga tegmas, o'z biligicha karavot tagida yotardi-da, nuqul uzoq yurtda, issiq Afrikada yashayotgan aka-ukalarini, opa-singillarini o'ylar edi.

Doktor Timsohni yaxshi ko'rib, u bilan tez-tez so'zlashadigan bo'ldi. Biroq yovuz Varvara Timsohni ko'rgani ko'zi yo'q, uni haydar yuborish uchun doktorga tinqilinch qilgani-qilgan edi.

— Uni ko'rgim ham kelmaydi! — deb qichqiribdi Varvara. U o'lgudek jirkanch, sertish. Nimaga tegsa, o'shani buzib, ishdan chiqaradi. Kecha deraza oldida yotgan ko'k yubkamni yeb qo'yibdi.

— Yaxshi qipti-da, — dedi doktor. Yubkani shkaf ichiga bekitib qo'yish kerak, deraza oldiga tashlab qo'yganning jazosi shu.

— Shu jirkanch Timsoh bor uchun, — deb davom etdi Varvara, — ko'p odamlar biznikiga kelgani qo'rqedilar. Yolg'iz kambag'allargina kelishadi, sen bo'lsang ulardan haq olmaysan, shuning uchun mana, shunchalik kambag'allashib qoldikki, non sotib olgani ham pulimiz yo'q.

— Menga pul kerak emas, — deb javob berdi doktor Voyjonim.

— Pulim bo'lmasa ham, ishim yirik. Hayvonlar meni ham, seni ham boqadilar.

DO'STLARI DOKTORGА YORDAM BERISHADI

Varvaraning aytgani to'g'ri chiqdi: doktor nonsiz qoldi. Uch kun och o'tirdi.

Doktorning uyidagi hayvonlar uning yeishiga hech nimasi yo'q ekanligini ko'rib, uni boqishga kirishdilar. Boyo'g'li Bumba bilan cho'chqa Xur-xur hovliga ekin ekdilar: cho'chqa tumshug'i bilan jo'yak tortdi. Bumba bo'lsa kartoshka ekdi. Sigir har kuni ertalab va kechqurun doktorni o'z surʼi bilan mehmon qilib turdi. Tovuq unga tuxum qilib beraverdi.

Shunday qilib, hammalari doktorning g‘amini yeyaverdilar.
It Avva pollarni supurdi. Tanya bilan Vanya maymun Chichi
bilan quduqdan suv keltirib berib turdilar.

Doktor juda mammun bo‘ldi.

— Hech qachon uyim bunday toza bo‘lmagan edi. Bu ishingiz
uchun rahmat sizga, bolajonlar va hayvonlar.

Bolalar unga kulib boqdilar, hayvonlar esa baravariga:

— Karabuka, marabuka — bu! — deb javob qaytardilar.

Hayvonlar tilida bu:

„Nega xizmat qilmaylik? Sen, axir, bizning eng yaxshi
do‘stimizsan-ku“ degan gap edi.

It Avva bo‘lsa uning chakkasini yalab turib:

— Abuzo, mabuzo bax! — dedi.

Itlar tilida bu:

„Biz seni hech qachon tashlab ketmaymiz va sening sodiq
o‘rtoqlaring bo‘lamiz“ degan gap edi.

QALDIRG‘OCH

Bir kuni kechqurun boyo‘g‘li Bumba:

— Kim u eshik orqasini tiqillatayotgan? Xuddi sichqonga
o‘xshaydi-ya, — dedi.

Hammalari quloq soldilar, lekin hech nima eshitmadilar.

— Eshik orqasida hech kim yo‘q! — dedi doktor. — Senga
shunday tuyulgan-da.

— Yo‘q, shunday tuyulgani yo‘q, — deb javob berdi boyo‘g‘li.

— Allakim eshikni tiqillatyapti, eshiyapman. Bu — yo sichqon,
yo bo‘lmasa — qush. Endi menga ishonaversangiz bo‘ladi. Biz,
boyo‘g‘llar, odamlarga ko‘ra yaxshiroq eshitamiz.

Bumbaning aytgani to‘g‘ri chiqди.

Maymun eshikni ochdi-da, ostonada Qaldirk‘ochni ko‘rdi.

Qish vaqtida Qaldirk‘och nimas! Bu qanday gap! Axir,
qaldirk‘ochlar sovuqqa chidolmaydilar-ku, axir: ular qish kirdi
deguncha issiq Afrikaga uchib ketadilar-ku! Bechora, juda sovqotib
qolibdi-ku! U qor ustida o‘tirib qaltiraydi.

— Qaldirk‘och! — deb chaqirdi doktor. — Ichkariga kirib,
pechkada isin.

Qaldirk‘och avval ichkariga kirgani qo‘rqdi. U uyda Timsoh
yotganini ko‘rdi-da, meni yeb qo‘yadi, — deb o‘yladi. Lekin
maymun Chichi unga bu Timsohning juda rahmdil ekanini aytdi.
Shundagina Qaldirk‘och uchib uyg‘a kirib, stul suyanchig‘iga qo‘ndi,
har tomonga timirskilanib qaradi-da, so‘radi:

— Churuto kisafa mak?

Hayvonlar tilida bu shunday degani: „Marhamat qilib, aytingiz, hayvonlarni davolaydigan mashhur doktor Voyjonim shu yerda turadimi?”

— Ha, Voyjonim men bo‘laman, — dedi doktor.

— Mening sizdan katta o‘tinchim bor! — dedi Qaldirg‘och.

— Siz darrov Afrikaga jo‘nashingiz kerak. Men sizni u yoqqa chaqirish uchun atayin uchib keldim. U yerda, Afrikada maymunlar yashaydilar, ana shu maymunlar hozir kasal.

— Ularning qayeri og‘riydi? — deb so‘radi doktor.

— Ularning qorinlari og‘riyapti, — dedi Qaldirg‘och. — Ular yerda ag‘anab, yig‘lab yotibdilar. Ularni qutqazib qoladigan atigi bittagina kishi bor, u siz. Dorilaringizni olvoling-u, Afrikaga tezroq jo‘naylik. Agar Afrikaga bormas ekansiz, hamma maymunlar o‘lib ketishadi.

— Oh, — dedi doktor, — Afrikaga jon deb borardim-a! Men maymuniarni yaxshi ko‘raman, shuning uchun ham ularning kasal bo‘lganliklariga achinaman. Attang, mening kemam yo‘q! Axir, Afrikaga borish uchun kema bo‘lishi kerak.

— Bechora maymunlar! — dedi Timsoh. — Agar doktor Afrikaga bormasa, ularning hammasi o‘lib ketadi. Faqat uning bir o‘zigina ularni tuzata oladi.

Shunday deb, Timsoh yig‘lab yubordi. U shunday ko‘p yosh to‘kdiki, pol ustida ariq bo‘lib oqdi.

Doktor Voyjonim birdan baqirib dedi:

— Nima bo‘lsa ham, Afrikaga boraman! Ishqilib, kasal maymunchalarni davolayman! Ha, esimga keldi, mening eski dengizchi oshnam Robinzonning yaxshi kemasi bor. Axir, men uni yovuz bezgak changalidan qutqarib qolganman.

Doktor shlyapasini oldi-da, dengizchi Robinzonning oldiga jo‘nadi.

— Salom, dengizchi Robinzon, — dedi u. Sadag‘ang ketay, kemangni berib tur. Men Afrikaga bormoqchiman. U yerda — Sahroyi Kabir yaqinida ajoyib maymunlar mamlakati bor.

— Yaxshi, — dedi dengizchi Robinzon. — Men senga jon deb kemamni beraman. Axir sen meni o‘limdan qutqazgansan, shuning uchun nima tilasang, xursandchilik bilan bajaraman. Lekin hushyor bo‘l — kemani qaytarib olib kel, nimaga desang, bundan boshqa kemam yo‘q.

— Albatta keltiraman, — dedi doktor. — Ko‘nglingni to‘q tut. Men faqat Afrikaga borib qaytsam bo‘lgani.

— Ol, ol! — dedi dengizchi Robinzon. — Lekin ehtiyot bo‘l, tag‘in suv osti toshlariga uring, sindirib-netib qo‘yma.

— Xotiring jam bo‘lsin, sindirmayman, — dedi doktor va dengizchi Robinzonga rahmatlar aytib, uyiga yugurdi.

— Hayvonlar, narsalarni yig‘ishtiringlar! Ertaga biz Afrikaga jo‘naymiz! — dedi u.

Hayvonlar juda sevinishdi, uy ichida sakrashib, chapak chala boshladilar. Hammadan ko‘proq maymun Chichi sevindi:

„Boraman Afrikaga,
Go‘zal o‘lkaga!
Afrikam, jon-tanim,
Aziz Vatanim!“

— Men Afrikaga hamma hayvonlarni olib ketavermayman, — dedi doktor Voyjonim. Tipratikanlar, ko‘rshapalaklar va quyonlar shu yerda, mening uyimda qolishlari kerak. Ular bilan birga ot ham qoladi. Men Timsohni, maymun Chichini va to‘ti Karudoni o‘zim bilan birga olib ketaman, chunki ularning zoti Afrikadan: u yerda bularning ota-onalari, aka-uka, opa-singillari yashaydi. Ulardan tashqari, men o‘zim bilan birga Avvani, Kikani, Bumbani va cho‘chqa Xur-xurni olib ketaman.

— Bizlarni-chi, — deb qichqirishdi Tanya bilan Vanya.

— Nahotki, biz sensiz bu yerda qolsak?

— Ha! — dedi doktor va ularning qo‘llarini olib qattiq qisdi.

— Ko‘rishguncha xayr, aziz do‘sral! Sizlar bu yerda qolib, mening polizim bilan bog‘imga qarab turasizlar. Biz juda tez qaytamiz. Sizlarga Afrikadan ajoyib sovg‘alar olib kelaman.

Tanya bilan Vanya boshlarini xam qilib qoldilar. Lekin biroz o‘ylab turib, shunday dedilar:

— Nachora, iloj yo‘q, biz hali kichkinamiz. Xo‘p, sizlarga oq yo‘l! Ko‘rishguncha xayr! Biz katta bo‘lganimizda albatta siz bilan sayohatga boramiz.

— Bo‘lmasam-chi! — dedi doktor Voyjonim. — Sizlar sal katta bo‘lsalaring bas, birgalikda sayohatga chiqamiz.

TENTAK HAYVONLAR

Doktor Voyjonim kasal maymunlarning oldiga borishga shoshildi.

Ular yerda ingrab yotardilar. Juda qattiq kasal edilar.

Doktor maymunlarni davolay boshladi. Har bir maymunga dori berish: biroviga tomizg‘i, biroviga ichirgi berish kerak edi. Keyin

har bir maymunning boshiga sovuq kompress, orqasi, ko'ksiga gorchichnik (xantal) qo'yish lozim edi.

Kasal maymunlar juda ko'p, doktor bo'lsa bitta edi. Bir odam shuncha ishni udda qila olarmidi?!

Kika, Timsoh, Karudo va Chichilar kuchlari boricha doktorga yordamlashdilar, lekin ular tezda juda charchadilar, doktorga boshqa yordamchilar kerak bo'lib qoldi.

U sahroga — arslon yashaydigan joyga bordi.

— Shavqat qiling, — deb aytdi u arslonga, — marhamat qilib, kasal maymunlarni davolagani menga yordamlashib yuboring.

Arslon savlatli edi. U Voyjonimga o'qrayib qarab:

— Xo'sh, bilasanmi, men kimman? — Men — arslonman, men hayvonlar podshosiman! Podsho bo'lsam-u, allaqanday iflos maymunlarni davolashga yordamlashaymi, gapingni qara-yu!

Shundan keyin doktor karkidonlar oldiga bordi. — Karkidonlar, hoy karkidonlar, — dedi u. — Maymunlarni davolagani menga yordam qiling! Ular juda ko'p, men bo'lsam yolg'izman. Bir o'zim hamma ishni uddalolmayapman.

Karkidonlar bunga javoban hiqillab kuldilar: — Yordam beraylik emish! Zo'r shoxlarimiz bilan suzib, xarob qilib tashlamaganimizga shukur qil!

Doktor bu yovuz karkidonlardan juda xafa bo'ldi-da, qo'shni o'rmonga — targ'il yo'lbars oldiga yugurdi.

— Yo'lbarslar! Yo'lbarslar! Maymunlarni davolagani menga yordam beringlar!

— R-r-r! — deb javob berishdi targ'il yo'lbarslar. — Yeb qo'ymasimizdan oldin jo'nab qol!

Doktor juda qayg'urib ular oldidan ketdi.

Ammo yovuz hayvonlar tez orada qattiq jabr tortdilar.

Arslon uyiga qaytgan chog'ida xotini unga dedi:

— Kichik o'g'limiz betob bo'lib qoldi — ertadan-kechgacha yig'lagani-yig'lagan, inqillagani-inqillagan. Attang, mashhur doktor Voyjonimning Afrikada yo'qligi ko'p yomon bo'ldi-da. U juda yaxshi davolaydi. Hamma uni yaxshi ko'rishi bejiz emas. U bo'lganda o'g'limizni darrov tuzatib qo'yardi.

— Doktor Voyjonim shu yerda! — dedi arslon. Anavi xurmo orqasidagi Maymunlar mamlakatida! Men hozirgina u bilan so'zlashdim.

— Qanday baxt-a! — dedi arslonning xotini. Tez bor, bolamizni davolagani uni chaqirib kel!

— Yo'q, — dedi arslon, — men uning oldiga bormayman. U o'g'limizni davolamaydi, chunki men uni xafa qildim.

— Sen doktor Voyjonimni xafa qildingmi? Sho‘rimiz qursin, endi nima qilamiz? Axir, sen bilasanmi, doktor Voyjonim eng yaxshi, eng ajoyib doktor. U odamlar orasida hayvonlar tilida gapira oladigan yagona kishi. U yo‘lbars, timsoh, quyon, maymun va qurbaqalarni davolaydi. Ha, ha, u qurbaqalarni ham davolaydi, chunki u juda rahmdil odam. Sen shunday odamni xafa qilibsan! Uni o‘g‘ling kasal bo‘lib yotgan paytda xafa qilibsan! Endi nima qilasan?

Arslon dovdirab qoldi. U nima deyishini bilmasdi.

— O‘sha doktorga bor! — deb qichqirdi arslonning xotini, — undan kechirim so‘ra. Doktorga qo‘lingdan kelguncha yordam qil. U nima desa, shuni qil, keyin undan sho‘rlik o‘g‘limizni davolashni so‘ra, yalin!

Boshqa iloj yo‘qligidan arslon doktor Voyjonim oldiga bordi.

— Salom, — dedi u. Men sizga yordam bergani keldim. Men maymunlarga dori berishga va ularga har xil kompress qilishga roziman.

Shunday qilib, arslon Voyjonimga yordam qila boshladи. U uch kecha-yu, uch kunduz kasal maymunlar bilan ovora bo‘ldi, undan keyin doktor Voyjonim oldiga borib, sekingga:

— Mening eng yaxshi ko‘rgan kenjatoyim og‘rib qoldi... o‘tinib so‘rayman, marhamat qilib, shu sho‘rlik o‘g‘limni davolasangiz, — deb yalindi.

— Yaxshi! — dedi doktor. — Jonim bilan! — O‘g‘lingizni shu bugunoq tuzataman.

Aytganini qilib, u g‘orga bordi-da, arslon bolasiga shunday bir dori berdiki, kasal bir soatdayoq sog‘ayib, o‘rnidan turib ketdi.

Keyin karkidon va yo‘lbarslarning bolalari og‘rib qoldi. Voyjonim ularni shu ondayoq tuzatdi. Shunda karkidonlar bilan yo‘lbarslar:

— Sizni xafa qilganimiz uchun juda uyatlimiz, — dedilar.

— Hechqisi yo‘q, mayli, — dedi doktor. — Bundan buyon aqli bo‘linglar. Hozir esa bu yoqqa kelib, maymunlarni davolagani menga yordam qilinglar.

TORTIQ

Hayvonlar doktorga shunday yordamlashdilarki, kasal maymunlar tezda sog‘aydilar.

— Doktorga rahmat! — deyishdi maymunlar. U bizni qo‘rqinchli kasaldan tuzatdi, shuning uchun biz unga yaxshi bir narsani tortiq

qilishimiz kerak. Odamlar bir umr ko‘rmagan bir hayvonni unga tortiq etaylik. Y sirkda ham, hayvonot bog‘ida ham bo‘lmagan hayvon bo‘lsin.

— Unga tuyani tortiq qilaylik! — deb qichqirdi bir maymun.

— Yo‘q, — dedi Chichi, — unga tuya kerak emas. U tuyalarni ko‘rgan.

— Unday bo‘lsa, tuyaqush tortiq qilamiz! — deb qichqirdi boshqa bir maymun. — Biz unga tuyaqush tortiq qilamiz, tuyaqush!

— Yo‘q bo‘lmaydi, — deb aytdi Chichi. — U tuyaqushlarni ham ko‘rgan.

— Bo‘lmasa u Tishlabtashlarni ham ko‘rganmi? — deb so‘radi uchinchi maymun.

— Yo‘q, Tishlabtashlarni u hech qachon ko‘rgan emas, — deb javob berdi Chichi. — Tishlabtashlarni hali bitta ham kishi ko‘rmagan.

— Yaxshi — deyishdi maymunlar. — Endi biz doktorga nima tortiq qilishni bilamiz. Biz unga Tishlabtashlarni tortiq qilamiz.

TISHLABTASHLAR

Odamlar Tishlabtashlarni hech qachon ko‘rmaganlar, chunki Tishlabtashlar odamlardan hurkadi: odamni ko‘rdi deguncha chakalakka qochib ketadi.

Boshqa hayvonlarni siz, ular uyquga ketib, ko‘zlarini yumganda ushlappingiz mumkin. Siz ularning orqasidan kelasiz-da, dumidan tutib olasiz, ammo Tishlabtashlarning orqa tomonidan kelolmaysiz, chunki Tishlabtashlarning orqasida ham oldidagidek boshi bor.

Shunday, uning boshi ikkita: biri oldida, ikkinchisi orqasida. Uning uxlagini kelganda, avval, birinchi boshi uxbab oladi, so‘ngra ikkinchisi uxlaydi. Ikkala boshi birdaniga hech qachon uxlayolmaydi. Birinchisi uxlaganda, ikkinchi boshi ovchi kelib qolmasin deb, olazarak bo‘lib har tomonni kuzatib turadi.

Mana shuning uchun hech bir ovchi Tishlabtashlarni hech qachon tuta olgan emas, mana shuning uchun sirkda ham, biror hayvonot bog‘ida ham bu hayvon yo‘q.

Maymunlar doktor Voyjonim uchun bitta Tishlabtashlar tutmoqchi bo‘ldilar. Ular o‘rmonning qalin joyiga yugurishib bordilar-da, o‘scha yerdan Tishlabtashlar yotadigan joyni topdilar.

Tishlabtashlar maymunlarni ko‘rib, qocha boshladi, lekin maymunlar uni o‘rab oldilar-da, shoxidan tutib:

— Tishlabtashlarjon! Sen doktor Voyjonim bilan birga uzoq bir mamlakatga borib, uning uyidagi hayvonlari bilan yashashni istaysanmi? — dedilar.

Tishlabtashlar ikkala boshini chayqab, ikkala og‘zi bilan:

— Yo‘q, — deb javob berdi.

— Doktor mehribon kishi, — deyishdi maymunlar. — U seni asal kulchalar bilan boqadi, mabodo kasal bo‘lib qolsang, seni davolaydi.

— Baribir bormayman! — dedi Tishlabtashlar. — Men u yerda qolishni istamayman!

Maymunlar uni ko‘ndirgani uch kun ovora bo‘ldilar, nihoyat, Tishlabtashlar dedi:

— Qani, menga o‘sha mehribon doktorni ko‘rsating-chi! Men uni bir ko‘ray!

Maymunlar Tishlabtashlarni doktor Voyjonim turgan uygaga boshlab keldilar. Eshik og‘ziga kelib taqillatdilar.

— Kiraveringlar! — dedi Kika.

Chichi mag‘rurlik bilan ikki boshli hayvonni uyga olib kirdi.

Doktor boshidan shlyapasini olib, maymunlarga ta’zim qildida, dedi:

— Xayr, qimmatli do‘sstar! Menga bo‘lgan muhabbatningiz uchun sizlarga rahmat. Tezda men yana qayta sizning oldingizga kelaman. O‘sha kungacha men sizga Timsohni, to‘ti Karudoni va maymun Chichini qoldiraman. Ular Afrikada tug‘ilganlar. Shuning uchun Afrikada qola qolsinlar. Bu yerda ularning aka-ukalari va opa-singillari yashaydi. Xo‘p, ko‘rishguncha, xayr!

— Yo‘q, yo‘q! — deb qichqirishdi bir ovozdan Timsoh ham, Karudo ham, maymun Chichi ham. — Biz aka-ukalarimizni, opa-singillarimizni yaxshi ko‘ramiz, lekin sizdan ajralgimiz yo‘q!

— Mening o‘zim ham sizlarsiz zerikib qolaman, — dedi doktor.

— Lekin sizlar bu yerda butun bir umrga qolayotganingiz yo‘q! Uch-to‘rt oydan keyin men bu yerga qaytib kelaman, shunda sizlarni olib ketaman. O‘shanda yana hammamiz birga yashab, birga mehnat qilamiz.

— Bu qanday narsa? — deb so‘radi hayratda qolgan doktor.

U bunaqa ajoyib narsani hech qachon ko‘rmagan edi.

— Bu Tishlabtashlar, — deb javob berdi Chichi. U sen bilan tanishmoqchi. Tishlabtashlar bizning Afrika o‘rmonlarimizda eng kam uchraydigan hayvon. Uni kemangga solib ol. U sening uyingda yashasin.

— U mening uyimga borishni xohlaydimi?

Kutilmaganda:

— Senikiga jon deb boraman! — dedi Tishlabtashlar. — Men bir qarashdayoq sening mehribonligingni bildim. Sening ko'zlarin judayam sershavqat, yaxshi. Hayvonlar seni jordan sevishadi, men bilaman, sen ham hayvonlarni jordan yaxshi ko'rasan. Lekin menga so'z ber, sening uyingda zerikib qolsam, meni uyimga qo'yib yuborasan.

— Albatta qo'yib yuboraman. Lekin menin uyma senga shunday yoqib qoladiki, sen ketishni xayolingga ham keltirmay qo'ysan.

— Unday bo'lsa, men roziman, — dedi xursandlik bilan Tishlabtashlar, goh bir boshini, goh ikkinchi boshini Voyjonimga silkib.

MAYMUNLAR DOKTOR BILAN XAYRLASHDILAR

Shu topda uyg'a maymunlar kirib keldilar-da, doktorni ovqatga chaqirdilar. Ular doktorga xayrlashish oldida ajoyib ovqat tayyorladilar: dasturxon olmalar, bananlar, xurmolar, shaftolilar, apelsinlar, ananaslar, yong'oqlar, uzumlar bilan to'lib ketdi.

— Yashasin doktor Voyjonim! U yer yuzida eng mehribon odam, — deb qichqirdilar ular.

Keyin maymunlar o'rmonga chopib bordilar-da, yerdan bahaybat og'ir toshni dumalatib keltirdilar.

— Bu tosh, — dedilar ular, — doktor Voyjonimning maymunlar xalqini davolagan joyida turadi. Bu tosh mehribon doktorga haykal bo'ladi.



S. Y. Marshak

(1887—1964)



Samuil Yakovlevich Marshak kichkintoylar uchun katta she'riyat yaratib bergan ulkan san'atkor, taniqli tarjimon, yetuk dramaturg, mohir pedagog va bilimdon muharrirdir.

S. Y. Marshak 20- yillardayoq o'zining she'r, ertak va poemalari bilan yosh kitobxonlarning sevimli shoiri sifatida tanildi. „Qayerda ovqatlanding, ey chumchuq?“, „Ahmoq sichqoncha haqida ertak“, „Kecha va bugun“, „Sirk“ kabi mashhur asarlari o'sha yillarda yaratilgan edi.

Marshakning „Petya nimadan qo'rqrar edi?“. „Korablcha“ singari she'rlari bilan birga „Gorkiy va bolalar“, „Gorkiy haqidagi xotiralardan“ degan maqola va esdaliklari kitobxonlarga, ayniqsa, manzur bo'ldi.

STOL KELGAN QAYERDAN?

Olgin-da, daftar, kitob,
 Stolga o'tir bir dam.
 Qani, buni o'ylab top:
 Stol kelgan qayerdan?

 Bordir qarag'ay hidi,
 Kelgan o'rmon tomondan.
 Stol qarag'ay edi,
 Bizga kelgan o'rmondan.

 Oldin o'rmon ichida
 Qarag'ay bo'lgan chindan.
 Tanasidan-chi doim
 Tomgan yaltiroq yelim.

 Hozir pol uning joyi,
 Oldin yashardi yerda.
 O'rmonda turgan ko'p yil,
 Shoxlarin silkib yelda.

Uning ildizi tagin
Bo'rsiq qilgan edi in.
Ko'klamgi selga dovur
Xirillab qilgan huzur.

Olmaxonni ham ko'rgan
Stol o'rmon ichida.
U xo'p tarmashib yurgan
Qarag'ay tepasida.

Zog'cha qushlar gohida
O'ynashgan o'z shoxida
Ular sayrashni tongda
Xo'p eshitgan o'rmonda.

Tanasin issiq arra
Kesib qo'ydi ko'p o'tmay.
Xo'rsinib so'nggi karra
Qulab tushdi qarag'ay.

Sohilda taxta tilar —
Joyga uni eltdilar.
Xodadan taxta bo'lar,
So'ng ustaxona jo'nar.

U ustaxonadayoq,
Bo'lib qoldi to'rt oyoq,
Ustalarining qo'lidan
Chiqqan bo'ldi keng, pishiq.

Shoxlarining o'rnidan
Sal ko'rinar ko'z, chiziq,
Uyning ichida endi —
Devor yonida turar.

Ko'rsa qarag'ayini
Bo'rsiq tanimay qo'yar,
Bu stol borib qolsa,
To'rt oyoqlab o'rmonga...

Lekin o'rmonga bormas,
Biz bilan yashar faqat.
Har kun, har yil, har nafas
Biz uchun qilar xizmat.

Unda turar siyohdon,
Daftar yotadi unda.

Ishlaymiz kunduz ravon,
Kitob o‘qiyimiz tunda.

Chizma yoyaman bunda,
Vaqti kelganda bir kun —
Chizmalar yarar chindan
Samolyot qurish uchun.

AHMOQ SICHQONCHA HAQIDA ERTAK

Tunda sichqon inidan
Alla aytar: — Jon qo‘zim,
Jim yot, bolam, kuyuk non
Va sham beray yulduzim.

Javob berar sichqoncha:
— Ovozing ip-ingichka.
Chiyillamay sen menga
Topib ber bir enaga.

Ona sichqon tez borib,
Der o‘rdakka yolvorib:
— O‘rdak xola, uyga yur,
Bolamni tebratib tur!

Alla aytib, der o‘rdak:
— „G‘a-g‘a-g‘a“, tinch yot go‘dak.
Yomg‘ir tinsa bog‘chadan
Topib beray loyxo‘rak.

Ammo ahmoq sichqoncha
Uyqusirab zing‘ircha.
Aytar: — Yoqmadi sozing,
Baqiroqdir ovozing.

Ona sichqon tez borib,
Der baqaga yolvorib:
— Baqa xola, uyga yur,
Bolamni tebratib tur!

Uni allalar baqa:
— Yig‘lama, qo‘y, vaqvaqa.
Tong otguncha tinchib yot,
Chivin beray mukofot.

Ammo ahmoq sichqoncha,
Uyqusirab zing‘ircha,

Aytar: — Yoqmadi sozing,
Qur-qur ekan ovozing!

Ona sichqon tez borib,
Otga deydi yolvorib:
— Amma, amma, uyga yur,
Bolamni tebratib tur!

Kishnab alla aytar ot:
— Hi-hi-hig, jonim, tinch yot!
Yonboshlagin, bo'lgin jim,
Senga beray to'rva yem.

Ammo ahmoq sichqoncha,
Uyqusirab zing'ircha,
Der: — Menga yoqmas sozing,
Shang'i ekan ovozing.

Ona sichqon tez borib,
Der cho'chqaga yolvorib:
— Cho'chqa xola, uyga yur,
Bolamni tebratib tur!

U bo'g'ilib, xirillab,
Shunday deb alla qildi:
— Jonginam, qilma g'avg'o,
Juft sabzi senga sovg'a!

Ona sichqon tez borar
Oq tovuqqa yolvorar:
— Tovuq xola, uyga yur,
Bolamni tebratib tur!

Tovuq allalar quvnoq:
— Do'ndiqcham, qo'rqlma, qa-qaq.
Qanotim ostiga kir,
U yer issiq, tinch axir.

Ona sichqon tez borib,
Der baliqqa yolvorib:
— Cho'rtan xola, bizga yur,
Bolamni tebratib tur!

Baliq ochib og'zini,
Darrov allalar uni.
Biroq eshitilmas soz,
Chunki chiqmas hech ovoz.

Shunda ahmoq sichqoncha
Uyqusirab zing'ircha,
Aytar: — Yoqmadi sozing,
Chiqmas ekan ovozing!

Ona sichqon tez borib,
Der mushukka yolvorib
— Mushuk xola, uyga yur,
Bolamni tebratib tur!

Mushuk kelib bir palla,
Xurillab aytar alla:
— Miyov, miyov! Yulduzim.
Karavotga yot, qo'zim.

Shunda ahmoq sichqoncha
Uyqusirab zing'ircha,
Deydi: — Yoqimli sozing,
Buncha shirin ovozing!

Ona sichqon kelib tez,
Karavotdan o'sha kez
Topolmay o'z bolasin,
Axtarar ko'z qorasin...

QAYERDA OVQATLANDING, EY, CHUMCHUQ?

— Ayt-chi, ovqatlanding qayerda, chumchuq?
— Zooparkda yurib qornim bo'ldi to'q.
Panjaradan kirdim sher turgan yerga,
Dastlab ovqatlandim u bilan birga.

To'yib oldim tulki uyin to'rida,
Chanqoqligim qondi morj huzurida.
Fil yonida biroz sabzi yeb ko'rdim,
Laylakka do'st bo'lib, tariq yeb yurdim.

Kepak bilan mehmon qildi karkidon,
Qornimni to'yg'izdi, zavqim bir jahon.
Kenguru ham siylab, qildi ziyofat,
Rosa ovqatlanib, topdim halovat.

Paxmoq ayyiq bilan ulfat ikkimiz,
Bayram taomini baham ko'rdik biz.
Keyin boqqan edim timsoh tishiga,
Sal goldi meni yamlab yutishiga.

MUNDARIJA

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI	3
XALQ OG'ZAKI IJODI. KICHIK FOLKLOR JANRLARI.	
QO'SHIQLAR	10
Alla	10
Oq terakmi ko'k terak?	11
Xirmon qo'shiqlari	12
Qo'sh qo'shig'i	13
Yanchiq qo'shig'i	13
Maqollar	13
Topishmoqlar	14
Tez aytishlar	15
ERTAKLAR	16
Birlashgan o'zar	16
Egri va to'g'ri	20
Non va tilla	24
Kaptar sovg'asi	25
Bolta bo'tqa	26
Arilar g'azabi	28
Yolg'onchi	29
Rostgo'y bola	29
Haqqush	30
Qizg'anчиq Pak	32
Alisher Navoiy	33
Muhammad Sharif Gulxaniy	44
Abdulla Avloniy	51
Hamza Hakimzoda Niyoziy	57
G'afur G'ulom	61
Oybek	78
Quddus Muhammadiy	87
Mirkarim Osim	95
Hamid Olimjon	101
Ilyos Muslim	113
Zafar Diyor	117
Shukur Sa'dulla	125

Hakim Nazir	133
Po'lat Mo'min	142
Do'stjon Matjon	147
Qudrat Hikmat	151
Nosir Fozilov	159
Xudoyberdi To'xtaboyev	165
Farhod Musajon	172
Latif Mahmudov	181
Miraziz A'zam	187
To'lan Nizom	195
Tursunboy Adashboyev	201
Mahkam Mahmud	208
Safo Ochil	214
Anvar Obidjon	223
Hamza Imonberdiyev	231
JAHON BOLALAR ADABIYOTI	239
Sharl Perro	239
Daniyel Defo	242
Jonatan Swift	248
Aka-uka Grimmilar	258
Gans Xristian Andersen	261
A. S. Pushkin	271
N. A. Nekrasov	287
L. N. Tolstoy	292
K. I. Chukovskiy	299
S.Y. Marshak	313

Bolalar adabiyoti: Pedagogik yo'nalishdagi kollejlar uchun majmua // Tuzuvchi-muallif: M. Jumaboyev; Mas'ul muharrir: M. Mahmudov. — T.: „O'qituvchi“ NMIU, 2004. — 320 b.

BBK 83. 8ya 722

BOLALAR ADABIYOTI

(majmua)

Tuzuvchi-muallif: MAMASOLI JUMABOYEV

(Pedagogik yo'nalishdagi kollejlar uchun)

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2004*

Muharrir *H. Yusupova*
Badiiy muharrir *Sh. Xo'jayev*
Texnik muharrir *S. Tursunova*
Musahih *A. Ibrohimov*
Kompyuterda sahifalovchi *D. Mannonova*

IB № 8442

2004- yil 10- dekabrda original maketdan bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$. Kegli 11 shponli. Tayms garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Bosma t. 20,0. Nashr. t. 19,8. 3814 nusxada bosildi.
Buyurtma №399.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30- uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1- uy. Shartnoma № 12—152—04.